

90 *yil*
TDIU



Q.A. ISAEV

XALQARO IQTISODIYOT



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT
UNIVERSITETI**

Q.A.Isayev

XALQARO IQTISODIYOT

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan**

TOSHKENT – 2021

UO‘K: 339.13(075.8)
KBK 65.5
X 56

Q.A.Isayev. Xalqaro iqtisodiyot. Darslik –T.: «INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021, 376 bet.

ISBN 978-9943-7627-9-4

Global iqtisodiy o‘zgarishlar hamda giperraqobat sharoitida har bir mamlakat o‘z iqtisodiyotini teng manfaatli xalqaro hamkorlik va jahon bozoriga chuqur integratsiyalashuvni ta‘minlash asosida rivojlantirishga zamin yaratadi. Mazkur tendensiya jahon bozori kon’yukturasini taxlil qilish, xalqaro savdo shartnomalarini samarali yuritish, tashqi savdo siyosatining zamonaviy usullarini baxolash, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va integratsion guruhlar bilan hamkorlikni optimallashtirish kabi masalalarni hal etish bo‘yicha yetuk mutaxasislarni tayyorlash ehtiyojini yuzaga keltiradi.

Ushbu kitobda xalqaro iqtisodiy munosabatlar va jahon bozoridagi o‘zgarishlar dinamikasi yaxlit tizim sifatida tadqiq qilinib, “Xalqaro iqtisodiyot” fani ostida birlashtirildi. Qo‘lingizdagi darslik matematik formulalar, chizmalar va keyslar asosida global iqtisodiy jarayonlar hamda xalqaro savdo munosabatlari to‘g‘risidagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishga ko‘mak beradi.

Mazkur kitobni o‘rganish, undagi nazariyalarning mohiyatini chuqurroq anglab yetish uchun o‘quvchidan mikro va makro iqtisodiyot fanlaridan dastlabki bilimlarga ega bo‘lishlik talab etiladi. Darslikda aks etgan nazariy-amaliy tushuncha va xalqaro iqtisodiyotga oid masalalar mavzular kesimida statistik taxlillar orqali talqin etilgan.

UO‘K: 339.13(075.8)
KBK 65.5

Taqrizchilar:

Sh.O. Sharifxo‘djayev – TDIU “Xalqaro iqtisodiyot” kafedrası mudiri,
i.f.d. professor.

Yo.K.Qoriyeva – TDIU Professore, i.f.d.

Tuzuvchi:

Q.A.Isayev– TDIU “JAHON IQTISODIYOTI” Kafedrası katta o‘qituvchisi

ISBN 978-9943-7627-9-4

© «INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021.

MUQADDIMA

Global iqtisodiy o'zgarishlar hamda giperraqobat sharoitida har bir mamlakat o'z iqtisodiyotini teng manfaatli xalqaro hamkorlik va jahon bozoriga chuqur integratsiyalashuvni ta'minlash asosida rivojlantirishga zamin yaratadi. Mazkur tendensiya jahon bozori kon'yukturasi taxlil qilish, xalqaro savdo shartnomalarini samarali yuritish, tashqi savdo siyosatining zamonaviy usullarini baxolash, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va integratsion guruhlar bilan hamkorlikni optimallashtirish kabi masalalarni hal etish bo'yicha yetuk mutaxassislarni tayyorlash ehtiyojini yuzaga keltiradi.

Ushbu kitobda xalqaro iqtisodiy munosabatlar va jahon bozoridagi o'zgarishlar dinamikasi yaxlit tizim sifatida tadqiq qilinib, "Xalqaro iqtisodiyot" fani ostida birlashtirildi. Qo'lingizdagi darslik matematik formulalar, chizmalar va keyslar asosida global iqtisodiy jarayonlar hamda xalqaro savdo munosabatlari to'g'risidagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishga ko'mak beradi.

Mazkur kitobni o'rganish, undagi nazariyalarning mohiyatini chuqurroq anglab yetish uchun o'quvchidan mikro va makro iqtisodiyot fanlaridan dastlabki bilimlarga ega bo'lishlik talab etiladi. Darslikda aks etgan nazariy-amaliy tushuncha va xalqaro iqtisodiyotga oid masalalar mavzular kesimida statistik taxlillar orqali talqin etilgan.

Darslik iqtisodiy yo'nalishlar bo'yicha magistratura bosqichida tahsil olayotgan, tayanch iqtisodiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, kelajakda xalqaro tashkilot va kompaniyalarda faoliyat olib borishni rejalashtirganlar, shuningdek xalqaro iqtisodiyot sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotganlar uchun ham foydali bo'lishini hisobga olib tayyorlangan. Har bir bobdan o'rin olgan masalalar mantiqiy ketma-ketlikda, sodda tushuntirishlar hamda grafiklar orqali talqin etilgan. Shu bilan birga, materiallarni mustahkamlash maqsadida boblar va paragraflarning mazmunidan kelib chiqib, masala va misollar ham o'rin olgan.

Mavzularni yoritilishidagi mazkur usul va yondashuvlar kitobxonga har bir bob bo'yicha nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, darslik xalqaro savdo, ishlab chiqarish omillari migratsiyasi, moliya va valyuta-kredit

munosabatlari sohalari bo'yicha qo'shimcha bilim hosil qilmoqchi bo'lgan, mustaqil ta'lim bilan muntazam shug'ullanib kelayotgan o'quvchilarga ham mo'ljallangan bo'lib, mavzular izohi soddadan-murakkablikka, xususiylkdan-umumiylkka qarab shakllantirilgan.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda, tayyorlangan mazkur darslik Siz aziz talaba-yoshlar va izlanuvchilar uchun xalqaro iqtisodiyotda uchraydigan ziddiyatli muammo va masalalarni yechishga, ularning tub mohiyatini anglab yetishga ko'mak beradi, degan umiddamiz.

Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, darslikni o'qish davomida yuzaga chiqqan xatoliklar, ayrim tushuncha va kategoriyalarning asl mohiyati siz o'ylagandek ravon bayon etilmagan bo'lsa, muallif tomonidan yo'l qo'yilgan kamchilik sifatida baholab, uni quyidagi manzilga jo'natishingizni iltimos qilamiz: qobiliy.isaev@gmail.com. Siz o'quvchilar tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalar kitobning keyingi nashrlarini tayyorlashda xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Muallif mazkur darslikning dunyo yuzini ko'rishida yaqindan ko'maklashgan, jumladan materiallarni yig'ish va texnik ishlarni bajarishda ishtirok etgan talabalarga, qimmatli vaqtini ayamadan zaruriy taklif va tavsiyalarini bergan barcha ustozlarga, taqrizchilarga o'zining samimiy minnatdorchiligini bildiradi!

ZAMONAVIY JAHON XO'JALIGI VA XALQARO IQTISODIYOT YAGONA TIZIM SIFATIDA.

Ushbu bobda quyidagi bilimlar bayon etilgan:

- Xalqaro iqtisodiyot fanining predmeti va mazmuni.
- Xalqaro iqtisodiyotning rivojlanish xususiyatlari.
- Jahon bozori tuzilmasi.
- Jahon bozoridagi muvozanat.
- Xalqaro iqtisodiyot shakllanishining asosiy tamoyillari.
- Jahon mamlakatlarining xalqaro iqtisodiyotdagi mavqeyi.
- Xalqaro iqtisodiyotda mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy omillar tavsifi.
- Xalqaro mehnat taqsimoti tushunchasi
- Xalqaro mehnat taqsimoti shakllari va xususiyatlari.
- XMT ning zamonaviy G'arb nazariyasi.

KIRISH

Globalashuv jarayoni tufayli tashqi bosimning kuchayishiga qaramasdan mamlakatlarda eng muhim iqtisodiy qarorlar tashqaridan emas, balki milliy hukumatlar tomonidan kabul qilinmokda. Shuning uchun ham jahon ho‘jaligini hamda jahon iqtisodiyotini tahlil etishda sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda mavjud iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga tayanish lozim. Bugungi kunda TMKlar jahon iqtisodiyotining muhim mustaqil qismiga aylanishdi va ular xissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 1/5-1/4 qismi to‘g‘ri kelmokda. TMKlarning aksariyat qismi o‘z mamlakatlari ichki bozori uchun ishlashlariga qaramasdan globalashuv jarayonining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanishadi. Globalashuv jahonni yagona bozorga aylantirishi vositasi sifatida TMKlar uchun manfaatli hisoblanadi, chunki ular ushbu bozorda eng kuchli xo‘jalik subyektlari sanalishadi.

Bugungi kunda butun dunyoda sodir bo‘layotgan pandemiya sharoitida O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotidagi mavqeyini oshirishda eng avval Jahon bozorida o‘rnini yanada mustahkamlash va buning zamirida mikro va makroiqtisodiy tendensiyalarni xisobga olgan xolda iqtisodiy barkarorlikka erishishimiz va bu borada chuqur bilimlarni egallashimiz va kelajak avlodga ushbu bilimlarni singdirishimiz zarur, bu orqali davlatimizning dunyo xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rnini yanada oshirishda o‘zimizning kichik hissamizni qo‘shgan hisoblanamiz.

1.1. Xalqaro iqtisodiyot fanining predmeti, mazmuni va rivojlanish xususiyatlari

Xalqaro iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiyot nazariyasining eng rivojlanayotgan qismlaridan biri hisoblanadi. Avval xalqaro iqtisodiyot mikro va makroiqtisodiyotning bir qismi hisoblangan va unda xalqaro iqtisodiy munosabatlarining turli yo‘nalishlari tahlili berilgan (xalqaro savdo, ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati, valyuta kurslarini o‘zgarishi, ochiq iqtisodiyotlarning modellari va x.q.). Uning mustaqil

fan sifatida tan olinishi jahon xo‘jaligini rivojlanishining yangi pog‘onasiga o‘tishi bilan bog‘liq. Bularning barchasi turli mamlakatlar milliy iqtisodiyotlarining o‘zaro bog‘liqliklarini kuchaytirdi va xalqaro iqtisodiy vaziyatdagi doimiy o‘zgarishlarga olib keldi.

Jahon xo‘jaligi rivojlanishning yangi pog‘onasiga o‘tishi quyidagi omillar bilan ifodalanadi:

- Iqtisodiyotlarning ochiqlik darajasining oshishi;
- Xalqaro tashkilotlar tizimining tuzilishi (BMT, Jahon banki, XVF, JST va boshq.);
- TMKlarning paydo bo‘lishi va dunyo bo‘ylab keng tarqalishi;
- To‘g‘ridan-to‘g‘ri tashqi savdo va ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati bilan bog‘liq bo‘lmagan mustaqil xalqaro moliyaviy tizimning rivojlanishi.

Nazariy jihatdan xalqaro iqtisodiyot o‘z ichiga ushbu sohada oxirgi ikki yuz yillikda ishlagan ko‘pgina taniqli iqtisodchilarning g‘oyalari qamrab olgan (A.Smit, D.Rikkardo, B.Olin, P.Samuelson va boshqalar). Zamonaviy xalqaro iqtisodiyot neoklassik va ratsional kutishlar kabi turli iqtisodiy maktablarga tegishli nazariya va modellarni birlashtiradi. Pragmatik yondashuvni qo‘llagan holda u xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi amaliy savollarga aniq va to‘liq javob bera oladigan nazariyalar, modellar va iqtisodiy siyosatning instrumentlarini o‘rganadi.

Amaliy jihatdan xalqaro iqtisodiyotga oid bilimlarga ega bo‘lish qo‘shma korxonalarda va TMKlarda, xalqaro banklar va iqtisodiy tashkilotlarda muvaffaqiyatli faoliyat olib borish uchun zarur.

Xalqaro iqtisodiyot xalqaro savdo, ishlab chiqarish omillarining harakati va moliyalashtirish, xalqaro iqtisodiy siyosatni shakllantirishda turli hil davlatlarga tegishli xo‘jalik subyektlarining o‘zaro harakatlari qonuniyatlarini o‘rganadi.

Ushbu fanning **predmeti** sifatida turli mustaqil davlatlar rezidentlari tomonidan tuziladigan shartnomalar hisoblanadi. Kengroq ma’noda xalqaro iqtisodiyot nazariyasining predmeti deb xalqaro ayirboshlashda ishtirok etadigan mahsulot va ishlab chiqarish omillariga bo‘lgan talab va taklifning shakllanish qonuniyatlari va bundan kelib chiqadigan mamlakatning iqtisodiy siyosatiga tegishli xulosalar hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiyot nazariyasining tadqiqot predmeti mamlakatning iqtisodiy munosabatlarida mavjud bo‘lgan maxsus muammolarni o‘z ichiga qamrab oladi: tashqi savdodan olinadigan yutuqlar, savdo hususiyati (kim, nimani va kimga sotadi), proteksionizm, to‘lov balansi, valyuta kurslarining belgilanishi, siyosatni xalqaro muvofiqlashtirilishi va kapitalning jahon bozori.

Xalqaro iqtisodiyotda markaziy o‘rinni tashqi savdo nazariyasi, savdo siyosati nazariyasi, valyuta bozorlar va to‘lov balansining tahlili egallaydi. Tashqi savdo nazariyasi, savdo siyosati nazariyasi va ishlab chiqarish omillarini bitta mamlakatdan ikkinchisiga ko‘chib o‘tishi xalqaro iqtisodiyotning mikroiqtisodiy qismini tashkil etadi.

Xalqaro mikroiqtisodiyot – xalqaro iqtisodiyotning bir qismi bo‘lib, mahsulotlar va ishlab chiqarish omillari mamlakatlararo harakatining qonuniyatlari va ularning bozor xususiyatlarini (talabi, taklifi, narxi va boshq.) o‘rganadi.

Mamlakatning to‘lov balansida umumiy to‘lovlar va tushumlar ko‘rsatilishi, ularni muvozanatga keltirish, milliy daromad va narxlarning umumiy darajasiga ta‘sir etishi munosabati bilan xalqaro iqtisodiyotning ushbu qismi makroiqtisodiy deb hisoblanadi. Bunda o‘rganish predmeti sifatida ochiq iqtisodiyotning modellari, fiskal, pul-kredit, valyuta siyosati va ularning samarasi, xalqaro moliya hisoblanadi.

Xalqaro makroiqtisodiyot – xalqaro iqtisodiyotning bir qismi bo‘lib, moliya bozorlari globalizatsiyasi sharoitida ochiq milliy iqtisodiyot va jahon xo‘jaligining faoliyat olib borishi qonuniyatlarini o‘rganadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar shakllariga quyidagilar kiradi:

- xalqaro savdo
- ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakati
- moliyaviy instrumentlarning xalqaro savdosi
- xalqaro hisob-kitoblar.

| | | |
|-----|--|--|
| | | |
| 1.2 | Xalqaro iqtisodiyot fani qanday savollarni o‘rganishga yo‘naltirilgan? Ushbu fanning predmeti nima? Xalqaro iqtisodiyot fanining qanday rivojlanish xususiyatlari mavjud ? | |
| | | |

1.2. Jahon bozori tuzilmasi va xalqaro iqtisodiyot shakillanishining asosiy tamoyillari


Xalqaro mehnat taqsimoti va uning kooperatsiyasi jahon bozori vujudga kelishiga asos soldilar.

Jahon bozorining paydo bo‘lishi ichki bozordan boshlanadi. Ichki bozorda barcha savdoga qo‘yilgan mahsulotlar mamlakat ichida sotiladi. Ichki bozorning vujudga kelishi mehnat taqsimotiga asoslangan tovar xo‘jaligi tuzilishining eng oldingi bosqichiga to‘g‘ri keladi.

Paydo bo‘lishdan so‘ng ichki bozorlar ixtisoslasha boshladilar. Mahsulotlarning milliy bozorlari vujudga keldi. Bunda chakana savdo bozorlari ulgurji savdo bozorlaridan ajraldi, mehnat, kapital bozorlari paydo bo‘ldi va ichki bozorning bir qismi chet eldagi iste‘molchilar talablarini qondirishga yo‘naltiriladi.

XVI asrdan boshlab XVIII asrning o‘rtasigacha mehnat taqsimotiga asoslangan manufaktura mahsulotlarni ko‘proq miqyosda ishlab chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berildi. Natijada ichki bozorlar to‘lib, xududiy, davlat, davlatlararo va xalqaro bozorlar o‘z rivojini topdilar.

Xalqaro bozor – chet eldagi bozorlar bilan bog‘langan milliy bozorlarning bir qismi. XIX asrning birinchi yarmida katta industriyalar paydo bo‘ldi, va ular ishlab chiqargan mahsulotlar butun jahonda sotilishni talab qildi. Buning natijasida jahon bozori vujudga keldi va uning shakillanishi XIX-XX asrlar pog‘onasida tugallandi.



1.1-rasm. Jahon bozorining vujudga kelishi

Jahon bozori – xalqaro mehnat va boshqa omillar taqsimotiga asoslangan mamlakatlar o‘rtasidagi tovar-pul munosabatlarining doirasi. Jahon bozori mavjudligining asosiy tashqi belgilaridan biri xalqaro savdo hisoblanadi.

Xalqaro savdo – bu turli davlat - milliy xo‘jaliklari o‘rtasidagi tovar va xizmatlarning ayirboshlash jarayonidir. Xalqaro savdo ikkita yo‘nalishdan iborat (eksport va import) va savdo saldosi hamda savdo oboroti bilan harakterlanadi.

Eksport – mahsulotni chet elga sotish.

Import – mahsulotni chet eldan sotib olish.

Tashqi savdo saldosi – eksport va import qiymatining ayirmasi.

Tashqi savdo aylanmasi – eksport va import qiymatining summasi.

Eksport va import xalqaro savdoni atroflicha tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan xalqaro mahsulotlar harakatini harakterlaydigan asosiy tushunchalardir. Jahon bozoridagi muvozanat. Talab va taklif muvozanati shartidan kelib chiqqan holda eksport va import tushunchalarining grafikdagi ko‘rinishini 1-Grafikda ko‘rsatilgandek tasavvur qilish mumkin.


Shartlar:

-avtarkiya holatida bitta mahsulot ishlab chiqaradigan va iste‘mol qiladigan I va II mamlakatlar mavjud.

- I mamlakatdagi mahsulotga bo‘lgan talab va taklif D_I va S_{II} tashkil qiladi, II mamlakatda esa D_{II} va S_{II} . Gorizontaal chizig‘i bo‘yicha mahsulotning Q_1 , Q_2 ishlab chiqarish hajmlari ko‘rsatilgan, vertikal chizig‘i bo‘yicha ularning I va II mamlakatlardagi R_I va R_{II} narxlari belgilangan.

I mamlakatda mahsulotga bo‘lgan talab va taklifning bozor muvozanati E_1 nuqtasida erishiladi. Ushbu nuqtada mahsulot narxi R_I ga teng bo‘ladi. Ikkinchi mamlakatda esa muvozanat E_2 nuqtasida erishiladi va mahsulot narxi P_{II} ga teng bo‘ladi. R_I R_{II} dan kam bo‘lgani uchun, ushbu mahsulot II mamlakatga nisbatan I mamlakatda arzonroq bo‘ladi, shuning uchun I mamlakat uchun uni II mamlakatga eksport qilish foydali bo‘ladi, II mamlakatga esa uni I mamlakatdan import qilish foydali bo‘ladi. I va II mamlakatlar o‘rtasida ichki narxlarda farq mavjud bo‘lgani uchun I mamlakatda mahsulotning R_I dan balandroq bo‘lgan barcha narxda uning taklif hajmi talab hajmidan

kattaroq bo‘ladi. II mamlakatda mahsulotning RII dan pastroq bo‘lgan barcha narx darajasida unga bo‘lgan talab hajmi uning taklifidan kattaroq bo‘ladi.



1.2-rasm. Jahon bozorida talab va taklifning muvozanati

Mamlakatlar savdo munosabatlarni o‘rnatadilar. Ikkita mamlakat mavjud bo‘lgani uchun I mamlakatdan eksport qilinayotgan mahsulot miqdori II mamlakat import qilayotgan mahsulot miqdoriga teng bo‘lishi kerak. I mamlakatning eksport hajmi jahon bozoridagi mahsulotning taklifiga, II mamlakatning import hajmi esa uning jahon bozoridagi talabiga teng bo‘ladi. Jahon bozoridagi muvozanat D_w va S_w chiziqlari kesishgan E_w nuqtasida erishiladi va mahsulotning jahon narxi R_w ga teng bo‘ladi.

Keltirilgan jahon bozorining oddiy modeli qisman muvozanat modeli deb ataladi. Ushbu modeldan foydalanish orqali jahon bozoridagi mahsulotning talab va taklif orasidagi bog‘lilikni, eksport va import hajmlarini, mahsulotning jahon muvozanat narxini aniqlash mumkin.

Mahsulotlar jahon bozorining kengayishi XIX-XX asrlar pog‘onasida xalqaro iqtisodiy munosabatlarni keskin rivojlanishiga olib keldi va ular mahsulotlarning mamlakatlararo ayirboshlash doirasidan chiqib keta boshladilar. Ishlab chiqarish kuchlarining tez rivojlanishi va moliya kapitali mavqeyining oshishi jahon xo‘jaligi paydo bo‘lishiga olib keldi. Jahon bozori bosqichidan jahon xo‘jaligi bosqichiga

o‘tishda nafaqat mahsulotlarning xalqaro harakati, balki ishlab chiqarish omillarning xalqaro harakati vujudga keladi.

Jahon xo‘jaligi – ishlab chiqarish omillari bilan o‘zaro bog‘liq jahondagi milliy iqtisodiyotlarining yig‘indisi.

Jahon bozori kabi jahon xo‘jaligining asosi mehnat va boshqa omillarning xalqaro taqsimotidir. Jahon xo‘jaligining jahon bozoridan farqi shundan iboratki, u nafaqat xalqaro mahsulotlar orqali balki xalqaro ishlab chiqarish omillari orqali faoliyat olib boradi. Shuning uchun u bozor iqtisodiyoti rivojlanishining yuqoriroq pog‘onasi deb hisoblanadi.

| | | |
|-----|---|---|
| | | |
| 1.2 | Jahon xo‘jaligi deganda nimani tushunasiz ? Uning asosiy xususiyatlarini sanab o‘ting? Jahon bozori tushunchasini ta’rifini keltiring. Uning asosiy xususiyatlari nimadan iborat ? | ? |
| | | |

1.3. Jahon mamlakatlarining xalqaro iqtisodiyotdagi mavqeyi va ishtirokining asosiy ko‘rsatkichlari

Dunyo mamlakatlari, bir tomondan, biri-biridan iqtisodiyotining hajmi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, institutsional va madaniy xususiyatlari bilan farq qilsa, ikkinchi tomondan, ular muayyan o‘xshashliklarga ham ega. Ushbu holat dunyo mamlakatlarini taxlil va statistik maqsadlarda guruhlariga ajratish, jahon iqtisodiyotining tarkibi va rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish maqsadida muayyan mezonlar bo‘yicha tasniflash imkonini beradi.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kompleks va umumlashtiruvchi ko‘rsatkich hisoblanadi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi: aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi YAIM/YAMM; iqtisodiyotning tarmoq tarkibi; aholi jon boshiga mahsulotlarning asosiy turlarini ishlab chiqarish (alohida tarmoqlarning rivojlanish darajasi); aholi turmush darajasi va sifati; iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi. Iqtisodiy adabiyotda, ommaviy axborot vositalarida mamlakatlarni guruh-


lashning “standart tasnifi” nomini olgan yondashuv keng tarqalgan. Yaqin vaqtlarga qadar ushbu yondashuv Xalqaro valyuta fovdi (XVF) tomonidan “Jahon iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari” (World Economic Outlook) deb nomlanuvchi yillik hisobotlarida qo‘llanilgan. Bilamizki so‘ngi yillardagi dunyoda yuz berayotgan voqealar rivoji butun dunyo mamlakatlari iqtisodiyotini keskinlashishiga olib kelmoqda. Ayniqsa 2020-yildagi pandemiya butun dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti uchun global inqirozni yuzaga keltirib chiqardi.

Yuqorida keltirilgan grafiklarda G 20 mamlakatlarining COVID-19 ga qarshi kurash evolyutsiyasi uchun ikkita muqobil yo‘lning faoliyatiga potensial ta‘sirini baholash keltirilgan.

Birinchi alternativada - zararli tomoni - virusni o‘z ichiga olgan vaksina keng tarqalguncha ancha qiyin va davom etadigan kurash ekanligi isbotlandi.

Ikkinchi alternativada - teskari tomonda - virusga qarshi kurashning barcha o‘lchovlari yaxshi ketishi taxmin qilinadi.

Salbiy senariy uchun (1.3-rasmdagi qizil chiziq), tarqalishni o‘z ichiga olgan chora-tadbirlar majburiy yoki ixtiyoriy ravishda, 2020-yil ikkinchi yarmida faoliyatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tortib olishni biroz oshiradi, chunki virusni saqlash qiyinroq. Bundan tashqari, 2021-yilda virusga qarshi kurashning barcha jabhalarida taraqqiyot dastlabki bosqichga qaraganda sekinroq ekanligi, shu jumladan vaksinalar, muolajalar va ijtimoiy tarqalish bo‘yicha ko‘rsatmalarga rioya qilish virusning tarqalishini oldini olish isbotlangan deb taxmin qilinadi. Bu esa intensiv aloqada bo‘lgan sohalarda faoliyatning yomonlashuviga olib keladi va shu bilan bog‘liq daromadlar boshqa tarmoqlarga tarqaladi. Ushbu ichki talab ta‘sirlari keyinchalik savdo orqali kuchaytiriladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda korporativ tarqalishlar ko‘payib, rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida korporativ va suveren tarqalishlar kengayib, moliyaviy sharoitlar ham keskinlashadi deb taxmin qilinadi. 2020-yilda o‘shish juda yumshoq, ammo 2021-yilda yanada mazmunli bo‘lib o‘sadi, chunki faoliyatdagi zaiflik saqlanib qoladi. Moliyaviy sharoitlar 2022-yildan keyin asta-sekin boshlang‘ich darajaga qaytadi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda moliya organlari standart avtomatik stabilizatorlardan tashqari, transfertlarning ko‘payishi bilan javob berishadi, rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida esa faqat avtomatik stabilizatorlar mavjud.



1.3-rasm. Model simulyatsiyalari¹

Jahon tovarlar savdosi hajmi (yillik %larda o'zgarishi)


| | O'tgan yillarda | | Optimistik ko'rsatkich | | Pessimistik ko'rsatkich | |
|--|-----------------|-------------|------------------------|-------------|-------------------------|-------------------|
| | 2018 | 2019 | 2020a | 2021a | 2020 ^a | 2021 ^a |
| Jahon tovarlar savdosi hajmi | 2,9 | -0,1 | -12,9 | 21,3 | -31,9 | 24 |
| Eksport | | | | | | |
| Shimoliy Amerika | 3,8 | 1 | -17,9 | 23,7 | -40,9 | 19,3 |
| Janubiy va Markaziy Amerika | 0,1 | -2,2 | -12,9 | 18,6 | -31,3 | 14,3 |
| Yevropa | 2 | 0,1 | -12,2 | 20,5 | -32,8 | 22,7 |
| Osiyo | 3,7 | 0,9 | -13,5 | 24,9 | -36,2 | 36,1 |
| Boshqa mamlakatlar ^c | 0,7 | -2,9 | -8 | 8,6 | -8 | 9,3 |
| Import | | | | | | |
| Shimoliy Amerika | 5,2 | -0,4 | -14,5 | 27,3 | -33,8 | 29,5 |
| Janubiy va Markaziy Amerika | 5,3 | -2,1 | -22,2 | 23,2 | -43,8 | 19,5 |
| Yevropa | 1,5 | 0,5 | -10,3 | 19,9 | -28,9 | 24,5 |
| Osiyo | 4,9 | -0,6 | -11,8 | 23,1 | -31,5 | 25,1 |
| Boshqa mamlakatlar ^c | 0,3 | 1,5 | -10 | 13,6 | -22,6 | 18 |
| Bozor kurslari bo'yicha real YAIM | | | | | | |
| Shimoliy Amerika | 2,9 | 2,3 | -2,5 | 7,4 | -8,8 | 5,9 |
| Shimoliy Amerika | 2,8 | 2,2 | -3,3 | 7,2 | -9 | 5,1 |
| Janubiy va Markaziy Amerika | 0,6 | 0,1 | -4,3 | 6,5 | -11 | 4,8 |
| Yevropa | 2,1 | 1,3 | -3,5 | 6,6 | -10,8 | 5,4 |
| Osiyo | 4,2 | 3,9 | -0,7 | 8,7 | -7,1 | 7,4 |
| Boshqa mamlakatlar ^c | 2,1 | 1,7 | -1,5 | 6 | -6,7 | 5,2 |


2020-yilda deyarli barcha mintaqalarda savdo hajmining pasayishi ikki xonali raqam bilan o‘lchanadi, Shimoliy Amerika va Osiyoda eksport eng ko‘p zarar ko‘radi. JST taxminiga ko‘ra, savdo qiymati murakkab zanjirli tarmoqlarda, ayniqsa elektronika va avtomobilsozlikda ko‘proq tushishi mumkin. Koronavirus pandemiyasi transport va sayohatlardagi cheklovlar tufayli xizmatlar savdosiga bevosita ta‘sir qilishi mumkin. Savdoning 2021-yilda tiklanishi kutilmoqda, ammo bu koronavirus tarqalishining davomiyligi va siyosat choralariining samaradorligiga bog‘liq.

An‘anaviy siyosat makoniga cheklovlar qo‘ygan rivojlangan iqtisodiyotdagi monetar organlar uzoq muddatli foiz stavkalari o‘shishini oldini olish uchun noan‘anaviy choralarni qo‘llaydilar. Faoliyatdagi uzoq davom etadigan zaiflik iqtisodiyotlarga qo‘shimcha va doimiy zarar yetkazishi mumkin deb taxmin qilinadi.

Xalqaro valyuta fondining choraklik xisobotlarida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining uch yillik umumiy xoldagi, yuz berayotgan o‘zgarishlarga nisbatan olingandagi o‘shish ko‘rsatkichlari prognozi keltirilgan.

Rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi YAIM ishlab chiqarish barqaror o‘shishining 2% ga oshishiga, YAIM dagi jamg‘armalar ulushining 1% ga ko‘payishiga olib keladi. XVF mutaxassislarining tadqiqotlariga ko‘ra, ushbu nisbat rivojlanayotgan mamlakatlarda 0,5% ni tashkil etadi. Jahon amaliyotining ko‘rsatishicha, yuqori jamg‘arish normasiga ega bo‘lgan mamlakatlar, boshqa shart-sharoitlar o‘zgarmagan holda, odatda, yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga ega bo‘lishadi.





1.4-rasm. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti (foizda).

Ammo tadqiq etilgan mamlakatlar ichida kichik yoki kam rivojlangan mamlakatlar ulushi yuqori. Ushbu guruhga Afrikaning aksariyat mamlakatlari va kichik orol mamlakatlari kiradi. Bu guruhga kiruvchi mamlakatlarning makroiqtisodiy rivojlanish indikatorlariga tashqi omillar (aloxida guruh tovarlar narxining konyukturasi, turistik biznesning rivojlanish tendensiyasi, tabiiy-iqlim sharoitlar va h.k.) jiddiy taʼsir koʻrsatadi.

Shuning uchun ushbu omillar taʼsirini yoʻqotish maqsadida iqtisodiyoti va tashqi savdosi tarkibiy jihatdan diversifikatsiyalashgan rivojlangan mamlakatlar alohida taxlil etilgan boʻlib, ularning soni 81 tani tashkil etadi. Jamgʻarish normasining oʻsishi bilan YAIM ning qoʻshimcha oʻsish surʼati ham ortib boradi. Jumladan, jamgʻarish normasi 25% dan ortiq mamlakatlarda YAIM ning qoʻshimcha oʻsish surʼati 4,8% ga teng boʻlgani holda, jamgʻarish normasi 30% dan ortiq mamlakatlarda ushbu koʻrsatkich oʻrtacha 8,7% ni tashkil etgan. Hozirda iqtisodiy oʻsishga nisbatan ijtimoiy mezonlar va talablar ham ortib bormokda.

Yirik hajmli investitsiyalar ekologik xavfsizlikni taʼminlash muammolarini hal etish, “ifloslantiruvchi” tarmoqlarni rekonstruksiya qilish, tozalash inshootlariga mablag sarflash, yangi ekologik xavfsiz va resurs tejovchi texnologiyalarni yaratishga yoʻnaltirilmoqda. Iqtisodiy oʻsishni taʼminlashning navbatdagi muhim manbalaridan biri texnologik taraqqiyot hisoblanadi. Texnologik taraqqiyot keng qamrovli tushuncha boʻlib, innovatsion jarayonlar, texnik bilimlar, boshqaruv jarayonlari va boshqalarni oʻz ichiga oladi. Texnologik taraqqiyot

ishlab chiqarish omillaridan oqilona foydalanish , mehnat unumdorligini oshirish, yangi mahsulotlarning paydo bo‘lishi va mavjudlarining sifatini oshirish, tovarlarni bozorlarda samarali sotishga olib keladi.

Fan va texnika sohasidagi yangiliklar, texnologik jarayonlarni amaliyotga joriy etish ishchi kuchini sifat jihatdan takomillashtirishni talab etadi. Shu tariqa texnologik taraqqiyot ilmiy-texniq ta’lim va kasbiy salohiyatning oshirishiga ko‘maklashadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot ta’sirida mehnat predmetlari va mehnat vositalarida sezilarli o‘zgarish yuz beradi, iqtisodiy rivojlanishda tabiiy materiallarga bo‘lgan bog‘liqlik pasayadi. Jumladan, elektronika sohasidagi yutuqlarning asbob-uskunalar va robotlar bilan birgalikda qo‘llanilishi egiluvchan ishlab chiqarish tizimlarining yaratilishiga olib keldi. XXI asrda jahon iqtisodiyotida texnologik rivojlanish darajasi va dinamikasi barqaror iqtisodiy o‘shish asosini ta’minlaydigan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi chegaralarni belgilab beradigan asosiy omilga aylandi.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanishidagi yana bir muhim omil — bu mehnat resurslari, inson kapitaliga xarajatlar hisoblanadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot ta’sirida iqtisodiyot tarkibining o‘zgarishi mehnat resurslari tarkibining ham o‘zgarishiga olib keladi, ya’ni yangi kasblar paydo bo‘ladi, ishchi malakasiga, kadrlarni qayta tayyorlashga bo‘lgan talab ortadi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish bilan bir vaktida iqtisodiy o‘shishga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ishsizlik muammosi ham mavjud. Ishsizlik va real yalpi ichki mahsulot hajmi o‘rtasida Ouken qonuni deb nom olgan bog‘liqlikni kuzatish mumkin: ishsizlik darajasining bir foizga ortishi real yalpi ichki mahsulot o‘shish sur’atining ikki foizga qisqarishiga olib keladi.

| | | |
|--|--|---|
| | <p>1.3 Savollar</p> <p>Xalqaro iqtisodiyotning qanday shakllari mavjud?</p> <p>Jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichi qanday hususiyatlarga ega?</p> <p>Jahon iqtisodiyotining rivojlanish darajasi qaysi ko‘rsatkichlar orqali aniqlanadi?</p> <p>Jahon ho‘jaligining rivojlanishi to‘g‘risidagi qaysi ilmiy konsepsiyalar mavjud?</p> | ? |
|--|--|---|

1.4 Xalqaro mehnat taqsimoti tushunchasi, rivojlanish ko'rsatkichlari va XMT ning zamonaviy G'arb nazariyasi.

1.4.1. Xalqaro mehnat taqsimoti tushunchasi

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mohiyatini ochib beruvchi muhim tushunchalardan biri xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) hisoblanadi. Dunyo mamlakatlari u yoki bu darajada XMT ga jalb etilgan bo'lib, XMT ning chuqurlashuvi fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida rivojlanayotgan ishlab chiqarish kuchlariga bevosita bog'liq. XMT da qatnashish mamlakatlarga qo'shimcha iqtisodiy samara beradi va o'z ehtiyojlarini kam xarajatlar bilan to'liqroq qondirish imkonini yaratadi.

Mehnat taqsimoti — bu tarixan belgilangan ijtimoiy mehnat tizimidir. U jamiyatning rivojlanish jarayonidagi faoliyatining sifat jihatdan tabaqalashuvi natijasida shakllanadi. Mehnat taqsimoti turli shakllarda bo'ladi va ushbu kursda XMT, ya'ni alohida mamlakatlarning (yoki mazkur mamlakatlarga tegishli alohida ishlab chiqarish tarmoqlarining) xalqaro ayirboshlash uchun muayyan turdagi tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi o'rganiladi.

Xalqaro mehnat taqsimoti mohiyati ishlab chiqarish jarayonining mehnat faoliyati turli shakllarining ixtisoslashuvi va ularning kooperatsiyalashuvida, o'zaro hamkorligida namoyon bo'ladi. Mehnat taqsimotini ajratish jarayoni sifatida emas, balki jahon miqyosida mehnatni birlashtirish yoyi sifatida ham ko'rish mumkin.

Xalqaro mehnat taqsimoti davlatlar o'rtasida mehnatning ijtimoiy-hududiy taqsimotining darajasi hisoblanadi. U alohida bir davlatlar ishlab chiqarishlarining ixtisoslashuviga asoslanadi.

Jahon xo'jaligini rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish samardorligini oshirish, ishlab chiqarishda xarajatlarni kamaytirishga intilish zarur. Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi jarayonidagi asosiy narsa, ushbu jarayonning har bir ishtirokchisi o'zining XMT dagi ishtirokidan iqtisodiy foyda, manfaat qidirishi va topishidir.

Har qanday mamlakatning xalqaro almashuv jarayonida xalqaro mehnat taqsimotining ustunliklarini amalga oshirishi — birinchidan,

eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning tashqi va ichki bozor narxlaridagi farqni ajratish; ikkinchidan, arzonroq bo‘lgan importdan foydalanib, milliy ishlab chiqarishdan voz kechgan holda ichki xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanish ko‘rsatkichiga tasir ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichlardan biri bu mehnat bozorining shakllanishidir. Mehnat bozori raqobatlashgan bo‘lgani uchun mehnat narxi bozor tomonidan shakllanadi va unga bozor subyektlari ta‘sir qila olmaydi (raqobatlashgan iste‘mol bozoridagi kabi). Bu barcha ishchilar qaysi firmada ishlashidan qat‘iyy nazar, bir xil ish haqi oladi va firmalar bu narxni oldindan berilgan narx sifatida qabul qiladilar. Shuning uchun ham alohida firma uchun mehnat resurslari taklif chizig‘i gorizontal, ya‘ni u absolyut elastik. 1.5-rasmda raqobatlashgan mehnat bozoridagi muvozanat nuqta E nuqta bilan ifodalanadi. Muvozanat ish haqi bo‘lganda foydani maksimallashtiriladigan mehnat resurslari miqdori W^* ga teng bo‘ladi. Ishchi chekli unumdorlik nazariyasiga ko‘ra, mehnatning to‘liq mahsulotini oladi. Shuning uchun firmaning mehnat uchun chekli xarajati MPS ish haqiga teng.

$$MPS = W^* = MPR,$$

Bu erda MRC - firmaning mehnatga bo‘lgan chekli xarajati.


Raqobatlashgan mehnat bozorida har bir ishchining ish haqisi W^* ga teng bo‘lgani uchun, firmaning ishchilarga beradigan umumiy ish haqi xarajatlari OL^*EW to‘rtburchak yuziga to‘g‘ri keladi (1.5-rasm). Ish haqining o‘zgarishi ishchi kuchiga bo‘lgan talabni o‘zgartiradi. Agar ish haqi W_0 dan W_1 gacha oshsa yollanadigan ishchilar, L_0 dan W_2 gacha pasaysa, ishdagi ishchilar soni L_2 gacha oshadi.

Mehnat bozorida firma foydasini maksimallashtirish shart, ya‘ni mehnatni chekli daromadlilikining ish haqi stavkasiga tengligi iste‘mol bozordagi $MR = MS$ shartga o‘xshashdir.

$MRPL = MPL * MR = W$ tenglikning ikkala tomonini chekli mahsulot MPL ga bo‘lamiz. Natijada quyidagini olamiz

$$DTL = MRPL = MRP_i$$

Tarmoq bo‘yicha mehnat bozorini ko‘rib chiqamiz. Umumiy bozor talabi tarmoqdagi firmalar talablari yig‘indisi bilan aniqlanadi (1.5-rasm).



1.5- rasm. Tarmoq mehnat bozori.

Umumiy taklif takliflar yigʻindisidan iboratdir.

$$STL = MRC_i$$

Bu yerda $MRS_i = W_i$ - ishchi uchun sarflanadigan qoʻshimcha xarajat, yaʼni ish haqi hisoblanadi. Nisbiy xarajatlar nazariyasi biron-bir tovar ishlab chiqarishda bir mamlakatning boshqa mamlakatdan absolyut ustunligi mavjudligidagina emas, balki bunday ustunlik mavjud boʻlmagan holatda ham ixtisoslashuv foydali ekanligini isbotlaydi. Agar xalqaro xarajatlarga nisbatan kamxarajat bilan tovar ishlab chiqarishning iloji boʻlmagan hollarda ham baʼzi tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari oʻrtacha xarajatlar darajasidan past boʻladi. Boshqa tovarlarga nisbatan foydaliroq boʻlgan mazkur tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashish zarur. Natijada shu holatdagi ixtisoslashish ham iqtisodiy samara beradi. Shu bilan birga teskari holat ham nazarda tutilgan. Mamlakat bir necha tovarlar boʻyicha ustunlikka ega boʻlgan hollarda, mazkur ustunlik maksimal boʻlgan tovarlarnigina ishlab chiqarishga ixtisoslashish zarur.

Iqtisodiy nazariya klassiklarining gʻoyalari R.Samuelson, B. Olin, V.Leontev va boshqa hozirgi zamon iqtisodchilari tomonidan rivojlantirildi. Nisbiy ustunlik nazariyasining keyingi rivojlanish bosqichlarida birmuncha mavhumlashtirilgan modeli yuzaga kelgan. Bu modelning kamchiliklari quyidagilarda namoyon boʻladi:

- u erkin raqobat prinsiplarini absolyutlashtiradi;

➤ u faqat muayyan juft tovarlar va mamlakatlarnigina ko‘rib chiqadi;

➤ unda tovar tovarga to‘g‘ridan to‘g‘ri ayirboshlanishi ko‘zda tutiladi;

➤ model ishlab chiqarish miqyosi va transport xarajatlarining ta‘sirini e‘tiborga olmaydi.

Ushbu modelda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mehnat va kapitalning xalqaro harakati, iqtisodiyotga davlatning aralashuvi, xalqaro korporatsiyalarning ishlab chiqarishdagi ixtisoslashuvi va boshqa shunga o‘xshash omillari ham e‘tiborga olinmaydi.

Xalqaro mehnat taqsimotining mohiyati ishlab chiqarish jarayoni, mehnat faoliyati shakllarining ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi, o‘zaro hamkorligida namoyon bo‘ladi. Mehnat taqsimoti faqat ajratish jarayoni sifatida emas, balki jahon miqyosida mehnatni birlashtirish yo‘li sifatida chiqadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti mamlakatlar o‘rtasida mehnatning ijtimoiy-hududiy taqsimoti darajasi hisoblanadi. U alohida mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashuviga asoslanadi. XMT jahon xo‘jaligida kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirishda borgan sari muhim rol o‘ynamoqda. XMT quyidagi vazifalarni bajarmoqda:

- ushbu jarayonlarning o‘zaro aloqasini ta‘minlaydi;
- xalqaro tarmoq va mintaqaviy tarmoq nisbatlarini shakllantiradi.

1.4.2. Mamlakatlarning XMT da qatnashishlariga ta‘sir qiluvchi omillar va uning rivojlanish ko‘rsatkichlari

XMT rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Mamlakat ichki bozorining hajmi. Rivojlangan bozorlarga ega yirik mamlakatlarda zaruriy ishlab chiqarish omillari va iste‘mol tovarlarini topish imkoniyati yuqori bo‘ladi. Demaq bu mamlakatlarning xalqaro ixtisoslashuv va tovar ayirboshlashda qatnashish ehtiyoji kam bo‘ladi. Shu bilan birga rivojlangan bozor talabi importni

kengaytirishni talab etadi. Bu eksportga yoʻnaltirilgan ixtisoslashuvni kengaytirish evaziga qoplanadi.

2. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi. Mamlakat iqtisodiy salohiyati qanchalik kam boʻlsa, uning XMTda qatnashish zaruriyati shunchalik yuqori boʻladi.

3. Mamlakatning tabiiy resurslar bilan taʼminlanganligi. Mamlakatning yuqori darajada monoresurslar bilan taʼminlanganligi (masalan, neft), jumladan, foydali qazilma boyliklari bilan kam darajada taʼminlanganligi ham uning XMT da faol qatnashish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

4. Mamlakat iqtisodiyoti tarkibida yetakchi sanoat tarmoqlarining ulushi (energetika, qazib olish sanoati, metallurgiya va b.). Asosiy tarmoqlar ulushi qancha yuqori boʻlsa, odatda, mamlakat XMT tizimiga shuncha kam jalb etilgan boʻladi.

Shuni qayd etib oʻtish lozimki, yuqorida keltirilgan barcha omillar namoyon boʻlishiga koʻra oʻzgaras emas. Ularning taʼsiri u yoki bu darajada kamayishi mumkin. Masalan, mahalliy mahsulotning xalqaro raqobatbardoshligining oʻzgarishi, eksportning cheklanishi shular jumlasidandir.

XMT ning rivojlanish jarayonidagi asosiy xususiyat — ushbu jarayonning har bir ishtirokchisi oʻzining XMT dagi ishtirokidan iqtisodiy foyda, naf qidirishi va topishidir.

XMT ning rivojlanish tendensiyalari iqtisodchilarning kelajakda bu jarayon yanada chuqurlashib boradi, deb xulosa chiqarishlari uchun asos boʻladi. Uning asosida tovarlar va xizmatlar ayirboshlashning miqyosi jadal surʼatlar bilan oʻsib boradi.

Har qanday davlat xalqaro ayirboshlov jarayonida XMT ning ustunliklaridan foydalanar ekan:


birinchidan, eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning tashqi va ichki bozor narxlari oʻrtasidagi farqdan yutish; ikkinchidan, ichki xarajatlarni kamaytirish maqsadida arzonroq boʻlgan importdan foydalanish evaziga milliy ishlab chiqarishdan voz kechishi mumkin.

Jahon xoʻjaligini tizim sifatida koʻrib chiqqanda XMT ni bu tizimni tashkil qilgan birlashtiruvchi asos deb tasdiqlash mumkin.

Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatda ishlab chiqarish tashqi isteʼmolchilarga, ichki talab esa importga yoʻnaltirilgan boʻladi,

deb taxmin qilinmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ichki bozorning nisbatan tez, ammo ekstensiv tarzda kengayishi kutilmoqda.

XMT ichki tarkibga va rivojlanish usullariga ega. XMT ning asosiy ajralmas xususiyatlari ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi hisoblanadi.



1.6- rasm. Xalqaro mehnat taqsimotining shakllari.

Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi. Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi ikki yoʻnalish boʻyicha rivojlanadi — ishlab chiqarish va hududiy.

Oʻz navbatida, ishlab chiqarish yoʻnalishi:

- tarmoqlararo ixtisoslashuv;
- tarmoqlar ichra ixtisoslashuv;
- alohida korxonalar ixtisoslashuviga boʻlinadi.

Ishlab chiqarishning xalqaro hududiy ixtisoslashuvi muayyan tovarlar va ularning qismlarining jahon bozori uchun ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini oʻz ichiga oladi:

- alohida mamlakat;
- mamlakatlar guruhi;
- mintaqalar.

Ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvining asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- predmetli (tayyor mahsulot ishlab chiqarish) ixtisoslashuv;
- detalli (mahsulot qismlari va komponentlarini ishlab chiqarish) ixtisoslashuv;
- texnologik yoki bosqichli (ya'ni, alohida texnologik jarayonlarni amalga oshirish. Masalan, yig'ish, bo'yash va h. k.) ixtisoslashuv.

1.4.3. XMT ning zamonaviy G'arb nazariyalari

XMT ni modernizatsiya qilish sohasidagi G'arb tadqiqotlarini shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin:

- «o'zaro bog'liqlik» konsepsiyasi va uning turli ko'rinishlari;
- XMT ning mavjud modellarini qayta qurish bo'yicha aniq tavsiyalar va rejalar. XX asrning 70-yillari o'rtalarida yaratilgan «o'zaro bog'liqlik» konsepsiyasida ilgari surilgan g'oyalar eng keng tarqalgan. Ular mehnat taqsimotiga oid yangi va optimal nazariyalarning asosi bo'lib qoldi. Ushbu g'oyalar ba'zi sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan rasmiy doktrina sifatida qabul qilindi.

«O'zaro bog'liqlik» konsepsiyasi vakillaridan biri — gollandiyalik iqtisodchi K. Nuvenxuze o'z fikrlarini tasdiqlashda, avvalo, barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan ekologik omillarga murojaat qiladi. K. Nuvenxuze ularga atrof-muhitning barqaror emasligi va yerdagi tabiiy resurslarning cheklanganligini kiritadi. Uning fikricha, rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan xomashyo bo'yicha, rivojlanayotgan mamlakatlar esa rivojlangan mamlakatlarga nisbatan texnika, texnologiya va h.k.lar bo'yicha qaram. Demak ular o'rtasida o'zaro bog'liqlik va «o'zaro tazyiq» mavjud. K. Nuvenxuze xalqaro mehnat taqsimotini yuqoridagilardan kelib chiqqan holda qurish keraq deb hisoblaydi. Bu nazariya boshqa Mamlakatlarda haqqoniy tanqidga uchradi. Yana bir iqtisodchi R. Kuper (AQSH) ham o'zaro bog'liqlik masalasiga murojaat qiladi va uni turli yo'nalishlar bo'yicha ko'rib chiqadi. Uning fikricha, o'zaro bog'liqlikning to'rt turi mavjud:

1. Tarkibiy — mamlakatlar bir-birlariga nisbatan qanchalik ochiq va o‘zaro bog‘liq bo‘lsa, bir mamlakat iqtisodiyotida ro‘y berayotgan o‘zgarish ikkinchi mamlakat iqtisodiyotida ham o‘z aksini topadi.

2. Iqtisodiy siyosat sohasidagi maqsadlar borasidagi o‘zaro bog‘liqlik.

3. Iqtisodiy rivojlanishning tashqi omillari borasidagi o‘zaro bog‘liqlik.

4. Siyosiy o‘zaro bog‘liqlik.

Ba’zi jihatlariga ko‘ra mazkur nazariya ijobiy xususiyatga ega va mamlakatlarning jahon xo‘jaligi tizimi doirasida o‘zaro bog‘liqlik tendensiyalarining kuchayayotganligini aniq ko‘rsatib beradi.

«O‘zaro bog‘liqlik» konsepsiyalari umumiy xususiyatga ega. Ular boshqa iqtisodiy nazariyalar guruhi, ya’ni xalqaro mehnat taqsimotini zamonaviylashtirish nazariyalari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqaro mehnat taqsimotini zamonaviylashtirishning asosiy g‘oyasi rivojlanayotgan mamlakatlarning proteksionizm siyosatidan voz kechishlari va iqtisodiyotga xorijiy kapitalni keng miqyosda jalb etishlari lozimligini ilgari suradi. Ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar xuddi shunday yo‘l tutdilar. Ular «ochiq eshiklar», «ochiq iqtisodiyot» siyosatini e’lon qilishdi, ko‘plab qo‘shimcha korxonalar, erkin tadbirkorlik iqtisodiy zonalarini tashkil etishdi va h.k. Shu jumladan, Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi « yangi industrial mamlakatlar»da keng yoyildi. Shu bilan birga, ular proteksionizm g‘oyalaridan ham to‘liq voz kechishmadi.

G‘arb iqtisodchilari va siyosatchilarining «Janub» proteksionizmini yumshatishga qaratilgan chaqiriqlariga nisbatan «janubliklar» ham rivojlangan «Shimol»dan shunga o‘xshash turli preferensiyalar talab qilishmoqda.

Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar esa yuqori malakali ishchi kuchi talab qilinadigan va fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot sohasiga ixtisoslashishlari lozim.

Bu nazariya amaliyotda asta-sekin amalga oshirilmoqda. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarga jalb etilayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ko‘rinishidagi xorijiy kapitalning umumiy hajmida qayta ishlash sanoatiga yo‘naltirilgan kapital ulushi ortib bormoqda.

Xalqaro mehnat taqsimotining zamonaviy konsepsiyalari va uni zamonaviylashtirish borasidagi rejalarni tahlil etish, shuningdek mazkur konsepsiyalarni amaliyotga joriy etish jahon ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining hozirgi darajasida sanoat jihatdan taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida yangi turdagi xalqaro ixtisoslashish hamda kooperatsiyalashuvning vujudga kelayotgani va rivojlanayotgan davlatlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining kuchayayotganini ko'rsatmoqda.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Jahon iqtisodiyoti — xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi orqali o'zaro aloqada bo'lgan milliy iqtisodiyotlar yig'ini.

Jahon xo'jaligi - bir-biri bilan harakatchan ishlab chiqarish omillari orqali bog'liq milliy iqtisodiyotlar yig'indisi.

Jahon bozori — xalqaro mehnat taqsimoti va boshqa ishlab chiqarishga asoslangan barqaror tovar-pul munosabatlari sohasi.

Eksport - tovarlarni xorijga olib chiqib ketishni ko'zda tutuvchi tovarlar savdosi.

Import — tovarlarni xorijdan olib kirishni ko'zda tutuvchi tovarlar savdosi.

Xalqaro iqtisodiyot - turli mamlakatlarga tegishli xo'jalik subyektlari o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqalar bilan bog'liq qonuniyatlarni o'rganuvchi bozor iqtisodiyoti nazariyasi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar - rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi xo'jalik munosabatlari.

Globallashuv - jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv, transmilliylashuv va baynalminallashuv jarayonlari.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi — jahon iqtisodiyotining tovarlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi va texnologiyalarning yagona bozoriga aylanish jarayoni.

Mehnat taqsimoti - tarixan belgilangan ijtimoiy mehnat tizimi bo'lib, u jamiyatning rivojlanish jarayonidagi faoliyatning sifat jihatdan tabaqalashuvi natijasida shakllanadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti - bu davlatlar o'rtasida mehnatning ijtimoiy-hududiy taqsimlanishi bo'lib, u alohida davlatlar ishlab chikarishlarining ixtisoslashuviga asoslanadi.

Xalqaro ixtisoslashuv - mamlakatning ma'lum bir tovarni ishlab chiqarishga o'z potensialini konsentratsiyalashuvi.

Xalqaro kooperatsiyalashuv - mamlakatlarning odsindan o'zaro kelishilgan holda ishlab chiqarishga xalqaro ixtisoslashuvi.

Hamkorlikdagi dasturlarni amalga oshirish - pudratli ishlab chiqarish kooperatsiyasi va hamkorlikdagi ishlab chiqarish.

Shartnoma asosida ixtisoslashish — ishlab chiqarish dasturlarini ishlab chiqarish kooperatsiyasi ishtirokchilari orasida taqsimlanishini nazarda tutadi.

Qo'shma korxonalar - integratsiyalashgan kooperatsiya.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Jahon iqtisodiyotining tor va keng ma'nolaridagi tavsifi nima bilan farq qiladi?

2. Jahon iqtisodiyotining subyektlariga nimalar kiradi?

3. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning qanday shakllari mavjud?

4. Jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichi qanday xususiyatlarga ega?

5. Jahon iqtisodiyotining rivojlanish darajasi qaysi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi?

6. Xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuvning rivojlanshpi milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka qanday ta'sir o'tkazadi?

7. Ishlab chiqarish omillaridan biri hisoblangan yer bilan bog'liq kooperatsiya iqtisodiy mazmunga egami?

8. Jahon xo'jaligi tizimida xalqaro mehnat taqsimoti qanday rol o'ynaydi?

9. Qaysi omillar xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuviga ta'sir ko'rsatadi?

10. Xalqaro mehnat taqsimoti chuqurlashuvining zamonaviy xususiyatlariga misollar keltiring.

11. Xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv o'rtasidagi farq nimadan iborat?

XALQARO SAVDONI KLASSIK NAZARIYASI

Ushbu bobda quyidagi bilimlar bayon etilgan:

- Merkantilizm iqtisodiy ta'limoti.
- Merkantilizmning xalqaro savdo nazariyalarining shakillanishidagi ahamiyati.
- Erkin savdo nazaryasi.
- Lessefer tushunchasi va raqobat erkinligi.
- Mutloq ustunlik nazaryasi.
- Nisbiy afzallik nazaryasi.
- Muqobil xarajatlar va bir omillik iqtisodiyot modelining tahliliy jihatlari.

KIRISH

Globalashuv jarayoni tufayli tashqi bosimning kuchayishiga qaramasdan mamlakatlarda eng muhim iqtisodiy qarorlar tashqaridan emas, balki milliy hukumatlar tomonidan kabul qilinmokda. Shuning uchun ham jahon ho'jaligini hamda jahon iqtisodiyotini tahlil etishda sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda mavjud iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga hamda xalqaro savdoning klassik nazariyalariga tayanish lozim.

Shuningdek, xalqaro savdoning klassik nazariyalariga tayangan xolda xududlarning rivojlanish tendensiyasiga razm soladigan bo'lsak, bugungi respublika iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida xududlar urtasida tabiiy-demografik, ma'muriy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jabhalardagi tafovutlar yuqoriligicha qolayotgani, qator viloyatlarning bozor munosabatlari qonunlariga haligacha moslasha olmayotgani tufayli hamon subvensiyada turgani kabi muammolar ilmiy izlanishlar uchun muhim tadqiqot obyekti bulib, O'zbekistonning bugungi kundagi jahon xo'jaligida tutgan o'rnini yanada oshirish yo'lida ilmiy izlanish olib borishga katta turtki bo'lmoqda.

2.1. Merkantilizm iqtisodiy ta'limoti va uning xalqaro savdo nazariyalarining shakillanishidagi ahamiyati

Xalqaro savdoga oid nazariyalar o'z tarixiga ega. Bu boradagi ilk iqtisodiy ta'limot XVIII asrdayoq yaratilgan. O'rta asrlarda ro'y bergan Yevropadagi ulkan o'zgarishlar, jumladan, yangi qit'alarning kashf etilishi, mustamlakalardagi oltin va boshqa boyliklarni egallab olishga intilish o'z-o'zini ta'minlashni targ'ib etuvchi feodalizm nazariyasi doirasidan chiqib ketgan yangi xo'jalik tizimi doirasida tovarlar rolini va davlatlarning xalqaro savdoga bo'lgan talabini asoslab bera oladigan yangi iqtisodiy nazariyaga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Shunday nazariyalardan biri merkantilizm ta'limotidir. Merkantilizm maktabi XVI-XVII asrlarda faoliyat ko'rsatgan. Uning eng yirik vakillari ingliz iqtisodchilari Tomas Man (1571-1641) va Uilyam Staffordlar (1554-1612) hisoblanishadi. Merkantilistlar o'z nazariyalarida faqat cheklangan miqdordagi boylikka ega bo'lgan statik qarashlarni qo'llab-quvvatlaganlar. Shu sababdan biron-bir mamlakat boyligining ko'payishi faqatgina boshqa mamlakatning qashshoqlashishi evaziga amalga oshishi mumkin. Demak, boylikning ko'payishi qayta taqsimot evaziga amalga oshar ekan, har bir mamlakat mustahkam iqtisodiyotga va boshqa davlatlar ustidan hukmronlikni ta'minlab bera oladigan armiya, harbiy va savdo flotidan iborat kuchli davlat qurilmasiga ega bo'lishi zarur deb hisoblashgan.

Merkantilistlar iqtisodiyotni ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va harbiy koloniyalar sektoriga bo'lishgan. Savdogarlar iqtisodiyotning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishida eng muhim guruh, deb hisoblangan, mehnat esa ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida baholangan. Mamlakatning boyligi uning ixtiyorida bo'lgan oltin va kumush bilan belgilanligi sababli tashqi savdo maktabi mamlakat milliy iqtisodiyotini mustahkamlashi uchun quyidagilarga amal qilish lozim, deb hisoblashgan:

4.4. Texnologik taraqqiyot va xalqaro savdoning o‘zaro bog‘liqligi hamda iqtisodiy o‘shish qonuniyatlari.

Bir qator iqtisodchi olimlar mamlakatning xalqaro savdoda tutgan o‘rnini texnologik taraqqiyot orqali tushuntirishga harakat qilishdi. Ular orasida M. Pozner va R. Vernonlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Amerikalik iqtisodchi Maykl Pozner 1961-yilda xalqaro savdoni texnologik taraqqiyot bilan bog‘liqligini ochib berishga harakat qildi. Bu olim tomonidan texnologik uzilish modeli ishlab chiqildi.

M. Poznerning «texnologik uzilish» modeliga muvofiq mamlakatning yangi texnologiyani yaratishi unga ushbu texnologiya asosida tovar ishlab chiqarishda va bu tovarni jahon bozorida sotishda vaqtinchalik monopoliyaga ega bo‘ladi. Bu esa, mamlakat boshqa ishlab chiqarish omillari bilan ta‘minlanganligida ustunlikka ega bo‘lmasa ham jahon bozorida yetakchi eksportyorga aylanishi mumkinligini anglatadi. M. Poznerning ushbu modeli boshqa amerikalik iqtisodchi R. Vernon tomonidan rivojlantirildi. 1966-yilda R. Vernonning «mahsulotning hayotiylik sikli» modeliga bag‘ishlangan maqolasi chop etildi.

«Mahsulotning hayotiylik sikli» nazariyasi — yangi tovarning kashf qilinishi ma‘lum vaqt davomida ixtirochi mamlakatga jahon tovarlar bozorida yetakchilik qilish imkoniyatini beradi, ammo keyinchalik mahsulot hayotiylik siklida bir bosqichdan boshqa bosqichga o‘tgani kabi bu tovarni ishlab chiqarishdagi ustunlik ham bir davlatdan ikkinchisiga o‘tadi. Mahsulotning hayotiylik sikli beshta bosqichdan (vujudga kelish, o‘shish, to‘yinish, pasayish va ichki ishlab chiqarishdan voz kechish) iborat siklni bosib o‘tadi va ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Mazkur nazariya xalqaro savdoni mahsulotning hayotiylik sikli bosqichlari asosida yo‘lga qo‘yish lozimligini tushuntiradi.

R. Vernon nazariyasiga muvofiq ba‘zi bir mahsulotlar besh bosqichdan iborat siklni bosib o‘tadi va ularni ishlab chiqarish joyi sikl bosqichlariga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Bu bosqichlarni ketma-ketlikda ko‘rib chiqamiz:

Birinchi bosqich. Vujudga kelish. Bu bosqichda yangi tovar yaratiladi va bu tovarni dastlabki ishlab chiqarish boshlanadi. Birinchi bosqichda yangi tovar faqat shu mamlakatning o'zida sotiladi. Bu bosqichda tovar dastavval kam miqdorda ichki bozorga chiqariladi. Keyinchalik tovarning sifati ichki iste'molchilar talabiga javob beradigan darajaga yetkaziladi. Yangi tovar loyihasini ishlab chiqish va u asosida texnika, texnologiya yaratish katta miqdordagi kapitalni talab qiladi. Shu sababli yangi tovarlar, asosan kapitalga boy, taraqqiy etgan mamlakatlarda yaratiladi.

Ikkinchi bosqich. O'sish. Bu bosqichda mahsulot mukammal ko'rinishga keltiriladi va uni katta hajmda ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Keyinchalik mahsulotni xorijga eksport qilish boshlanadi. Ikkinchi bosqichda yangi tovarni eksport qilish bo'yicha mamlakat jahon bozorida monopoliyaga ega bo'ladi. Chunki boshqa mamlakatlarda bu tovarning o'rnini bosuvchi tovarlar hali ishlab chiqarilmaydi.

Uchinchi bosqich. To'yinish. Yangi tovarni ishlab chiqarish texnologiyasi mukammal ko'rinishga ketiriladi va tovarning narxini pasaytirish maqsadida uni ishlab chiqarishning bir qismi boshqa mamlakatlarga o'tkaziladi. Arzonroq ishchi kuchidan foydalanish hisobiga tovarning tannarxi pasayadi va korxonalar yuqori daromad olishni davom ettiradi. Uchinchi bosqichda yangi tovarni ishlab chiqarishning bir qismi mehnat resurslariga boy mamlakatga o'tkaziladi. Shu tariqa mahsulotni ishlab chiqarish bir mamlakatdan boshqa mamlakatga uzatilishi jarayoni boshlanadi.

To'rtinchi bosqich. Pasayish. Bu bosqichda tovarning narxi ko'p jihatdan arzon tabiiy resurslar va mehnat resurslari bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Shu sababli nisbatan arzonroq mehnat resurslariga ega bo'lgan mamlakat yangi tovarni ishlab chiqarish jarayonini to'liq o'z qo'lga oladi. Bu bosqichga kelib yuqorida ko'rsatilgan sabablar ta'sirida yangi tovarni ishlab chiqargan mamlakat bu mahsulotni import qilishni boshlaydi.

Beshinchi bosqich. Ichki ishlab chiqarishdan voz kechish. Oldingi bosqichda boshlangan jarayon rivojlanib boradi va yangilikni amalga oshirgan mamlakatda bu tovarni ishlab chiqarish to'xtatiladi. Chunki arzon xomashyoga, ishchi kuchiga ega bo'lmagan mamlakat korxonalar bozorda o'z raqobatbar-doshligini yo'qotib qo'yishadi va

o‘z salohiyatlarini yangi tovarlarni ishlab chiqishga yo‘naltirishadi. Bu bosqichga kelib yangi tovarni ishlab chiqarishni taraqqiy etgan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga uzatish to‘liq nihoyasiga yetkaziladi va taraqqiy etgan mamlakatlar bu tovarni to‘liq xorijdan import qiladi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Miqyos samarasi — ishlab chiqarishning shunday rivojlanishiki, bunda omillar sarfining bir birlikka o‘sishi ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining bir birlikdan ko‘proq miqdorga o‘shishiga olib keladi.

Ixtisoslashuv darajasining o‘sishi — ishlab chiqarish miqyosining o‘sishi ishchilarning belgilangan operatsiyalarni bajarishga ixtisoslashuvining o‘shishiga olib keladi;

Ishlab chiqarishning yaxlitligi — ishlab chiqarish miqyosining o‘sishi sharoitida ishlab chiqarishga bilvosita bog‘liq bo‘lgan bo‘limlarning hajmi deyarli o‘zgarmasdan qoladi. Boshqaruv apparati, buxgalteriya va shu kabi boshqa bo‘limlarning oylik fondi o‘zgarmasligi hisobiga mahsulotning tannarxi pasayadi;

Texnologik iqtisod — ishlab chiqarish miqyosining o‘sishi sharoitida texnologik jarayonlarni mukammallashtirishga, marketing va reklama ishlarini olib borishga qilinadigan xarajatlarning mahsulot tannarxidagi ulushi pasayadi.

Tashqi miqyos samarasi — butun tarmoqda ishlab chiqarish miqyosining o‘sishi natijasida firma doirasida tovar birligiga to‘g‘ri keladigan xarajatlarning kamayishi.

Ichki miqyos samarasi — firma doirasida ishlab chiqarish miqyosini kengaytirish orqali tovar birligiga sarflanadigan xarajatlarning kamayishi.

Xalqaro savdoning kulami - tovar va xizmatlar xalqaro savdosining miqdoriy jihatlarini.

Xalqaro savdoning tarkibi - xalqaro savdoni aniqlovchi xududiy muganosibliklar majmui va aloqalari.

Xalqaro savdoning tovar tarkibi - xalqaro savdoni aniqlovchi tovar muganosibliklar majmui va aloqalari.

Xalqaro savdo siyosati - jahon savdosini tartibga solishga yo'naltirilgan xalqaro tashkilot va xududiy ittifoqlar faoliyati.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR.

1. «Miqyos samarasi» nazariyasida ishlab chiqarish xarajatlari qanday qilib pasaytiriladi?

2. Mahsulotning hayotiylik sikli nazariyasida mahsulotning hayotiylik sikli nechta bosqichga bo'linadi va qaysi bosqichda savdo manfaatli hisoblanadi?

3. M. Porterning raqobatbardoshlik nazariyasiga muvofiq mamlakatning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?

4. Jahon savdosining tovar tarkibi qanday ko'rinishga ega va tovarlar xalqaro savdoda qanday guruhlanadi?

5. Xalqaro savdoning xududiy tarkibidagi o'zgarishlar tendensiyasiga xos xususiyatlar nimalardan iborat?

6. Xalqaro savdoning barqaror o'sish sur'atiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?

XALQARO SAVDONING ZAMONAVIY NAZARIYALARI

Ushbu bobda quyidagi bilimlar bayon etilgan:

- Xalqaro savdo nazariyalarining zamonaviy hususiyatlari.
- Firmaning tashqi savdodagi samarasi.
- Mark Melis modeli.
- Outsorsing va insorsing tushunchalari.
- To‘liq bo‘lmagan kontraktlar nazariyasi.
- Xalqaro savdoning gravitatsion modeli.
- Xalqaro savdoda gravitatsion modelning tadbiq qilish hususiyatlari.

Kirish

Jahon xo‘jaligi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – bu xalqaro savdoning zamonaviy nazariyalari asosida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning intensiv rivojlanib borishi hisoblanadi. Bu esa mamlakatlar, mamlakatlar guruhi, alohida firma va korxonalar o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi tobora chuqurlashuvi bilan izohlanadi.

Ushbu holat jahon bozorida, shuningdek, uning turli segmentlarida yuzaga kelayotgan kon’yunkturaviy o‘zgarishlar har qanday davlatni jahon bozorida faollashishga, bunda xalqaro savdoning zamonaviy nazariyalari asosida tashqi savdoni tartibga solish, nazorat qilish va qo‘llab-quvvatlash vositalari hamda dastaklaridan har qachongidan ham ko‘proq unumli foydalanishga undamoqda.

5.1. Xalqaro savdo nazariyalarining zamonaviy hususiyatlari

Xalqaro savdoning zamonaviy hususiyatlari:

- ilm-fan va texnika taraqqiyoti ta’sirida mahsulot hamda xizmatlar savdosi hajmining keskin ortishi;

- xalqaro savdo rivojlanayotgan mamlakatlar salmog‘ining qisqarishi;

- fan va texnika taraqqiyoti ta‘sirida jahon eksportining tovar tarkibidagi fan sig‘imkorligi yuqori bo‘lgan mahsulot va xizmatlar ulushining ortishi;

- tashqi savdo aylanmasining jon boshiga baholangan qiymatining notekis taqsimlanishi;

- yangi tarmoq va ishlab chiqarishning vujudga kelishi;

- qator mamlakatlarning ayrim mahsulotlar importiga bog‘liqligining ortishi;

- tashqi bozorda ortiqcha mahsulotni sotishdan turli mamlakat korxonalarini o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari asosida avvaldan kelishilgan holda mahsulotni yetkazib berish shakliga o‘tilishi.

Xalqaro savdoning tovar tarkibi — xalqaro savdoning tarkibini aniqlovchi tovar mutanosibliklari majmuyi va aloqalaridan iborat bo‘lib, maqsadi inson ehtiyojlariga moslashtirish nuqtayi nazaridan xalqaro savdo sohasida tovarlarni tabaqalashtirish hisoblanadi.

Xalqaro savdoning hududiy tarkibi — bu xalqaro savdoning hududiy tarkibini aniqlovchi mutanosibliklar va aloqalar majmuyi bo‘lib, ushbu tarkib xalqaro savdoning quyidagi xususiyatlari va rivojlanish yo‘nalishlarini ajratish imkonini beradi:•alohida mamlakatlarning savdo oqimlarini ajratish;

- bir guruh mamlakatlar o‘rtasidagi savdo oqimlarini ajratish;

- mintaqalar o‘rtasidagi savdo oqimlarini ajratish;

- Xalqaro savdoning aksariyat ulushi oqimlarining rivojlangan mamlakatlar guruhida yig‘ilganligi;

- Jahonning yirik savdo imperiyalari bo‘lib AQSH, Germaniya va Yaponiya hisoblanadi;

- AQSH eksportining faollashuvi;

- Yaponiya eksportining o‘sishi (birinchi navbatda, boshqa Osiyo mamlakatlariga);

- Janubiy Osiyo mamlakatlarida xalqaro savdoning faol rivojlanishi (ko‘proq Pokiston va Hindiston hisobiga);

- Sharqiy Osiyo va qisman Lotin Amerikasi mamlakatlari xalqaro savdosining ustun darajada rivojlanishi (Yaponiyadan tashqari)

- Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari tashqi savdosining sekin rivojlanishi.

Xalqaro savdoning zamonaviy hududiy tarkibidagi o‘zgarishlar tendensiyasi quyidagilar orqali ifodalandi:

- xalqaro savdoda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ulushining saqlanib qolishi
- xalqaro savdo asosiy qismining rivojlangan mamlakatlar guruhi ichida mujassamlashuvi;
- rivojlanayotgan mamlakatlar ulushining ortishi;
- rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida savdo aloqalari hajmining ortishi;

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda zamonaviy xalqaro savdoning rivojlanish omillari quyidagilardan iborat: milliy iqtisodiyotlarning ochiqligi; milliy iqtisodiyotlar ishlab chiqarish salohiyatining o‘sishi; xalqaro savdoning hududiy va tovar tarkibining o‘zgarishi; xalqaro savdo mexanizmlarining murakkablashuvi; xizmatlar sohasining rivojlanishi; intellektual va ilmiy-texnik faoliyatning moddiylashgan va moddiylashmagan shaklida rivojlanishi.

| | | |
|-----|---|---|
| | | |
| 5.1 | Xalqaro savdoning tovar tarkibi nimalardan iborat ? Xalqaro savdoning zamonaviy xususiyatlarini ketma ketligi qanday ? | ? |
| | | |

5.2. Firmaning tashqi savdodagi samarasi va Mark Melits modeli

Porterning fikriga ko‘ra, mamlakatning raqobatbardoshligini va shu sababli zamonaviy tashqi savdoning rivojlanishini belgilaydigan asosiy parametrlar (determinantlar):

1. Faktor shartlari. Porter ushbu omillar mamlakat tomonidan meros bo‘lib o‘tmaydi, balki ishlab chiqarishni kengaytirish jarayonida yaratiladi, deb hisoblaydi.

2. Talab shartlari. Ushbu parametr ichki bozor talablarini, firmaning rivojlanishini, jahon bozorining potentsial rivojlanishi bilan o‘zaro bog‘liqligini belgilaydi. Porterning ta’kidlashicha, ichki bozor

talablari kompaniya faoliyatiga ta'sir ko'rsatish uchun juda muhimdir. Masalan, kichkina xonalarda yashovchi yaponlar Yaponiya sanoati ishlab chiqarishni boshlagan arzon energiya tejaydigan kondit-sionerlarni iste'mol qilishni boshqargan. Keyinchalik bunday kondit-sionerlar butun dunyoda keng qo'llanilgan bo'lib, bu ularning eksportini yapon kompaniyalari tomonidan ta'minlagan.

3. Bog'liq va xizmat ko'rsatish sohalari. Kompaniya faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan samarali ishlab chiqarish muhiti mavjudligini tavsiflaydi. Italiya zargarlik buyumlari ishlab chiqaradigan firmalar rivojlanib bormoqda, chunki Italiya qimmatbaho toshlar va metallga ishlov berish mashinalari bo'yicha dunyoda etakchi hisoblanadi.

4. Firma strategiyasi va raqobat. Shu bilan birga, barchaga bir xil tadbiriq etiladigan har qanday yagona va universal boshqaruv tizimini ajratib ko'rsatish mumkin emas. Mebel, yoritish moslamalari, qadoqlash mashinalari ishlab chiqarishda etakchi bo'lgan italiyalik firmalar dinamizm, boshqaruvning qattiq shakllarining yo'qligi, tez o'zgarishi bilan ajralib turadi. Optikani ishlab chiqarishga ixtisoslashgan nemis kompaniyalari, aniq muhandislik uchun markazlashtirilgan boshqaruvning qattiq tizimi odatiy holdir.

5.3. Outsorsing va insorsing tushunchalari hamda to'liq bo'lmagan kontraktlar nazariyasi

Ko'p millatli va outsorsing. Korporatsiya qachon ko'p millatli bo'ladi? AQSH statistikasida AQSH kompaniyasi chet el tomonidan boshqariladigan hisoblanadi va shuning uchun uning aksiyalarining 10 foizi yoki undan ko'prog'i chet el kompaniyasida bo'lsa, chet elda joylashgan ko'p millatli kompaniyaning sho'ba korxonasi hisoblanadi; g'oya shundan iboratki, samarali nazoratni etkazish uchun 10 foiz etarli. Xuddi shunday, AQSHda joylashgan kompaniya ham chet el firmasining 10 foizidan ko'prog'iga ega bo'lsa, ko'p millatli hisoblanadi. Nazorat qiluvchi (egalik qiluvchi) firma ko'p millatli otana, "boshqariladigan" firmalar ko'p millatli filiallar deb nomlanadi. Agar AQSH firmasi chet el firmasining 10 foizidan ko'pini sotib

oladigan bo'lsa yoki AQSH firmasi chet elda yangi ishlab chiqarish quvvatini quradigan bo'lsa, bu sarmoyalar AQSHning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari oqimi (FDI) hisoblanadi, ikkinchisi esa greyenfiyeld FDI deb nomlanadi. FDI (yoki transchegaraviy birlashmalar va qo'shilishlar) deb nomlanadi. Aksincha, xorijiy firmalarning Qo'shma Shtatlardagi ishlab chiqarish korxonalariga kiritgan sarmoyalari AQSHning xorijiy investitsiyalarining kirib kelishi hisoblanadi. Keyingi misollar misolida biz to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimlarining dunyo miqyosidagi modellarini tasvirlaymiz. Hozircha biz firmaning ko'p millatli ota-ona bo'lish to'g'risidagi qaroriga e'tibor qaratmoqdamiz. Nima uchun firma chet elda filialni boshqarishni tanlaydi?

Javob, qisman filial amalga oshiradigan ishlab chiqarish faoliyatiga bog'liq. Ushbu faoliyat ikkita asosiy toifaga bo'linadi: (1) filial ishlab chiqarish jarayonini (bosh firma o'z ichki korxonalarida olib boradigan) dunyoning boshqa joylarida takrorlaydi; va (2) ishlab chiqarish zanjiri uzilib, ishlab chiqarish jarayonlarining qismlari filial joylashgan joyga o'tkaziladi. Faoliyatning birinchi turini amalga oshiradigan filiallarga sarmoya kiritish gorizontel chet el investitsiyalari sifatida tasniflanadi. Ikkinchi turdagi faoliyatni amalga oshiradigan filiallarga sarmoya kiritish vertikal to'g'ridan-to'g'ri to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari deb tasniflanadi.

Vertikal chet el investitsiyalari asosan mamlakatlar o'rtasidagi ishlab chiqarish xarajatlari farqlari (ishlab chiqarish jarayonining boshqa joyda bajarilishi mumkin bo'lgan qismlari uchun) bilan bog'liq. Mamlakatlar o'rtasidagi narx farqiga nima sabab bo'ladi? Bu biz 3 dan 7 gacha bo'lgan boblarda ishlab chiqilgan qiyosiy ustunlik nazariyasining natijasidir. Masalan, Intel (dunyodagi eng yirik kompyuter chiplari ishlab chiqaruvchisi) chiplarni ishlab chiqarishni gofret ishlab chiqarish, yig'ish va sinovlarga ajratdi. Gofret ishlab chiqarish va u bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlar va ishlab chiqishlar juda ko'p mahorat talab qiladi, shuning uchun Intel hanuzgacha ushbu faoliyatning aksariyatini Qo'shma Shtatlarda, shuningdek Irlandiya va Isroilda (malakali ishchi kuchi nisbatan ancha ko'p bo'lgan joylarda) amalga oshiradi.


Boshqa tomondan, chiplarni yig'ish va sinovdan o'tkazish ko'p mehnat talab qiladi va Intel ushbu ishlab chiqarish jarayonlarini

Malayziya, Filippin, Kosta-Rika va Xitoy kabi ishchi kuchi nisbatan ko'p bo'lgan mamlakatlarga ko'chirdi. Ushbu vertikal to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar - bu eng tez rivojlanayotgan chet el investitsiyalarining turlaridan biri bo'lib, yirik investitsiyalar ortida rivojlanayotgan mamlakatlarga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi-ning o'sishi (5.3.1-grafikga qarang). Vertikal chet el investitsiyalaridan farqli o'laroq, gorizontal chet el investitsiyalarida rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi oqimlar ustunlik qiladi; ya'ni ko'p millatli o'tona ham, filiallar ham rivojlangan mamlakatlarda joylashgan. Ushbu turdagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning asosiy sababi ishlab chiqarishni firmaning yirik mijozlar bazasi yaqinida joylashtirishdir. Demak, savdo va transport xarajatlari ushbu tashqi investitsiyalar qarori uchun ishlab chiqarish xarajatlari farqiga qaraganda ancha muhim rol o'ynaydi. Dunyoning eng yirik avtoulavlari ishlab chiqaruvchisi bo'lgan Toyota misolini ko'rib chiqing (hech bo'lmaganda, yozish paytida, Volkswagen yaqin soniyada bo'lsa ham). 1980-yillarning boshlarida Toyota deyarli barcha yengil va yuk mashinalarini Yaponiyada ishlab chiqardi va ularni butun dunyoga eksport qildi, lekin asosan Shimoliy Amerika va Evropaga. Ushbu bozorlarga katta savdo xarajatlari (asosan savdo cheklovlari sababli; 9-bobga qarang) va u erda talab darajasining ko'tarilishi Toyota kompaniyasini chet elda ishlab chiqarishni asta-sekin kengaytirdi. 2009-yilga kelib, Toyota o'z avtomobillarining yarmidan ko'pini xorijdagi yig'ish zavodlarida ishlab chiqardi. Toyota o'zining eng mashhur Korolla rusumidagi avtomobillarini Braziliya, Kanada, Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Pokiston, Janubiy Afrika, Tayvan, Tailand, Turkiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Vetnamdagi yig'ish zavodlarida ishlab chiqarish jarayonini takrorladi. , va Venesuela: Bu amalda gorizontal to'g'ridan-to'g'ri tashqi investitsiyalar.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning namunalari

Dunyo bo'ylab oqimlar 5.1-rasmda so'nggi 40-yil ichida dunyo miqyosida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimlarining hajmi qanday rivojlanganligi ko'rsatilgan. Biz birinchi navbatda chet el investitsiyalarining oqimlari muvozanatli bo'lishi kerak bo'lgan dunyo uchun qonuniyatlarni ko'rib chiqamiz: shuning uchun dunyoga tusha-

digan oqimlar dunyo oqimlariga tengdir. 1990-yillarning o‘rtalaridan oxirlariga qadar ko‘p millatli faollik katta o‘shish kuzatilganini ko‘rayapmiz, bu paytda butun dunyoga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimi besh baravar ko‘paydi, keyin esa 2000-yillarning boshlarida. Shuningdek, chet el investitsiyalarining o‘shish sur‘atlari juda notekis, ulkan cho‘qqilar va chuqurliklar mavjud. Ushbu davrdagi muhim moliyaviy va valyuta hodisalari, ularning barchasi ham chet el investitsiyalarining salbiy oqibatlariga ta’sir qilmagan bo‘lib, Yaponiyada aktivlar narxining pufakchasini o‘z ichiga oladi (1986-2003), 1990-yil boshidagi ERM inqirozi (bu 16 sentyabrning qora chorshanbasiga olib keldi), 1992-yil, Buyuk Britaniya funt sterlingni ERM-dan olib chiqishga majbur bo‘lganida), 1990-yillarning boshlari, dunyodagi tanazzul, AQSHda 1990-yillardagi jamg‘arma va kredit inqirozi, 1990-yillardagi Finlyandiya va Shvetsiya bank inqirozlari, 1994-yilgi spekulativ peso Meksikadagi inqiroz, 1997-yilgi Osiyo moliyaviy inqirozi, 1998-yilgi Rossiya moliyaviy inqirozi, Argentinadagi iqtisodiy inqiroz (1998-2002), dot-kom inqirozi va 2000-yillarning oxiridagi jahon moliyaviy inqirozi. Yuqoridagilardan 1990-yillarning boshlarida ERM inqirozi va butun dunyo bo‘ylab turg‘unlik, Argentina inqirozi va 2000-yildagi moliyaviy inqiroz (nuqta-komning yorilishi).



5.1-rasm. To‘g‘ridan-to‘g‘ri horijiy investitsiyalarning chiqib ketishi.


2007-2009-yillardagi eng soʻnggi moliyaviy inqiroz butun dunyoga toʻgʻri keladigan investitsiyalar oqimlarining pasayishiga yoki katta inqirozga olib kelganga oʻxshaydi. Soʻnggi paytlarda, YAIMning oʻsishi va eng yirik fond bozorlarining barchasi sezilarli yutuqlarga erishgan boʻlsa ham, 2012-yilda global toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalar oqimlari keskin pasayib ketdi. (Iqtisodiy tiklanishning moʻrtligi va siyosiy barqarorlik bilan bogʻliq noaniqlik muhim rol oʻynadi, shuningdek, koʻp millatli kompaniyalar tomonidan daromadlarni qaytarib berish.) Ushbu xorijiy investitsiyalarning aksariyati transchegaraviy qoʻshilish va qoʻshilish bilan bogʻliq boʻlib, Greyenfiyeld FDI esa nisbatan barqaror boʻlib qoldi. Xorijiy investitsiyalar tushumining mamlakatlar guruhlari boʻyicha taqsimlanishiga nazar tashlaydigan boʻlsak, tarixiy jihatdan OEKD-ning eng boy mamlakatlari ichki investitsiyalarni eng koʻp oluvchilar boʻlgan. Shu bilan birga, biz ushbu tushumlarning past daromadli qolgan mamlakatlarga yoʻnaltirilgan xorijiy investitsiyalarga qaraganda ancha oʻzgaruvchanligini (bu erda qoʻshilish va qoʻshilish bilan bogʻliq boʻlgan toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar toʻplangan) koʻrayapmiz. Va nihoyat, biz buni ham koʻramiz.

OESdan tashqarida boʻlgan mamlakatlarga toʻgʻri keladigan toʻgʻridan toʻgʻri investitsiyalarning ulushi doimiy ravishda kengayib bordi. Bu 2009-yildan buyon dunyo boʻylab toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalar oqimlarining qariyb yarmini tashkil etdi. BRISS mamlakatlari (Braziliya, Rossiya Federatsiyasi, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrika) ushbu oʻsishning katta qismini tashkil etdi: ushbu mamlakatlarga toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar oqimlari qariyb uch baravar koʻpaydi oʻtgan oʻn yil.

5.2-rasmlarda firmalar xorijiy investitsiyalarning chiqib ketishi bilan shugʻullanadigan eng yaxshi 25 mamlakat roʻyxati keltirilgan. Ushbu oqimlar juda oʻzgaruvchan boʻlgani uchun, ayniqsa soʻnggi inqiroz bilan, soʻnggi uch yil ichida ular oʻrtacha hisoblangan. Koʻrib turganimizdek, xorijiy investitsiyalarning chet elga chiqib ketishida hali ham rivojlangan iqtisodiyotlar ustunlik qilmoqda; ammo biz rivojlanayotgan yirik davlatlar, xususan, Xitoy (jumladan, Gonkong) tobora muhim rol oʻynayotganini koʻramiz. Darhaqiqat, xorijiy investitsiyalarning eng tez oʻsib boruvchi segmentlaridan biri bu rivojlanayotgan mamlakatlardan boshqa rivojlanayotgan

mamlakatlarga yo‘naltirilgan oqimlardir. Ushbu nisbatan yangi chet el investitsiyalarida Xitoy va Hindistondagi ko‘p millatli kompaniyalar katta rol o‘ynaydi. Shuningdek, biz xalqaro soliq siyosati to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning joylashishini belgilashi mumkinligini ko‘ramiz. Masalan, Britaniyaning Virjiniya orollari, agar u xalqaro soliq panohi maqomiga ega bo‘lmaganida, bu eng yaxshi 25 ro‘yxatiga kira olmaydi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan shug‘ullanadigan ushbu firmalar asosan offshor kompaniyalardir: Ular Britaniyaning Virjiniya orollarida joylashgan, ammo ularning ishlab chiqarish faoliyati dunyoning boshqa joylarida joylashgan.

Xorijiy investitsiyalarning oqimlari jahon iqtisodiyotida ko‘p millatli kompaniyalar mavjudligini o‘lchashning yagona usuli emas. Boshqa chora-tadbirlar savdo, qo‘shimcha qiymat (sotib olingan oraliq mahsulotlarni olib tashlagan holda sotish) va ish bilan ta‘minlash kabi iqtisodiy faoliyatga asoslangan.



5.2-pacm. To‘g‘ridan-to‘g‘ri horijiy investitsiyalar oqimlari.

Xorijiy investitsiyalarning filiallarini sotish ko‘pincha ko‘p millatli faoliyatning etaloni sifatida ishlatiladi. Bu ko‘p millatli kompaniyalar faoliyatini eksport hajmlari bilan taqqoslashda tegishli ko‘rsatkichni taqdim etadi. Shu bilan birga, ko‘p millatli kompaniyalar savdosi ko‘pincha mamlakat Yalpi ichki mahsuloti bilan taqqoslanadi, masalan, ko‘p millatli kompaniyalarning sotish hajmi dunyodagi


ko‘plab mamlakatlarning YAIMiga nisbatan yuqori. 2015-yilda butun dunyo uchun eng yirik 100 ko‘p millatli kompaniyalarning umumiy savdo hajmi jahon YAIMning 10,7 foizini tashkil etdi.

Biroq, hayratlanarli darajada, bu taqqoslash chalg‘ituvchi va ko‘p millatli kompaniyalar ta’sirini haddan tashqari oshirib yuborgan, chunki mamlakat YAIM qo‘shimcha qiymat bilan o‘lchanadi: yakuniy ishlab chiqarishda ishlatiladigan oraliq mahsulotlar ushbu YAIM o‘lchovida ikki marta hisobga olinmaydi. Boshqa tomondan, bir ko‘p millatli boshqasiga sotadigan oraliq tovarlar, ko‘p millatli kompaniyalarning savdo yig‘indisida (bir marta qidiruv mahsulot ishlab chiqaruvchisi sotish paytida, yana bir marta sotilgan tovarlarning yakuniy qiymatining bir qismi sifatida) ikki marta hisobga olinadi. oraliq tovarlardan foydalanuvchi). Natijada, ko‘p millatli va YAIM o‘rtasidagi taqqoslash qo‘shimcha qiymatga asoslangan bo‘lishi kerak. (Ushbu muhim o‘lchov masalasini muhokama qilish uchun keyingi bobda "Bu kimning savdosi?" Katakchasiga qarang.) Ko‘p millatli kompaniyalar tomonidan qo‘shilgan qiymat ularning umumiy sotilishining taxminan 20 foizini tashkil qilganligi sababli, ushbu ko‘rsatkichdan foydalanish eng katta kompaniyalarning hissasini kamaytiradi. 100 ko‘p millatli kompaniyalar jahon YAIMning 2 foizini tashkil qiladi. Ushbu foiz hanuzgacha ahamiyatsiz, ammo umumiy savdoga asoslangan o‘lchov kabi ko‘zga tashlanmaydi.

| | | |
|-----|---|---|
| | | |
| 5.3 | <p>To‘g‘ridan-to‘g‘ri horijiy investitsiyalarning namunalarini necha hil turi mavjud ?</p> <p>Ko‘p millatli va autsorsing. Korporatsiya qachon ko‘p millatli bo‘ladi?</p> <p>Xorijiy investitsiyalar tushumining mamlakatlar guruhlariga bo‘yicha taqsimlanishi qanday shakllarda bo‘ladi ?</p> | ? |
| | | |

5.4. Xalqaro savdoning gravitatsion modeli va uning tadbiriq hususiyatlari

Katta-kichiklikning ahamiyati va Gravitatsiya modeli. Jahon savdosiga umumiy nazar solganda, iqtisodchilar quyidagi tenglama har qanday ikki davlat orasidagi savdo-sotiq hajmini tulaqonlicha ifodalashi mumkinligi hulosasiga kelishgan.



5.3-rasm. Yevropa iqtisodiyotlarning kattaligi va ularning AQSH bilan savdo hajmi.

$$T_{ij} = A \times Y_i \times Y_j / D_{ij} \quad (2-1)$$

A - o'zgarmas birlik, T_{ij} - i va j davlatlari o'rtasidagi tijoratning umumiy hajmi, Y_i - i davlatning YAIM, Y_j - j davlatining YAIM va D_{ij}

–ushbu ikki davlat orasidagi masofadir. Ya’ni , boshqa narsalarni teng deb olganda, har qanday ikki davlat orasidagi savdo hajmi ikkala davlatning YAIM ning ko‘paytmasiga teng, va ushbu savdo hajmi masofa ortishi bilan kamayib boradi.

(2-1) da keltirilgan tenglama jahon savdosining gravitatsiya modeli deb tanilgan. Ushbu nomning berilishiga sabab Nyutonning gravitatsiya qonuniga keltirilgan analogiyadan kelib chiqadi. Har qanday ikki jism orasidagi gravitatsion kuch massa ortishiga proporsional bo‘lgani kabi, ular orasidagi masofa ortishi bilan ushbu gravitatsion kuch kamayadi. Xuddi shunday, har qanday ikki davlat orasidagi savdo hajmi ularning YAIM lari ko‘paytmasiga proporsionaldir (qolgan birliklarni teng deb hisoblaganda), va bu hajm miqdori masofa ortib borishi bilan kamayadi.

Iqtisodchilar yanada umumiyroq deb quyidagi tenglamani topishgan:

$$T_{ij}=A \times Y_i^a \times Y_j^b / D^{c_{ij}} \quad (2-2)$$

Bu tenglamadan shuni anglasak bo‘ladi: ikki davlat orasidagi savdo hajmini belgilaydigan uch omil – ikkala davlatning YAIM hajmlari va ular orasidagi masofadir. Bu tenglamada aynan YAIM larning ko‘paytmasi, ular orasidagi savdo hajmiga proporsional ekanligi va davlatlar orasidagi masofaga esa teskari proporsional ekanligini ta’kidlab o‘tmaymiz. Aksincha, a, b va s iloji boricha haqiqiy, eng so‘nggi ma’lumotlarni namoyon etish uchun tanlangan. Agar a, b va sbarchasi 1 ga teng bo‘lsa, (2-2) da keltirilgan tenglamaning (2-1) dagi tenglamadan farqi qolmaydi. Aslida, qilingan hisoblar ham shuni ko‘rsatadi-ki, (2-1) juda yaxshi taxminiy tenglamadir.

Nima uchun gravitatsiya modeli yaxshi ish ko‘rsatadi? Umumiy lashtirib aytganda, katta iqtisodiyotlar importga katta harajatlarni qilishga moyildir, chunki ularning katta daromadlari bor. Bundan tashqari, ushbu katta iqtisodiyotlar(xo‘jaliklar) boshqa davlatlarning katta hajmdagi sarf-harajatlarini o‘z iqtisodiyotiga jalb qilishga ham moyil, sababi – ular keng ko‘lamda mahsulot ishlab chiqarishadi. Shunday qilib, qolgan barcha birliklarni teng deb olganimizda, har qanday ikki xo‘jalik o‘rtasidagi savdoning oshishi har xo‘jaliklarning o‘shishi bilan bog‘liqdir.

Qolgan teng bo‘lmagan birliklar nimalardir? Bundan avvalroq ham aytib o‘tganimizdek, amalda davlatlar daromadlarining ko‘proq yoki aksariyatini o‘z uylarida sarf qiladilar. Yevropa Ittifoqi va AQSH ning har biri jahon YAIM ning qariyb 25% teng keladigan hajmda YAIM-lari bordir, biroq har biri boshqa davlatlarning atigi 2% sarf-harajatlarini o‘zlariga jalb qiladilar. Haqiqiy savdo oqimlarini tushunib yetish uchun, xalqaro savdoni cheklaydigan omillarni inobatga olishimiz kerak. Ammo buni qilishdan oldin, keling birga gravitatsiya modeli foydali ekanligini yoritib beradigan muhim sababni ko‘rib chiqaylik.

Gravitatsiya modelini qo‘llash: anomal holatlarni izlaymiz.

5.3-rasmda aniq ko‘rinib turibdi-ki, gravitatsiya modeli AQSH ning Yevropa davlatlari bilan bo‘lgan savdo ma‘lumotlariga yaxshigina mos keladi, ammo a‘lo darajada emas. Aslida gravitatsiya modelining asosiy foydalaridan biri – uning savdodagi anomaliyalarni topishga ko‘mak berishidir. Chindan ham, qachonki har qanday ikki davlat orasidagi savdo hajmi gravitatsiya modeli prognoz qilganidan chetlashib qolsa, iqtisodchilar bunga tushuntirishlar qidirishga kirishadilar.

Yana bir bor 5.3-rasmga nazar solsak, shuni ko‘ramizki gravitatsiya modeli prognoz qilishi mumkin bo‘lgan hajmdan ko‘ra Niderlandiya, Belgiya va Irlandiya AQSH bilan ancha ko‘proq miqdorda savdo qilishadi. Sababi nimada?


Irlandiyani misol qilib oladigan bo‘lsak, qisman javob - madaniy o‘xshashlikdadir: Irlandiya bilan AQSH-ni birlashtiruvchi nafaqat umumiy ingliz tili, balki yana shu holat-ki, o‘n millionlab Amerikaliklarning asl kelib chiqishi Irlandiyali migrantlardandir. Ushbu farazdan tashqari, Irlandiya ko‘plab AQSHda tashkil topgan korporatsiyalarga mezbonlik qilishda muhim o‘ringa ega. 8-bobda biz aynan ko‘p millatli korporatsiyalarning rolini muhokama qilamiz.

Niderlandiya va Belgiya holatlarida, ehtimol, geografik joylashuv va transport harajatlari ularning AQSH bilan bo‘lgan savdo sotiqdagi katta hajmni tushuntirib beradi. Har ikki davlat ham Reyn daryosining Shimoliy dengizga quyilish joyida joylashgan. Ushbu daryo G‘arbiy Yevropaning eng uzun daryosi bo‘la turib, Germaniyaning sanoat

markazi bo'lmish Ruxrdan o'tib ketadi. Shundan qilib, Niderlandiya va Belgiya Shimoliy-g'arbiy Yevropaning aksariyatiga kirish nuqtasi bo'lib kelgan; Niderlandiyadagi Rotterdam porti Yevropadagi eng muhim port deb hisoblanadi (tonnalab yuklarning utishini hisobga olsak), va Belgiyadagi Antverp porti Rotterdamdan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi. Boshqacha qilib aytganda, Niderlandiya va Belgiyaning katta hajmdagi savdo-sotiq hajmini belgilashda transport harajatlari va geografik joylashuv muhim rol o'ynaydi. Ushbu omillarning ahammiyati savdo-sotiq ma'lumotlarining kengroq misoliga e'tibor berganda ko'ramiz.

Savdo-sotiqdagi to'sqinlar: masofa, to'siqlar va chegaralar. 5.4-rasm xuddi 5.3-rasmdagi kabi bir xil ma'lumotni ko'rsatmoqda – AQSH ning G'arbiy Yevropa bilan 2012-yilda bo'lgan umumiy savdo ulushini foiz sifatida bir o'qda, va boshqasida butun regionning jami YAIMni foizini ko'rsatib, yana ikki davlatni qo'shmoqda: Kanada va Meksika. Ko'rib turganingizdek, ushbu ikki qo'shni davlatlar mos ravishda xajmga ega bo'lgan Yevropa xo'jaliklarga qaraganda AQSH bilan ancha ko'proq savdo sotiq muomalasini. Aslida, qo'pol qilib aytadigan bo'lsak, Ispaniyaning xo'jaligi bilan teng keladigan Kanadaning savdo-sotiq hajmi butun Yevropachalik keladi. Nima sababdan AQSH Shimoliy Amerika qo'shnilari bilan Yevropa partnyorlariga qaraganda ko'proq miqdorda tijorat qiladi? Birgina oddiy sabab shuki, Kanada va Meksika AQSHga ancha yaqinligida. Ko'rib chiqilgan barcha gravitatsiya modellari shuni ko'rsatadi-ki, xalqaro tijoratga masofaning kuchli salbiy ta'sirga ega; tipik kuzatishlar orqali shuni ko'ramizki, ikki davlat orasidagi 1%ga masofaning ortishi, ularning orasidagi tijorat hajmining 0.7% pasayishiga olib keladi. Bu pasayish tovar va hizmatlarning transport harajatlarini qisman aks ettiradi. Iqtisodchilarning fikriga ko'ra hal qiluvchi rol ni moddiyatga tegishli bo'lmagan omillar o'ynaydi: Yaqindan aloqada bo'lgan davlatlar orasida tijorat kuchliroq. Tijoratning hajmi esa ushbu yaqindan aloqaning pasayishi bilan kamayib boradi. Misol tariqasida, AQSH tijorat vakilining Toronto va Parij shaharlariga tashrifini ko'rib chiqish mumkin. AQSH tijorat vakili osonlikcha Torontoga borib kelsa, Parijga borishi kattaroq loyihaga aylanib ketadi. Agar

kompaniya gʻarbiy sohilda joylashmagan boʻlsa, Tokioga tashrif ham yanada katta loyiha boʻladi.



5.4-rasm. Yevropa iqtisodiyotlarining kattaligi va ularning AQSH bilan savdo hajmi.

Boz ustiga, Kanada va Meksika AQSHning qoʻshnilari boʻlib qolmaygina, AQSH bilan bitilgan savdo shartnomasi aʼzolaridir. NAFTA (North American Free Trade Agreement) – Shimoliy Amerika Erkin Savdo shartnomasiga aʼzo uch davlat orasida joʻnatilgan tovarlar xalqaro savdoda mavjud boʻlgani kabi tarif va boshqa toʻsiqlarga duch kelmaydi. Xalqaro savdodagi toʻsiqlarni 8chi va 9chi Boblarda, NAFTA kabi savdo shartnomalar roʻlini esa 10chi Boblarda tahlil qilamiz. Hozir esa, shuni eʼtiborga olib qoʻyaylik, iqtisodchilar gravitatsiya modelini savdo shartnomalarining asl xalqaro savdosiga boʻlgan taʼsiriga baho berish uchun ishlatishadi: Savdo shartnomasi samarali boʻlsa, demak shartnoma aʼzolari orasidagi savdo xajmining sezilarli darajada koʻproq boʻlishi kerak. YAIM va masofalarni hisobga olgan koʻpaytmadan ham koʻproq.

Shuni ham taʼkidlab oʻtish joizki, savdo shartnomalari xalqaro savdodagi barcha toʻsiqlarni bartaraf etsa-da, milliy chegaralar ahamiyatsiz boʻlib qolmaydi. Milliy chegaralarni kesib oʻtadigan

tovarlar, turli xil savdo to‘siqlariga uchramasa va juda kam huquqiy cheklovlarga duchor bo‘lsa ham, baribir bir davlatning ichidagi viloyatlar orasida bo‘lgan savdo xajmichalik ko‘p savdo qilolmaydi, garchi bir xil uzoqlikdagi masofada bo‘lsa-da. Kanada-AQSH chegarasini ko‘rib chiqaylik. 5.1-jadvali farqning miqyosini ko‘rsatadi.

5.1-jadval.

Britan Kolumbiyasi bilan tashqi savdo, YAIM% ko‘rinishida,

| Kanada viloyatlari | Tashqi savdo, YAIM% ko‘rinishida | Tashqi savdo, YAIM% ko‘rinishida | Britan Kolumbiyasidan o‘xshash masofada bo‘lgan AQSH shtatlari |
|---|----------------------------------|----------------------------------|--|
| Alberta | 6,9 | 2,6 | Vashinton |
| Saskatchevan | 2,4 | 1,0 | Montana |
| Manitoba | 2,0 | 0,3 | Kaliforniya |
| Ontario | 1,9 | 0,2 | Oxaio |
| Kvebek | 1,4 | 0,1 | Nyu York |
| Yangi Brunsvik | 2,3 | 0,2 | Meyn |
| Manba: Kanada Statistikasi, AQSHning tijorat deportamenti. | | | |

2009


Kanadaning har bir viloyati AQSHning shtati bilan shunday juftlanganki, qo‘pol qilib aytganda har bir juftlik Britan Kolumbiyasi viloyatidan deyarli teng masofadagi joylashgan. Ontario va Oxaio - o‘rta g‘arbda va hokazo. Nyu-Bransvik viloyatini hisobga olmaganda, masofa ko‘paygani sari savdo ulushi ham muntazam pasayib bormoqda. Biroq har bir holatda Britan Kolumbiyasining viloyatlar bilan, teng masofadagi uzoqlikda bo‘lgan shtatlarga nisbatan ko‘proq hajmda savdo qilganini ko‘rib turamiz.

O‘zgarib borayotgan jahon savdo modeli. Jahon savdosi harakatlanayotgan bir nishondir. Jahon savdosining tarkibi va yo‘nalishi bugun boshqacha. Bir avlod oldin bo‘lgan Jahon savdosidan farq qiladi, bir asr oldin esa umuman boshqa edi. Keling birgalikda bir nechta trendlarni ko‘rib chiqaylik.


Iqtisod tarixchilari uzoq masofadagi kuchli iqtisodiy bog‘liqliklar global iqtisodiyotda yangilik emasligi ta’kidlaydilar. Aslida, globalizatsiya jarayonlarida ikta katta to‘lqin bo‘lgan: birinchisi jet va internetga emas, balki temir yo‘llari, parovozlar va telegrafga tayanadigan to‘lqin bo‘lgan. 1919-yilda buyuk iqtisodchi Djon Meynard Keyns globalizatsiya to‘lqini natijalarini quyidagicha ifodalagan:

Biroq, Keynsning 1914-yilda “davr tugadi” iborasiga e’tibor qaratish joiz: ikta ketma-ket bo‘lib o‘tgan jahon urushlari, 1930chi yillar depressiyasi va keng tarqalgan proteksionizm jahon savdosini chin ma’noda tushkunlikka uchratdi. Shu bois Keyns xalqaro savdoning to‘xtashi paytiga, ya’ni yuqorida aytilgan depressiya va proteksionizmlar boshlangan paytni, davr tugadi deb tasvirlamoqda. 5.5-rasmda xalqaro savdoning bir yana o‘lchamini ko‘rsatmoqda: sanoat maxsulotlarining Jahondagi eksport indeksining jahon sanoat ishlab chiqarishi indeksiga nisbati. Birinchi jahon urushigacha jahon savdosi tez oshib borgan, keyin esa sezilarli darajada tushgan. Ko‘rinib turganidek, globalizatsiya birinchi jahon urushigacha bo‘lgan darajaga 1970-yillargacha yetib ololmagan.

Shu paytdan keyin jahon savdosi Jahon ishlab chiqarishning ulushi sifatida oldin hech qachon ko‘rsatmagan ko‘rsatkichlarda o‘shishni davom ettirgan. Jahon savdosidagi ushbu o‘shishning aksariyati ishlab chiqarishning vetikal disintegratsiyasini aks etadi. Tovar iste’molchiga yetib borguncha turli davlatlarda ishlab chiqarish bosqich-laidan o‘tib boradi. Misol tariqasida: iste’molchiga mos elektron tovarlar – qo‘l telefonlari, aypodlar va shu kabi maxsulotlar oyligi past bo‘lgan Xitoy kabi davlatlarda yig‘iladi, komponentlari esa oyligi baland Yaponiya kabi davlatlarda ishlab chiqariladi. Ushbu kompo-nentlar jadal ravishda bir davlatdan boshqa davlatga olib o‘tilganligi uchun, \$100 lik tovar oqibatda \$200 yoki xalqaro savdo oqimlariga teng \$300 ham chiqib ketishi mumkin.



5.5-rasm. Jahon savdosining o‘sishi va pasayishi.



5.6-rasm. Jahon savdosining tarkibiy bo‘limlari, 2015

5.6-rasmda esa 2015-yildagi jahon eksportini foiz ulushida yoritib bermoqda. Jahon savdosining eng katta hajmini turli xil ishlab

chiqarilgan maxsulotlar tashkil etadi. Yer-osti qazilmalarining asosiy qismini neft va qolgan yoqilg‘i turlari tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligi maxsulotlari ko‘pchilik davlatlarni oziqlantirishda xal qiluvchi o‘ringa ega bo‘lsa-da, kunimizdagi jahon savdosida juda ham kichik xissaga ekanligini ko‘ramiz.

Xizmat sohasidagi eksport o‘z ichiga an’anaviy transport (kema va havo yo‘li kompaniyalari orqali belgilangan) harajatlari, chet elliklar tomonidan to‘langan sug‘urta harajatlari va chet ellik turistlarning harajatlarini qamrab oladi. Yaqin yillardan beri esa zamonaviy telekommunikatsiyalar orqali amalga oshadigan yangi xizmat turi OAV ommaviy axborot vositalari) ning diqqatini o‘ziga tortdi.

Bunga eng yorqin misol – chet eldan turib faoliyat yuritadigan turli xil yordam va qo‘ng‘iroq markazlari(call center). Mabodo 800 raqamiga qo‘ng‘iroq qilsangiz , simning narigi tomonida katta ehtimol bilan yiroqlarda joylashgan bir davlat fuqarosi bo‘lishi mumkin (Hindistondagi Bangalor shahri juda mashxur). Kelgusi yillarda ommabop bo‘lishi mumkin bo‘lgan savdoning bunday ekzotik turi savdo-sotiqda hamon kam ulushga egadir. Ishlab chiqarilgan maxsulotlar savdo-sotiqning aksariyat qismini tashkil etishi – nisbatan yangi voqe‘likdir. O‘tmishda jahon savdosida asosiy ulushga ega bo‘lgan tovarlar - birlamchi mahsulotlar xususan, xo‘jaligi va konchilik tovarlari edi.

5.2- jadval

Ishlab chiqarilgan tovarlarning tijoratdagi % ulushi


| | Birlashgan qirollik | | AQSH | |
|------|---------------------|--------|---------|--------|
| | Eksport | Import | Eksport | Import |
| 1910 | 75,4 | 24,5 | 47,5 | 40,7 |
| 2015 | 72,3 | 73,6 | 74,8 | 78,4 |
| | | | | |

5.2 Jadvalda AQSH va Birlashgan Qirollikning 1910 va 2015 - yillarda qilingan eksport va importdagi ishlab chiqarilgan tovarlar ulushini ko‘rsatadi. XX asrning boshlarida Buyuk Britaniya asosan manufakturalarni (ishlab chiqarilgan) eksport qilgan bo‘lsa, importning asosiy qismini birlamchi tovarlar tashkil qilgan. Bugunga kelib

esa, ushbu davlatda manufakturalar har ikkala eksport va importda asosiy o‘rinni egallaydi. AQSH esa 1910 larda asosan birlamchi tovarlarni eksport-import qilgan bo‘lsa, 2015da savdoning tarkibini asosan ishlab chiqarilgan tovarlar tashkil qildi.

Nisbatan yaqinda bo‘lgan transformatsiya 3-dunyo mamlakatlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar eksporti ko‘payishi. 3-chi dunyo mamlakatlari va rivojlanayotgan mamlakatlar deb, aksariyati 2-chi Jahon urushigacha Yevropa koloniyalari bo‘lmish, dunyoning eng kambag‘al davlatlariga nisbatan ishlatiladi. 1970-chi yillargacha ushbu davlatlar asosan birlamchi tovarlarni eksport qilgan. 5.7-rasmda, 1960 – 2001-yillar orasida, rivojlanayotgan davlatlar eksportining qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va ishlab chiqarilgan tovarlar ulushlari sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Xizmat offshori. Shu kunlarda, xalqaro iqtisodiyotda eng katta tortishuvlarga sabab bo‘layotgan zamonaviy informatsion texnologiyalarning ba‘zi iqtisodiy funksiyalarni keng ko‘lamda bajarishi mumkinligi va ushbu texnologiyalar xalqaro savdoning yangi turlarini keskin ortishiga olib kelishligi bo‘lmoqda. 8000 mil sizdan narida turib siz so‘ragan ma‘lumotlarga javob berayotgan shaxsning ishlab turgan koll-markazlari haqida biroz avval ham gapirib o‘tdik. Boshqa xizmatlarning ham ko‘p turlari o‘zoq masofadan turib bajarilishi mumkin.




5.7-rasm. Rivojlanayotgan davlatlarda eksport tarkibining o‘zgarishi

2006-yilda, mashhur Tashqi Ishlar (Foreign affairs) nomli jurnalda chop etilgan maqolada, Prinston universiteti iqtisodchisi Alan Blaynder shunday degan: “kelajakda, va keng miqyosda hozir ham, xalqaro savdoning asosiy farq qilish belgisi qutiga solinadigan va solib bo‘lmaydigan narsalar orasida bo‘lmasligidir. Aksincha, asosiy farq, uzoq masofadan, sifatiga putur yetkazmagan holda, elektron tarzda yetkazib bo‘ladigan va yetkazib bo‘lmaydigan xizmatlar orasida bo‘ladi.”

Masalan, xo‘jalik do‘koningizda tovarlarni javonlarda qayta tartiblab chiquvchi ishchisingiz bir tomonda, va ushbu do‘konning rasmiy ishlarini yurituvchi buxgalter Internet orqali doimiy aloqada qolib, boshqa mamlakatda bo‘lishi mumkin. Pulsingizni o‘lchaydigan xamshira yoningizda bo‘lsa, rentgen suratlarini elektron tarzda o‘qib, taxlil qilib beradigan radiolog esa, internetga ulanish tezligi baland bo‘lgan har qanday mamlakatda bo‘lishi mumkin.

Shu nuqtada, xizmatlar autsorsingi o‘ziga ko‘p e‘tiborni qaratib oladi, negaki u hamon kam uchraydigan voqe‘likdir. Savol shundaki, bunday autsorsing qay darajada kattalashib ketadi, va shu kunlarda xalqaro raqobatga duch kelmaydigan nechta ishchi yaqin kelajakda o‘zgarishlarni ko‘radi? Iqtisodchilar ushbu savolga quyidagicha javob berishga harakat qilishgan: AQSH ichida uzoq masofadan tijorat qilinayotgan xizmatlar tahlil qilingan. Masalan, xalq uchun ko‘pgina moliyaviy xizmatlar – davlatning moliya poytaxti Nyu-Yorkdan ko‘rsatilgan. Maykrosoftning vatani bo‘lmish – Sietldan programma dasturlari; Amerika (va butun dunyo)ning internet bo‘ylab izlash xizmatlarining ko‘pi Maunten Vyudagi Google pleks, Kaliforniya va hokazolar orqali ta‘minlanadi.

5.8-rasmda, AQSH dagi sanoatlar lokatsiyasini sistematik tarzda o‘rganib chiqib, uzoq masofadan turib tijorat qilish mumkin bo‘lgan va mumkin bo‘lmagan xizmatlar taxlilini ko‘rsatadi. Shaklda ko‘rinib turganidek, AQSH ning ish bilan bandligining 60%ni xaridorga yaqindan turib bajariladigan kasblar tashkil etadi.



5.8-rasm. Tijorat qilish mumkin bo'lgan sanoatlarning ish bilan bandlikdagi ulushi.

Sodda atamalar bilan dunyoga tarif berish qiyinroq bo'lib qolganligi haqiqatdir. Bir asr avval, har bir mamlakat eksportining tarkibi uning iqlimi va tabiiy resurslariga ko'ra shakllanar edi. Tropik mamlakatlar asosan kofe va paxta kabi maxsulotlarni; AQSH va Avstraliya kabi mamlakatlar aholisi zich bo'lgan Yevropa xalqlariga oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilar edi. Savdo borasidagi tortishuvlarni ham tshuntirish ancha oson edi. "Proteksionizm yoki erkin savdomi" rusmidagi klassik siyosiy janglar ingliz yer mulkdorlari va ingliz ishlab chiqaruvchilari orasida bo'lar edi. Proteksionizm tarafdorlari import orqali kirib kelayotgan arzon oziq-ovqat mahsulotlaridan himoyalaniшни istasa, ishlab chiqaruvchilar manufakturalarini erkin savdo orqali eksport qilishga urinar edi.

TUSHUNCHA VA IBORALAR.

- Xalqaro savdo nazariyasining zamonaviy hususiyatlari.
- Mark Melist nazaryasi.
- Autsorsing tushunchasi.
- To'liq bo'lmagan kontraktlar modeli.

Xalqaro savdoning gravitatsion nazaryasi.

Tinbergen gipotezasi.

Gipper raqobat va innovatsion taraqqiyot sharoitida xalqaro kompaniyalarning xalqaro savdodagi ishtiroki.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Xalqaro savdoning tovar tarkibi nimalardan iborat ?
2. Xalqaro savdoning zamonaviy xususiyatlarini ketma-ketligi qanday ?
3. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning namunalarini necha hil turi mavjud ?
4. Ko'p millatli va outsorsing. Korporatsiya qachon ko'p millatli bo'ladi?
5. Xorijiy investitsiyalar tushumining mamlakatlar guruhlarida bo'yicha taqsimlanishi qanday shakllarda bo'ladi ?

XALQARO SAVDONING TARKIBI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIGA TA'SIRI

Ushbu bobda quyidagi bilimlar bayon etilgan:

- Xalqaro savdoning rivojlanish bosqichlari.
- Xalqaro savdoning Tovar tarkibi.
- Jahon savdosining tarkibi va uning o'zgarish tendnsiyalari.
- Korona virus inqirozning xalqaro savdo konyukturasiga ta'siri.
- Korona virus inqirozning jahon bozori konyukturasiga ta'siri.
- O'zbekiston tashqi savdosining tarkibi.
- Tashqi savdoning rivojlanish omillari.
- Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi hajmi.
- O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi.


Kirish

Bugungi kunda O'zbekistonning tashqi savdo aloqalarini rivojlanishi bozor islohotlarini amalga oshirish jarayonida mavjud bo'lgan milliy iqtisodiyotning real ehtiyojlari asosida amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish, mamlakatni dunyoning bir qator rivojlangan davlatlaridan biri sifatida o'rin egallashga qaratilgan.

Bugungi kunda butun dunyoda sodir bo'layotgan pandemiya sharoitida O'zbekistonning jahon iqtisodiyotida, xalqaro savdodagi mavqeyini oshirishda eng avval Jahon bozorida o'rni yanada mustahkamlash va buning zamirida mikro va makroiqtisodiy tendensiyalarni xisobga olgan xolda iqtisodiy barkarorlikka erishishimiz va bu borada chuqur bilimlarni egallashimiz va kelajak avlodga ushbu bilimlarni singdirishimiz zarur, bu orqali davlatimizning xalqaro savdoda mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sirini yanada oshirishda o'zimizning kichik hissamizni qo'shgan hisoblanamiz.

6.1. Xalqaro savdoning rivojlanish bosqichlari zamonaviy hususiyatlari

Jahon xo‘jaligi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – bu xalqaro iqtisodiy munosabatlarning intensiv rivojlanib borishi hisoblanadi. Bu mamlakatlar, mamlakatlar guruhi, aloxida firma va korxonalar o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi tobora chuqurlashuvi bilan izoxlanadi. Ushbu holatni xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, xo‘jalik hayotining globallashuvi, milliy iqtisodiyot ochiqligining kuchayishi, mamlakatlarning iqtisodiy integratsiyalashuvi va xududiy xalqaro iqtisodiy aloqalar strategiyasining chuqurlashib borayotganligini ko‘rish mumkin.



6.1-rasm. Xalqaro savdoning rivojlanishi.

Xalqaro savdo o‘zining rivojlanish bosqichlariga ega bo‘lib, xar bir bosqich o‘z tarixiy xususiyatlari bilan ajralib turadi:

➤ tashqi savdo aloqalarining lokal darajada shakllanish bosqichi - (VI-XII asrlar) O‘rta yer dengizidan Sharqqa tomon xalqaro savdo yo‘llarining vujudga kelishi;

➤ tashqi savdo aloqalarining mintakaviy darajada shakllanish bosqichi - (XII- asrlar) tashqi savdo aloqalarining O‘rta yer, Boltiq va Shimoliy dengizlarida konsentratsiyalashuvi;

➤ tashqi savdo aloqalari globallashtirishning boshlanish bosqichi — (XV- XVII asrlar) Buyuk geografiya kashfiyotlari tufayli xalqaro savdo yo‘llarining Atlantika, Hind va Tinch okeanlariga ko‘chishi;

➤ tashqi savdo aloqalarining intensivlashuv bosqichi - (XVII-XIX asrlar) sanoat to‘ntarishi, G‘arbiy Yevropa va AQSH iqtisodiyotining industriallashtirish jarayoni bilan bog‘liq;

➤ tashqi savdo aloqalarining militarizatsiyalashuv bosqichi — (XIX oxiri -XX asr boshi) Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari bilan bog‘liq;

➤ integratsion bloklar va birlashmalarning tashqi savdo munosabatlariga faol ta’sir etish bosqichi - (XX asrning o‘rtasi va ikkinchi qismi);

➤ tashqi savdo aloqalari globallashtirish jarayonlarining zamonaviy bosqichining shakllanishi va jahon bozorining vujudga kelishi;

Xalqaro savdoning zamonaviy xususiyatlari:

➤ ilm-fan va texnika taraqqiyotiga ta’sirida mahsulot hamda xizmatlar savdosi hajmining keskin ortishi;


➤ ilm-fan va texnika taraqqiyotiga ta’sirida mahsulot hamda xizmatlar savdosi hajmining keskin ortish.

➤ Ilm-fan va texnika taraqqiyoti ta’sirida jahon ekportining tovar tarkibidagi ilm-fan sig‘imkorligi yuqori bo‘lgan maxsulot va xizmatlar ulushining ortishi;

➤ Tashqi savdo aylanmasining jon boshiga baholangan qiymatining notekis taqsimlanishi;

➤ Yangi tarmoq va ishlab chiqarishning vujudga kelishi;

- Qator mamlakatlarning ayrim mahsulotlar importiga bogʻliqligini ortishi;
- Tashqi bozorda ortiqcha mahsulotni sotish kabi sodda shaklining turli mamlakat korxonalarini oʻrtasidagi hamkorlik aloqalari asosida avvaldan kelishilgan holda mahsulotni yetkazib berish shakliga oʻtishi.



6.2-rasm. Xalqaro savdoning Tovar tarkibi

Xalqaro savdoning tovar tarkibi – xalqaro savdoning tarkibini aniqlovchi tovar mutanosibliklari majmui va aloqalaridan iborat bo‘lib, maqsadi inson ehtiyojlariga moslashtirish nuqtai nazaridan xalqaro savdo sohasida tovarlarni differensiyalash hisoblanadi.

Xalqaro savdoning hududiy tarkibi – bu xalqaro savdoning hududiy tarkibini aniqlovchi mutanosibliklar va aloqalar majmui bo‘lib, bu tarkib xalqaro savdoning quyidagi xususiyatlari va rivojlanish yo‘nalishlarini ajratish imkonini beradi:

- Alohida mamlakatlarning savdo oqimlarini ajratish;
- Bir guruh mamlakatlar o‘rtasidagi savdo oqimlarini ajratish;
- Mintaqalar o‘rtasidagi savdo oqimlarini ajratish.
- Xalqaro savdoning asosiy ulushi oqimlarining rivojlangan mamlakatlar guruhida yig‘ilganligi;
- Jahonning yirik savdo imperiyalari bo‘lib AQSH, Germaniya va Yaponiya hisoblanadi;
- AQSH eksportining faollashuvi;
- Yaponiya eksportining o‘sishi (birinchi navbatda, boshqa Osiyo mamlakatlariga);
- Janubiy Osiyo mamlakatlarida xalqaro savdoning faol rivojlanishi (ko‘proq Pokiston va Hindiston hisobiga);
- Sharqiy Osiyo va qisman Lotin Amerikasi mamlakatlari xalqaro savdosining ustun darajada rivojlanishi (Yaponiydan tashqari);
- Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari tashqi savdosining sekin rivojlanishi

Xalqaro savdoning zamonaviy xududiy tarkibidagi o‘zgarishlar tendensiyasi quyidagilar orqali ifodalanadi:

- Xalqaro savdoda bozor iqtisodiyotiga ega rivojlangan mamlakatlar ulushining saqlanib qolishi;
- Xalqaro savdo asosiy qismining rivojlangan mamlakatlar guruhi ichida mujassamlashuvi;
- Rivojlanayotgan mamlakatlar ulushining ortishi;
- Rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida savdo aloqalari hajmining ortishi;

O‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarning xalqaro savdodagi pozitsiyasining zaifligi (rivojlangan mamlakatlar tashqi savdo aylanmasida 3,5%, rivojlangan mamlakatlar tashqi savdo aylanmasida 2,5%).

Demak, zamonaviy xalqaro savdoning **asosiy omillari** quyidagilardan iborat:

- milliy iqtisodiyotlarning ochikligi;
- milliy iqtisodiyotlar ishlab chiqarish salohiyatining oʻsishi;
- xalqaro savdoning xududiy va tovar oʻzgarishi;
- xizmatlar sohasining rivojlanishi; intellektual va ilmiy-texnik faoliyatining moddiylashgan va moddiylashmagan shaklida rivojlanishi.

| | |
|-----|---|
| 6.1 | <p>Savollar</p> <p>1. Xalqaro savdoning rivojlanish bosqichlariga hosususiyatlari nimalardan iborat?</p> <p>2. Jahon savdosi qanday tarkibga va rivojlanish tendensiyasiga ega?</p> <p>3. Zamonaviy xalqaro savdoning asosiy omillari nimalardan tashkil topgan.</p> |
|-----|---|

6.2. Jahon savdosining tarkibi va uning oʻzgarish tendensiyalari

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro savdo jadal surʼatlar bilan rivojlana boshladi. 1950-1998-yillarda jahon eksporti 16-martaga ortdi. Gʻarb mutaxassislarining fikricha, 1950 va 1970-yillar oraligʻini xalqaro savdoning rivojlanishidagi “oltin asr” deb atash mumkin. Mana shu davr oraligʻida jahon eksportining oʻrtacha yillik oʻsish surʼati 7% ni tashkil etadi. Oʻtgan asrning 70-yillariga kelib jahon eksportining oʻsish surʼati 5% ga qadar, 80-yillarda esa yanada pasaya boshladi. XX asr 80-yillarining oxiriga kelib jahon eksportining oʻsish surʼati jadallasha boshladi. Masalan, 1988-yilda xalqaro savdoning oʻsish surʼati 8,5% gacha ortgani holda 90-yillarda jahon eksportining oʻsish surʼatida yana pasayish kuzatildi, 90-yillarning oʻrtalaridan boshlab esa barqaror oʻsish tendensiyasiga ega boʻlib, oʻrtacha 7% ni tashkil etgan.

Xalqaro savdoning barqaror o‘shish sur‘atiga kuyidagi omillar ta‘sir ko‘rsatadi:

➤ xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi, ishlab chiqarish va kapitallar harakatining baynalminallashuvi;

➤ asosiy kapitalning yangilanishi, yangi iqtisodiy tarmoklarning yaratilishi va JST tadbirlari yordamida xalqaro savdoning erkinlashtirilishi;

➤ xalqaro savdoning erkinlashuvi, mamlakatlarning import bojlari va miqdoriy cheklovlarni bekor qilishga o‘tishlari;

➤ transmilliy korporatsiyalarning jahon bozorlaridagi faoliyatining faollashuvi;

➤ iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi;

➤ regional to‘siqlarning bekor qilinishi, umumiy bozor, erkin savdo zonalarining shakillanishi;

➤ sobiq kolonial mamlakatlarning mustaqillikka erishishi. Tashqi bozorlarga yo‘naltirilgan iqtisodiy modelga ega “yangi industrial mamlakatlar” ning ajralib chiqishi;

➤ o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi va iqtisodiyotlari ochiqligining chuqurlashuvi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan omillar xalqaro savdoning quyidagi zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini belgilab beradi.

Birinchi, xalqaro savdoning rivojlanish dinamikasi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qadar yuqori o‘shish sur‘atlari bilan tavsiflanadi. Taxdidlar ko‘rsatishicha, 1948-yildan 2019-yilga qadar jahon tovarlar eksporti 346 mlrd. dollardan 15,2 trln. dollargacha, ya‘ni 44-martaga ortgan va uning o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 7-8% ni tashkil etgan.

Ikkinchi, mamlakatlar tashqi savdosi iqtisodiy rivojlanishga nisbatan jadal sur‘atlar bilan rivojlangan. Masalan, AQSH yalpi ichki mahsuloti 1990-1995-yillarda 31,4% ga o‘sgan bo‘lsa, uning eksporti - 48,4, importi esa 50,5% ga ortgan.

Uchinchi, dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida eksport va import kvotalarining ortishi yuz berdi. Agar 1978-1987-yillarda jahon

sanoat mahsulotining 13,8% i eksport qilingan bo'lsa, 90-yillarning ikkinchi yarmida bu ko'rsatkich 17% ni tashkil etdi.

To'rtinchidan, xalqaro savdoning geografik tarkibi mamlakatlarning xududiy yoki tashkiliy belgilari bo'yicha rivojlanmoqsa. Xalqaro savdoda yetakchi mavqe AQSH, Yevropa Ittifoqi va Yaponiyaga tegishli. Ular hissasiga jahon eksporti va importining 60% i to'g'ri keladi. Jumladan, 2019-yilda jahon tovarlar eksportining 33,4% i, jahon tovarlar importining 37,4% i "katta yettilik" mamlakatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Beshinchidan, xalqaro savdodagi asosiy savdo munosabatlari sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar o'rtasida yuz beradi. Bu ko'rsatkich umumiy savdoning 61% ini tashkil etadi.

Oltinchidan, xalqaro savdoning tovar tarkibi ham o'ziga xos rivojlanish xususiyatlariga ega:

➤ xalqaro tovar aylanmasiga tortilayotgan tovarlar oqimi chuqur diversifikatsiyaga ega. Jumladan, Germaniya 180 ta eksport pozitsiyasiga, Buyuk Britaniya va Fransiya —175 ta, Yaponiya 160 tadan ortiq pozitsiyaga ega;

➤ ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida xalqaro savdoda tayyor mahsulotlar ulushi ortib bormoqda. Bu ko'rsatkich 2019-yilda jahon tovarlar savdosining taxminan 67,1% ga teng bo'ldi;

➤ xalqaro savdoda xomashyo va mineral yoqilg'ilarning ulushi qisqarib bormoqda. Ushbu ko'rsatkich 1937-yilda 38,6% ni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 20,4% ga teng bo'ldi;

➤ jahon savdosida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi qisqarish tendensiyasiga ega bo'lib, bu ko'rsatkich 1937-yilda 22,8% ga, 2020-yilda esa 7,5% ga teng bo'ldi;

➤ 1974-1975-yillardagi Jahon iqtisodiy inqirozidan keyin jahon eksportining tovar tarkibida to'qimachilik va kiyim-kechaklar ulushi orta boshladi. Bu sohada rivojlanayotgan mamlakatlar ulushi keskin ko'payib bordi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tashqi savdo notekis rivojlana boshladi. Mazkur holat jahon bozorida mamlakatlar o'rnining o'zgarish bilan izohlanadi.

Tashqi savdo siyosatining dastaklarining guruhlanishi

| Usullari | | Savdo siyosatining dastaklari | Ustun darajada tartibga solish sohasi | |
|----------------|----------|---|---------------------------------------|--------|
| Tarif | | Bojhona bojlari | | Import |
| | | Tarif kvotasi | | Import |
| Notarif | Miqdoriy | Kvotalash | | Import |
| | | Litsenziyalash | Ekspart | Import |
| | | “Eksportni ixtiyoriy cheklash” | Ekspart | |
| | Yashirin | Davlat haridlari | | Import |
| | | Maxalliy komponentlarining Ushlab turish talabi | | Import |
| | | Texnik to‘siqlar | | Import |
| | | Soliqlar va yig‘imlar | | Import |
| | Moliya | Subsidiyalar | Ekspart | |
| | | Kreditlash | Ekspart | |
| | | Demping | Ekspart | |

2020-yilda deyarli barcha mintaqalarda savdo hajmining pasayishi ikki xonali raqam bilan o‘lchanadi, Shimoliy Amerika va Osiyoda eksport eng ko‘p zarar ko‘rdi. JST taxminiga ko‘ra, savdo qiymati murakkab zanjirli tarmoqlarda, ayniqsa elektronika va avtomobilsozlikda ko‘proq tushishi mumkin. Koronavirus pandemiyasi transport va sayohatlardagi cheklovlar tufayli xizmatlar savdosiga bevosita ta’sir qilishi mumkin. Savdoning 2021-yilda tiklanishi kutilmoqda, ammo bu koronavirus tarqalishining davomiyligi va siyosat choralari samaradorligiga bog‘liq.

O‘tgan asrning 80-yillarida Yaponiya mashina va asbob-uskunalar eksporti bo‘yicha jahonda birinchi o‘ringa chiqib oldi. Yaponiya yengil va yuk avtomobillari, uy-ro‘zg‘or buyumlari eksporti bo‘yicha qolgan mamlakatlarni ortda koldirdi. Ammo yapon eksportining uchdan biri AQSHga to‘g‘ri keladi.

Yaponiyaning AQSH bilan savdo defitsiti 90-yillarda 50-60 mlrd. dollarni tashkil etgan. AQSHning xalqaro savdodagi ulushining qisqarib borishi amerika ishlab chiqarish tarmoqlari raqobatbardoshligining pasayishi bilan bog‘liq. Mutaxassislar fikricha, XXI

asr boshlarida AQSH va Osiyo mamlakatlari xalqaro savdoda eng raqobatbardosh mamlakatlar hisoblanishadi. 2030-yilga borib AQSH, Yaponiya va Xitoy eng raqobatbardosh mamlakatlar sifatida e'tirof etilishi mumkin. Bunday uzok muddatli istiqbolli prognozlar bo'yicha keyingi o'rinlarni Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya, Malayziya va Shveysariya band etishi mumkin. Jahon savdosining hozirgi vaqtdagi holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, xalqaro savdo keyingi o'n yilliklarda shiddat bilan rivojlanib va takomillashib bormokda. Unda nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyogidagi mamlakatlar ham faol ishtirok etib, xar bir mamlakat o'z ishtirokiga qarab iqtisodiy manfaatga ega bo'lmoqda. Lekin rivojlangan mamlakatlar tomonidan tashqi savdo aloqalariga muhim e'tibor qaratilishi va mamlakatning ega bo'lgan iqtisodiy salohiyatining yuqoriligi, bugungi kunda jahon savdosining istiqboldagi strategiyasini belgilab bermoqda.


| | | |
|--|---|--|
| | <p>6.2 Savollar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Jahon savdosining Tovar tarkibi qanday ko'rinishga ega va tovarlar xalqaro savdoda qanday qavday guruhlanadi? 2. Xalqaro savdoning xududiy tarkibidagi o'zgarishlar tendensiyasiga xos xususiyatlar nimalardan iborat?. 3. Xalqaro savdoning barqaror o'sish sur'atiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi? | |
|--|---|--|

6.3. Korona inqirozning xalqaro savdo va jahon bozori kon'yukturasiga ta'siri

Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, jahon iqtisodiyoti oxirgi 50-yilda to'rt marotaba tashqi qarz to'lqinini boshidan kechirdi. Shundan, dastlabki uchta inqirozlar bilan yakunlandi. Ularning oxirgisi sifatida 2010-yildan buyon rivojlanayotgan mamlakatlarda qarz to'lqini o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. 2018-yilda jami qarz 54 foiz punktga oshib, YAIMga nisbatan 170 foizni tashkil etdi.

Joriy past foizli stavkalar yuqori qarz muammolarini bartaraf etishda asosiy vosita bo‘lishi mumkin. Hozirgi kunga qadar iqtisodiy inqirozlar turli moliyaviy instrumentlarning nobarqarorligidan kelib chiqqan bo‘lsa, joriy davrdagi inqirozni yuzaga kelishi tamomila o‘zgacha tus olganligi bilan farqlanadi.

2020-yilda qarz inqirozidan o‘zgacha tusga ega bo‘lgan, boshlanishidan iqtisodiy xususiyat kasb etmagan inqiroz omili – bu pandemiya ekanligini kuzatishga to‘g‘ri kelmoqda. Natijada, iqtisodiy qulashlarning yuz berishi bo‘yicha ayrim signallar vujudga kelmoqda. Bulardan asosiysi “iqtisodiy ta’til”larning yuz berishidir. Boshqacha aytganda, yalpi iste‘molning tushib ketishi va yalpi taklifning to‘xtalishi bilan bevosita bog‘liqdir. Mazkur iqtisodiy inqirozning eng asosiy belgisi sifatida – iqtisodiy harakatsizlikni keltirish mumkin. Bu sharoitda, davlatlarning eng asosiy vazifasi minimal iqtisodiy harakatni ta‘minlab turishdan iborat bo‘lishi lozim.



6.3-rasm. Rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarish sohasidagi o‘zgarishlar.

2020-yil fevralidan boshlab ayrim Xitoy kompaniyalari “Korona-virus obligatsiyalari”ni emissiya qilishni boshlashdi. Shenzhyen Airlines aviakompaniyasi 600 mln. yuan miqdoridagi obligatsiyalarni muomalaga chiqardi. Jalb etilgan mablag‘lar asosan bekor qilingan parvozlarni uchun biletning qiymatini yo‘lovchilarga qaytarib berish va oziq-ovqatlarni transportirovka qilish uchun moliyalashtirish tadbirlariga yo‘naltirilishini ma’lum qilindi.

Jahon bozorida esa, yirik iqtisodiyotga ega mamlakatlar o‘rtasida milliy valyutalari vositasida o‘zaro iqtisodiy musobaqalar boshlanib ketdi. Ba’zi ekspertlarning xulosalari AQSH dollarining xalqaro valyuta bozorida o‘rni yuanning qadri oshishi ortidan xavf ostida qolishini aks ettirmoqda.

Xitoyning iqtisodiyot va boshqa sohalarga ahamiyati mamlakat chegaralaridan anchayin uzoqgacha seziladi. Xitoyliklar hammadan ko‘p avtomobil, smartfon va boshqa mahsulotlarni sotib olishadi. Jahon sayyohlik tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, xitoyliklar chet elga sayohat qilganlarida yiliga 258 milliard dollar sarflashadi. Bu esa amerikaliklar qilgan xarajatlardan deyarli ikki baravar ko‘p.

Xitoy iqtisodiyoti yer yuzidagi deyarli har bir kompaniyaga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Xitoy mahsulotlari dunyoning barcha qismlariga yetkazib beriladi. Xitoyda ishlab chiqarishni to‘xtatish har qanday mamlakatda yoki umuman bir vaqtning o‘zida mahsulot yoki xizmatning tanqisligiga olib kelishi mumkin.

Virus tarqalishining markaziga aylangan Uxan yirik sanoat markazidir. Masalan, u Fransiyadagi barcha investitsiyalarning qariyb 30 foizini tashkil etadi. Shaharda yirik avtomobilsozlik zavodlari ishlaydi, shuningdek, yetkazib beruvchilar va vositachilarning ofislari ham shu yerda joylashgan.

Bu dunyoning boshqa qit’a va mintaqalari ishsizlik balosidan qutulib ketadi, degan ma’noni anglatmaydi. Inqiroz ko‘lamini kamaytirish uchun XVF Lotin Amerikasidagi 19 ta mamlakatga 3,4 milliard dollarga teng favqulodda kreditlar ajratdi. Ammo Amerika qit’asida eng katta iqtisodiy inqirozga yuz tutgan Venesuelaga moliyaviy yordam berilmadi, chunki G‘arb va moliyaviy tashkilotlar Maduro hukumatidan yuz o‘giran.

Osiyoning yirik mamlakatlaridan biri bo‘lgan Indoneziya va uning poytaxti Jakartada ham vaziyat yaxshi emas. Bu mamlakatda

pandemiya sababli ikki million odam ishsiz qolgan. Dunyoning qashshoq mamlakatlaridan biri hisoblangan Nayrobida ahvol yanada ayanchli. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ham ishsizlik bilan bogʻliq vaziyat juda ogʻir. Jahon banki maʼlumotlariga koʻra, Hindistonda 519 million ishchi kuchi mavjud. Qolaversa, mamlakatda qariyb 120 million immigrant shchi bor. Komendantlik soati tufayli millionlab odamlar ishsiz qoldi. Fors koʻrfazi mamlakatlaridan oʻn minglab ishchilarning yurtiga qaytgani ham vaziyatni battar ogʻirlashtirmoqda. Mintaqadagi qashshoqlik muammosi epidemiya natijasida yanada avj olgan. Ishsizlik muammosi kuchayib borayotgani va uning tiklanishi kelgusida uzoq muddat talab qilishini inobatga olsak, aholining bandlik koʻrsatkichlari AQSH uchun jiddiy muammoga aylanib, dunyodagi eng yirik iqtisodiyotga yetarlicha tahdid solmoqda. AQSHda karantin choralari tufayli yuzaga kelayotgan ishsizlik darajasi 1930-yillarda yuz bergan «Buyuk tushkunlik»dan (1929-1933-yillarda yuz bergan dunyo iqtisodiy inqirozi shunday deb ataladi) keyin misli koʻrilmagan koʻrsatkichga yetdi.

2008-2009-yillarda yuz bergan butunjahon moliyaviy inqirozidan keyin oʻn yillikda ketma-ket 100 oy davomida ishlab chiqarish hajmi oshgan, ish oʻrinlari yoʻqotilmagan, natijada joriy yil fevral oyida ishsizlikni soʻngi yarim asrdagi eng past darajagacha (3,5 foiz) kamaytira olgan mamlakat uchun bu misli koʻrilmagan muvaffaqiyatsizlik hisoblanadi. Oʻtgan asrda, ikkita jahon urushi oʻrtasida roʻy bergan «Buyuk tushkunlik»dan beri AQSHda ishsizlik darajasi hech qachon bunday xavfli koʻrinish olmagan: 1980-yillarda roʻy bergan iqtisodiy turgʻunlik davrida ham koʻrsatkichlar deyarli 10 foizdan oshmagan. AQSH zamonaviy tarixda bir kecha-kunduzda oʻn millionlab ish oʻrinlarini yoʻqotishga duch kelmagan. Avvalgi rekord 1945-yilga tegishli edi. Oʻshanda AQSH ikkinchi jahon urushi tugagandan soʻng armiya safida boʻlgan millionlab askarlarni harbiy xizmatdan boʻshatadi va ular ishsizlarga aylanadi. Oʻshanda ham ahvol hozirgidan 10 baravar past boʻlgan – bir vaqtning oʻzida 2 million odam ishsiz qolgan. Iqtisodchilar bunday yirik koʻlamdagi yoʻqotishlar oʻrnini yaqin bir necha yil ichida, virus tarqalishidan oldingi eng past natijagacha tiklashning iloji boʻlmasligi mumkinligi haqida ogohlantirmoqda.

Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyo miqyosida 25 million nafargacha odam ishsiz qolishi, ishchilar daromadlaridagi yo'qotishlar esa 3,4 trillion AQSH dollarini tashkil etishi kutilayotgan edi. Ammo yoz fasli birinchi oyining o'rtalariga kelib dunyo miqyosidagi ishsizlar soni 300 milliondan oshib ketdi.

Dunyo hukumatlari virus tarqalishi mobaynida ishchilar va bizneslarni qo'llab-quvvatlash maqsadida misli ko'rilmagan choralarga qo'l urmoqda. Misol uchun, Britaniya hukumati koronavirus tufayli ishga chiqmagan xodimlar maoshining bir qismini to'lashga va'da berdi. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot tashkilotining rahbari hukumatlarni pandemiya vaqtida budjetni tejash qoidalaridan voz kechishga, barcha imkoniyatlarni inqirozni hal etishga chaqirdi. Ammo, shu bilan birga, u budjet defisiti va davlat qarzlarining oshib ketishi qarzdor mamlakatlar iqtisodiy o'sishini bir-ikki yilga sustlash-tirishidan ogohlantirgan. Xalqaro valyuta fondi tahlillariga ko'ra, 2019-yilda 2,9 foizga o'sgan jahon iqtisodiyoti 2020-yilda 3 foizga qisqarishi mumkin. Bundan tashqari, XVF ishsizlik darajasi 2019-yildagi 3,7 foizdan 9,2 foizga chiqishini taxmin qilmoqda. Hatto rivojlangan davlatlarda ham ishsizlik 6,6 foizdan 9,2 foizga ko'tarilishi kutilyapti.

Xalqaro mehnat tashkilotining qayd etishicha, norasmiy iqtisodda band bo'lgan aholi qatlami rasmiy sektordagi ishchilardan ko'proq zarar ko'radi. Dunyo bo'ylab norasmiy sektorda band aholi 2 milliarddan ko'proqni tashkil qiladi. XMT hisob-kitoblariga ko'ra, dunyo bo'ylab norasmiy iqtisodiyotda band bo'lgan millionlab kishilarning daromadlari karantinning birinchi oyida 60 foizga qisqardi.

COVID-19 pandemiyasining global ta'siri dunyodagi favqulodda tibbiy-sanitariya doirasidan ancha chetga chiqib ketdi. Hozirda kelajagimizning barcha jabhalari – iqtisodiy, ijtimoiy, taraqqiyot sohalari va ko'pgina boshqa yo'nalishlar jiddiy xavf ostiga tushib qoldi.

Dunyoning qator mamlakatlarida millionlab ish joylari va korxonalarini saqlab qolishning imkoni bor bo'lib, buning uchun hukumatlar korxonalarining to'xtovsiz ishlashini ta'minlaydigan, ishdan bo'shatishlarning oldini oladigan va zaif toifadagi xodimlarni himoyalay oladigan qat'iy choralarni ko'rishi zarur bo'lardi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining ko'pchilik mamlakatlari shunday yo'l tutdi.

Hozirgi vaqtda davom etayotgan keskin pasayish uzoqqa cho‘ziladigan resessiyaga aylanib ketmasligi uchun bu davlatlarda rag‘batlantiruvchi budjet-moliya va kredit-pul siyosati amalga oshirildi. Bu holat shundan dalolat beradiki, millionlab odamlar uchun daromad manbai hisoblangan.

Korxonalar va tashkilotlar bunday og‘ir vaziyatda ham jon saqlab qolishi va imkon paydo bo‘lish bilan hammasini boshidan boshlashga tayyor bo‘lishi lozim edi. Ko‘pgina mamlakatlar fuqarolar va iqtisodiyotni himoya qiladigan, ishchi-xodimlar va korxonalar-tashkilotlarga mablag‘lar bilan ta‘minlaydigan qo‘llab-quvvatlovchi choratadbirlarni amalga oshira boshladilar.

Mazkur choralarning maksimal darajada samarali bo‘lishi uchun hukumatlar ish beruvchi tashkilotlar va kasaba uyushmalari bilan birgalikda odamlarni muhofaza qilish va ish joylarini saqlab qolishni ta‘minlaydigan yechimlar ishlab chiqishdi. Bunday choralar qatoriga daromadlarni qo‘llab-quvvatlash, ish haqlarini subsidiyalash, rasmiy ishda ishlaydigan va vaqtincha ishdan bo‘shayotgan xodimlarga nafaqalar to‘lash, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga soliq imtiyozlarini taqdim etish, korxonalarga moliyaviy ko‘mak berish kabilar kiritildi.

Xalqaro miqyosda ko‘rilgan va ko‘rilayotgan choralardan maqsad – kambag‘allik va qashshoqlikka yo‘l qo‘ymaslik. Chunki qashshoqlik har joyda ham jamiyat farovonligi uchun asosiy xavf hisoblanadi. Shunday ekan, dunyo hukumatlari bir tarafda karantin choralari yumshatish, biznesni rivojlantirish, unga katta miqdorda madad ajratish, ikkinchi tomondan ijtimoiy masofaga rioya qilgan holda ijtimoiy obektlar va ishlab chiqarishni tezroq ishga tushirish yo‘lini tanlayapti.

| | | |
|-----|--|--|
| | | |
| 6.3 | <p>Savollar Korona inqirozning xalqaro savdo qonyukturasiga tasirini baxolang.? Koronainqirozning Jahon bozori konyukturasiga tasirini? baxolang. Xalqaro savdoning zamonaviy tarkibi va rivojlanish istiqbollari baxo bering.?</p> | |
| | | |

6.3. O‘zbekiston tashqi savdosining tarkibi va rivojlanish xususiyatlari

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi.

Hukumatning bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar 2019-yil yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasini 42,2 mlrd. AQSH dollariga yetishini va 2018-yilga nisbatan 8,7 mlrd. AQSH dollariga yoki 26,2% ga oshishini ta‘minladi. Ushbu natija mamlakat tarixida eng yuqori ko‘rsatkich sifatida qayd etildi. So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi.

Tashqi savdo aylanmasida 2019-yil eksport hajmi 17,9 mlrd. AQSH dollariga (o‘shish sur‘ati – 128,0 %) va import hajmi 24,3 mlrd. AQSH dollariga (o‘shish sur‘ati – 124,9 %) yetdi. Hisobot davrida 6,4 mlrd. AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

O‘zbekiston jahonning 193 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA-ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (18,1%), Rossiya Federatsiyasida (15,7%), Qozog‘istonda (8,0%), Koreya Respublikasida (6,5%), Turkiyada (6,0%), Germaniyada (2,3%) va Qirg‘izistonda (2,0 %) qayd etilgan.

6.2-jadval.

**Respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega bo'lgan
10 davlat (2019-yil yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)**

| Davlat nomi | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Ulushi, % |
|---------------------|------------------------|---------|--------|-----------|
| Xitoy | 7620,9 | 2519,0 | 5101,9 | 18,1 |
| Qozog'iston | 3367,8 | 1429,7 | 1938,0 | 8,0 |
| Koreya Respublikasi | 2755,4 | 93,5 | 2661,8 | 6,5 |
| Turkiya | 2525,2 | 1203,6 | 1321,6 | 6,0 |
| Germaniya | 980,1 | 53,9 | 926,2 | 2,3 |
| Qozoqiston | 829,1 | 679,1 | 150,0 | 2,0 |
| AQSH | 596,2 | 29,1 | 567,1 | 1,4 |
| Rossiya | 6626,9 | 2492,5 | 4134,4 | 15,7 |
| Afg'oniston | 618,0 | 615,1 | 2,9 | 1,5 |
| Turkmaniston | 541,9 | 145,1 | 396,8 | 1,3 |

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasida so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda tashqi savdo aylanmasi Qirg'iziston Respublikasi va Turkmaniston bilan 3 barobarga hamda Tojikiston va Qozog'iston bilan 2 barobarga oshdi. Afg'oniston bilan tashqi savdo yiliga 600 mln. AQSH dollari darajasida saqlanib qolmoqda.

Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston va Afg'oniston bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini mamlakatning tashqi savdodagi faoliyatini ijobiy natija sifatida baholash mumkin.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa tashqi savdo aylanmasida eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya, Koreya, Turkiya va Germaniya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan. Asosiy hamkor-

davlatlar qatorida Eron va Fransiya bilan faol tashqi savdo balansi ta'minlangan.

6.3-jadval.

O'zbekiston Respublikasining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasida eksport ko'rsatkichi

| Davlat nomi | 2017 yil | 2018 yil | 2019 yil |
|---------------------|---------------|---------------|---------------|
| Xitoy | 4754,2 | 6433,5 | 7620,9 |
| Eksport | 2025,5 | 2875,4 | 2519,0 |
| Rossiya | 4728,7 | 5655,9 | 6626,9 |
| Eksport | 2019,2 | 2117,3 | 2492,5 |
| Qozog'iston | 2055,8 | 2919,6 | 3367,7 |
| Eksport | 1057,6 | 1352,2 | 1429,7 |
| Koreya Respublikasi | 1387,6 | 2159,2 | 2755,4 |
| Eksport | 143,3 | 108,7 | 93,6 |
| Turkiya | 1552,5 | 2057,6 | 2525,2 |
| Eksport | 877,8 | 944,8 | 1203,6 |
| Germaniya | 620,0 | 778,7 | 980,1 |
| eksport | 32,5 | 53,7 | 53,9 |
| Qirg'iziston | 253,7 | 402,8 | 829,0 |
| Eksport | 178,3 | 269,7 | 679,0 |
| Afg'oniston | 617,8 | 604,6 | 618,0 |
| Ekport | 615,6 | 602,5 | 615,1 |
| AQSH | 215,0 | 415,0 | 596,2 |
| Eksport | 32,1 | 36,8 | 29,1 |
| Turkmaniston | 177,9 | 302,8 | 541,9 |
| Eksport | 66,9 | 59,5 | 145,1 |
| Tojikiston | 237,9 | 390,5 | 497,0 |
| eksport | 186,1 | 237,5 | 344,2 |

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg'oniston (612,1 mln. AQSH dollari), Qirg'iziston (529,0 mln. AQSH dollari), Tojikiston (191,5 mln. AQSH dollari), Fransiya (65,7 mln. AQSH dollari) va Eron (15,0 mln. AQSH dollari). Qolgan 15 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

O'zbekistonning tashqi savdo aloqalarini rivojlanishi bozor islohotlarini amalga oshirish jarayonida mavjud bo'lgan milliy iqtisodiyotning real ehtiyojlari asosida amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish, mamlakatni dunyoning bir qator rivojlangan davlatlaridan biri sifatida o'rin egallashga qaratilgan.

6.4-jadval.

O'zbekiston Respublikasining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasida import ko'rsatkichi.

| Davlat nomi | 2017 yil | 2018yil | 2019 yil |
|---------------------|---------------|---------------|---------------|
| Xitoy | 4754,2 | 6433,5 | 7620,9 |
| Import | 2728,7 | 3558,1 | 5101,9 |
| Rossiya | 4728,7 | 5655,9 | 6626,9 |
| Import | 2709,5 | 3538,6 | 4134,4 |
| Qozog'iston | 2055,8 | 2919,6 | 3367,7 |
| Import | 998,2 | 1567,4 | 1938,0 |
| Koreya Respublikasi | 1387,6 | 2159,2 | 2755,4 |
| Import | 1244,3 | 2050,5 | 2661,8 |
| Turkiya | 1552,5 | 2057,6 | 2525,2 |
| import | 674,7 | 1112,8 | 1321,6 |
| Germaniya | 620,0 | 778,7 | 980,1 |
| import | 587,5 | 725,0 | 926,2 |
| Qirg'iziston | 253,7 | 402,8 | 829,0 |
| import | 75,4 | 133,1 | 150,0 |
| Afg'oniston | 617,8 | 604,6 | 618,0 |
| import | 2,2 | 2,1 | 2,9 |
| AQSH | 215,0 | 415,0 | 596,2 |
| import | 182,9 | 378,2 | 567,1 |
| Turkmaniston | 177,9 | 302,8 | 541,9 |
| import | 108,0 | 243,3 | 396,8 |
| Tojikiston | 237,9 | 390,5 | 497,0 |
| import | 51,8 | 153,0 | 152,8 |


6.5-jadval.

O‘zbekiston Respublikasining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasida saldo ko‘rsatkichi.

| Davlat nomi | 2017 yil | 2018 yil | 2019 yil |
|---------------------|---------------|---------------|---------------|
| Xitoy | 4754,2 | 6433,5 | 7620,9 |
| Savdo | -703,2 | -682,7 | -2582,9 |
| Rossiya | 4728,7 | 5655,9 | 6626,9 |
| Savdo | -690,3 | -1421,3 | -1641,9 |
| Qozog‘iston | 2055,8 | 2919,6 | 3367,7 |
| Savdo | 59,4 | -215,2 | -508,3 |
| Koreya Respublikasi | 1387,6 | 2159,2 | 2755,4 |
| Savdo | -1100,9 | -1941,8 | -2568,2 |
| Turkiya | 1552,5 | 2057,6 | 2525,2 |
| Savdo | 203,1 | -168,0 | -118,0 |
| Germaniya | 620,0 | 778,7 | 980,1 |
| Savdo | -555,0 | -671,3 | -872,3 |
| Qirg‘iziston | 253,7 | 402,8 | 829,0 |
| Savdo | 102,9 | 136,6 | 529,0 |
| Afg‘oniston | 617,8 | 604,6 | 618,0 |
| Savdo | 613,4 | 600,4 | 612,2 |
| AQSH | 215,0 | 415,0 | 596,2 |
| Savdo | -150,8 | -341,4 | -538,0 |
| Turkmaniston | 177,9 | 302,8 | 541,9 |
| Savdo | -38,1 | -183,8 | -251,7 |
| Tojikiston | 237,9 | 390,5 | 497,0 |
| Savdo | 134,3 | 84,5 | 191,4 |

O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi dinamikasi tahlili 2019-yilda o‘tgan yillarga nisbatan eksport va import hajmlarini o‘rishini ko‘rsatdi. 2017-yilga nisbatan tashqi savdo aylanmasi 1,6 barobarga oshdi va import (1,9 barobar) esa eksportga (1,3 barobar) nisbatan tezroq o‘tdi.


Tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismini MDH davlatlari tashkil etib, so‘nggi yillarga nisbatan asta-sekin kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda.



**6.5-rasm. Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi hajmi
(yanvar-dekabr, mlrd. AQSH dollari)**

Shuni ta’kidlab o’tish kerakki, mamlakatning tashqi savdo faoliyatida mavsumiylik mavjud. Ya’ni, yil o’rtasida nisbatan yuqori faollik kuzatilib, oylik tashqi savdo aylanmasi iyul oyida o’zining eng yuqori qiymati – 4,8 mlrd. AQSH dollari bilan respublikaning tashqi savdo muvozanatini ta’minladi. 2019-yil dekabrda tashqi savdo aylanmasi 3,9 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi va yilni passiv savdo balansi bilan yakunladi.


Tashqi savdo aylanmasining choraklar kesimida tahlillari shuni ko’rsatdiki, eng yuqori tashqi savdo aylanmasi 12 mlrd. AQSH dollari bilan 2019-yilning III choragiga to’g’ri kelib, 2017-2018-yillarga nisbatan 1,5 barobar oshganini ko’rsatdi.



6.6-ram. Tovar va xizmatlar eksport-importning oylik dinamik ko'rsatkichlari (2019-yilning oylari bo'yicha, mlrd. AQSH dollari)

2017-2019-yillardagi tashqi savdo aylanmasi o'rishiga alohida e'tibor berish talab etiladi. Ya'ni, 2019-yilning III choragida passiv tashqi savdo balansi 6,7 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi va 2017-yilning II choragidagi ko'rsatkichga nisbatan 2,4 barobar oshgan.

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.



6.7-rasm. Tashqi savdo aylanmasi va balansining choraklik dinamik ko'rsatkichlari (2017-2019-yillarning choraklari bo'yicha, mlrd. AQSH dollari)

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari

bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

Savdo hajmlarining kutilayotgan pasayishi 2020-yilda global iqtisodiyotning muqarrar umumiy pasayishining ajralmas qismi bo‘lib, uning hisob-kitoblari hozirda 5% dan 30% gacha va undan yuqori oralig‘ida o‘zgarib turadi. Shu munosabat bilan, urushdan keyingi davrda jahon savdosining o‘sishi jahon yalpi ichki mahsulotining o‘sish sur‘atlaridan tez-tez ustun bo‘lib turishini esga olish o‘rinlidir. Boshqacha aytganda, savdo iqtisodiy o‘sishning kuchli omili bo‘lib xizmat qildi. Shubhasiz, endi yaqin o‘tmishdagi vaziyatga qaytish uchun yillar kerak, bo‘ladi.

2020-yilda deyarli barcha mintaqalarda savdo hajmining pasayishi ikki xonali raqam bilan o‘lchanadi, Shimoliy Amerika va Osiyoda eksport eng ko‘p zarar ko‘radi. JST taxminiga ko‘ra, savdo qiymati murakkab zanjirli tarmoqlarda, ayniqsa elektronika va avtomobilsozlikda ko‘proq tushishi mumkin. Koronavirus pandemiyasi transport va sayohatlardagi cheklovlar tufayli xizmatlar savdosiga bevosita ta’sir qilishi mumkin. Savdoning 2021-yilda tiklanishi kutilmoqda, ammo bu koronavirus tarqalishining davomiyligi va siyosat choralarining samaradorligiga bog‘liq.

Dunyo tovarlari savdosi 2019-yilga nisbatan 2,9 foizga o‘sganidan so‘ng, hajm jihatidan 10.1% ga ozgina pasayishni qayd etdi. Shu bilan birga, 2019-yilda jahon tovarlari eksportining dollar qiymati 3 foizga tushib, 18,89 trln.\$ni tashkil etdi.

Bundan farqli o‘laroq, 2019-yilda dunyo tijorat xizmatlari savdosi o‘sdi, bunda eksport hajmi 2% ga o‘sib, 6,03 trln. \$ni tashkil etdi. Xizmatlar savdosi 9 foizga o‘sgan 2018-yilga nisbatan kengaytirish sur‘ati sekinroq bo‘ldi.

Asosiy tushunchalar.

Xalqaro savdoning ko‘lami - tovar va xizmatlar xalqaro savdosining miqdoriy jihatlar.

Xalqaro savdoning tarkibi — xalqaro savdoni aniqlovchi xududiy mutanosibliklar majmui va aloqalari.

Xalqaro savdoning tovar tarkibi — xalqaro savdoni aniqlovchi tovar mutanosibliklar majmui va alokalari.

Xalqaro savdoning xududiy tarkibi — bu xalqaro savdoning xududiy tarkibini aniqlovchi muganosibliklar va alokalar majmui.

Xomashyo tovarlari — qishloq va oʻrmon xoʻjaligi, baliqchilik va ov maxsulotlari, qayta ishlash uchun katta sarf-xarajat talab etmaydigan qazilma boyliklar.

Yarim tayyor maxsulot — yakunlovchi kayta ishlashni talab etadigan maxsulotlar.

Tayyor maxsulotlar - oxirigacha tayyor mahsulotlar.
Qisqa muddatda foydalanuvchi tayyor sanoat maxsulotlari — 1-yil va undan kiska davrda ishlatiladigan tovarlar.

Uzok muddatda ishlatiladigan tovarlar - 1-yildan uzoq ishlatiladigan tovarlar.

Qisqa muddatda ishlatiladigan isteʼmol tovarlari (nooziq-ovqat) -1-yil va undan qisqa davrda ishlatiladigan tovarlar.

Oʻrta muddatda isteʼmol qilinadigan tovarlar - nisbatan kichik qiymatga ega boʻlgan 1-yildan 3-yilgacha ishlatish muddatiga ega tovarlar.

Xalqaro savdo siyosati — jahon savdosini tartibga solishga yoʻnaltirilgan xalqaro tashkilot va xududiy ittifoqlar faoliyati.

Nazorat savollari.

1. Xalqaro savdoning rivojlanish bosqichlariga xos xususiyatlar nimalardan iborat?

2. Jahon savdosi qanday tarkibga va rivojlanish tendensiyalariga ega?

3. Jahon savdosining tovar tarkibi qanday koʻrinishga ega va tovarlar xalqaro savdoda qavday guruhlanadi?

4. Xalqaro savdoning xududiy tarkibidagi oʻzgarishlar tendensiyasiga xos xususiyatlar nimalardan iborat?

5. Xalqaro savdoning barqaror oʻsish surʼatiga qaysi omillar taʼsir koʻrsatadi?

6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining xalqaro savdoga taʼsirini baholang.

TASHQI SAVDONI TARTIBGA SOLISHNING TARIF METODLARI

Ushbu bobda quyidagi bilimlar bayon etilgan:

- Tashqi savdoni tartibga solish zaruriyatlari.
- Tashqi savdo siyosati.
- Bojxona tarifining turlari.
- Bojxona tarifining guruhlanishi va xisoblash usullari.
- Tarif stavkalarining katta va kichik mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri.
- Tarif stavkalarini qo'llashning Jahon tajribalari.
- Tarif siyosatining afzalliklari va kamchiliklari.
- Tashqi siyosatining zamonaviy tendensiyalari.

KIRISH

Jahon xo'jaligida tashqi savdoni tartibga solishning tarif metodlaridan foydalangan xolda davlatlar tashqi savdo aloqalarini qaytadan tashkil etish, ayrim tarmoq va sohalarda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish zarurati borligi ham ayon bo'lmoqda. Natijada, keyingi yillarda global va mintaqaviy darajada dunyo tashqi savdosida yangi yo'nalishlarda siljishlar ro'y bermoqda. Davlatlarning tashqi savdo strategiyalarida ham tub o'zgarishlar namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi avvalo, tashqi savdo sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, hamda tashqi savdo faoliyatini tartibga solish sohasida davlat boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi. Shuningdek, ushbu vazirlik o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan va normativ-huquqiy xarakterga ega bo'lgan qarorlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qat'iy nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

7.1 Tashqi savdoni tartibga solish zaruriyati va tashqi savdo siyosati


Tashqi savdo siyosati davlat tashqi iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib, milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish va tashqi raqobatdan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishga ko‘maklashuvchi chora tadbirlar yig‘indisidir.

Tashqi savdo siyosati quyidagi ikki yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

1 eksport siyosati;

2 import siyosati.

Eksport siyosati eksportga yo‘naltirilgan rivojlanish modeli doirasida rivojlanadi. Import siyosatining turlaridan biri import o‘rnini qoplash siyosati hisoblanib, bu siyosat ko‘pchilik mamlakatlar iqtisodiyotining sanoatlashishida katta rol o‘ynagan. Tashqi savdo siyosatining asosida mumkin qadar qulaylik yaratish rejimi yotadi. Tashqi savdo siyosati milliy, ikki tomonlama, hududiy, xalqaro darajalarda amalga oshiriladi. Qayd yetib o‘tilgan har bir daraja o‘z xususiyatlariga ega. Davlatning tashqi savdoga aralashish miqyosiga va tartibga solish darajasiga qarab tashqi savdo siyosati proteksionistik va erkin savdo xarakteriga ega bo‘ladi.



7.1-Rasm. Tashqi savdo siyosatining turlari.

Erkin savdo munosabatlari, talab va taklif asosida rivojlanadigan erkin savdo davlatning eng kam aralashuvi siyosatini aks ettiradi.

Proteksionizm - tarif va notarif instrumenglarni qo‘llash yo‘li bilan ikki bozorni xorijiy raqobatchilardan ximoya qilish davlat siyosatidir.

Qaysi siyosat afzal, degan savol iqtasodchilarning doimiy bahslashuviga olib keladi. Milliy sanoat rivojlanishiga imkon beruvchi proteksionizm afzalmi yoki milliy ishlab chiqarish ustuvorliklarini xalqaro ustuvorliklar bilan qiyosiy taqqoslash imkonini beruvchi savdo erkinligimi? Tarixning turli davrlarida tashqi savdo amaliyoti goh u tomonga, goh bu tomonga kayishib kelgan, to‘g‘ri, u hech qachon ekstremal shakllardan birontasini qabul qilmagan. XX asrning 50-60-yillarida xalqaro iqtisodiyot uchun proteksionizmdan tashqi savdoni yanada liberallashtirish tomonga qaygish xos bo‘lgan bo‘lsa, 70-yillarning boshidan teskari tamoyil ko‘zga tashlandi—mamlakatlar o‘z ichki bozorlarini tarif va notarif to‘sikdar yordamida xorijiy raqobatdan himoya qilishni boshladilar. Zamonaviy proteksionizm nisbatan tor sohalarda-qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, kiyim-kechak va po‘lat tarmoqlarida mujassamlashgan.

Proteksionisgik tamoyillar rivojlanishining kuyidagi shakllarini ajratish mumkin:

➤ Selektiv proteksionizm – ayrim mamlakatlar yoki tovarlar guruhiga nisbatan qo‘llaniladi;

➤ Tarmoq proteksionizm – muayyan tarmoqlarni, avvalo agrar proteksionizm doirasida qishloq xo‘jaligini ximoyalaydi;


➤ Jamoaviy proteksionizm – mamlakatlar birlashmarlari tomonidan ushbu birlashmaga kirmaydigan mamlakatlarga nisbatan qo‘llaniladi;

➤ Yashirin proteksionizm – ichki iqtisodiy siyosat usullari yordamida amalga oshiriladi.

Savdo siyosati doirasida iqtisodiy, siyosiy, ma‘muriy, tashkiliy, xuquqiy va boshqa masalalar uzviy bog‘lanib ketadi. Xalqaro iqtisodiyot asosan savdo siyosati choralarini qullashning iqtisodiy shart-sharoitlarini va oqibatlarini o‘rganib, huquqiy va tashkiliy masalalarni ixtisoslashgan fan tarmoklari, chunonchi, xalqaro savdo xuquqi, xalqaro marketing kabil-larning ko‘rib chiqishi uchun qoldiradi.

Xalqaro savdoning davlat boshqaruvi instrumentlari o‘z xususiyatiga ko‘ra tarif-bojxona tarifini qo‘llashga asoslangan va notarif - boshqa barcha usullarga bo‘linadi. Boshqaruvning notarif usullari

miqdoriy va yashirin proteksionizm usullariga bo‘linadi. Savdo siyosatining aloxida instrumentlari ko‘pincha importni cheklash yoki eksportni ragbatlantirish zarurati tug‘ilganda qo‘llaniladi. Savdo siyosati dastaklarining tasnifi.



7.2-rasm. Proteksionizm turlari.

7.1-jadval.

Tashqi savdo siyosatining dastaklarining guruhlanishi.

| Usullari | | Savdo siyosatining dastaklari | Ustun darajada tartibga solish sohasi | |
|----------|-----------|--|---------------------------------------|--------|
| Tarif | | Bojhona bojlari | | Import |
| | | Tarif kvotasi | | Import |
| Notarif | Miqdoriy | Kvotalash | | Import |
| | | Litsenziyalash | Eksport | Import |
| | | “Eksportni ixtiyoriy cheklash” | Eksport | |
| | Yashirin | Davlat haridlari | | Import |
| | | Mahalliy komponentlarni ushlab turish talabi | | Import |
| | | Texnik to‘siqlar | | Import |
| | | Soliqlar va yig‘imlar | | Import |
| | Moliyaviy | Subsidiyalar | Eksport | |
| | | Kreditlash | Eksport | |
| | | Demping | Eksport | |

Davlatning xalqaro savdo soxasidagi asosiy vazifasi-mamlakat eksporterlariga o‘z mahsulotlarini iloji boricha ko‘proq miqdorda xorijga eksport qilishda yordam berish, ularning tovarlarini tashki bozorda yanada raqobatbardosh qilishdir. Mamlakat ichkarisida xorijiy tovarlarga talabni kuchaytirish, importni cheklash ham uning vazifasiga kiradi.


Dunyoning turli mamlakatlari o‘z savdo siyosatlarini amalga oshirish uchun turli dastaklardan foydalanadilar. Bir so‘z bilan aytganda, mamlakat xalqaro savdo siyosatining u yoki bu dastaklarini qo‘llash haqida qaror qabul qilar ekan, odatda, ularning birgalikda ta’sir ko‘rsatishi va joriy vaziyatga ta’sirini, davlat ichkarisida va undan tashqarida kutilayotgan istiqbollarini baholaydi.

| | | |
|-----|---|---|
| | | |
| 7.1 | 1. Tashqi savdoni tartibga solish zaruriyati nimada? 2. Tashqi savdo siyosati nima va uning qanday shakllari mavjud? 3. Tashqi savdo siyosatining yo‘nalishlariva dastaklarini nimalardan iborat? | ? |
| | | |

7.2. Bojxona tarifining turlari va hisoblash usullari

Tashqi savdoni tartibga solishda hukumat tarif va notarif dastaklarni qo‘llaydi va ushbu dastaklarning amaliy qo‘llanilishini davlat yoki jamoat tashkilotlari ta’minlaydi. Tariflar bojxona tariflariga asoslangan dastaklar bo‘lsa, notarif dastaklar qolgan hamma dastaklarni o‘z ichiga oladi.

Savdo siyosatining asosiy dastagi - bu bojxona tarifidir. Bojxona tarifiga turli xil ta’riflar berilgan, ammo fikrimizcha, ular orasida eng to‘g‘risi quyidagicha: “bojxona tarifi—bu maxsulot bojxona chegarasidan olib o‘gilayotganda to‘lanishi kerak bo‘lgan bojxona bojlari haqidagi umumiy ma’lumotdir”.



7.3-rasm. Bojxona bojlari guruhlanishi.

Bojxona boji mahsulotni import yoki eksport qilganda bojxona xodimlari tomonidan undiriladigan majburiy to'lovdir. Bojxona boji quyidagi vazifalarni bajaradi:

— fiskal - davlat budjetiga kelib tushuvchi tushumlardan biri bojxona bojidir;

— proteksionistik (himoya vazifasi) - importni cheklash orqali milliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy raqobatda himoya qiladi;

— balanslovchi

— ayrim sabablarga ko'ra ichki narxi jahon narxidan past bo'lgan mahsulotlarni xorijga oqib chiqib ketilishini cheklaydi. Bojxona bojlarini turli mezonlar bo'yicha quyidagicha guruhlash mumkin.

1. undirish usuliga ko'ra:

— advolor - mahsulotni bojxona qiymatidan foiz shaklida hisoblanuvchi va undiriluvchi boj;

— spesifik -mahsulotning xar bir o'lchov birligidan belgilangan miqdorda undiriladigan boj;

— kombinatsiyalashgan - advolor va spesifik uzviy ravishda birgalikda qo'llaniluvchi boj.

2. Undirish obyektiga ko'ra:

— import - import qilinuvchi mahsulotlardan undiriluvchi boj;

— eksport - eksport tovarlaridan undiriladi;

— tranzit - bojxona hududini kesib o'tuvchi tovarlardan undiriladi.

3. Harakteriga ko'ra:

— davriy - davriy maxsulotlar (asosan, qishloq xo'jalik mahsulotlari) ning xalqaro savdosini tartibga solishning joriy dastagi bo'lgan bojlar;

— dempingga qarshi — mamlakat xududiga o'zining haqiqiy narxidan past narxda tovar olib kirilishi natijasida milliy ishlab chiqaruvchilarga zarar yetkazilsa, bu mahsulot importidan undiriladigan boj;

— kompensatsion — import qilinadigan mahsulotni ishlab chiqarishda bevosita yoki bilvosita subsidiyalar qo'llanilgan bo'lsa va buning natijasida milliy ishlab chiqaruvchilarga zarar keltirilayotgan bo'lsa, qo'llaniladigan boj.

4. Kelib chiqishiga ko'ra:

— avtonom - davlat boshqa davlatlar bilan kelishib o'tirmasdan joriy qilingan bir tomonlama bojlar;

— konvension - ikki yoki kup tomonlama kelishuv asosida joriy qilinuvchi bojlar;

— preferensial - sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlardan import qilinadigan tovarlardan undiriladigan chegirmali bojlar.

5. Stavka turiga ko'ra:

— doimiy - shart-sharoit o'zgarsa ham o'zgarmasdan turadigan boj;

— o'zgaruvchan- hukumat tomonidan belgilab qo'yilgan hollarda o'zgarib turuvchi bojdir.

6. Hisoblash usuliga ko'ra:

— nominal - bojxona tarifida ko'rsatilgan boj stavkalari. Bu stavkalar mamlakat bojxona himoyasi to'g'risida faqat umumiy ma'lumotlarni berishi mumkin;

— real qism va detallardan undiriluvchi bojxona bojlarini hisobga olgan holda yakuniy tovarlardan undiriluvchi haqiqiy boj. Bu boj tarif eskalatsiyasini aks etiradi. Har qanday davlat tarif siyosatini qo'llar ekan tariflarni yagona tizimga birlashtiradi. Bojxona organi olib borilayotgan bojxona siyosati doirasida boj to'lamasdan olib chiqilishi (yoki olib kirilishi) mumkin bo'lgan yoki boj undirilishi lozim bo'lgan

tovarlarni aniqlashtiradi. Boj stavkalari tovar turiga qarab o'zgarib boradi.

Bojxona tariflari yuridik va jismoniy shaxslar uchun o'rnatiladi, boj undirish prinsiplari turlicha bo'ladi. Jismoniy shaxslar shaxsiy ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan boj olinmaydigan minimum chegarasida tovarlarni boj to'lamasdan olib chiqish huquqiga ega. Odatda, davlat tovarlarni boj to'lamasdan olib chiqib ketishning chegarasini (qiymatli ekvivalentini) belgilab beradi. Bundan tashqari, ba'zi tovarlar bo'yicha olib chiqish va olib kirishning chegaraviy meyorlari o'rnatiladi. O'zbekistonda shaxsiy ehtiyojlar uchun boj to'lamasdan 2 litrgacha spirtli ichimliklar, 1000 donagacha tamaki maxsulotlari, 30metrgacha sintetik matolar, 5 kilogrammgacha go'sht, 5tagacha teri maxsulotlari va hokazolarni boj to'lamasdan olib chiqish va olib kirish mumkin. Olib o'tilgan tovarlar hajmi bu me'yorlardan oshganda jismoniy shaxs eksport yoki import bojlarini to'laydi.

Boshqa mamlakatlarda tovarlarni boj to'lamasdan olib o'tish meyorlari, ayniqsa, spirtli va tamaki mahsulotlari uchun birmuncha kam o'rnatilgan. Masalan, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, AQSH va Ukrainada boj to'lamasdan 200dona sigareta olib kirish mumkin. Aktiv bojxona siyosatini olib borishdan maqsad ichki bozorni import tovarlari bilan to'ldirish yoki muayyan tovarlarning ichki bozorlarga kirib kelishining oldini olish dan iborat. Agar davlat xorij tovarlarining ichki bozorlarga kirib kelishini mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar bilan raqobat qilishini xoxlamasa, unda bu tovarlarning olib kirilishi butunlay taqiqlanadi yoki ularga nisbatan yuqori tariflar joriy etiladi. Masalan, Yaponiya va Buyuk Britaniyada bojxona tariflari 0 dan 30-40 % gacha o'zgarib turadi.

Mamlakatda ishlab chiqarilmaydigan xomashyo va tovarlarga nisbatan 0 stavkali, tayyor mahsulotlar, ayniqsa, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqariladigan turdosh mahsulotlarga nisbatan eng yuqori stavkali tariflar o'rnatiladi. Hatto, eng taraqqiy etgan mamlakatlar ham ichki bozorlarini tariflar yordamida himoya qiladi. Yuqori bojxona tariflari mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yuqori xarajatlarni qoplash vazifasini o'taydi.

| | |
|-----|--|
| 7.2 | 1. Bojxona boji nima va u qanday mezonlar bo'yicha? guruhlanadi? 2. Bojxona boji qanday vazifalarni bajaradi? 3. Tariflarning kata mamlakat iqtisodiyotiga tasiri qanday samaralni yuzaga keltiradi? |
|-----|--|

7.3. Tarif stavkalarining katta va kichik mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri hamda ularni qo'llashning jahon tajribalari

Tariflar G'arbiy Yevropa mamlakatlarida XVIII asrdan boshlab joriy etilgan. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar tomonidan qo'llaniladigan tarif stavkalari past darajada bo'lsada, ba'zi turdagi tovarlar bo'yicha bojxona stavkalari yuqoriligicha qolmoqda. Ko'pchilik iste'mol, qishloq xo'jalik va mehnat sig'imkorligi yuqori tovarlarga nisbatan joriy qilingan tarif stavkalari umumiy tarif stavkalaridan 10-20 baravar yuqoridir. Misol uchun, AQSHda kiyim-kechak va poyabzal importiga nisbatan joriy etilgan tarif stavkalari 11% dan 48%gacha borishi mumkin. 2001-yilda kiyim-kechak va poyabzal importi AQSH umumiy importining 6,5 % ini tashkil etgan bo'lsa-da, mazkur tovarlardan undirilgan tariflar tariflardan tushadigan daromadlarning deyarli yarmini tashkil etgan va 20 mlrd. dollarga teng bo'lgan. Xuddi shunday holat boshqa sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida ham kuzatiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqida go'sht mahsuloti importiga nisbatan joriy etilgan tariflar 236% ni, don maxsulotlariga nisbatan 180%ni, sport oyoq kiyimlariga nisbatan esa 17% ni tashkil etadi.

7.2-jadval.

AQSHda avtomobillar va poyablaz importiga joriy etilgan tariflardan keladigan daromadlar.

| | Qiymat | Tariflardan keladigan daromadlar |
|---------------------|---------------|---|
| Avtomobillar | 110 | 1.60 |
| Poyabzal | 15 | 1.63 |

Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar olib borayotgan tarif siyosati asosan qishloq xo‘jalik maxsulotlari va mehnat sig‘imkorligi yuqori tovarlarni eksport qiluvchi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga sezilarli darajada salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Mazkur tarif siyosati doirasida yig‘ilgan import bojlari summasi turli mamlakatlardan kirib kelayotgan importning umumiy qiymatiga nisbatan yirik summani tashkil etadi va ularning foizda ifodasi turli mamlakatlar bo‘yicha o‘zgarib turadi. Masalan, 2001-yilda AQSH ga Bangladeshdan import qilinadigan tovarlar qiymati 2,4 mlrd dollarni, ulardan undiriladigan bojlar summasi esa 331mln. dollarni tashkil etgan. Taqqoslash uchun quyidagi misolni keltirish mumkin. Fransiyadan AQSH ga 2001-yilda 30mlrd. dollarlik tovar eksport qilingan bo‘lib, ulardan undirilgan bojlar summasi esa 330mln. dollarni tashkil etgan.

7.2 Jadval.

AQSHda importdan undiriladigan tariflarning qiyosiy jadvali.

| | Import (mlrd.dollar.) | Undirilgan tariflar (mln.doll.) | YAIMning axoli jon boshiga to‘g‘ri keluvchi ulushi (doll.) |
|-------------------|----------------------------------|--|---|
| Bangladesh | 2,4 | 331 | 370 |
| Fransiya | 30,0 | 330 | 24170 |

Shu tariqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari va xomashyo eksportidan yengil sanoat mahsulotlari eksportiga o‘tayotgan Bangladesh kabi kambag‘al mamlakatlar sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar tomonidan joriy etilayotgan va o‘rnatilgan yuqori tariflarga duch kelishmoqda. Kiyim-kechak va poyabzalga joriy etiladigan maxsus tariflar sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlardagi iste‘molchilar xaridiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatishi tabiiy. Mazkur tariflar kam daromadli aholi guruhdari uchun soliq, yuki hisoblanadi. Masalan, AQSH da oila boshlig‘i bir kishidan iborat oilalarda o‘rtacha yillik daromad 25000 dollarni tashkil etadi va shundan 1851 dollari kiyim-kechak va poyabzal sotib olishga sarflanadi. Hisob-kitoblar ko‘rsatishicha, kiyim-kechak va poyabzalga sarflangan mablag‘ning 307 dollari import bojlari sifatida undirib olinadi. Oila boshlash ikki

kishidan iborat oilalarda o‘rtacha yillik daromad 66.913 dollarni tashkil etadi va import bojlari sifatida to‘laydigan to‘lovlar esa 470 dollarga yoki umumiy daromadning 0,7 % iga teng bo‘ladi.

7.4-jadval.

AQSHda oilalar tomonidan import tarifi uchun sarflaydigan xarajatlari.

| | Xarajatlar (doll.) | Tarif stavkalari. %. | Tariflarga xarajatlar (doll.) |
|-------------------------|-------------------------------|---------------------------------|--|
| Oziq-ovqat(uyda) | 1005 | 1-13 | 14 |
| Kiyin-kechak | 1440 | 5-30 | 212 |
| Poyabzal | 411 | 10-30 | 68 |
| Boshqa tovarlar | 67 | 0-11 | 8 |

Yuqorida qayd etilgan iste‘mol tovarlari uchun joriy etilgan tarif stavkalari qimmatbaho buyumlarga nisbatan qo‘llaniladigan tarif stavkalariga qaraganda yuqoriroqdir. AQSHda ipakdan qilingan ko‘ylakka nisbatan joriy etilgan tarif 1,9% ni tashkil etgan xolda, paxtadan to‘qilgan ko‘ylakka nisbatan 20%, sintetik toladan to‘qilgan ko‘ylakka nisbatan esa 32,5% ni tashkil etadi.

7.5-jadval.

AQSH da turli hil materiallardan tayyorlangan tovarlarga nisbatan qo‘llaniladigan tariflar

| | Kostyumlar | Ko‘ylaklar |
|------------------|-------------------|-------------------|
| Ipak | 1,9 | 1,9 |
| Jun | 12,0 | 14,3 |
| Paxta | 11,3 | 20,0 |
| Sintetika | 29,0 | 32,5 |

Mazkur tarif tovarning qayta ishlanganlik darajasiga qarab mutanosib ravishda ortib boraveradi. Tarif eskalatsiyasidan sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan keng miqyosda foydalanishadi.

7.5-jadvalda sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar tomonidan qo‘llaniladigan tarif eskalatsiyasiga oid misollar keltirilgan.

**Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar tomonidan
qo‘llaniladigan tariff eskalasiyasi
(Tovar baxosiga nisbatan foizda)**

| Tovar nomi | AQSH | Buyuk Britaniya | Yevropa ittifoqi | Shvetsiya | Yaponiya |
|-------------------|------|--------------------|---------------------|-----------|----------|
| Teri homashyosi | 1,1 | 5,4 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Teri | 9,6 | 14,9 | 7,3 | 7,0 | 19,9 |
| Teri mahsulotlari | 15,5 | 18,7 | 14,7 | 12,2 | 23,6 |
| poyabzal | 16,6 | 24 | 19,9 | 14 | 29,5 |
| Jun homashyosi | 11,4 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Ip-kalava | 23 | 10 | 5,7 | 5,8 | 10 |
| Matolar | 50,1 | 17,5 | 16 | 12,8 | 20 |
| Kiyim-kechak | 22,1 | 20 | 20,5 | 14 | 22 |

Masalan, Yaponiyada kakao xomashyosiga 0 stavkali, kakao kukuniga 30%, tayyor mahsulot shokaladga esa 35%li tariflar joriy etiladi. Angliya jun xomashyosiga nisbatan tariflar joriy etmaydi, ammo jun kalavasiga 15% li va jundan yasalgan mahsulotlarga esa tovar qiymatiga nisbatan 20% li tarif joriy etiladi. Tabiiyki, import tariflari tovarning qayta ishlanganlik darajasiga qarab mutanosib ravishda ortib borar ekan, soliqqa tortish og‘irligi tovarning barcha komponentlariga emas, birinchi navbatda, qayta ishlash natijasida yaratilgan ko‘shilgan qiymatga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun sanoatlashgan eksportga nisbatan joriy etilgan proteksionistik to‘siqlar nominal tarif stavkalaridan birmuncha yuqori bo‘ladi.

Jahon amaliyotining ko‘rsatishicha, taraqqiy etgan mamlakatlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar qishloq xo‘jalik va sanoat mahsulotlari eksportiga nisbatan qo‘llanilayotgan tariflar kamlik qilsa, ularga notarif xarakterdagi to‘siqlar ham joriy etiladi.

G‘arb mamlakatlarida rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan amalga oshirilayotgan eksport tovarlarga nisbatan notarif to‘siqlarni qo‘llashning yetti yuzdan ortiq hollari kuzatilgan. Ularga miqdoriy cheklashlar, litsenziyalash va boshqa turdagi to‘siqlarni kiritish mumkin. Notarif to‘siqlarni qo‘llash bo‘yicha yetakchi mamlakatlar qatoriga Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya va Shveysariyani kiritish mumkin.

Tashqi savdoni tartibga solish bilan bog‘liq muammolarni hal etishda qaysi usullardan ko‘proq samarali foydalanish mumkin degan savolni asoslab berish lozim. Tahlillar ko‘rsatishicha, jahon amaliyotida erkin savdo g‘oyasiga xalqaro tashkilotlarning ustavlarida va xalqaro iqtisodiy munosabatlarga bag‘ishlangan darsliklardagina amal kilishadi.

Hozirgi vaqtda tariflarni qo‘llash borasida muammolarning vujudga kelishining sababi tarif to‘siqlaridan foydalanishda qati‘y nazorat o‘rnatilishi hisoblanadi. Mana shunday xalqaro tashkilotlardan biri JST-dir. JSTga qadar faoliyat yuritilgan Tariflar va savdo bo‘yicha bosh kelishuv (GATT) doirasida asosiy masala o‘zaro savdo munosabatlarida tarif to‘siqlarini kamaytirishga qaratilgan edi.

GATT faoliyatidagi asosiy vazifa bojxona bojlarini qisqartirish yoki bekor qilish hisoblangan. 1945-1947-yillarda sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda bojxona bojlarining o‘rtacha ko‘rsatkichi 40 - 60 % ni, ba’zi mahsulotlar bo‘yicha esa 70-90% ni (kimyo mahsulotlari) tashkil etgan. 80-yillarga kelib bojxona tariflari 3-5 % gacha pasaydi.

GATT qoidalari to‘la kuchga kirgan vaqtdan boshlab sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda import bojlari 3/4 barobarga qisqartirildi. Jumladan,“Tokio raundi” muzokaralaridan so‘ng, bu ko‘rsatkich 4,7%ni tashkil etdi. Bojxona bojlarini kamaytirish masalasi hozirga qadar muhim muammo bo‘lib qolmoqda.

7.7-jadval


Mamlakat byudjetiga tariflardan kelib tushadigan tushumlar.

| T/r | Mamlakat | Byudjet hajmiga nisbatan foizda |
|------------|------------------|--|
| 1 | Pokiston | 30,9 |
| 2 | Malayziya | 28,23 |
| 3 | Hindiston | 24,07 |
| 4 | Venesuela | 18 |
| 5 | Koreya | 14,01 |
| 6 | Argentina | 13,31 |
| 7 | Rossiya | 12 |
| 8 | Kolumbiya | 11,58 |
| 9 | Gana | 40,9 |

Iqtisodiyotda hukumat tomonidan qoʻllanilgan proteksionistik qadamlar ishlab chiqaruvchilar va isteʼmolchilarga qisqa hamda uzoq muddatli istiqbolda davlatning oʻziga turlicha taʼsir koʻrsatadi. Bunday siyosatning ichki bozor uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi milliy kompaniyalarga taʼsirini koʻrib chiqishdan boshlaymiz.

Savdo boshlanmasdan avval, mamlakatda 100ta tovar ishlab chiqarilayotgan va isteʼmol qilinyapti, muvozanat narxi 8 dollarga teng (talab va taklif chiziqlari Ye nuqgada kesishgan). Agar tovarning Jahon narxi ichki narxdan past boʻlsa, mamlakatga jahon narxida (5dollar) 120ta tovar kirib keladi, ichki narx jahon narxi darajasigacha tushib ketadi. Buning natijasida milliy ishlab chiqaruvchilar faqat 40ta tovar taklif qiladi, isteʼmol esa 160taga yetadi.

Buning natijasida ichki ishlab chiqarish 80ta tovarni tashkil qiladi, import esa 40tagacha qisqaradi. Isteʼmolchilar jami 120 ta tovar sotib oladi. Bojxona boji oʻrnatish natijasida milliy ishlab chiqaruvchilar A trapetsiyaning yuzasiga teng boʻlgan qoʻshimcha foyda koʻradi. S toʻgʻri toʻrtburchakning yuzasiga teng boʻlgan summa bojxona boji sifatida davlat budjetiga tushadi.




7.4-rasm. Import bojining milliy iqtisodiyotiga taʼsiri

Boshqacha qilib aytganda, milliy kompaniyalarning ichki bozor uchun ishlab chiqargan mahsuloglari bojxona solig'idan ozod bo'lganligi sababli uning narxi import qilinayotgan ana shunday tovardan sezilarli darajada past bo'lishi mumkin, bunday sharoitda xo'jalik yurituvchi subyektlar yangi texnologiyalar, xomashyo va materiallarni tejash hisobiga xarajatlarini kamaytirish zaruriyatiga ehtiyoj sezishmaydi.

Tarifning katta mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri. Katta mamlakat uchun import tarifi faqat ichki ishlab chiqarishni himoyalash vositasi bo'lib qolmasdan, tashqi bozor bilan savdo shartini yaxshilab olish vositasi hamdir. Eksport tovarlari narxi o'zgarmagan holda import tovarlar narxining pasayishi importyor mamlakat uchun savdo shartining yaxshilanishiga olib keladi.


Katta mamlakat hukumati ichki ishlab chikaruvchilarni xorijiy raqobatdan himoya qilish maqsadida importga boj joriy qildi. Boj o'rnatilishi natijasida tovarning jahon narxi tushadi. Lekin bu tovarning ichki narxi boj miqdoriga (t) P_w dan P_w+t ga mos ravishda ko'tariladi. Jami taklif chizig'i yuqoriga— yangi darajaga suriladi. Taklifning yangi darajasida ichki talab va jami taklif G nuqtada muvozanatga keladi.



7.5-rasm. Tarifning katta mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri

Natijada ichki ishlab chiqarish Q_1 Q_2 gacha ortib, ichki talab Q_5 Q_4 gacha kamayadi, import esa Q_1 Q_5 dan Q_2 Q_4 gacha qisqaradi.

Import tarifi joriy qilinishi natijasida iste'molchilarning zarari $a+b+s+d$ ga teng bo'ldi. Kichik mamlakatda bo'lgani kabi import bojining ta'sirini ikkiga ajratish mumkin: qayta taqsimlanish samarasi va yo'qotish samarasi.



7.6-rasm. Tarif kvotasi

Katta mamlakat misolida daromad samarasi ichki daromad va savdo sharti samarasiga ajraladi. Ichki daromad samarasi daromadning ichki iste'molchilardan, savdo sharti samarasi esa daromadning xorijiy ishlab chiqaruvchilardan davlat budjeti foydasiga qayta taqsimlanishini bildiradi.

Tarif kvotasi. Import boji ichki qarama-qarshilikka ega ya'ni ishlab chiqaruvchilar, bir tarafdin, xalqaro raqobatdan qutulish maqsadida import bojidan manfaatdor bo'lsa, ikkinchi tomondan, ish vaqtdan tashqari vaktida iste'molchi sifatida import tarifiga qarshidirlar. Bu ziddiyat qisman tarif kvotasini joriy qilish orqali hal etiladi.

Tarif kvotasi — o'zgaruvchan bojxona boji ko'rinishi bo'lib, boj stavkasi miqdori import qilinadigan tovar hajmiga bog'liq bo'ladi: ma'lum chegaradagi importga pastroq miktordagi boj, bu chegaradan oshib ketganda yuqoriroq boj o'rnatiladi.

| | | |
|-----|---|---|
| | | |
| 7.3 | 1. Rivojlangan mamlakatlar tomonidan qoʻllaniladigan yuqori tariff stavkalari rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga qanday taʼsir koʻrsatadi? 2. Tarifni tartibga solishning afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat? | ? |
| | | |

7.4. Tarif siyosatining afzalliklari, kamchiliklari va zamonaviy tendensiyalari

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi cheklashlar siyosatini keng koʻlamda va faol amalga oshirish davlatga qisqa muddatda muvaffaqiyat olib kelishi mumkin. Ushbu yutugʻlarga milliy korxonalarda ishlab chiqarish hajmini oshirish, boj, soliq, yigʻimlar hisobiga budjet daromadini koʻpaytirish, iqtisodiy xavfsizlik va mudofaa qobiliyatini taʼminlash orqali erishish mumkin.

Amalda esa bu taktik ustunliklar strategik, uzoq, muddatli istiqboldan kelib chiqqan holda, qarama-qarshi tomonga oʻzgaradi. Davlatning tarif miqdoriga koʻpaytirilgan import miqdoriga teng iqtisodiy yutugʻi isteʼmolchilar tomonidan davlat foydasiga toʻlaydigan transfer toʻlovi hisoblanadi. Albatta, mablagʻlarning bir qismi ijtimoiy ehtiyojlar (oyliklarni oshirish, nafakalar toʻlash)ga sarflanishi mumkin, biroq transferlarning aksariyat qismi byurokratik oʻzboshimchalik va mablagʻlarni davlat tashkilotlari orqali oʻtishi bilan bogʻliq xarajatlar tufayli qaytarib berilmaydi.

Shuningdek, boshqa mamlakatlarning proteksionistik javob tadbirlarini ham eʼtiborga olish lozim. Bu tadbirlar tufayli tovar aylanmasi hajmi kamayadi, ish joylari qisqaradi, natijada qator kompaniyalarning mahsulotlari milliy bozordan arzonroq va sifatsizroq tovar ishlab chiqaruvchi foydasiga siqib chiqariladi, kompaniyalarning mahsulotlari milliy bozordan arzonroq va sifatsizroq tovar ishlab chiqaruvchi foydasiga siqib chiqariladi.

Iste'molchilarning aksariyat qismi "belbog'larini mahkam boylab olishlari" kerak bo'ladi, chunki oddiy odamlarning daromadlari ishlab chiqaruvchilar foydasiga qayta taqsimlanadi, zero, bojxona tarifi joriy etilishidan avvalgi va keyingi ichki narxlardagi farq iste'molchilar zimmasiga tushadi. Faqat importning o'rnini qoplash sohasidagi kompaniyalarning aksiyalariga ega bo'lgan uncha katta bo'lmagan ayrim guruhlariga kiruvchi iste'molchilar olib kirish bojlaridan daromad olishi mumkin. Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida proteksionistik siyosatni amalga oshirish narxning yuqoriligi sababli ichki iste'molning kamayishiga, soliq bazasining qisqarishiga va umuman, jamiyat uchun sof yo'qotishlarga olib keladi.

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, proteksionistik siyosat bosqich-ma-bosqich totalitar rejimlar tomonidan ma'muriy-buyruqbozlik tizimida cheklangan makon va zamonda amalga oshirilgan Proteksionizmning salbiy xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

➤ Aholi turmush darajasi harajatlar ulushining ortib ketishi tufayli pasayishi. Import bojlari kiritilganidan keyin xaridorlar ichki bozorga olib kirilgan tovarlar uchun yanada ko'proq haq to'lashga majbur bo'lishadi. Bu investitsiyalarga aylanishi mumkin bo'lgan aholi jamg'armalarining kamayishiga olib keladi.

➤ Aksariyat mamlakatlar tomonidan tarif cheklashlarining joriy etilishining zanjir reaksiyasi bilan bog'liq xalqaro ko'paytiruvchi samarasi vujudga kelishi.

➤ Milliy iqtisodiyotda samarasiz sohalar va korhonalarning saqlanib qolishi. Turli imtiyozlar berilish natijasida ishlab chiqaruvchilarda mahsulot ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga rag'bat bo'lmaydi.

➤ Iqtisodiy sohada korrupsiya va egallangan mansab, lavozimidan foydalanishning qurilishlari keng tarqaladi.

➤ Milliy iqtisodiyotning «yopiqligi», odatda, TIFning kriminallashuvi uchun ozuqa muhiti yaratadi. Hukumatning TIFni tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini joriy etishga majbur etuvchi omillar tarkibida quyidagilarni ajratish mumkin:

➤ iqtisodiyotning yangidan shakllanayotgan sohalarini qudratli xorijiy kompaniyalar raqobatidan himoyalash ;

➤ davlat ko'magisiz tuzilmasini qayta qurishning iloji bo'lmagan

➤ jahon bozorida raqobatbardosh bo‘lmagan «eski» sohalarni qo‘llab quvvatlash;

➤ kamsituvchi savdo siyosati amalga oshirayotgan mamlakatlar yoki kompaniyalarga javob tariqasida demping va horijiy raqobatning boshqa notarif usullari bilan kurashish;

➤ jahon bozor konyukturasidagi tebranishlarning milliy iqtisodiyotga ta’sirini kamaytirish. Bu omil homashyo va tabiiy resurslar eksport qiluvchi mamlakatlar uchun dolzarb hisoblanadi;

➤ byudjetning daromat qismini shakllantirish, ko‘paytirish-o‘tish davri iqtisodiyoti va rivojlangan mamlakatlarda aksariyat hollarda proteksionizm siyosatining tarkibiy unsurlari bo‘lgan bojhona bojlari va boshqa egri soliqlar hisobiga amalga oshiriladi.

Tarif usullarini qo‘llash tarafdorlarining fikricha, tariflar-ning iqtisodiyotga ta’siri quyidagicha bo‘ladi:

➤ tariflar yosh tarmoqlarni himoya qilishga xizmat qiladi;

➤ davlat byudjetining daromad manbayi sifatida foydalaniladi;

➤ mamlakat ichkarisida daromadni qayta taqsimlash faollashadi;

➤ arzon horijiy ishchi kuchini jalb etish imkoniyati yaxshilanadi;

➤ mamlakatning homashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashtiruvining oldi olinadi.

Tarif usullarini qo‘llashga qarshi bo‘lganlarning fikricha, tariflarning iqtisodiyotga salbiy ta’siri quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

➤ tariflar tashqi savdoni cheklash, dunyo ishlab chiqarishi hajmining qisqarishiga sabab bo‘ladi;

➤ mamlakatlar o‘rtasida tovarlarning optimal taqsimotiga to‘sqinlik qiladi;

➤ iste’molchiga soliq yukining ortishiga sabab bo‘ladi;

➤ importga belgilangan tariflar eksport hajmining qisqarishiga tasir qiladi;

➤ tariflarning belgilanishi mamlakatdagi ishsizlik darajasining oshishiga sabab bo‘ladi.

Shunday qilib, proteksionizm tashqi savdo operatsiyalariga turli-tuman cheklashlarni joriy etuvchi davlatga vaqtinchalik, taktik yutuq keltirsada, strategik, uzok muddatli strategiyada istiqbolsiz siyosat

hisoblanadi. Bu siyosat XX asr tajribasidan ma'lumki, aholi turmush darajasi va farovonligining pasayishiga olib keladi.

TUSHUNCHA VA IBORALAR

❖ **Tashqi savdo siyosati**-milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi

raqobatdoshligini oshirish va tashqi raqobatdan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni

himoya qilishga, qo'llab –quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisi.

❖ **Erkin savdo siyosati** –Tashqi savdodagi to'siqlarni minimal-lashtirish siyosati.

❖ **Proteksionizm** – tarif va notarif instrumentlarni qo'llash yo'li bilan ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoya qilishning davlat siyosati.

❖ **Tarif eskalatsiyasi** – tovarlardan undiriladigan import bojining mahsulot qayta ishlanganlik darajasining chuqurlashuviga mos ravishda ortib borishidir.

❖ **Bojxona boji** – bojxona organlari tomonidan tovarlar import va eksport qilinayotganda undiriladigan hamda eksport-imtortning sharti hisoblangan majburiy to'lov.

❖ **Optimal tarif stavkasi** – iqtisodiy farovonlik va milliy maxsulotlarning raqobatdoshligini maksimal ta'minlab beradigan tarif darajasi.

❖ **Tarif kvotasi** – o'zgaruvchan bojxona boji ko'rinishi bo'lib, boj stavkasi miqdori import qilinadigan tovar hajmiga bog'liq bo'ladi: ma'lum chegaradagi importga pastroq mikdordagi boj, bu chegaradan oshib ketganda yuqoriroq boj o'rnatiladi

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Tashqi savdoni tartibga solish zaruriyati nimada?
2. Tashqi savdo siyosati nima va uning qanday shakllari mavjud?
3. Tashqi savdo siyosatining yo'nalishlari va dastaklari nimalardan iborat?

4. Bojxona boji nima va u qanday mezonlar bo'yicha guruhlanadi?

5. Bojxona boji qanday vazifalarni bajaradi?

6. Rivojlangan mamlakatlar tomonidan ko'llaniladigan yuqori tarif stavkalari rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

7. Tariflarning katta mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri qanday samaralarni yuzaga keltiradi?

TASHQI SAVDO SIYOSATIDA MIQDORIY CHEKLASH USULLARI

Ushbu bob da quyidagi bilimlar bayon etilgan:

- Notarif metodlarining mazmuni va mohiyati.
- Notarif metodlarining guruhlanishi.
- Kvotalash. Lisenziyalash va eksportni ixtiyoriy cheklash usullarining iqtisodiy mohiyati
- Kvotalash. Lisenziyalash va eksportni ixtiyoriy cheklash usullarining iqtisodiy tartiblari.
- Bojhona tariflari.
- Bojhona tariflariga ta'sir etish mehanizmi.
- Embargo, iqtisodiy sanksiyalar va ularning xalqaro savdoga ta'siri.

Kirish

Jahon xo'jaligi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu xalqaro iqtisodiy munosabatlarning intensiv rivojlanib borishi hisoblanadi. Bu esa mamlakatlar, mamlakatlar guruhi, alohida firma va korxonalar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi tobora chuqurlashuvi bilan izohlanadi. Ushbu holat jahon bozorida tashqi savdo siyosatidagi miqdoriy cheklash usullaridan foydalangan holda, uning turli segmentlarida yuzaga kelayotgan kon'yunkturaviy o'zgarishlar har qanday davlatni jahon bozorida faollashishga, bunda tashqi savdoni tartibga solish, nazorat qilish va qo'llab-quvvatlash vositalari hamda dastaklaridan har qachongidan ham ko'proq unumli foydalanishga undamoqda.

Jahon xo'jaligida davlatlar tashqi savdo aloqalarini qaytadan tashkil etish, ayrim tarmoq va sohalarda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish zarurati borligi ham ayon bo'lmoqda. Natijada, keyingi yillarda global va mintaqaviy darajada dunyo tashqi savdosida yangi yo'nalishlarda siljishlar ro'y bermoqda. Davlatlarning tashqi savdo strategiyalarida ham tub o'zgarishlar namoyon bo'lmoqda.

8.1. Notarif metodlarining mazmuni va guruhlanishi

Davlat tashqi savdoni tartibga solishda tarif metodlari bilan bir qatorda notarif metodlardan ham keng foydalanadi. Ularning ko'pchiligi bo'xona tariflaridan farqli ravishda miqdoriy jihatdan o'lchanmaydi va shuning uchun statistikada yaqqol aks etgirmaydi. Notarif metodlarning bu xususiyati hukumatlarga tashqi savdo siyosati sohasida o'z maqsadlariga erishishda ulardan aralash foydalanishga imkon yaratadi. Notarif usullar - tovar ayirboshlashga ta'sir qilish dastaklarini, ya'ni mamlakatga olib kiriladigan yoki chetga chikariladigan mahsulot xajmi va nomenklaturasini cheklashni bildiradi.

Notarif usullar miqdoriy, moliyaviy, yashirin va noiqtisodiy usullarga ajratiladi. Ular ustun darajada rivojlanayotgan va hukumat tomonidan proteksionistik iqtisodiy siyosatni talab qiluvchi, bozor tuzilmalari shakllanayotgan o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlarga xosdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tashqi savdo davlat tomonidan tartibga solish tarif va notarif usullar kombinatsiyasi yordamida amalga oshiriladi.

XXI asr boshlarida tarif usullarining mavqeyi pasayib bormoqda. Ushbu holat Jahon savdo tashkiloti tomonidan a'zo mamlakatlar oldiga qo'yilgan strategik vazifa - ular o'rtasidagi o'zaro tovar savdosida tarif cheklashlarini bosqichma-bosqich bartaraf etish vazifasi bilan bog'liq.

Jahon amaliyotida notarif usullarga kvotalash, litsenziyalash, eksportni subsidiyalash, demping, kartel bitimlar va mamlakatlar o'rtasida tovar oqimlari yo'lida texnik to'siqlarni yaratish kabi usullar kiritiladi.

Davlatning tashqi savdo sohasidagi asosiy vazifasi – eksportyorlarga o'z mahsulotlarini iloji boricha ko'proq miqdorda chetga eksport qilishlarida yordam berib, ularning tovarlarini tashqi bozorda yanada raqobatbardosh qilishda qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Mamlakat ichki bozorida xorijiy tovarlarga talabni kamaytirib, importni cheklash xam uning vazifasiga kiradi. Notarif cheklashlarning o'rtacha darajasiga, odatda, uyoki bu cheklashga oid import yoki eksportning qiymat ulushi sifatida qaraladi. Bunda ularning natija berish darajasiga tuzatish kiritiladi. Masalan, zaruriy hujjatlar taqdim etilganda mutasaddi hokimiyat organlari tomonidan beriladigan eksport uchun avtomatik litsenziya, shubhasiz, belgilangan miqdordan

ortiq tovarlarni eksport qilishni taqiqlovchi eksport kvotasiga qaraganda ancha kam darajada eksportni chegaralaydi.

8.1-jadval.

Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar tomonidan qo‘llaniladigan notarif to‘siqlar (Tovar bahosiga nisbatan foizda)

| Mamlakatlar | Kvotalar | Litsenziyalar | Boshqa turdagi notarif to‘siqlar | Jami |
|------------------------|----------|---------------|----------------------------------|------|
| Avstriya | 12 | 9 | 5 | 26 |
| Belgiya va Lyuksemburg | - | 51 | - | 51 |
| Kanada | 3 | - | 2 | 5 |
| Daniya | 10 | 31 | - | 41 |
| Germaniya | 37 | 5 | 2 | 45 |
| Finlandiya | 20 | 26 | - | 46 |
| Fransiya | - | - | 96 | 96 |
| Irlandiya | 13 | 15 | - | 28 |
| Italiya | 8 | 46 | 5 | 74 |
| Yaponiya | 120 | - | 3 | 123 |
| AQSH | 6 | - | - | 6 |
| Norvegiya | 3 | 62 | 19 | 81 |
| SHvetsariya | 10 | 12 | 16 | 38 |
| SHvetsiya | 2 | 3 | 6 | 11 |

Tovarlarni eksport va import qilishga oid turli cheklashlar, selektiv litsenziyalash yuqori darajadagi samarali miqdoriy cheklovlar sanaladi. Avtomatik litsenziyalash, moslanuvchan kvotalar nisbatan kam samarali cheklovlarga kiradi. Bir so‘z bilan aytganida, tashqi savdo siyosatining u yoki bu dastaklarini qo‘llash haqidagi qaror qabul qilar ekan, mamlakat hukumati, odatda, ularning birgalikda ta‘sir ko‘rsatish va joriy vaziyatga ta‘sirini, davlat ichkarisida va undan tashqarida kutilayotgan istiqbollarni baholaydi.

Notarif usullarining saqlanib qolishi quyidagi sabablarga bog‘liq:

- aksariyat notarif cheklovlar xalqaro shartnomalar orqali tartibga solinmaydi va ularni qo‘llash milliy hukumatlar tashabbusi bilan amalga oshiriladi;

Kvotalash - bu tovarlar eksporti yoki importini muayyan vaqt ichida ma'lum miqdor yoki summa bilan miqdoriy jihatdan cheklashdir. Kvotalash mavsumiy ko'rinishda yoki xarakterda bo'lsa kontingentlash shakliga kiradi. Ular o'z yo'nalishiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

Eksport kvotasi - xalqaro barqarorlashuv shartnomasiga muvofiq muayyan tovarlarning umumiy eksportdagi ulushini belgilash. OPEK yoki biron-bir milliy hukumat tomonidan mamlakat ichki bozorida defitsit tovarlarning chetga chiqib ketishining oldini olishda ko'llaniladi (Masalan, Rossiyada neft eksportida).

Import kvotasi - milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni xomoyalash, savdo balansini muvozanatlashga erishish, ichki bozorda talab va taklifni tartibga solish hamda boshqa mamlakatlar tomonidan diskriminatsiya (kamsitish) savdo siyosati qo'llanilganda javob tariqasida qo'llaniladi. Masalan, AQSH Yangi Zelandiyadan import qilinadigan sut va kaymoq xajmini 5,7 mln. litr, Niderlandiyadan import qilinadigan muzqaymoq hajmini 104 ming kg, Shveysariyadan keladigan pishloq hajmini 3.4 [mln.kg.](#) qilib belgilagan.

Global kvotalar. Bu tovarlarning qaysi mamlakatga eksport yoki import qilinishidan qat'iy nazar, eksport va importga nisbatan dunyo miqyosida belgilanadi.

Individual kvotalar. Global kvota doirasida tovarni eksport yoki import qiladigan har bir mamlakatga nisbatan belgilanadi. Import kvotalarini joriy qilishda davlat milliy ishlab chiqaruvchilarga xorijiy raqobat ta'sirini kamaytirishga intiladi. Bunday kvotalarning harakat mexanizmi import tariflaridan foydalangandagi holatni eslatadi, ya'ni import tovarlar taklifi cheklanganda ichki narxlar Jahon narxiga nisbatan o'sib boradi. Birok, tarifdan farqli ravishda, import kvotalari xorijiy raqobatning ichki narxlarga ta'sir qilishiga yo'l qo'ymaydi. Bu usul importdan keladigan foydani ko'paytiradi va mamlakat to'lov balansini muvozanatga keltirish jarayonini osonlashtiradi. Xalqaro bitimlar orqali qat'iy belgilanadigan tarif stavkalari o'rnatilgan vaziyatda mamlakat yuqoridagi masalani xal eta olmaydi. JST eksport-import operatsiyalariga nisbatan miqdoriy cheklashlar joriy qilishga ruxsat beradi.

O'z navbatida, eksport kvotasi milliy ishlab chiqaruvchilarni yetarli tabiiy resurslar bilan ta'minlash, Jahon bozoridagi eksport

baholarini oshirish va xarbiy-strategik maqsadlarga erishish kabi maqsadlarga qaratilgan bo'ladi. Eksport kvotalari import kvotalari singari mamlakat hukumati tomonidan bir tomonlama tartibda yoki manfaatdor tomon bilan xalqaro kelishuv asosida joriy etilishi mumkin. Ular global yoki ma'lum davrda amal qiluvchi mavsumiy ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Litsyenzialash. Kvotalash jarayoni (boshqacha qilib aytganda, kontingenglash), odatda, litsenziyalash, ya'ni maxsus ro'yxatga kiritilgan resurslar va mahsulotlar bilan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish vakolatiga ega bulgan davlat tashkilotlari (vazirliklar va mahkamalar) ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Aksariyat mamlakatlarda tashqi iqtisodiy faoliyatni litsenziyalash jarayoni xalqaro xuquqiy aktlarga asoslanadi va ularning eng muhimi 1947-yilda imzolangan Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuv (GATT) hisoblanadi. Keyinchalik GATT doirasida ba'zi bir boshqa shartnomalar imzolangan.

Litsyenzialash - mutasaddi davlat organlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatga ruxsat berish orqali eksport yoki import qilinayotgan tovarlarni muayyan vaqt ichida ma'lum bir miqdorda eksport yoki import qilishga ruxsat berish. Litsyenzialash kvotalash jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish shakli hisoblanadi. Jahon amaliyotida litsenziyalar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

Bir marotabalik litsenziya. Davlat tomonidan biron-bir firmaga bitta tashqi savdo shartnomasini amalga oshirish uchun bir yilgacha muddatda tovarni olib kirish yoki olib chiqish to'g'risidagi yozma ruxsatnoma.

Bosh litsenziya — bir yil maboynida cheklanmagan xajmda tovarni import yoki eksport qilish uchun beriladigan ruxsatnoma. Globallitsenziya ma'lum vaqt ichida dunyoning xoxlagan mamlakatiga cheklanmagan miqdorda yoki qiymatda tovarni olib kirish yoki olib chiqib ketish to'g'risidagi yozma ruxsatnoma. Avtomatik litsenziya eksportyor yoki importyor buyurtmasiga muvofik davlat tomonidan darhol beriladigan yozma ruxsatnoma. Litsyenzialarni taqsimlash

mexanizmlari;

- auksion;

- konkurs asosida litsenziyalarni sotish (optimal variant). AQSHda auksionlar, odatda, videomagnitofonlar, qand, avtomobillarning importi litsenziyalarini taqsimlashda ishlatiladi;

- “yaqqol afzallik tizimi” — davlat tomonidan ma’lum firmaga o‘tgan davrda qilingan import hajmiga proporsional tarzda yoki milliy importyorlarning talabi strukturasi proporsional tarzda litsenziya berish shakli. AQSHda bu litsenziya turi neftni import qilishda ishlatiladi;

- bahodan tashqari asosda litsenziyalarni taqsimlash. Davlat tomonidan tovarlar importi va eksportini eng samarali shaklda amalga oshiradigan firmalarga berishda ishlatiladi.

Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlar o‘rtasida eksport-import operatsiyalarini litsenziyalash tovar aylanmasi umumiy hajmining 5-6% i darajasiga yetadi (Fransiya kvotalash va litsenziyalash bo‘yicha o‘ziga xos «peshqadam» hisoblanadi) Litsenziyalashni talab etadigan tovarlar ro‘yxatiga, birinchi navbatda, eksportga mo‘ljallangan kvotalanadigan mahsulotlar, shuningdek, ba’zi bir maxsus guruhdagi tovarlar: strategik ahamiyatga ega tovar va resurslar, dori-darmonlar, bolalar assortiment tovarlari va boshqalar kiradi.

“Eksportni ixtiyoriy cheklash”. Mutaxassislarning fikricha, eksport kvotalarinint muhim turlaridan biri “eksportni ixtiyoriy cheklash hisoblanadi. Hukumat tomonidan odatda yirik importyor davlatning siyosiy taziq ostida eksportni ixtiyoriy cheklash joriy qilinadi.

“Eksportni ixtiyoriy cheklash” - rasmiy davlatlararo yoki tovar eksportiga norasmiy kvota belgilash to‘g‘risida savdodagi hamkor tomonidan savdoni cheklash yoki eksportni kengaytirmaslik to‘g‘risidagi majburiyatga asoslangan eksportni miqdor jihatidan cheklash. Bunday amaliyot AQSH va YEIda Yaponiya tovarlari (avtomobillar, elektronika, po‘lat) ga nisbatan keng qo‘llaniladi. Hozirgi paytda jahonda bunday turdagi 100 dan ortiq bitimlar imzolangan, biroq bugungi kunda JST o‘z oldiga “eksportni ixtiyoriy cheklash” ni umuman bekor qilish vazifasini qo‘ymokda.

Shuningdek, xalqaro savdoda iqtisodiy sanksiyalar xam keng ko‘llaniladi. Bu sanksiyalar qatoriga embargo xam kiradi. Bu usul bir mamlakat yoki mamlakatlar guruhi bilan savdo operatsiyalarini butunlay taqiqlashni bildiradi. Odatda, siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan holda embargoni joriy qilish butun nomenklaturadagi yoki alohida


guruhdagi tovarlar eksporti yoki importini cheklashni nazarda tutadi. XXasrda savdoni tartibga solishning bunday usuliga BMT qaroriga ko'ra embargo siyosati Iroqqa, qisman sobiq Yugoslaviya, Livan, Eron va ba'zi boshqa mamlakatlarga nisbatan amalga oshirilgan.

| | | |
|-----|--|---|
| | | ? |
| 8.2 | <p>Kvotalash bilan kontingentlashtirish o'rtasida qanday farq mavjud?</p> <p>Litsenziyalash nima va u qanday qanday usullar yordamida tarqatiladi?</p> <p>Savdo siyosatining moliyaviy metodlariga qaysi usullar kiradi?</p> | |
| | | |

8.3. Bojxona tariflari va ularning ta'sir etish mexanizmi

Iqtisodiy savdo siyosatining asosiy va klassik dastagi bo'lib, bojxon tariflari hisoblanadi. Bojxona tarifi - bu tizimlashtirilgan bojxona bojlari stavkalarining ro'yxati. Bojxona boji deganda, davlatning chegarasini kesib o'tgan vaqtda importga va eksportga solinadigan soliq to'lovlari tushuniladi.

Import bojlarining harakat mexanizmini ko'rib chiqamiz. Tasavvur qiling, qaysidir A davlatda qandaydir mahsulot ishlab chiqariladi va iste'mol qilinadi, masalan, olma. 2-rasmda S chizig'i olma taklifini, D -talab, P_0 - ichki narx (muvozanat narxi) ni bildiradi. Bu narxda olmaning ishlab chiqarilishi va iste'mol qilinishi Q_0 ga teng. Bunday vaziyat avtokratik davlatlarda mavjud bo'lishi mumkin. Tasavvur qiling, A davlat bojxona chegarasini jahon narxidagi (R_w) olmalar uchun ochdi. Lekin bu narx ichki narxdan past bo'lib, olma uchun ichki narxning pasayishiga olib keladi, bu esa o'z o'zidan A mamlakatda olma ishlab chiqarish xajmini Q_0 dan Q_1 gacha pasaytiradi, ushbu tovarning iste'moli esa Q_0 dan Q_2 gacha o'sadi.



8.1-rasm. Import tariflarining harakat mexanizmi.


Narxning pasayishi oqibatida o‘sgan iste‘mol esa importning o‘sishi bilan qondiriladi ($Q_2 - Q_1$). Ichki ishlab chiqaruvchilarning qiziqishlarini himoya qilish maqsadida A mamlakat olma importiga (T) boji belgilaydi. Faraz qilaylik A mamlakat kichkina bo‘lib, olmaning jahondagi narxlariga ta’sir o‘tkaza olmaydi. Bu holatda olmaga ichki narx R_t belgilanadi qaysiki. Natijada, ichki ishlab chiqarish xajmi Q_1 dan Q_3 ga o‘sadi. Bojning o‘rnatilishi xorijiy tovarlarning narxining oshishiga olib keladi (bizning misolimizda olmaning). Milliy ishlab chiqaruvchilar aynan shunday tovarni (shu sort va sifat) sotayotganligi uchun, tovarning narxini oshirishni foydali va mumkin deb hisoblashadi. Lekin bu narxning oshishi jahon narxining oshishi bilan to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Bizning misolimizda to‘g‘ri kelishi tasavvur qilingan. Natijada, jahon narxida (P_w) tovarni ishlab chiqarishni o‘zi uchun foydasiz deb bilgan milliy ishlab chiqaruvchilar, o‘zlari uchun birmuncha foydali bo‘lgan R_t narxida tovarlarni sota boshlaydilar. Olma narxining oshishi A mamlakatda ushbu tovar iste‘molini Q_2 dan Q_4 ga pasaytiradi va bu holat tovar importining ham pasayishiga olib keldi. Bu birinchidan, ichki ishlab chiqarishni oshiradi. Buning ta’sir doirasi ichki taklif egri chizig‘ining egiluvchanligidan kelib chiqqan holda har xil bo‘ladi.

Ikkinchidan, bu tovarga bo‘lgan ichki iste‘mol kamayadi. Bu kamayishning xajmi ham ichki talab egri chizig‘ining egiluvchanligidan kelib chiqqan holda har xil bo‘ladi. Natijada, importga bojning

belgilanishi turli tovarlarga turlicha ta'sir qiladi. Endi esa importga bojning o'rnatilishi iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar va hukumat farovonligiga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqamiz. Bunda iste'molchilar olma uchun qimmatroq narx to'laydi, bu ularning qo'shimcha foydasining yo'qolishiga olib keladi, Quyidagi maydon iste'molchilarning yutqazishini ifodalaydi:

$$S_a + S_b + S_c + S_d$$

Ichki ishlab chiqaruvchilar olma narxining oshishi natijasida qo'shimcha foydaga ega bo'ladilar. Ishlab chiqaruvchilarning qo'shimcha foydasi, rasmdagi taklif egri chizig'ining yuqorisidagi ikki narx chizig'i o'rtasidagi maydonni tashkil etadi va C_a ga teng bo'ladi. Hukumat ham importga boj belgilash orqali iqtisodiy samaraga erishadi. Hukumatning foydasi import xajmiga belgilangan boj stavkasi bilan tengdir. Hukumat bojdan tushgan barcha mablag'ni bojxona tizimiga sarflamaydi, daromad iqtisodiy tizimlar o'rtasida taqsimlanadi va o'z o'zidan iqtisodiy farovonlikning oshishiga olib keladi.



8.2-rasm. Import bojlarning davlat farovonligiga ta'siri.

Shunday qilib iste'molchilarning $S_a + S_b + S_c + S_d$ ga teng bo'lgan yutqazishi, S_a ga teng bo'lgan ishlab chiqaruvchilarning hamda S_c ga teng bo'lgan hukumatning foyda ko'rishiga olib keladi. $S(a+b)$ ning o'sishi esa xech narsaga ta'sir qilmaydi, ya'ni «o'lik og'irlik narxi»

tarifi (deadweight cost) deyiladi va kichik davlat misolida umum davlat farovonligi ko'rgan zararni ifoda etadi.

Shundan ko'rinib turibdiki importga bojning belgilanishi bir tomondan ushbu tovarga ichki iste'molni kamaytirsam, ikkinchi tomondan milliy ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy raqobatchilardan muxofaza qiladi. Iqtisodiyotda ichki muxofaza darajasi turli tovarlarga turlicha bo'ladi. Shu bilan birga ichki muxofaza ham har doim sezilavermaydi, chunki ko'pgina tovarlar boj o'rnatilishi mumkin bo'lgan xomashyo yoki yarim tayyor mahsulotlar hisobiga ishlab chiqariladi. Endi esa proteksiyaning haqiqiy darajasini ko'rib chiqamiz (effective rate of protection). Tasavvur qilaylik, ichki bozorda erkin savdo sharoitida kostyumning narxi 150 dollarni tashkil etadi, 100 dollar mato, 50 dollar qo'shilgan qiymat. Endi faraz qilaylik, davlat ushbu tovarga 20% boj o'rnatdi. Tovarining narxi 30 dollarga qimmatlashdi, ya'ni 180 dollarni tashkil etadi. Buning natijasida ichki ishlab chiqaruvchilar uchun qo'shilgan qiymat 50 dan 80 dollarga oshdi. Bu o'z o'zidan milliy ishlab chiqaruvchilarning rivojlanishiga katta turtki bo'ladi.

Endi davlatning matoga nisbatan ikkinchi bojni belgilangandan keyingi va ularning narxi 10% ga ortgan holatni ko'rib chiqaylik. Matoga nisbatan qo'shilgan qiymatning oshishi natijasida, kostyum ishlab chiqarish 70 dollarga tushadi, haqiqiy proteksiyaning darajasi esa 40% ni tashkil etadi. Bojxona bojlari orqali bir soxaning muxofaza etilishi, bevosita boshqa soxa tovarlariga ham ta'sir etadi.

Bojxona bojlari quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflanadi:

1. Tovarining harakat yo'nalishiga qarab. Tovarining harakat yo'nalishiga qarab import, eksport va tranzit bojlariga bo'linadi.

2. Bojning belgilanishi usuliga qarab. Bojning belgilanishi usuliga qarab advalor, spesifik va kombinatsiyalashgan bojlarga bo'linadi.

3. Boj stavkasiga ko'ra. Har bir davlat avtonom ravishda xech qanday kelishuv-larisiz qonun xujjatlarida ko'rsatilgan bojxona tariflarining birinchi ustunida joylashgan maksimal boj stavkalarini belgilashga harakat qiladi. Lekin, ikki va ko'p tomonlama kelishuvlar natijasida bojxona tariflarining ikkinchi ustunida joylashgan minimal boj stavkalari belgilanadi. Bu bojlar odatda konvensial (kelishilgan) bo'ladi. Uchinchi ustunda esa preferensial, ya'ni ikkinchi ustundagi boj stavkalaridan past bo'lgan bojlar joylashgan.

8.4. Embargo, iqtisodiy sanksiyalar va ularning xalqaro savdoga ta'siri

EMBARGO (ispancha — xatga olish, man etish) — davlat tomonidan muayyan tovarlar, xizmatlar, valyuta yoki boshqa boyliklarni mamlakatga keltirish yoki boshqa mamlakatlarga olib ketish, chetga chiqarishni taqiqlab qo'yish; ayrim mamlakatlar yoxud mamlakatlar guruhi bilan savdo munosabatlarini to'la taqiqlash; iqtisodiy yoki siyosiy, moliyaviy, ilmiy-texlik tazyiq vositasi bo'lib, hukumat tomonidan joriy etiladi. BMT qaroriga ko'ra, BMT Ustavini buzganligi yoki boshqa nojo'ya ishlari uchun jazo chorasi tarzida muayyan mamlakatlarning boshqa mamlakatlar bilan savdo aloqalarini to'sib qo'yishi ham Embargo hisoblanadi. EMBARGO - chet el tovarlarini kiritish yoki chiqarish, olib chiqib ketishni davlat tomonidan ta'qiqlash yoki chet davlatga qarashli mulkni vaqtincha to'xtatib turish, ta'qiqlash.

Iqtisodiy sanksiya — bir mamlakat (yoki mamlakatlar guruhi) tomonidan boshqa bir mamlakatga (yoki mamlakatlar guruhiga) qarshi qo'llanilgan jazo. Iqtisodiy sanksiyalar asosan biror bir etirozli siyosatga qul urgan mamlakatga qarshi qullaniladi. Bu siyosat ichki yoki tashqi bo'lishi mumkin. Sanksiyalar har doim ham salbiy bo'lmaydi, ularning ijobiy turlari ham mavjud.

Iqtisodiy sanksiyalar xalqaro diplomatiyada qadim zamondan beri qo'llanilib keladi. O'tmishda sanksiyalar odatda harbiy yurishlar bilan birgalikda ishlatilgan. Keyingi paytda bo'lsa sanksiyalar harbiy harkatlarsiz turli xil tashqi siyosiy maqsadlarga erishish uchun qo'llanilib kelyapti. Iqtisodiy sanksiyalarning turli xil tarifi mavjud. Sanksiyalar buyicha yetuk mutaxassis hisoblangan Hufbauer, Schott, va Elliott sanksiyalarni „odatiy savdo yoki moliya aloqlarining davlat tomonidan atayin bekor qilinishi yoki shunday aloqalarning bekor qilinishi haqida tahdid qilishi“ deb ta'riflaydi. „Odatiy“ so'zi bilan sanksiya yoqligida amalga oshadigan aloqalar nazarda tutilgan. Boshqacha qilib aytganda, Hufbauer, Schott, va Elliott sanksiyalarni mamlakatlar orasidagi normal savdo va moliya aloqaliriga qo'yilgan cheklanishlar deb hisoblashadi. Baldvin iqtisodiy sanksiyalarga kengroq tarif beradi. Unga kura, iqtisodiy sanksiyalar diplomatiya va

propaganda kabi iqtisodiy bo‘lmagan instrumentlar bilan bir qatorda mamlakatni boshqaruvining bir qismidir. Keyingi paytlarda sanksiyalarning ekonometrik ta’riflari ham taklif qilinyapti. Masalan, Marinov sanksiyalarni „bir mamlakatdagi u muomala liniyasini o‘zgartirish uchun odatiy iqtisodiy almashuvga qo‘yilgan chek“ deb tariflaydi.

Yuqoridagi barcha tariflarda iqtisodiy sanksiyalarning asosiy maqsadi kursatilgan. Bu „mo‘ljal“ mamlakatning siyosastini o‘zgartirish uchun o‘sha mamlakatga ziyon yetkazishdir. Iqtisodiy sanksiyalar eng ko‘p biror bir e’tirozli siyosatga qo‘l urgan mamlakatga qarshi qo‘llaniladi. Bu siyosat ichki yoki tashqi bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, sanksiyalarni bir mamlakat alohida yoki bir necha mamlakat guruhi bilan birgalikda ishlatishi mumkin. Sanksiyalar har doim ham salbiy bo‘lmaydi. Aksincha, ijobiy sanksiyalar ham mavjud. Bunday sanksiyalarga muljal mamlakatga iqtisodiy yordam berish, mavjud sanksiyalarni bekor qilish va mo‘ljal mamlakat bilan imtiyozli aloqada bo‘lish misol bo‘la oladi.

Sanksiyalar zamonaviy xalqaro aloqalarda ko‘p qo‘llanilsa ham, tashqi siyosatda ularning samaradorligi haqida iqtisodchilar orasida turli xil fikrlar mavjud. Aksar iqtisodchilar sanksiyalarni tashqi siyosatning effektiv bo‘lmagan quroli deb hisoblaydi. Boshqalar bo‘lsa bazi bir siyosiy maqsadlarga erishish uchun sanksiyalardan samarali foydalanish mumkin deb hisoblaydi. Bu kelishmov- chiliklarga qaramasdan xalqaro aloqalarni boshqarishda qo‘llash mumkin bo‘lgan siyosatlar ozligi sabab sanksiyalar bugungi kunda tashqi siyosat asbobi sifatida keng qo‘llaniladi.

TUSHUNCHA VA IBORALAR

Kvotalash - bu tovarlar eksporti yoki importini muayyan vaqt ichida ma’lum miqdor yoki summa bilan miqdoriy jihatdan cheklashdir. Kvotalash mavsumiy ko‘rinishda yoki xarakterda bo‘lsa kontinentlash shakliga kiradi.

Eksport kvotasi - xalqaro barqarorlashuv shartnomasiga muvofiq muayyan tovarlarning umumiy eksportdagi ulushini belgilash. OPEK yoki biron-bir milliy hukumat tomonidan mamlakat ichki bozorida defitsit tovarlarning chetga chiqib ketishining oldini olishda qo‘llaniladi.

Import kvotasi - milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni himoyalash, savdo balansini muvozanatlashga erishish, ichki bozorda talab va taklifni tartibga solish hamda boshqa mamlakatlar tomonidan diskriminatsiya (kamsitish) savdo siyosati qoʻllanilganda javob tariqasida qoʻllaniladi.

Global kvotalar. Bu tovarlarning qaysi mamlakatga eksport yoki import qilinishidan qatʼiy nazar, eksport va importga nisbatan dunyo miqyosida belgilanadi.

Individual kvotalar. Global kvota doirasida tovarni eksport yoki import qiladigan har bir mamlakatga nisbatan belgilanadi.

Litsyenzialash - mutasaddi davlat organlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatga ruxsat berish orqali eksport yoki import qilinayotgan tovarlarni muayyan vaqt ichida maʼlum bir miqdorda eksport yoki import qilishga ruxsat berish. Litsyenzialash kvotalash jarayonining tarkibiy kismi boʻlib, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish shakli hisoblanadi.

Bir marotabalik litsenziya. Davlat tomonidan biron-bir firmaga bitta tashqi savdo shartnomasini amalga oshirish uchun bir yilgacha muddatda tovarni olib kirish yoki olib chiqish toʻgʻrisidagi yozma ruxsatnoma.

Bosh litsenziya — bir yil maboynida cheklanmagan hajmda tovarni import yoki eksport qilish uchun beriladigan ruxsatnoma.

Global litsenziya maʼlum vaqt ichida dunyoning xohlagan mamlakatiga cheklanmagan miqdorda yoki qiymatda tovarni olib kirish yoki olib chiqib ketish toʻgʻrisidagi yozma ruxsatnoma.

Avtomatik litsenziya eksportyor yoki importyor buyurtmasiga muvofiq davlat tomonidan darhol beriladigan yozma ruxsatnoma.

“Eksportni ixtiyoriy cheklash” - rasmiy davlatlararo yoki tovar eksportiga norasmiy kvota belgilash toʻgʻrisida savdodagi hamkor tomonidan savdoni cheklash yoki eksportni kengaytirmaslik toʻgʻrisidagi majburiyatga asoslangan eksportni miqdor jihatidan cheklash.

Nazorat savollari:

1. Tashqi savdoni tartibga solishning notarif metodlari nima va uning qanday turlari mavjud?

2. Notarif usullarning saqlanib kolishining asosiy sabablari nimada?

3. Tashqi savdoni miqdoriy jihatdan cheklashning qanday usullari mavjud?

4. Kvotalash bilan kontingentlashtirish o'rtasida qanday fark mavjud?

5. Litsyenzialash nima va u qanday usullar yordamida tarqatiladi?

6. Savdo siyosatining moliyaviy metodlariga qaysi usullar kiradi?

7. Ichki va eksport subsidiyalarining milliy iqtisodiyotga ta'siri qanday?

8. Savdo siyosatining yashirin metodlari qanday usullardan iborat?

9. Dunyo amaliyotida tashqi savdoni tartibga solishning yashirin usullari nima uchun keng tarqalgan?

10. Tartibga solishning noiqtisodiy metodlari nima va ular qanday tartibda joriy etiladi?

TASHQI SAVDO SIYOSATINING MOLIYAVIY USULLARI

Ushbu bobda quyidagi bilimlar bayon etilgan:

- Tashqi savdo subsidiyasining zaruriyati.
- Tashqi savdo subsidiyasining kompensatsion bojlar bilan o‘zaro muvozanati.
- Eksport subsidiyasining afzalliklari va kamchiliklari
- Eksport subsidiyasining mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’siri.
- Eksport kreditlarining mohiyati va zaruriyati.
- Eksport kreditlarining tartibga solish mexanizmlari.
- Demping siyosatining kelib chiqish sabablari, turlari.
- Demping siyosatining bartaraf etish choralari.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi oldida turgan muhim strategik vazifalardan biri ochiq iqtisodiyotni shakllantirish orqali milliy iqtisodiyotni jahon xo‘jaligi bilan integratsiyalashuvini ta’minlash va globalizatsiya hamda xalqaro mehnat taqsimoti afzalliklaridan samarali foydalanishdir. Bu dolzarb muammoni muvaffaqiyatli yechish mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy munosabatlarini yanada rivojlantirishni, ularning samaradorligini oshirishni talab qiladi.

Tashqi iqtisodiy soha - milliy va xalqaro xuquq normalari bilan tartibga solinadigan turli subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning murakkab tizimi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish aynan tashqi savdo siyosatining moliyaviy usullari orqali tashqi aloqalarni boshqarishda ularni takomillashtirish, ularning samaradorligini oshirishning iqtisodiy vositalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek ma’muriy va operatsion choralar bilan bog‘liq bir qator chora-tadbirlar yordamida amalga oshiriladi.

9.1. Tashqi savdo subsidiyasining zaruriyati va kompensatsion bojlar bilan o‘zaro muvozanati

Ichki bozorni chet eldagi importdan miqdoriy va yashirin notarif usullari yordamida himoyalashdan tashqari xalqaro savdo amaliyotida eksportni oshirish usullari keng ishlatiladi. Ularning kattaroq qismi hukumat tomonidan milliy eksportyorlarga tug‘ri yoki bilvosita kafolat berish va subsidiyalashga asoslangan. Moliyalash eksport mahsulotining narxini pasaytirishga va shu orqali uning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan.

Eksportni moliyalash davlat budjeti hisobidan hamda xususiy sektor, ya‘ni eksport qiluvchilar va ularga xizmat ko‘rsatadigan banklar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Moliyalash savdo siyosati usuli sifatida milliy ishlab chiqaruvchilar va eksportyorlar foydasiga chet el korxonalariga qarshi diskriminatsiyani ko‘zda tutadi. Savdo siyosatining eng keng tarqalgan moliyaviy usullariga subsidiyalar, kredit berish va demping kiradi. Agar hukumat milliy ishlab chiqaruvchilar eksportini rag‘batlantirish kerak deb topsa, u ularga u yoki bu shaklda budjetdan subsidiya berishi mumkin.

Subsidiya – milliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab quvvatlash va importni diskriminatsiya qilishga yo‘naltirilgan pul to‘lovi.


To‘lov harakteri bo‘yicha subsidiyalar quyidagilarga bo‘linadi: to‘g‘ridan to‘g‘ri – eksport operatsiyasini amalga oshirganidan keyin eksporterga uning harajatlari miqdoridan u olgan daromadlarning ayirmasi qiymatiga beriladigan to‘lovlar.

Bilvosita – soliqlar to‘lash bo‘yicha imtiyozlar, sug‘urtaning imtiyozli shartlari, bozor foiz stavkasidan past bo‘lgan stavka bo‘yicha kreditlar berish, import bojlarining summasini qaytarib berish va boshq. orqali eksportyorlarni yashirin moliyalash.

Subsidiyalar import bilan raqobatlashuvchi hamda eksportga sotiladigan mahsulotlarning ishlab chiqaruvchilariga berilishi mumkin.

Ichki subsidiya – savdo siyosatining moliyaviy usuli bo‘lib, import bilan raqobatlashuvchi mahsulotlarni mamlakat ichida ishlab

chiqarishni budget tomonidan moliyalashni koʻzda tutadi. Import bilan raqobatlashuvchi mahsulotlarning ishlab chiqaruvchilarini qoʻllab quvvatlash uchun hukumat ularga ichki subsidiya berishni qaror qiladi. Subsidiya qilinayotgan mahsulotning narxi subsidiya razmeriga pasayadi, va uning maxalliy ishlab chiqaruvchilari tomonidan taklif chizigʻi S_d dan S_s darajasiga suriladi (1 - rasm). Mahsulotning ichki ishlab chiqarish hajmi 2 dan 7 gacha koʻpayadi. Ichki ishlab chiqarish miqdori oshishi hamda talab hajmi oʻzgarmaganligi natijasida mahsulotning import hajmi 12 dan 7 gacha kamayadi.



9.1-rasm. Ichki subsidiya berilishining iqtisodiy oqibatlari

Ichki ishlab chiqarish hajmini $Q_2=7$ taʼminlashda, ishlab chiqaruvchi oʻz mahsuloti uchun $PS=425$ narxni oladi. Ushbu narx isteʼmolchi toʻlaydigan narxdan $PW=400$ va hukumatdan olinadigan subsidiyadan tashkil topadi $PWPS=25$. Hukumatning subsidiya toʻlash uchun harajatlari $PWPS \cdot Q_2 = 25 \cdot 7 = 175$.

Ishlab chiqarish harajatlari pasayishini va milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligi oshishini ragʻbatlantirish uchun hukumat ishlab chiqaruvchiga u import mavjud boʻlmagan paytda ichki bozorga har bir mahsulot birligiga olgan foydadan kichikroq daromad taʼminlaydigan subsidiya kiritadi. Ichki subsidiya berilishi natijasida ikki iqtisodiy samara vujudga keladi. Subsidiyaning bir qismi ishlab chiqaruvchining yutugʻi shaklida ushbu mahsulotning samaraliroq milliy ishlab chiqaruvchilariga tushadi (a segmenti). Iqtisodiyot uchun yoʻqotish boʻlgan himoya samarasi (bsegmenti) subsidiya olish

natijasida samarasiz maxalliy ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotini sotish imkoniyatiga ega bo‘lgani sababli vujudga keladi.

Import bilan raqobatlashuvchi mahsulotlarning ishlab chiqaruvchilariga beriladigan subsidiyalar import tarifi yoki kvotasiga nisbatan iqtisodiy qulayroq importni cheklash usuli hisoblanadi. Tarif va kvota ichki narxlarni o‘zgarishiga olib kelishidan tashqari, ular natijasida import qiluvchi mamlakatga yuklangan iste’molchilar yo‘qotishlarida ifodalangan iste’mol iqtisodiy samarasi vujudga keladi (d segmenti). Ishlab chiqaruvchilarga beriladigan subsidiya tarif va kvota singari milliy iqtisodiyot uchun kamroq yo‘qotishlar hisobidan importni cheklashni ta’minlaydi.

| | | |
|-----|---|---|
| | | |
| 9.1 | 1. Tashqi savdoni tartibga solishning notarif metodlari nima va uning qanday turlari mavjud? 2. Notarif usullarining saqlanib qolishining asosiy sabablari nimada? 3. Tashqi savdoni miqdoriy jihatdan cheklashning qanday usullari mavjud? | ? |
| | | |


9.2. Eksport subsidiyasining afzalliklari, kamchiliklari va mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’siri

Eksport subsidiyasi – milliy eksporterlarga budjetdan to‘lovlarni ko‘zda tutuvchi savdo siyosatining moliyaviy notarif usuli. Boj singari, eksport subsidiyasi maxsus yoki qiymatli bo‘lishi mumkin. Davlat eksport subsidiyasini to‘laganda, eksport qiluvchilar mahsulotni uning ichki narxi tashqi bozordagi narxdan berilayotgan subsidiya qiymatiga katta bo‘lmaguncha eksport qiladilar. Faraz qilamiz, katta iqtisodiyotli mamlakat mahsulotning eksportyorlariga subsidiya ajratmoqda. (9.2 - rasm).

Subsidiya berish natijasida eksport qiluvchi mamlakatning narxi PW dan PS gacha ko‘tariladi, ammo import qiluvchi mamlakatning narxi PW dan PS* gacha pasaygani uchun, ichki narxning oshishi

subsidiya o'lchamidan pastroq bo'ladi. Eksport subsidiyasi berilishi natijasida erkin savdo holatiga nisbatan mahsulotning ichki taklifi hajmi ko'payadi, ichki talab hajmi esa kamayadi, uning eksport hajmi esa ortadi. Natijada mahsulotning iste'molchilari zarar ko'radilar va davlat budjeti xarajat qiladi. Eksport ishlab chiqaruvchilari esa yutadilar.

1. Eksport subsidiyasi natijasida Narx P ichki narx P_w dan P_s gacha oshadi.



9.2-rasm. Eksport subsidiyasining katta iqtisodiyot uchun iqtisodiy oqibatlari.

Bunda:

P- narx

Q- miqdor

P_w ichki narx


Eksport subsidiyasining iqtisodiy samaralari:

- Ishlab chiqaruvchilarning yutug'i ($a+b+c$);
- Iste'molchilarning yo'qotishlari ($a+b$);
- Davlatning subsidiya berishga xarajatlari ($a+b+c+d+e+f+g$);
- Millatning sof yo'qotishlari ($b+d+e+f+g$); b – himoya samarasi;
- d – iste'mol samarasi.

Import bojidan farqli ravishda eksport subsidiyasi katta iqtisodiyotning savdo shartlarini yomonlashtiradi, chunki u mahsulotning

chet el bozoridagi narxini PW dan Ps^* gacha pasayishiga olib keladi. $(e+f+g) - \text{savdo shartlari samarasi} = (PW-PS^*) * Q_{\text{ehp}}$. Shunday qilib, eksport subsidiyalarni ajratishdan kelib chiqadigan yo‘qotishlar undan olinadigan yutuqlardan kattaroq bo‘ladi. JST tartiblariga binoan eksport subsidiyalari noxaq raqobat instrumenti hisoblanadi va ularni qo‘llash ta’kidlanadi. Import qiluvchi mamlakat eksport qiluvchi mamlakat tomonidan eksport subsidiyasi berilganini aniqlasa, kompensatsion boj kiritish xuquqiga ega. Kompensatsion bojning iqtisodiy oqibatlarini Janubiy Koreyadan AQSHga import qilinayotgan po‘lat bozori misolida ko‘rib chiqamiz. Erkin savdo sharoitida bozor A nuqtasida muvozanatga intiladi (9.3 - rasm).

Eksportga subsidiya va kompensatsiya boji



9.3-rasm. Eksport subsidiyasi va kompensatsion bojning iqtisodiy oqibatlari

Bunda: P - taklif chizig‘i M -import ASEF- import qiluvchi mamlakatning sof yutug‘i. Koreya hukumati tomonidan beriladigan eksport subsidiyalari elastikligi tugalmas bo‘lgan P_0 taklif chizig‘ini pastga P_1 darajasigacha tushiradi va importni M_0 dan M_1 gacha oshiradi. Butun jahon nuqtai nazaridan ushbu savdo hajmi juda katta hisoblanadi. AQSH korxonalariga Koreya po‘latini S nuqtasigacha ishlatish foydali

bo‘ladi. Ushbu nuqtada ular uchun oxirgi tonnaning qiymati P1 ni tashkil qiladi, jahon xo‘jaligiga esa ushlab oxirgi tonnaning ishlab chiqarish harajatlari R0 ga teng bo‘ladi. Ushbu resurslarni samarasiz sarflash oqibatida kelib chiqadigan ortiqcha savdo jahon xo‘jaligiga ABS uchburchak hajmida zarar keltiradi. Ammo bu import qiluvchi mamlakat uchun foydali: ASEF yuzasi – import qiluvchi mamlakatning sof yutug‘i. Agar AQSH koreyalik subsidiyalarni neytralizatsiya qilish uchun kompensatsion bojlarni kiritganida, bozor erkin raqobat sharoitida A nuqtasidagi oldingi narxga P0 va savdo hajmiga M0 qaytgan bo‘lar edi. Natijada jahon ho‘jaligining yo‘qotishlari bekor qilinadi (ABS yuzasi).

Import qiluvchi mamlakat (AQSH):

Yutuq – ADEF yuzasi (davlat byudjetining yutug‘i).

Yutqazish – ASEF yuzasi (iste‘molchilar yutqazishi).

Sof yutqazish – ASD yuzasi (millat yutqazishi).

Eksport qiluvchi mamlakat (Koreya):

Yutqazish – ADEF yuzasi.

Eksport subsidiyasi berilishi va unga qarshi kompensatsiya boji kiritilishi natijasida eksport qiluvchi va import qiluvchi mamlakat yutqazadi, jahon ho‘jaligi esa yutadi.

Eksportni subsidiyalash siyosatiga juda o‘xshash bo‘lgan davlat tashqi savdo siyosatining navbatdagi yo‘nalishi demping deb ataladi

| | | |
|-----|---|---|
| | | |
| 9.2 | 1. Kvotalash bilan Ingentlashtirish o‘rtasida qanday farq mavjud? 2. Litsenziyalash nima va u qanday usullar yordamida tarqatiladi? 3. Savdo siyosatining moliyaviy metodlariga qaysi usullar kiradi? 4. Ichki va eksport subsidiyalarining milliy iqtisodiyotga ta‘siri qanday? | ? |
| | | |

9.3. Eksport kreditlarining mohiyati, zaruriyati va tartibga solish mexanizmlari

Eksport kreditlari tashqi savdo siyosatining moliyaviy usuli bo'lib, milliy firmalarning eksport salohiyatini rivojlantirishni davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirishni nazarda tutadi.

Eksport kreditlari quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

✓ milliy eksportiyorlarga subsidiyalashgan kreditlar berish-davlat banklari tomonidan bozor stavkasidan past stavkalarda kreditlar ajratish;

✓ kredit bergan mamlakat tovarini sotib olish sharti bilan xorijiy importiyorlarga davlat kreditlarini berish;

✓ milliy eksportiyorlarni eksport risklaridan sug'urtalash.

Eksport kreditlari qisqa, o'rta va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Eksport kreditlari bo'yicha eng yirik uyushmalardan biri IHTT doirasida eksportni kreditlash bo'yicha hukumat va agentliklar vakillaridan iborat guruh-Eksport krediti guruhi xisoblandi. Bu guruh ikki yil va undan ortiq muddatga berilgan eksport kreditlarini tartibgasoladi.

Ikkinchi yirik tashkilot kreditlar va investitsiyalarni sug'urtalash bo'yicha xalqaro ittifoq—Bern ittifoqi hisoblanadi.

Ba'zi hollarda eksport kreditlari boshqa davlatlarga tashqi yordam berish shakli sifatida talqin etiladi.

Demping-tovarni tashqi bozorga mamlakatda mavjud normal bahoga qaraganda past baholarda eksportga chiqarish. Tashqi savdo amaliyotida dempinning quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

✓ sporadic demping-tashqi bozorga ortiqcha Tovar zaxiralarini past baholarda epizodik sotish;

✓ oldindan o'ylangan yoki ataylab qilingan demping-bozordagi raqibni siqib chiqarish va keyinchalik monopol baho o'rnatish maqsadida eksport baholarini vaqtinchalik pasaytirish;

✓ doimiy-demping doimiy ravishda tovarlarning eksport bahosini normal bahoga nisbatan pastroq baholarda sotish

✓ teskari demping — tovarlar eksport bahosining mamlakat ichki bozoridagi baholarga nisbatan oshib ketishi.

✓ O‘zaro demping-ikkita mamlakatning bir hil tovarlar bo‘yicha past baholarda o‘zaro savdoga kirishishi.

Dempingdan, eng avvalo, davriy pasayishlar va ichki talab kamayganda, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish davrida foydalaniladi. Masalan, XX asrning 30-yillarida shunga o‘xshash hodisa Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan import qilinuvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida kuzatildi, 70-yillarda AQSH va Yevropa Ittifoqi tomonidan Yaponiyaga nisbatan demping-dan foydalanish ayblovi ilgari surildi. Vaqtinchalik va ayniqsa, doimiy dempingga qarash importyor mamlakatlar JST modsalariga asoslangan holda importga qarshi import bojlarini joriy etish xuquqiga ega bo‘lganligi sababli keyingi yillarda yashirin demping keng tarqalmokda. Bu eksportyor va importyorlar o‘rtasida importyorlar tomonidan o‘z milliy bozorida tovarlarni eksport yetkazib bergan narxdan past baholarda sotish haqida yashirin kelishuvni nazarda tutadi. Yashirin demping yirik TMKlar tomonidan firma ichida qo‘llaniladigan butlovchi qismlarning transferta amaliyotida keng tarqalgan (masalan, yapon TMKlari ichida).

| | | |
|-----|--|---|
| | | |
| 9.3 | 1. Savdo siyosatining yashirin metodlari qanday usullardan iborat? 2. Dunyo amaliyotida tashqi savdoni tartibga solishning yashirin usullari nima uchun keng tarqalgan? 3. Tartibga solishning noiqtisodiy metodlari nima va ular qanday tartibda joriy etiladi? | ? |
| | | |

9.4. Demping siyosatining kelib chiqish sabablari, turlari va bartaraf etish choralari

Demping – eksport narxlarini mamlakatda mavjud bo‘lgan narxlardan pastroq darajada o‘rnatish orqali mahsulotni tashqi bozorga ilgari surishdan iborat savdo siyosatning notarif moliyaviy usuli.

Demping alohida firmalarning resurslari hamda eksport qiluvchilarga beriladigan davlat subsidiyalari hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Demping shakllari: Vaqtinchalik demping – mahsulotning ortiqcha zahilarini tashqi bozorga pasaytirilgan narxlar bo'yicha sotish.

Oldindan mo'ljallangan demping – bozordan raqobatchilarni siqib chiqarish va monopol narxlarni o'rnatish maqsadida narxlarni vaqtincha pasaytirish.

Teskari demping – mahsulotlarni ichki narxlariga nisbatan eksportga bo'lgan narxlarini oshirish.

O'zaro demping – bir hil mahsulot bilan pasaytirilgan narxlar bo'yicha mamlakatlarning o'zaro savdosi.

Doimiy demping – mahsulotlarni past narxlar bo'yicha doimiy eksporti.

Doimiy demping asosida tashqi bozorga nisbatan ichki bozordagi narx bo'yicha talab elastikligining pastroq bo'lishi yotadi. Bu ichki bozorda nisbatan yuqori monopol kuchga ega firmalarga mahsulotlarni tashqi bozorga nisbatan yuqoriroq narxlar bo'yicha sotish imkonini beradi.

Barqaror demping birinchi navbatda turli bozorlar o'rtasidagi obyektiv farqlarga bog'liq. Ulardan yeng muhimi, talabning, xususan, ichki va jahon bozorlaridagi yegiluvchanligi. Jahon bozoridagi har qanday mahsulotga bo'lgan talabning yelastikligi milliy bozorlarga qaraganda ancha yuqori, bu yesa har qanday mahsulotning o'rnini bosuvchi ulkan mahsulotlarining jahon bozoriga chiqishi, shuningdek, milliy bozorlarga qaraganda u yerda raqobatning yuqori darajasi bilan bog'liq. Tabiiyki, ishlab chiqaruvchilar o'zlarining daromadlarini maksimal darajada oshirib, ushbu omildan hamda doimiy ravishda (barqaror ravishda) foydalanadigan bozorlardagi farqlarni belgilaydigan boshqa omillardan foydalanadilar.

Raqobatning adolatsiz usuli sifatida tasniflangan qasddan demping, raqobatchilarni bozordagi monopol hokimiyatini ta'minlash uchun ularni yo'q qilishga, so'ngra barcha xarajatlarni qoplaydigan narxlarning sezilarli darajada oshishiga, shuningdek uzoq vaqt davomida foydani maksimal darajaga ko'tarishga qaratilgan. Tasodifiy demping, qoida tariqasida, bozor kon'yunkturasining kutilmagan


o'zgarishi, rejalashtirishdagi xatolar va h.k.lar natijasida hosil bo'lgan ortiqcha mahsulotni sotish bilan bog'liq.

Barqaror demping sharoitida foydani maksimallashtirish mikroiqtisodiyotdan ma'lum bo'lgan dastlabki shartlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin:

- har qanday belgilangan mahsulot hajmi uchun ichki bozorda sotilgan MRBH mahsulotining oxirgi birligining marginal daromadi tashqi sektorda sotilgan MRin mahsulotining oxirgi birligidan olingan marginal daromadga teng bo'lganda firmaning umumiy daromadi maksimal darajaga ko'tariladi. $MR_{vn} = MR_{in}$.

- o'zgaruvchan mahsulot uchun firmaning foydasi maksimal marginal daromad firma tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning oxirgi birligining marginal xarajatlariga teng bo'lganda maksimal bo'ladi, ya'ni. $MR = MS$

.Masalan, agar $MR_{vn} < MR_{in}$ bo'lsa, firma sotishni ichki bozordan tashqi bozorga ko'chirish orqali umumiy daromadlarini (va shu bilan foyda) ko'paytirishi mumkin.



9.5-rasm. Tashqi savdoda narxlarni kamsitish (demping) modeli

Bunda: a - ichki bozor; b - tashqi bozor; c - marginal: daromad va xarajatlar xuddi shunday, agar $MR_{in} = MR_{in} > MC$ bo'lsa, firma ishlab chiqarish hajmini oshirish (oshirish) orqali foydani oshirishi mumkin. Agar ichki bozorda u yoki bu firma tashqi bozorga qaraganda ko'proq monopol kuchga yega bo'lsa va mahalliy iste'molchilar ushbu mahsulotni chet elda arzonroq narxda sotib olishning alternativasi bo'lmasa, u holda eksport qilinadigan mahsulotning past narxlari

ushbu firmaning foydasini maksimal darajada oshirishga yordam beradi. Ushbu shartlar bajarilishi sharti bilan firma ichki bozorda o'z iste'molchilari hisobiga boyib borishi mumkin.

Demping siyosatini amalga oshirish uchun zaruriy shartlar quyidagilar:

Turli mamlakatlarda mahsulotga bo'lgan talab elastikligidagi farqlar – ichki bozorda narx bo'yicha talab elastikligi tashqi bozordagiga nisbatan pastroq bo'lishi kerak;

bozor himoyalanganligi, ya'ni ishlab chiqaruvchi ichki bozorni tashqi bozordan chetlash imkoniyati mavjudligi (katta transport harajatlari va savdo to'siqlari tufayli).

Dempingga qarshi boj – import qiluvchi mamlakat tomonidan demping asosidagi adolatsiz raqobatning salbiy oqibatlarini neytralizatsiya qilish maqsadida mahsulotning ichki bozordagi va tashqi bozordagi narxlari o'rtasidagi farq hajmiga kiritiladigan vaqtinchalik boj. O'rta muddatli davrda dempingga qarshi bojar mamlakat aholisining umumiy farovonligini pasaytiradi, ammo import qiluvchi mamlakatda, agar boj milliy sanoatga yetkazilgan zararni qoplash uchun yetarli daraja o'rnatilgan bo'lsa, u ko'tariladi. Ushbu holatda dempingga qarshi tarif mamlakat uchun optimal tarifga aylanadi.

TUSHUNCHA VA IBORALAR

Subsidiya – milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlash va importni diskriminatsiya qilishga yo'naltirilgan pul to'lovi. To'g'ridan to'g'ri – eksport operatsiyasini amalga oshirganidan keyin eksporterga uning harajatlari miqdoridan u olgan daromadlarning ayirmasi qiymatiga beriladigan to'lovlar.

Bilvosita – soliqlar to'lash bo'yicha imtiyozlar, sug'urtaning imtiyozli shartlari, bozor foiz stavkasidan past bo'lgan stavka bo'yicha kreditlar berish, import bojlarning summasini qaytarib berish va boshq. orqali eksportyorlarni yashirin moliyalash.

Ichki subsidiya – savdo siyosatining moliyaviy usuli bo'lib, import bilan raqobatlashuvchi mahsulotlarni mamlakat ichida ishlab chiqarishni budjet tomonidan moliyalashni ko'zda tutadi.

Demping – eksport narxlarni mamlakatda mavjud bo‘lgan narxlardan pastroq darajada o‘rnatish orqali mahsulotni tashqi bozorga ilgari surishdan iborat savdo siyosatning notarif moliyaviy usuli.

Dempingga qarshi boj – import qiluvchi mamlakat tomonidan demping asosidagi adolatsiz raqobatning salbiy oqibatlarini neytralizatsiya qilish maqsadida mahsulotning ichki bozordagi va tashqi bozordagi narxlari o‘rtasidagi farq hajmiga kiritiladigan vaqtinchalik boj.

Vaqtinchalik demping – mahsulotning ortiqcha zahilarini tashqi bozorga pasaytirilgan narxlar bo‘yicha sotish.

Oldindan mo‘ljallangan demping – bozordan raqobatchilarni siqib chiqarish va monopol narxlarni o‘rnatish maqsadida narxlarni vaqtincha pasaytirish.

Teskari demping – mahsulotlarni ichki narxlariga nisbatan eksportga bo‘lgan narxlarini oshirish.

O‘zaro demping – bir hil mahsulot bilan pasaytirilgan narxlar bo‘yicha mamlakatlarning o‘zaro savdosi.

Nazorat savollari:

1. Tashqi savdoni tartibga solishning notarif metodlari nima va uning qanday turlari mavjud?
2. Notarif usullarning saqlanib kolshlining asosiy sabablari nimada?
3. Tashqi savdoni miqdoriy jihatdan cheklashning qanday usullari mavjud?
4. Kvotalash bilan kontingentlashtirish o‘rtasida qanday fark mavjud?
5. Litsyenzialash nima va u qanday usullar yordamida tarqatiladi?
6. Savdo siyosatining moliyaviy metodlariga kaysi usullar kiradi?
7. Ichki va eksport subsidiyalarining milliy iqtisodiyotga ta’siri qanday?
8. Savdo siyosatining yashirin metodlari qanday usullardan iborat?

TASHQI SAVDO SIYOSATINING YASHIRIN VA NOIQTISODIY USULLARI

Ushbu bobda quyidagi bilimlar bayon etilgan:

- Tashqi savdo siyosatining yashirin usullari.
- Tashqi savdo siyosatini qo‘llash mexanizmlari.
- Ichki soliqla va yig‘imlar.
- Davlar xaridi doirasidagi siyosat.
- Texnik to‘siqlar va mahalliy komponentlarni ushlab turish talabining qo‘llanish zaruriyati.
 - Texnik to‘siqlar va mahalliy komponentlarni mamlakatlar tashqi savdosiga ta’siri.
 - Tartibga solishning noiqtisodiy usullari.

Kirish

Hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotida barcha tarmoqlar singari tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ham jahon iqtisodiyotining globallashuvi hamda integratsiyalashuvi jarayonlaridan kelib chiqqan holda innovatsion yondashuv orqali uni tartibga solishning iqtisodiy va ma’muriy usullaridan samarali foydalanish orqali xalqaro biznes, shuningdek tashqi savdo siyosatini yuritishda kundan-kunga yangicha yondashuvlar, usullar, tartibotlar vujudga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi oldida turgan muhim strategik vazifalardan biri ochiq iqtisodiyotni shakllantirish orqali milliy iqtisodiyotni jahon xo‘jaligi bilan integratsiyalashuvini ta’minlash va globalizatsiya hamda xalqaro mehnat taqsimoti afzalliklaridan samarali foydalanishdir. Bu dolzarb muammoni muvaffaqiyatli yechish mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy munosabatlarini yanada rivojlantirishni, ularning samaradorligini oshirishni talab qiladi va aynan tashqi savdo siyosatining yashirin va noiqtisodiy usullaridan foydalangan xolda davlatimiz iqtisodiy siyosatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

10.1. Tashqi savdo siyosatining yashirin usullari va ularni qo‘llash mexanizmlari

Tashqi savdoni taribga solishning tarif va notarif metodlari bor. Notarif metodlarga miqdoriy, moliyaviy, yashirin va noiqtisodiy usullar kiradi. Davlat tashqi savdoni tartibga solishda tarif metodlari bilan bir qatorda notarif metodlardan ham keng foydalanadi. Ularning kopchiligi bojxona tariflaridan farqli ravishda miqdoriy jihatdan o‘lchanmaydi va shuning uchun statistikada yaqqol aks ettirilmaydi. Notarif metodlarning ushbu xususiyati hukumatlarga tashqi savdo siyosati sohasida o‘z maqsadlariga erishishda ulardan aralash foydalanishga imkon yaratadi.

Notarif usullar — tovar ayirboshlashga ta’sir qilish dastaklarini, ya’ni mamlakatga olib kiriladigan yoki chetga chiqariladigan mahsulot hajmi va nomenklaturasini cheklashni bildiradi. Notarif usullar miqdoriy, moliyaviy, yashirin va noiqtisodiy usullarga ajratiladi. Ular ustun darajada rivojlanayotgan va hukumat tomonidan proteksionistik iqtisodiy siyosatni talab qiluvchi, bozor tuzilmalari shakllanayotgan o‘tish davri iqtisodiyoti mamlakatlariga xosdir. Tahlillar shuni korsatadiki, tashqi savdo davlat tomonidan tartibga solish tarif va notarif usullar kombinatsiyasi yordamida amalga oshiriladi. XXI asr boshlarida tarif usullarining mavqeyi pasayib bormoqda. Ushbu holat Jahon savdo tashkiloti tomonidan a’zo mamlakatlar oldiga qoyilgan strategik vazifa — ular ortasidagi o‘zaro tovar savdosida tarif cheklashlarini bosqichma-bosqich bartaraf etish vazifasi bilan bog‘liq.

Dunyoning turli mamlakatlari o‘z savdo siyosatlarini amalga oshirish uchun turli dastaklardan foydalanadilar. Notarif cheklashlarning o‘rtacha darajasiga, odatda, u yoki bu cheklashga oid import yoki eksportning qiymat ulushi sifatida qaraladi. Bunda ularning natija berish darajasiga tuzatish kiritiladi. Masalan, zaruriy hujjatlar taqdim etilganda hokimiyat organlari tomonidan beriladigan eksport uchun avtomatik litsenziya, shubhasiz, belgilangan miqdordan ortiq tovarlarni eksport qilishni ta’qiqlovchi eksport kvotasiga nisbatan ancha kam darajada eksportni chegaralaydi. Tovarlarini eksport va import qilishga oid turli cheklashlar, tanlab litsenziyalash yuqori darajada samarali

miqdoriy cheklovlar sanaladi. Avtomatik litsenziyalash, moslanuvchan kvotalar kam samara beruvchi cheklovlarga kiradi. Bir soʻz bilan aytganda, mamlakat xalqaro savdo siyosatining u yoki bu dastaklarini qollash haqida qaror qabul qilar ekan, odatda, ularning birgalikda taʻsir koʻrsatishi va joriy vaziyatga taʻsirini, davlat ichkarisida va undan tashqarida kutilayotgan istiqbollarni baholaydi.

Notarif usullarning saqlanib qolishi quyidagi sabablarga bogliq:

- aksariyat notarif cheklovlar xalqaro shartnomalar orqali tartibga solinmaydi va ularni qoʻllash milliy hukumatlar tashabbusi bilan amalga oshiriladi;

- notarif cheklovlar tovarlar narxining darhol oshib ketishiga olib kelmaydi va isteʼmolchiga soliq yuki borib tushmaydi.

Tashqi savdoning yashirin metodlari notarif metodlar tarkibiga kiradi. Tashqi savdoni tartibga solishning miqdoriy cheklash usullari bilan bir qatorda yashirin proteksionizm usullari ham muhim ahamiyatga ega. Baʼzi hisob-kitoblarga qaraganda yashirin proteksionizmning bir necha yuz xil turlari mavjud. Davlat ular yordamida eksport yoki importni bir tomonlama cheklashi mumkin. Yashirin proteksionizm turlari;

- **Texnik toʻsiqlar** (milliy standartlarga rioya qilishi, import qilinayotgan mahsulotlarning faqat sertifikatini talab qilish, tovarlarni maxsus upakovkalash va markalash, sanitariya-epidemiologiya qoidalariga rioya qilish);

- **Ichki soliqlar va yigʻimlar** –mazkur usul import qilinayotgan tovarlarning ichki bahosini oshirishga qaratilgan boʻlib shu orqali import qilinayotgan tovarlarning raqobatdoshligini tushirishga qaratilgan (qoʻshilgan qiymat soligʻi, savdo soligʻi, aksiz soligʻi, bojxonada rasmiylashtirish uchun yigʻimlar ,port soligʻi, registratsiya soligʻi va boshqalar.);

- **Davlat xaridi doirsaidagi siyosat-** davlat organlari va korxonalaridan maʼlum tovarlarni qimmat boʻlishiga qaramasdan faqat milliy firmalardan sotib olishga yoʻnaltirgan siyosat;

- **Mahalliy komponentlarni ushlab turish talabi-** ichki bozor moʻljallangan tovarlarning maʼlum bir qismini mahallaiy ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqargan boʻlishi kerak.

Yashirin proteksionizm usullari mohiyati jihatdan markaziy hukumat va hatto mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tashqi savdo yo‘liga bojxona tabiatiga ega bolmagan turli to‘siqlarni o‘rnatishini anglatadi. Yashirin proteksionizm usullarining ko‘pchiligi xalqaro savdo muvofiqlashtirilgan tamoyillarini buzishning yaqqol namunasidir. Alohida mamlakat import yoki eksportni bir tomonlama chegaralashida foydalanadigan yashirin proteksionizm usullarining yuzdan oshiq turi mavjud.

Texnik tosiqlar — bu yashirin proteksionizm usuli bo‘lib, milliy texnik, ma‘muriy me‘yorlar va qoidalar shunday ishlab chiqiladiki, ular tovarlarni tashqaridan olib kirishga to‘sqinlik qiladi. Texnik xarakterdagi to‘siqlarning eng keng tarqalganlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Milliy standartlarga rioya etishning talab qilinishi;
- Import maxsulotning sifati haqida sertifikat olishining talab;
- Maxsus qadoqlash va markirovkalashning talab qilinishi;
- Ma‘lum sanitariya va gigiyena qoidalariga rioya etishning talab qilinishi;
- Atrof-muhitni himoyalash bo‘yicha tadbirlar o‘tkazishning talab qilinishi;
- Murakkablashtirilgan bojxona rasmiyatchiliklariga rioya etilishining talab qilinishi;
- Iste‘molchilar huquqlarini himoyalash to‘g‘risidagi qonunlarga rioya etishning talab qilinishi va xokazolar.

| | | |
|------|--|---|
| | | |
| 10.1 | 1. Tashqi savdoni tartibga solishning notarif metodlari nima va uning qanday turlari mavjud? 2. Notarof usullarning saqlanib qolishining asosiy sabablari nimada? | ? |
| | | |

10.2. Ichki soliqlar va yig‘imlar hamda davlat xaridi doirasidagi siyosat

Ichki soliqlar va yig‘imlar — bu yashirin proteksionizm usuli bo‘lib, ular import tovarning ichki narxini ko‘tarishga va bu orqali uning ichki bozordagi raqobatbardoshligini pasaytirishga yunaltirilgan. Ular markaziy hukumat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan joriy qilinishi mumkin. Import tovarlardan olinadigan soliqdar to‘g‘ri soliqlar (qo‘shimcha qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, sotishdan olinadigan soliq) yoki egri soliqlar (bojxonada rasmiylashtirish uchun yig‘imlar, registratsiya uchun va boshqa rasmiyatchiliklar uchun yig‘imlar) ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Davlat xaridlari doirasida siyosat — bu yashirin proteksionizm usuli bo‘lib, unga ko‘ra davlat organlari va korxonalaridan faqat milliy ishlab chiqaruvchilar tovarlarini (bu tovarlar import tovarlardan qimmat bo‘lsa ham) sotib olish talab qilinadi. Davlat xaridi davlat organlari (tashkilot, muassasalari)ning davlat funksiyasini amalga oshirish uchun qiladigan xarajatlarning asosiy qismini tashkil etib, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va investitsiya oqimini ta‘minlash uchun qulay shart-sharoitlar shakllanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Davlat xaridi investitsiya salohiyatini samarali taqsimlash va davlat uchun strategik ahamiyatli bo‘lgan tarmoqlarning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishining, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish va natijalarini ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilishning muhim vositasi sanaladi. Shuning uchun davlat xaridlarini tashkil etish bilan bog‘liq muammolar doim dolzarb bo‘lib, barcha davlatlarda davlat xaridi tizimini takomillashtirishga qaratilgan uzviy va davomli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagi “Davlat xaridlari tizimini muqobilashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to‘g‘risida”gi PQ-1475 sonli Qarorini qabul qilinishi bilan davlat xaridlarini takomillashtirishning yangi davri boshlandi. Mazkur qaror ijrosini ta‘minlash yuzasidan mamlakatimizda bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab ijtimoiy

yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyoti sari islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Davlat tizimi va boshqaruv sohasidagi islohotlar natijasida xarajatlarni boshqarishning yangi huquqiy tizimi shakllantirilmoqda. Bu oʻz navbatida, davlat mablagʻlarini sarflanishi samaradorligini taʼminlashga, uning zamonoviy boshqaruv mexanizmlarini amalda tatbiq etishga imkon beradi. Xalqaro miqyosda yuzaga kelgan yangi iqtisodiy vaziyat, davlat mablagʻlari hisobidan xarajatlarni amalga oshirishda hukumatlar oldiga qoʻyilgan vazifalarning muhimligini oshirmoqda. Maʼlumki, davlat oʻz vazifalarini bajarish jarayonida bir qator xarajatlar qilishi zarur. Bu xarajatlar, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun turli tarmoqlarga investitsiya qilishga, aholining turmush darajasini koʻtarishga, hamda ijtimoiy vazifalarni bajarishga qaratilgan, davlatni boshqarish, mudofaani taʼminlash kabi aniq maqsadlarga yoʻnaltirilgan, rejalashtirilgan xarajatlardan iborat boʻladi. Umum davlat xarajatlari, asosan, davlat budjeti va davlatning boshqa markazlashtirilgan fondlari orqali moliyalashtiriladi. Davlat budjetining iqtisodiy tushunchasi, umumjamiyat miqyosida markazlashgan, davlat ishtirokida toʻplangan va sarflanadigan moliyaviy resurslarni anglatadi.

➤ Davlat xarajatlarining muhim tarkibiy qismi sifatida davlat xaridi alohida oʻringa ega. Tovar va xizmatlarni xarid etish dunyo rivojlanish amaliyotida muhim oʻrin egallaydi hamda fondlar hamda investitsiyani samarali oʻzlashtirishga yoʻnaltirilgan uzluksiz jarayon hisoblanadi. Oʻzbek tilidagi “xarid” termini (inglizchada) “sotib olish” maʼnosi bilan bir maʼnoda ishlatilib, zamonoviy tushunchalarda mahsulotlarni, bajarilgan ishlarni yoki koʻrsatilgan xizmatlarni maʼlum haq evaziga olish demakdir (inglizchada, procurement of goods, works and services). Davlat xaridi - bu davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni qisman yoki toʻliq davlat mablagʻlari evaziga sotib olishdir. Davlat xaridini boshqarishga tizimli yondoshuv toʻgʻriroq boʻladi. Shunday ekan, davlat ehtiyojlari uchun xaridni rejalashtirish va amalga oshirish hamda nazorat etish bilan bogʻliq barcha jarayonlar davlat xaridi tizimini yuzaga keltiradi. Davlat xaridi davlat infratuzilmasini moddiy-moliyaviy taʼminlash uchun amalga oshiriladi. Davlat infratuzilmasini umumiy tarzda ikkita yirik tarkibiy qismiga ajratish mumkin:

➤ **Iqtisodiy infratuzilma** (transport, maishiy xizmatlar, kundalik iqtisodiy faoliyatga amalga oshirish uchun birlamchi boʻlgan infratuzilmalar);

➤ **Ijtimoiy infratuzilma** (maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, yoki boshqacha aytganda, jamiyat kundalik hayoti uchun birlamchi infratuzilmalari).

Ijtimoiy sohalarga Davlat xaridini amalga oshirish zarurati umumjamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi. Oʻzbekistonda ijtimoiy sohalarga investitsiyalar va davlat xaridi mavjud qonuniy-meʼyoriy aktlar orqali tartibga solinadi. Davlat moliyasini boshqarishni isloh etish boʻyicha amalga oshirilayotgan oʻzgarishlarning tarkibiy qismi sifatida, davlat xaridini tashkil etishni tubdan isloh etish, uni tartibga soluvchi huquqiy bazani shakllantirish, davlat xarajatlari samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Davlat xaridini boshqarish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi elementlardan foydalanish samarali yoʻnalish hisoblanadi: davlat xaridini boshqarish yuzasidan ilgʻor xorijiy tajribalardan foydalanish; davlat xaridi siyosatini davlatning iqtisodiy siyosati maqsadlariga muvofiqlashtirish; davlat xaridi sohasidagi amalga oshirilayotgan siyosatni monitoring va baholashni tatbiq etish.

| | | |
|------|--|---|
| | | |
| 10.2 | 1. Tashqi savdoni miqdoriy jihatidan cheklashning qanday usullari mavjud? 2. Kvotalash bilan kontingentlashtirish oʻrtasida qanday farq mavjud? | ? |
| | | |

10.3. Texnik toʻsiqlar va mahalliy komponentlarni ushlab turish talabining qoʻllanilish zaruriyati hamda mamlakatlar tashqi savdosiga taʼsiri

Tashqi savdoni tartibga solishning miqdoriy cheklash usullari bilan bir qatorda yashirin proteksionizm usullari ham muhim ahamiyatga ega. Baʼzi hisob-kitoblarga qaraganda yashirin

proteksionizmning bir necha yuz xil turlari mavjud. Davlat ular yordamida eksport yoki importni bir tomonlama cheklashi mumkin. Yashirin proteksionizm turlari:

➤ Texnik to‘siqlar (milliy standartlarga rioya qilish, import qilinayotgan maxsulotlarning sifat sertifikatini talab qilish, tovarlarni maxsus upakovkalash va markalash, sanitariya-epidemologiya qoidalariga rioya qilish):

➤ Ichki soliqlar va yig‘imlar –mazkur usul import qilinayotgan tovarlarning ichki bahosini oshirishga qaratilgan bo‘lib shu orqali import qilinayotgan tovarning raqobatdoshligini tushirishga qaratilgan(qo‘shilgan qiymat solig‘i, savdo solig‘i, aksiz solig‘i, bojxonada rasmiylashtirish uchun yig‘imlar, port solig‘i, registratsiya solig‘i va boshqalar.)

➤ Davlat xaridi doirsaidagi siyosat davlat o‘rganlari va korxonalaridan ma’lum tovarlarni qimmat bo‘lishiga qaramasdan faqat milliy firmalardan sotib olishga yo‘naltirilgan siyosat;

➤ Mahallaiy komponentlarni ushlab turish talabi-ichki bozorga mo‘ljallangan tovarlarning ma’lum bir qismini mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqargan bo‘lish kerak.


➤ Yashirin proteksionizm usullari mohiyati jihatidan markaziy hukumat va hatto mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tashqi savdo yo‘liga bojxona tabiatiga ega bo‘lmagan turli to‘siqlarni o‘rnatishni anglatadi. Yashirin proteksionizm usullarining ko‘pchiligi xalqaro savdo muvofiqlashtirilgan tamoyillarini buzishning yaqqol namunasidir.

Alohida mamlakat import yoki eksportni bir tomonlama chegaralashida foydalanadigan yashirin proteksionizm usullarining yuzdan oshiq turi mavjud.


Texnik to‘siqlar — bu yashirin proteksionizm usuli bo‘lib, milliy texnik, ma’muriy me’yorlar va qoidalar shunday ishlab chiqiladiki, ular tovarlarni tashqaridan olib kirishga to‘sqinlik qiladi. Texnik xarakterdagi to‘siqlarning eng keng tarqalganlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:- milliy standartlarga rioya etishning talab qilinishi; Mahalliy komponentlarning tovar tarkibida bo‘lishligiga talablar – bu davlat siyosatining yashirin usuli bo‘lib, unga ko‘ra ichki bozorda sotiladigan pirovard tovarda milliy ishlab chiqaruvchilarning ulushi qonuniy ravishda belgilab ko‘yiladi. Faraz qilaylik, mamlakatda

tovar taklifi CD tovarga talab esa DD ni tashkil kiladi. Erkin savdo sharoitida 1R narxda xorijdan tovar taklifi 1C ni tashkil qiladi. Ushbu mamlakatda ishlab chiqarish tannarxi xorijga nisbatan yuqori bo‘lganligi sababli mahalliy tovarlar taklif qilinadigan narx ham yuqori. Agar mahalliy ishlab chiqaruvchilar va xorijdan taklif qilinayotgan tovarlar mikdorini har bir narx uchun ko‘shib chiqsak, ushbu mamlakat bozorida ana shu tovarning jami taklif to‘g‘ri chizig‘iga — 2C ega bo‘lamiz. Ichki talab jami talab bilan A nuqtada muvozanatga keladi. Bu muvozanat nuqtada IP narxda 6Q ta tovar sotiladi, bu tovarlarning Q1 tasi ichki ishlab chiqaruvchilar, 5Q tasi xorijliklar tomonidan sotiladi (10.1-rasm)

A)



B)



10.1-rasm

(A va B).Mahalliy komponentlarning tovar tarkibida bo‘lishligi talablari Hukumat mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishga qaror qiladi va mahalliy komponentlarning tovar tarkibida bo‘lish talablarini joriy qiladi. Cheklovlarga duch kelmaslik uchun xorijiy

kompaniyalar o‘z ishlab chiqarishini shu mamlakat xududiga ko‘chirib o‘tkazadi, bu esa ularning ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga olib keladi. Xarajatlarning oshishi natijasida tovar qimmatlashadi xoriждан taklif chizig‘i C dan C3 ga ko‘chib o‘tadi. Buning natijasida jami taklif chizig‘i ham C2 dan C4 ga ko‘chib o‘tadi va V nuqtada muvozanatga keladi. Natijada tovar narxi R2 gacha oshadi va sotish hajmi Q4 gacha kamayadi. Sotilgan tovarlarni Q2 tasi mahalliy ishlab chiqaruvchilar, Q3 tasi esa mamlakatga ishlab chiqarishni ko‘chirib o‘tkazgan xorijliklar tomonidan ishlab chiqariladi. Xorijga nisbatan kimmatroq mahalliy komponentlarni sotib olish talabiga muvofiq ishlab chiqarish xarajatlari oshib ketdi va narx P_i dan R2 ga ko‘tarishdi, iste’molchilarning zarari esa $a+b+c+d+e$ ga teng bo‘ldi. Bu yerda: a segment - chegaraviy samara (mahalliy ishlab chiqaruvchilarga qayta taqsimlanadigan summa), b segment - himoyalash samarasi (mahalliy ishlab chiqarishning xorijiy ishlab chiqarishga nisbatan samarasizligi sababli yo‘qotishlar) d segment - iste’mol samarasi (narx oshishi natijasida iste’mol miqdoridagi yo‘qotishlar)

| | | |
|------|---|---|
| | | ? |
| 10.3 | 1. Litsenziyalash va u qanday usullar yordamida tarqatiladi? 2. Dunyo amaliyotida tashqi savdoni tartibga solishning yashirin usullari nima uchun keng tarqalgan? 3. Tartibga solishning noiqtisodiy metodlari nima ular qanday tartibda joriy etiladi? | |

10.4. Tartibga solishning noiqtisodiy usullari

Tashqi savdoni tartibga solishning notarif dastaklari tarkibida huquqiy dastaklar muhim o‘rin egallagan. Ularni, odatda, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda noiqtisodiy dastaklar, deb nomlashadi. Bu dastaklar ikki va ko‘p tomonlama kelishuvlarda o‘z aksini topadi.

Savdo kelishuvlari, dengizda suzish va savdo sulhi — bu davlatlararo shartnomalarning bir turi bo‘lib, ikki tomonlama savdo-ning tamoyillarini va rejimini o‘rnatadi. O‘zaro savdoda mamlakatlar

bir-biriga nisbatan qulay shart-sharoit yaratib berish uchun va neytral suvlardan, hududdan kelishilgan holda foydalanish uchun ikki tomonlama kelishuvlar imzolashga harakat qilishadi. Bunday kelishuvlar, odatda, ijro hokimiyatlari tomonidan tuziladi va keyinchalik mamlakatlarning qonun chiqarish organlari tomonidan ratifikatsiyalanadi. Shuningdek, ikki tomonlama kelishuvlar, odatda, 5-10-yilga tuziladi va muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqiladi. Davlatlararo kelishuvlarda mamlakatlar bir-biriga nisbatan quyidagi huquqiy rejimlardan birini qo‘llashga kelishib olishadi:

1 . Milliy rejim — mamlakat o‘zining yuridik va jismoniy shaxslariga yaratib beradigan shart-sharoitdan, rejimdan hamkor mamlakat rezidentlariga ham foydalanishga ruxsat berishini nazarda tutuvchi rejim. Misol uchun, mamlakatlarni importyorlardan undiradigan aksiz solig‘i va QQS stavkasi ichki ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan soliq stavkalaridan yuqori bo‘ladi. Agar mamlakatlar o‘zaro savdoda milliy rejimni qo‘llashga kelishib olishsa, bu soliq stavkalari ichki va xorijiy subektlar uchun bir xil bo‘ladi.

2. Mumkin qadar qulaylik yaratish rejimi — bir mamlakat tomonidan uchinchi mamlakat (savdo kelishuvida aks ettirilmagan mamlakat)ga yaratgan qulay shart-sharoitlarni, afzallik va imtiyozlarni o‘z hamkor mamlakatiga ham taqdim etishini nazarda tutuvchi huquqiy rejim. Ammo bu rejimda quyidagi hollarda berilgan imtiyozlar inobatga olinmaydi:

- qo‘shni mamlakatlarga taqdim etilgan imtiyozlar;
- bir integratsion guruh ichida taqdim etilgan imtiyozlar;
- BMT ning 1971-yilda qabul qilgan Umumiy preferensiyalar tizimi doirasida berilgan imtiyozlar. Bu rejimga ega bolish bugungi kunda katta ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, JST ga a‘zo bolish uchun mamalkat bu tashkilotga kiruvchi boshqa mamlakatlarning har biri bilan «mumkin qadar qulaylik yaratish» rejimini taqdim etish bo‘yicha kelishuv imzolashi shart.

Hozirda jahon bozorining turli segmentlarida xalqaro savdo muammolarini muvofiqlashtiruvchi ko‘plab xalqaro tashkilotlar, uyushmalar, kengashlar faoliyat yuritmoqdalar, ko‘p tomonlama xalqaro bitimlar imzolangan. Masalan, ayrim xomashyo tovarlari xalqaro savdosini tartibga solish maqsadida ko‘p tomonlama bitimlar imzolangan va importyor davlatlar va eksportyorlar ishtirokida xalqaro

tashkilotlar tashkil qilingan: kakao (Kakao bo'yicha xalqaro tashkilot — International Cocoa Organisation), kofe (Kofe bo'yicha xalqaro tashkilot International Coffe Organisation — ICO), tabiiy kauchuk (Tabiiy kauchuk bo'yicha xalqaro tashkilot — International Natural Rubber Organisation — INRO), shakar bo'-yicha (Shakar bo'yicha xalqaro tashkilot — Internaitonal Suger organization— ISO). Neftni eksport qiluvchi mamlakatlar OREK faoliyatida ask etadi. Undan tashqari, davlatlararo uyushmalar yoki xalqaro kengashlar faoliyat yuritmoqdalar va mis, boksit, temir rudasi, simob, volfram, qalay, kumush, fosfatlar, tropik turdagi yog'ochlar, teri, don, kokos mahsulotlari, jut, paxta, qora murch, choy, banan, yeryong'oq, sitrus, go'sht va urug'li yog'lar bo'yicha xalqaro konsultativ tashkilotlar. BMT doirasida jahon savdosi BMT ning Savdo va rivojlanish Konferensiyasi (UNCTAD) va BMT ning Xalqaro savdo huquqi bo'yicha Komissiyasi (UNCITRAL) tomonidan tartibga solinadi.

TUSHUNCHA VA IBORALAR

Notarif usullar — tovar ayirboshlashga ta'sir qilish dastaklarini, ya'ni mamlakatga olib kiriladigan yoki chetga chiqariladigan mahsulot hajmi va nomenklaturasini cheklashni bildiradi.

Texnik tosiqlar — bu yashirin proteksionizm usuli bo'lib, milliy texnik, ma'muriy me'yorlar va qoidalar shunday ishlab chiqiladiki, ular tovarlarni tashqaridan olib kirishga to'sqinlik qiladi.

Ichki soliqlar va yig'implar — bu yashirin proteksionizm usuli bo'lib, ular import tovarning ichki narxini ko'tarishga va bu orqali uning ichki bozordagi raqobatbardoshligini pasaytirishga yunaltirilgan.

Davlat xaridlari doirasida siyosat — bu yashirin proteksionizm usuli bo'lib, unga ko'ra davlat organlari va korxonalaridan faqat milliy ishlab chiqaruvchilar tovarlarini sotib olish talab qilinadi.

Iqtisodiy infratuzilma — transport, maishiy xizmatlar, kundalik iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun birlamchi bo'lgan infratuzilmalar;

Ijtimoiy infratuzilma — maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, yoki boshqacha aytganda, jamiyat kundalik hayoti uchun birlamchi infratuzilmalar.

Nazorat savollari:

1. Tashqi savdoni tartibga solishning notarif metodlari nima va uning qanday turlari mavjud?
2. Notarif usullarning saqlanib kolshlining asosiy sabablari nimada?
3. Tashqi savdoni miqdoriy jihatdan cheklashning qanday usullari mavjud?
4. Kvotalash bilan kontingentlashtirish o'rtasida qanday fark mavjud?
5. Litsyenzialash nima va u qanday usullar yordamida tarqatiladi?
6. Dunyo amaliyotida tashqi savdoni tartibga solishning yashirin usullari nima uchun keng tarqalgan?

XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA

Ushbu bobda quyidagi bilimlar bayon etilgan:

- Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning kelib, chiqish sabablari, zaruriyati, mazmuni, rivojlanish xususiyati.
- Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish xususiyatlari.
- G‘arbiy Yevropa integratsion jarayonlarining rivojlanish tendentiyalari.
- Amerika qit‘asida integratsion jarayonlarining rivojlanish tendentiyalari.
- Osiyo-Tinch Okeanida integratsion jarayonlarining rivojlanish xususiyatlari.
- Afrika mintaqalarida integratsion jarayonlarining rivojlanish xususiyatlari.
- O‘zbekiston va xalqaro integratsion guruhlar iqtisodiy munosabatlarini faollashtirish masalalari.

Kirish

Ma‘lumki mamlakatimiz istiqlolimizning dastlabki yillaridanoq tashqi iqtisodiy siyosat borasidagi islohotlarini jadal rivojlantirishni samarali yo‘lga qo‘yishga kirishdi va shundan kelib chiqib ushbu boradagi meyoriy-huquqiy ba‘zani yaratdi. Globallashuv sharoitida mamlakatlarning o‘zaro turli sohalarda integratsiyalashuvi jarayoni jadal kechadi va u respublikalar taraqqiyoti omili bo‘lib xizmat qiladi. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi globallashuv jarayonlarining jadal rivojlanishi orqali tavsiflanadi. Globallashuvni iqtisodiy jihatdan qaraydigan bo‘lsak, u jahon xo‘jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimining tashkil topishi va rivojlanishini anglatadi. Ushbu jarayonga esa mamlakatlarning o‘zaro integratsiyalashuvi asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv mamlakatimizga xorijiy investorlarni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi, chunki olib qaraydigan bo‘lsak tashqi iqtisodiy faollik mamlakatni investitsion jozibadorligini oshiradi.

Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilgi murojaatnomalarida “Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot

milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerakligi va shu asosda “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarurligi ta’kidlab o‘tgan bo‘lsalar hukumatga ikki oy muddatda raqamli iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish topshiriladi. Unga ko‘ra iqtisodiyotimiz rivojining muhim sharti bo‘lgan faol investitsiya siyosatini izchil davom ettiramiz, iqtisodiyotimizni jahon bozoriga integratsiya qilish va eksportni qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifadir. Kelgusi yili eksport hajmini 30 foizga oshirib, 18 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilib qo‘ymoqdamiz. Biz eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotga o‘tishimiz, ichki bozorda raqobat muhitini shakllantirishimiz zarur.” deb ta’kidlab o‘tdilar.

Dunyoda globallashtirish jarayonlari shu darajada jadal kechmoqdaki, ba’zi mamlakatlarning o‘zaro ziddiyatlari mavjudligiga qaramasdan ayrim hollarda ularning birgalikda hamkorlikda ishlashga majbur qilmoqda, aks holda jahon sivilizatsiyasidan ortda qolish kabi holatlarga olib kelishi mumkin. Hozirgi sharoitda mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarning rivojlanishi har bir mamlakatning milliy iqtisodiyotini rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy integratsiya butun bir mamlakatlar milliy xo‘jaliklar darajasida, shuningdek, korxonalar, firmalar, kompaniyalar, korporatsiyalar darajasida ham kuzatiladi. Iqtisodiy integratsiya ishlab chiqarish texnologik aloqalarning kengayishi va chuqurlashuvida, resurslardan hamkorlikda foydalanish, kapitallarni birlashtirishda hamda iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida bir-biriga qulay sharoitlarni yaratishda, o‘zaro to‘siqlarni olib tashlashda namoyon bo‘ladi.

11.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning kelib chiqish sabablari, zaruriyati, mazmuni va rivojlanish xususiyatlari

Jahon xo‘jaligida o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq kuyidagi ikki tendensiya

harakat qilmoqda.


➤ Jahon xo‘jaligi yaxlitligining shakllanish jarayoni – globallashtirish;

➤ Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya

Xalqaro iqtisodiy integratsiya (XII) atamasi XX asrning 30-yillarida nemis va shved iqtisodchilarining asarlarida birinchi marta ishlatilgan. Integratsiya soʻzi lotin tilida “integratio” soʻzidan olingan boʻlib, “qoʻshilib ketish”, “birlashish”, “qismlarning bir butunlikka aylanishi” deb tarjima qilinadi. Xalqaro iqtisodiy integratsiya deganda milliy xoʻjaliklar oʻrtasida chuqur barkaror oʻzaro aloqalar va mehnat taqsimoti asosida ishlab chiqarishning yuqori darajadagi baynalmillatlashuvi tushunilib, u qator mamlakatlar takror ishlab chiqarish tarkibining asta-sekin qoʻshilib ketishiga olib keladi.

Hozirgi vaqtda mutaxassislar oʻrtasida integratsiya jarayonlariga nisbatan yagona nuqtai nazar yoʻq. Iqtisodchilarning bir guruhi integratsiya jarayonida mamlakatlar oʻrtasida yangi tovar oqimlarini shakllantirish xisobiga “resurslarning cheklanganligi” omilini bartaraf etishni eng muhim holat deb biladilar va bu alohida olingan bir mamlakat ichida bir-biriga oʻxshash qimmatroq tovarlar ishlab chiqarishni bartaraf etish yoki ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlariga sarflanadigan mablagʻlarni tejash imkonini beradigan texnologik oʻzaro almashuvlarni kengaytirishga imkon tugʻdiradi deb hisoblaydilar. Olimlarning boshqa guruhi ustunlik qiluvchi shart-sharoitlar sifatida tashqi iqtisodiy omillar, masalan, kollektiv mudofaa qobiliyatini oshirishni ilgari suradilar. Integratsiyaga nisbatan hamma nazariy yondashuvlarni umumlashtirib, shuni taʼkidlash joizki, integratsiya-mintaqaviy miqyosda sifat jixatidan yangi iqtisodiy muhitni shakllantirish yoʻli bilan milliy xoʻjalik komplekslarining yaqinlashuvi va bir-biriga kirib, borishi ni ifodalaydi. Jahon ikki-sodiyotida integratsiya jarayonlari har bir davlat uchun faqat “oʻz ishlab chiqarishiga” ega boʻlish samara bermaydigan boʻlib qoladigan vaziyatni keltirib chiqaradi. Demak, XII — milliy iqtisodiyotlarning turli sohalardagi hamkorlik shakli boʻlib, hamkor mamlakatlar iqtisodiyotining texnik, texnologik va iqtisodiy jihatdan uzoq muddatli bogʻliqligining chuqurlashuvi bilan ajralib turadi. XII-ning maqsadi istiqbolda tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining erkin harakatlanishiga toʻsiq boʻlayotgan cheklovlarni bartaraf etish hisoblanadi. Ishlab chiqarish, ilmiy-texnik hamkorlik va ayirboshlash predmet hisoblangan tovarlar, xizmatlar, pul va mehnat resurslari XII obyektlari hisoblansa, xalqaro ishlab chiqarish, ilmiy-texnik xamkorlik

va ayirboshlashni amalga oshiruvchi iqtisodiy tomonlar XII subyektlari hisoblanadi.



11.1-rasm. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning tuzilishi.

Integratsion tuzilmalarni ishlab chiqarishning integratsiyalashishida erishilgan darajasiga qarab ajratish lozim. Bunda integratsiyalashish rasmiy va real xususiyatga ega bo'lishi mumkinligini hisobga olish zarur. Rasmiy ingegatsiyalashuv ishlab chiqarishni xalqaro darajada umumlashtirishdan iborat bo'lib, uning asosida mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar xalqaro mehnat taqsimoti asosida tashkil etiladi.

Real iqtisodiy integratsiya esa ishlab chiqarishning ishtirokchi mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari pariteti asosida xalqaro umumlashtirishdan iborat bo'ladi. Iqtisodiy integratsiya, o'z navbatida, ishtirokchi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarining yaxshilanishi uchun sharoit yaratadi. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, integratsiyadan ichki bozori kichik, resurslarga boy bo'lmagan, jahon YAMMida kam ulushga ega bo'lgan mam-

lakatlar ko‘proq samara oladi. Taxlillar ko‘rsatishicha, XII kuyidagi obyektiv omillar va sabablarga asoslanadi:

Xo‘jalik hayoti baynalmillashuvining o‘sib borishi;Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;

- Umumjahon ilmiy-texnika taraqqiyotining o‘ziga xosligi;
- Milliy iqtisodiyotlar ochiqligi darajasining ortishi;
- Intergrasiyalashayotgan mamlakatlarda daromadlarning ortishi;
- Yangi savdo oqimlarining paydo bo‘lishi;
- Ishlab chiqarish xarajatlari, tovarlar va xizmatlar narxining pasayishi tufayli iqtisodiy farovonlikning o‘sishi;
- Integrasion birlashmaga azo mamlakatlarning uchinchi mamlakatlarga nisbatan iqtisodiy pozitsiyasining mustahkamlanishi;
- Mintaqada siyosiy hamkorlikning rivojlanishi va integrasion birlashmaga azo mamlakatlarning uchinchi mamlakatlarga nisbatan siyosiy pozitsiyasining mustahkamlanishi;

Ushbu omillarning barchasi o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lib, integratsiya mamlakatlar o‘rtasidagi (xalqaro meqnat taqsimoti asosida) barqaror iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi va qayta ishlab chiqarishning milliy xo‘jalik doirasidan chetga chiqishi jarayonidir.

Iqtisodiy integratsiya shakllanishining shart-sharoitlari quyidagilardan iborat:

- Integratsiyalashayotgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi va bozor munosabatlaridagi yetukligi darajasining yaqinligi.
- Integratsiyalashayotgan mamlakatar iqtisodiy rivojlanishi va bozor munosabatlaridagi yetukligi darajasining yaqinligi. Aksariyat hollarda mamlakatlararo integratsiya sanoat jihatdan taraqqiy etgan yoki rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida rivojlanishi;
- Integratsiyalashgan mamlakatlarning geografik yaqinligi, aksariyat hollarda umumiy chegara va tarixan shakllangan iqtisodiy aloqalarning mavjudligi. Dunyodagi integratsion birlashmalarning aksariyati geografik jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan, chegaradosh, transport aloqalariga ega bo‘lgan, ko‘pincha bir tilde so‘zlashadigan qo‘shni mamlakatlardan boshlangan Iqtisodiy integratsiya shakllanishining shart-sharoitlari quyidagilardan iborat:

- Integratsiyalashayotgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish va bozor munosabatlaridagi yetukligi darajasining yaqinligi. Aksariyat

hollarda mamlakatlararo integratsiya sanoat jihatidan taraqqiy etgan yoki rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida rivojlanadi;

➤ Integratsiyalashayotgan mamlakatlarning geografik yaqinligi, aksariyat hollarda umumiy chegara va tarixan shakllangan iqtisodiy aloqalarning mavjudligi. Dunyodagi integratsion birlashmalarning aksariyati geografik jihatidan bir-biriga yaqin joylashgan, chegaradosh, transport aloqalariga ega bo'lgan, ko'pincha bir tilda so'zlashadigan qo'shni mamlakatlardan boshlangan;

➤ Integratsiyalashayotgan mamlakatlar oldida turgan iqtisodiy va boshqa muammolarning umumiyliigi. Iqtisodiy integratsiya mamlakatlar oldida mavjud bo'lgan aniq muammolar to'plamini hal qilishga qaratiladi

➤ Ustunlikni namoyish qilish samarasi. Integratsion birlashmalarni tuzgan mamlakatlar odatda ijobiy iqtisodiy o'zgarishlar sodir bo'ladi, shubhasiz, o'zgarishlarni kuzatib borayotgan boshqa mamlakatlarga muayyan ruhiy ta'sir ko'rsatadi;

➤ Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan va rivojlanayotgan ko'plab integratsion birlashmalar aslida o'z oldiga bir-biriga o'xshash quyidagi vazifalarni qo'yadilar:

1. Keng ko'lamlı iqtisodiyot afzalliklaridan foydalanish. Keng ko'lamlı iqtisodiyot nazariyasi asosida bozorlar hajmini kengaytirish, transaksion xarajatlarni kamaytirish va boshqa kator afzalliklardan foydalanish. Bu o'z navbatida, katta hajmdagi bozorlarga katta ishtiyoq bilan kirib keladigan to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jalb qilishga bevosita imkon beradi.

2. Qulay tashqi siyosiy muhitni yaratish. Aksariyat integratsion birlashmalarning muhim maqsadi ularda ishtirok etuvchi mamlakatlarning siyosiy, harbiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa noiqtisodiy sohalarda bir birini tushunishi hamda hamkorligini mustahkamlashdir.

3. Savdo siyosatidagi vazifalarni hal qilish. Mintaqaviy integratsiya, ko'pincha, GATT/JST doirasida ishtirok etayotgan mamlakatlarning muzokarasi nuqtai nazaridan olib qaraladi. Mamlakatlar bloki nomidan kelishilgan holdagi bayonot ancha jiddiy hisoblanadi va savdo siyosati sohasida kutilgan natijalarni beradi.

4. Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishga ko'maklashish. O'z milliy iqtisodiyotini integratsiya jarayonlariga qo'shar ekanlar, rivojlangan davlatlar ham o'sha mamlakatlardagi to'laqonli va katta

hajmli bozorlarni yaratish hamda ulardagi bozor islohotlarining rivojlanishidan manfaatdor bo‘ladi. YEIning u yoki bu shakliga qo‘shila turib, ko‘plab G‘arbiy Yevropa mamlakatlari shu maqsadlarni ko‘zlagan edi.

5. Milliy sanoatning yosh sohalarini qo‘llab-quvvatlash. Hatto, integratsion birlashmalar uchinchi mamlakatlarga nisbatan kamsituvchi choralarni nazarda tutmaganlarida xam, ular faoliyati uchun kengroq mintaqaviy bozor ochiladigan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash usuli sifatida qaraladi. Tarixan integratsion jarayonlar o‘z rivojlanish bosqichlariga ega. Ularning har biri uning rivojlanishining ma‘lum darajaga yetganligini ifoda etadi.

Integratsion guruhlar tipologiyasining asoslari ishtirokchi mamlakatlar milliy iqtisodiyotining makro va mikro darajada o‘zaro yaqinlashishi hamda bir-biriga iqtisodiy jihatdan qanchalik chuqur kirib borishini baholashda namoyon bo‘ladi.

11.1-jadval.

Integratsiya jarayonlarining shakllari va bosqishlari.

| Integratsiya bosqichlari | Tavsifi | | | | |
|-------------------------------|----------------------------------|---------------------------------|--|------------------------------------|--|
| | Savdo cheklovlarni bekor qilish. | Umumiy tashqi savdo cheklovlari | Ishlab chiqarish omillarining erkin xarajati | Muvofiqlashtirilgan fiscal siyosat | Yagona makrosiyosat va uni amalga oshirishning umumiyliigi |
| Erkin savdo zonasi | X | | | | |
| Bojxona ittifoqi | X | X | | | |
| Umumiy bozor | X | X | X | | |
| Iqtisodiy va valyuta ittifoqi | X | X | X | X | |
| To‘liq integratsiya | X | X | X | X | X |

XII nazariyasida amerikalik iqtisodchi B.Balassa iqtisodiy integratsiyaning quyidagi beshta shaklini ajratadi.

Erkin savdo zonasi - mamlakatlarning o‘zaro savdoda bojxona bojlari va miqdoriy cheklovlarni bekor qilish maqsadidagi birlashuvi. Ishtirokchi mamlakatlar bu bosqichda o‘zaro savdo to‘siqlarini bekor

qiladi, lekin uchinchi mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarda to'la erkinlikni saqlab qoladilar (masalan, bojxona bojlarini yoxud boshqa cheklashlarni bekor qilish yoki yangiliklarni kiritish va savdo-iqtisodiy shartnomalar, bitimlar tuzish xuquqlari). Buning oqibatida mamlakatlar o'rtasida chegaralarni kesib o'tayotgan tovarlarning kelib chiqishini nazorat qiladigan va tegishli uchinch mamlakatlardan imtiyozli ravishda tovarlarni olib kirishga to'sqinlik qiladigan bojxona chegaralari hamda postlari saqlanib qoladi. Erkin savdo xududlari a'zo mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb etilish jarayonini tezlashtirishga yordam beradi. Erkin savdo xududdarining salbiy tomonlariga keladigan bo'lsak, ular ichki bozor raqobatining kuchayishi bilan belgilanadi, chunki bu milliy ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta'sir etishi va bankrotlik xavfini kuchaytirishi mumkin. Bu bosqichda millatlararo tartibga soluvchi tashkiloglarni tashkil etish ko'zda tutilmaydi. Bu esa, o'z navbatida, birgalikda qarorlar qabul qilish jarayonlarini sekinlashtiradi.

Bojxona ittifoqi - o'zaro savdoda to'siqlar bekor qilingan va a'zo bo'lmagan mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona tariflari asosida umumiy tashqi savdo siyosati olib borayotgan mamlakatlar guruhi. Integratsiyaning bu bosqichida davlatlar faqat o'zaro to'siqlarni bartaraf etibgina qolmay, balki tashqi savdo to'siqlarining yagona tizimini va uchinchi mamlakatlarga nisbatan bojxona bojlarining yagona tizimini tashkil qiladilar. Bunda ishtirokchi mamlakatlar chegaralari bilan belgilangan yagona bojxona makoni vujudga keladi.

Umumiy bozor — a'zo mamlakatlar o'rtasida tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi erkin harakatini ta'minlashga erishishga harakat qilayotgan mamlakatlar guruhid. Bu bosqichda mamlakatlar o'z milliy chegaralari orqali nafaqat tovarlar, balki barcha ishlab chiqarish omillari - kapital, ishchi kuchi, texnologiya va ma'lumotlarni erkin harakati haqida kelishadilar. Bojxona ittifoqini umumiy bozorga aylantirish jarayoni faqat savdoni emas, balki iqtisodiy siyosatning boshqa sohalarini ham qamrab oluvchi qonuniy meyorlarni uyg'unlashtirish masalalarini hal etish bilan bog'liq. Shuning uchun ham ichki bojxona to'siqari va boshqa cheklashlarni bartaraf etish orqali uchinchi mamlakatlar bilan savdoda umumiy tamoyillarni ishlab chiqish zarur, natijada milliy chegaralar orqali tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining har qanday to'siqlarsiz o'tishiga shart-

sharoit yaratiladi. Umumiy bozorni shakillantirishda ijtimoiy fondlarni yaratish zaruriyati tugʻiladi. Bundan tashqari, millatlararo muvofiq-dashtiruvchi tashkilotlarning tuzilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa Ittifoqi tajribasidan maʼlumki, bunday tashkil otlarni tashkil etmasdan turib milliy qonunchilik meyorlarini soddalashtirish va integratsion birlashma ishtirokchilarining umumiy qarorlarining bajarilishini nazorat qilish tizimini joriy etish mumkin emas. Bunda ishtirokchi mamlakatlar chegaralari bilan belgilangan yagona bojxona makoni vujudga keladi.

Iqtisodiy va valyuta ittifoqi - ishlab chiqarish omillarining erkin harakati taʼminlangan, ijtimoiy-iqtisodiy, jumladan, sanoat, qishloq xoʻjaligi, transport, energetika, valyuta-moliya sohalarida yagona siyosat amalga oshirilayotgan, umumiy valyuta muomalaga kiritilgan mamlakatlar guruhi.

Toʻliq integratsiya — yagona iqtisodiy, valyuta va siyosiy ittifoqning shakillanishi, jumladan, tashqi siyosat, qonunchilik va ichki ishlar sohasida umumiy siyosatning amalga oshirilishi, yagona fukz-rolikning joriy etilishi. Toʻliq integratsiya sharoitida milliy darajadan ustun turadigan tartibga soluvchi institutlar shakillantiriladi. Bu esa, oʻz navbatida, har bir aʼzo mamlakat va ittifoq imkoniyaxlarini oʻzaro manfaatli asosda birlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shunday qilib, XII oʻzaro iqtisodiy hamkorlikning quyi shaklidan nisbatan yuqori shakliga qarab bosqichma-bosqich harakatlanish jaryonini aks ettiradi. Iqtisodiy integratsiyaga kirishayotgan mamlakatlar quyidagi afzalliklarga ega boʻladi:

- milliy bozolarining birlashishi mamlakatar ichki bozori hajmining kengaytirishga olib keladi, bu esa, oʻz navbatida, umumiy yalpi ichki maxsulot hajmini oʻsishini ragʻbatlantiradi;

- aholi xarid qobiliyatining oʻsishi jon boshiga toʻgʻri keluvchi oʻrtacha daromadlarning oʻsishi va tovarlar narxining pasayishiga olib keladi

- ishlab chiqarishning samardorligi va raqobatdoshligi ortadi;

- ishlab chiqarish iqtisoslashuv darajasining chuqurlashuvi natijasida yuzaga keladigan “miqyos” samarasi” ning ortishi;

- Dunyodagi 170 dan ortiq integratsion birlashmalarning 84% i erkin savdo zonasi hisoblanadi. Ushbu holat JST doirasida koʻp tomonlama kelishuvlar darajasida savdo va investitsiyalarni erkinlash-

tirish jarayonlarining qiyin kechayotganligi bilan bog‘liq. 1990-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab turli mintaqalardagi mamlakatlarni jalb etgan holda mintaqalararo erkin savdo zonalarini tashkil etish jarayoni kuchaydi va dunyoning asosiy mintaqalarini qamrab olgan yirik integratsion birlashmalar paydo bo‘ldi.

| | | |
|------|---|---|
| 11.1 | 1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya zaruriyati nimada va u qanday shart-sharoitdalarga ega bo‘lishi kerak? 2. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy rivojlanish omillari nimalardan iborat? 3. Xalqaro iqtisodiy integratsion birlashmalarning tuzilishidagi asosiy jihatlar nimalardan iborat? | ? |
|------|---|---|

11.2. G‘arbiy Yevropa va Amerika qit‘asida integratsion jarayonlarining rivojlanish tendensiyalari

Yevropa Ittifoqi (YEI) ning shakillanishi va rivojlanishi xalqaro iqtisodiy integratsiyaning yaqqol namunasi hisoblanadi. G‘arbiy Yevropa integratsiyasi obyektiv iqtisodiy jarayonlar bilan birgalikda V. Tyugo, I. Kant kabi Yevropa siyosiy va jamoat arboblari, mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan yagona Yevropa g‘oyalari bilan sug‘orilgan edi. YEI ning tashkil topishi va rivojlanishining zamonaviy tarixi 1951-yildan boshlanadi. 1951-yilda Fransiya, Germaniya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg davlatlari tomonidan Yevropa ko‘mir va po‘lat birlashmasi (YEKPB) to‘g‘risidagi Parij shartnomasi imzolandi. Bu Garbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasining o‘ziga xos ibtidosi edi. Umumiy ko‘mir va po‘lat bozorining muvaffaqiyatli va tezda shakillanishi 1957 yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YEIH) va Yevropa atom energiyasi hamjamiyatini (Yevratom) tashkil etish to‘g‘risidagi Rim shartnomalarining imzolanishiga olib keldi. Shu tariqa yuqoridagi olti mamlakat hududida YEKPB, YEIH va Yevratom integratsiya birlashmalari tashkil etildi. YEIH esa asosiy iqtisodiy integratsiya birlashmasiga aylandi. G‘arbiy

Yevropa integratsiyasining rivojlanishi 50-yillarning oxiridan hozirgi vaqtga qadar notekis va nisbatan ziddiyatli kechdi. Shunga qaramasdan YEIH-ni tashkil etishda qo‘yilgan maqsad va vazifalar yetarlicha izchil va muvaffaqiyatli amalga oshirildi. G‘arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasi rivojlanishi jarayonini shartli ravishda to‘rt bosqichga bo‘lish mumkin.

Birinchi bosqich (50-yillarning oxiri 70-yillar o‘rtasi) hamjamiyat faoliyatidagi “olgan asr” hisoblanadi. Ushbu bosqich bojxona ittifoqining muddatidan ilgari shakillantirilishi, yagona agrar bozorning muvaffaqiyatli rivojlantirilishi, YEIga uchta yangi mamlakatlar – Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiyaning a‘zo bo‘lib kirishi bilan tavsiflanadi.

Ko‘pincha “Umumiy bozor” deb ataladigan YEIHni tashkil etishning aniq maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- a‘zo mamlakatlar o‘rtasidagi savdoda barcha cheklashlarni asta-sekin bartaraf etish ;

- uchinchi mamlakatlar bilan tashqi savdoda umumiy bojxona tarifini belgilash;

- “insonlar, kapitallar, xizmatlar”ning erkin harakat qilishi uchun cheklashlarni bekor qilish;

- transport va qishloq xo‘jaligi sohasida yagona umumiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- valyuta ittifoqini tashkil etish;

- soliq tizimini birxillashtirish (unifikatsiyalash);

- qonunchilikni yaqinlashtirish;

- kelishilgan iqtisodiy siyosat tamoyillarini ishlab chiqish. YEIH a‘zo mamlakatlarda tovarlar, kapital, xizmatlar va ishchi kuchi harakatini erkinlashtirish, umumiy bozorni tashkil etish vazifasini birinchi darajali maqsad qilib qo‘ydi.

Shu maqsadda bojxona ittifoqi tashkil etildi va quyidagi vazifalar hal etildi: - a‘zo mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdodagi savdo cheklovlari bekor qilindi;

- uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona tarifi belgilansi;

- kapital, kreditlar harakati, pul o‘tkazmalari, xizmatlar ko‘rsatish erkinligiga erishildi;

- ish kuchining erkin migratsiyasi va yashash joyini erkin tanlash imkoniyati ta‘minlandi.

Yuqorida qayd etilgan choralar YEIH mamlakatlarida sanoat integratsiyasining jadallashuviga ko‘maklashdi. Shu bilan bir vaqtda kompensatsiya yig‘imlari va qishloq xo‘jaligi jamg‘armasi orqali moliyalashtirish, umumiy proteksionizmni qo‘llash shaklida agrar integratsiyani amalga oshirishga urinib ko‘rildi. YEIH ning agrar siyosati a‘zo mamlakatlarning aksariyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun birdek minimal narxlar belgilanishini kafolatlovchi narxlarning yagona tizimiga asoslanadi. Umumiy bozorning shakllantirilishi milliy monopoliyalarning transmilliy monopoliyalarga aylanishi jarayonini tezlashtirdi va ularning hamkor mamlakatlar iqtisodiyotiga kirib borishiga ko‘maklashdi. YEIH ning rivojlanishi a‘zo mamlakatlarning yakkalanib qolgan milliy xo‘jaliklaridan tashqi bozorga yo‘naltirilgan ochiq turdagi iqtisodiyogga o‘tish jarayonini tezlashtirdi.


Ikkinchi bosqich 1960-yillarni o‘z ichiga oladi va YEIH ning barqaror, jadal sur‘atlarda rivojlanishi bilan ajralib turadi. 1968-yilda yuqorida qayd etilgan uchta integratsiya birlashmalarining ma‘muriy boshqaruvi va budjeti Yevropa hamjamiyati (EX) nomi ostida birlashtirildi hamda bojxona ittifoqi amal qila boshladi.

Ikkinchi bosqich (1970-yillar va 1980-yillarning birinchi yarmi) 1970-yillarning birinchi yarmida va 1980-yillarning boshida ro‘y bergan iqtisodiy inqirozlar tufayli “Yevropessimizm” degan nomni oldi. Bu davrda YEIH Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya va Gretsiyaning qabul qilinishi natijasida 10 ta mamlakatga kengaydi. 1979-yildan boshlab esa shartli hisob-kitob valyutasi EKYu ga asoslangan Yevropa valyuta tizimi amal qila boshladi.

Uchinchi bosqich (80-yillar ikkinchi yarmi — 90-yillar boshi) - hamjamiyat tarkibining yanada kengayish bosqichi bo‘ldi. 1986-yilda YEI ga Ispaniya va Portugaliyaning qo‘shilishi ilgari mavjud bo‘lgan mamlakatlararo nomutanosibliklarning keskinlashuviga olib keldi. Shu bilan birga bu davr Yagona Yevropa Akti (YAYEA) qabul qilinishi tufayli G‘arbiy Yevropa integratsiyasi rivojlanishining yanada kuchayishi bilan tavsiflanadi.

To‘rtinchi bosqichda (XX asrning 90-yillari o‘rtasi - XXI asr boshi) YAYEA ga muvofiq 1993-yil 1-yanvardan boshlab hamjamiyat chegaralari doirasida ishlab chikarish omillarining erkin harakat qilishi joriy etildi. Amalda hamjamiyat doirasida yagona iqtisodiy makon

paydo bo‘ldi va bu holat YEI iqtisodiy integratsiyasining sifat jihatdan yangi boqichga kirganligini anglatar edi. Mastriks shartnomasi asosida (1992-yil fevral) 1994-yil 1-yanvardan boshlab YEIH a‘zolari soni 15 taga yetdi va hamjamiyat YEI ga aylantirildi. YEI doirasida to‘liq yagona ichki bozor shakillantirildi. Navbatdagi muddatga integratsiya hamkorligi maqsadlari e‘lon qilindi. Ular yagona valyuta - yevro emissiyasi xuquqi bilan yagona Yevropa banki, ichki chegaralarsiz yagona G‘arbiy Yevropa makoni barpo etishni o‘z ichiga olar edi. Mastriks bitimlari G‘arbiy Yevropa integratsiyasining rivojlantirishda sifat jihatdan yangi bosqich hisoblanadi va ushbu bosqichda mamlakatlar iqtisodiyotini mikro darajada bir-biriga yaqinlashtirish vazifasi qo‘yildi.



11.2-rasm. Evropa Ittifoqi Savdo balansi


YEIgi savdo balansi 1999-yildan 2020-yilgacha o‘rtacha 4115,60 million yevroni tashkil qildi va 2020-yil dekabrda eng yuqori ko‘rsatkichga - 30107,60 million yevroga etdi va 2020-yil yanvarida esa - 20050,10 million yevro zarar ko‘rdi.

YEI milliy hukumat organlaridan yuqori turuvchi davlatlararo muvofiqlashtiruvchi institutlarga egaligi bilan ajralib turadi. YEIning ma‘muriy boshqaruvi YEI Kengashi (hukumatlar va vazirlar darajasida

amal qiladi), Yevropa Parlament (YEI qonunlari va budjetini tasdiqlaydi), Yevropa Komissiyasi (YEIning doimiy ijro organi hisoblanadi) va Yevropa sudidan iborat. YEIning yagona budjeti 2000-yildan boshlab har yetti yil uchun belgilanadi. YEI budjetining daromad qismi bojxona bojlari, tovarlar importidan turli yigʻimlar, QQSdan ajratilmalardan tashkil topsada, asosiy daromad manbai aʼzo mamlakatlar YAIM-ning 1,24% iga teng ajratmalardan iborat.

YEI budjet xarajatlar qismining hajmi va ulushi istiqbol uchun belgilangan maqsad hamda vazifalardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Oxirgi bir necha oʻn yillikda YEI budjetining katta qismi agrar siyosati amalga oshirishga yoʻnaltirilgan. Jumladan hozirda amalda boʻlgan budjetning 35% ga yaqin qismi agrar siyosatni moliyalashtirishga, 10% i esa qishloq xoʻjaligi va atrof-muhit muhofazasiga, 38% i mintaqaviy siyosatni amalga oshirish uchun sarfalanadi. YEIning moliya institutlari Yevropa investitsiya banki (YEIB), Yevropa investitsiya fondi (YEIF) va Yevropa Markaziy bankidan (YEMB) iborat. Gʻarbiy Yevropada iqtisodiy integratsiya jarayonlari fakat YEI hududi bilan cheklanib qolmaydi.

Ushbu hududda 60-yillardan boshlab Yevropa erkin savdo uyushmasi faoliyat koʻrsatib kelmoqda Yevropa erkin savdo uyushmasi (YeESU) YEIdan farqli ravishda milliy manfaatlardan ustun turuvchi funksiyalar va davlatlararo muvofiqlashtiruvchi institutlarga ega emas. YeESU iqtisodiy hamkorlikni asosiy maqsad qilib qoʻydi va birinchi navbatda, savdoning erkinlashishi va bojxona toʻsiqlarini bartaraf etishga koʻmaklashdi. YeESU aʼzolari (80-yillarda ular yettita, 90-yillar oʻrtasida toʻrtga - Norvegiya, Islandiya, Lixtenshteyn, Shveysariya) uchinchi mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy bitimlarga ixtiyoriy qoʻshiladilar, YeESU qatnashchilaridan har biri bu mamlakatlarga nisbatan istalgan bojxona tariflarini belgilashga haqlidir. YeESU aʼzolari oʻrtasidagi savdoda bojsiz, erkin savdo rejimi faqat sanoat tovarlariga nisbatan amal qiladi, chunki YeESU konvensiyasining amal qilishi qishloq xoʻjaligi mahsulotlariga joriy etilmaydi.



11.3 -rasm. G‘arbiy Yevropada integratsiya jarayonlari.

Ushbu xududda 60-yillardan boshlab Yevropa erkin savdo uyushmasi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda Yevropa erkin savdo uyushmasi (YeESU) YEIdan farqli ravishda milliy manfaatlardan ustun turuvchi funksiyalar va davlatlararo muvofiqlash tiruvchi institutlarga ega emas. UESU iqtisodiy hamkorlikni asosiy maqsad qilib qo‘ydi va birinchi navbatda, savdoning erkinlashishi va bojxona to‘siqlarini bartaraf etishga ko‘maklashdi. YeESU a‘zolari (80-yillarda ular yettita, 90-yillar o‘rtasida to‘rtta - Norvegiya, Islandiya, Lixtenshteyn,

Shveysariya) uchinchi mamlakatlar bilan savdoiqtisodiy bitimlarga ixtiyoriy qo'shiladilar, UESU qatnashchilaridan har biri bu mamlakatlarga nisbatan istalgan bojxona tariflarini belgilashga haqlidir. YeESU a'zolari o'rtasidagi savdoda bojsiz, erkin savdo rejimi faqat sanoat tovarlariga nisbatan amal qiladi, chunki YeESU konvensiyasining amal qilishi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga joriy etilmaydi. Umuman, yagona iqtisodiy makon bojxona ittifoqi hisoblanmaydi. YEI va YeESU tuzilmasi doirasida a'zo mamlakatlar yagona savdo siyosati va uchinchi mamlakatlarga nisbatan umumiy bojxona tariflariga ega emas. YeESU a'zolari iqtisodiy rivojlanish darajasining yuqoriligi va o'zaro iqtisodiy aloqalariga qaramay to'laqonli integratsiya guruhiga aylanmadi. Amalda YeESU YEIH va YEI ning yangi a'zolari uchun o'ziga xos "tayyorgarlik sinfi" bo'ldi. **BENILYUKS** — 1960-yilda Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg o'rtasida imzolangan iqtisodiy ittifoq. Ushbu ittifoqda tovarlar, xizmatlar, kapital va insonlarning erkin harakati ta'minlangan bo'lib, uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona savdo va iqtisodiy siyosat olib boriladi. Markaziy Yevropa erkin savdo uyushmasi (MEESA) - 1993 yilda **Vengriya, Polsha, Slovakiya, Chexiya, Sloveniya** tomonidan imzolangan erkin savdo uyushmasi. Keyinchalik bu mamlakatlar YEI ga a'zo bo'lganlaridan keyin MEESA dan chiqib ketishdi. Hozirda Albaniya, Bosniya va Gertsegovina, Xorvatiya, Makedoniya, Moldova, Serbiya, Kosovo va Chernogoriya MSEEA a'zolari hisoblanadi. **Bundan tashqari , YEI tomonidan Afrika, Karib havzasi, Osiyo -Tinch okeani (AKHOT)** mamlakatlari (69 ta) uchun Lome konvensiyasiga muvofiq tovarlarni boj to'lmasdan olib kirish bo'yicha imtiyozlar, Shimoliy Afrika va Yaqin Shark mamlakatlari (Jazoir, Marokash, Tunis, Misr, Iordaniya, Livan, Suriya) uchun YEIga sanoat va an'anaviy qishloq xo'jalik mahsulotlarini erkin olib kirish huquqi bo'yicha imtiyozlar belgilangan.

Jahon xo'jaligida amal qilayotgan integratsion markazlardan biri Shimoliy Amerika xududi hisoblanadi. 1992-yilda AQSH, Kanada va Meksika o'rtasida Shimoliy Amerika Erkin savdo assotsiatsiyasini (North American Free trade Area — NAFTA) tashkil etish to'g'risidagi shartnoma imzolandi va u 1994-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kirdi.



11.4-rasm. Shimoliy Amerika iqtisodiy integratsiyasining hamkorlik yo‘nalishlari

NAFTAg a‘zo mamlakatlar tomonidan imzolangan shart-nomaning asosiy vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi (bu vazifalarning ayrimlariga erishish uchun 10-yil, ayrimlari uchun 15-yil rejalashtirilgan edi):


➤ erkin savdo zonasini shakllantirish asosida a‘zo mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro savdo va investitsiyalarni rag‘batlantirish (10-yil ichida bojxona qoidalari uyg‘unlashtirildi, shakar, paxta, sut mahsulotlaridan tashqari barcha mahsulotlar bo‘yicha miqdoriy cheklovlar va bojxona bojlari bekor qilindi);

➤ kompaniyalar uchun kelishilgan tadbirkorlik faoliyati ishlab chiqish (o‘zaro investitsiyalarda ko‘p sonli cheklovlar bekor qilindi); mintaqada halol raqobatni ta‘minlash (havo transport, telefon aloqasi va ayrim telekommunikatsiya xizmatlaridan tashqari xizmatlar savdosi, jumladan moliya, bank xizmatlari savdosi erkinlashtirildi);

➤ intellektual mulk huquqini himoya qilishga ko‘maklashish (ushbu huquqlarni himoya qilish bo‘yicha umumiy siyosat olib boriladi).

➤ o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni rag‘batlantirish (nizolarni hal etish mexanizmi yaratilgan).

Umuman, yagona iqtisodiy makon bojxona ittifoqi hisoblanmaydi. YEI va YeESU tuzilmasi doirasida a‘zo mamlakatlar yagona savdo siyosati va uchinchi mamlakatlarga nisbatan umumiy bojxona tariflariga ega emas. NAFTAning amal qilishidagi muhim ijobiy natijalardan biri samarali savdoni tashkil etish hisoblanadi. 1994 va 2018-yillarda NAFTA mamlakatlari uchun tovar va xizmatlar eksportining ulushi YAIMga nisbatan foizda keltirilgan.




11.5-rasm. NAFTA mamlakatlari uchun eksportning ulushi 1994-2018-yillarda YAIMga nisbatan foizda berilgan.

| | | |
|------|---|--|
| | | |
| 11.2 | <p>Savollar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya nechta rivojlanish bosqichlariga ega ? 2. Jahonda faoliyat olib borayotgan qaysi xalqaro iqtisodiy integratsiya birlashmalarini bilasiz? 3. EI qachon tashkil etilgan va rivojlanish jihatdan integratsiyaning qaysi bosqichida turibti? | |
| | | |

11.2. Osiyo-Tinch Okeani va Afrika mintaqalarida integratsion jarayonlarning rivojlanish xususiyatlari

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi jahon xo‘jaligidagi integratsion jarayonlarni uchunchi yirik markazi hisoblanadi. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (Association of South East Asian Nations -ASEAN) 1967-yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning tarkibiga Bruney, Vyetnam, Indoneziya, Kambodja, Laos, Malayziya, Myanma, Singapur, Tailand va Filippin kiradi. ASEANning asosiy maqsadi 1967-yilda Bangkok deklaratsiyasida belgilangan quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan: Janubi-Sharqiy Osiyoda harbiy-siyosiy barqarorlikni ta‘minlash, bojxona ittifoqini shakllantirish, mamlakatlarning iqtisodiy o‘rishiga ko‘maklashish. 1992-yilda Singapur Sammitida keyingi 15-yil ichida Erkin savdo zonasini (ASEAN Free trade Agreement - AFTA) tashkil etish to‘g‘risida qaror kabul qilindi.

Ushbu guruh doirasida o‘zaro hamkorlikning muvaffaqiyati ASEAN katnashchilari bo‘lgan mamlakatlarning barqaror iqtisodiy o‘rishi, ular rivojlanishini qiyosiy taqqoslash mumkinligi, yaxshi yo‘lga qo‘yilgan uzoq, tarixiy an‘analarga ega bo‘lgan o‘zaro savdo aloqalarining mavjudligi, hamkorlik shakllarining tartibga solinishi bilan mustahkam bog‘liqdir.



11.6. rasm. ASEAN doirasida xalqaro iqtisodiy integratsiya

ASEAN rejalarida 2000-yilgacha bo'lgan muddatda qatnashchi mamlakatlarning bojxona bojlarini 38 ming turdagi tovarlar bo'yicha o'rtacha 5% ga pasaytirish rejasi mavjud edi va 2002-yilda erkin savdo zonasi barpo etish to'g'risida karor qabul qilingan edi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasida 1989-yildan boshlab hukumatlararo iqtisodiy tashkilot Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati (Asia Pacific Economic Cooperation -APEC) faoliyat olib boradi. APEC 1989-yilda Avstraliyaning taklifi bilan Tinch okeani havzasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan bo'lib, dastlab unga AQSH, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Singapur, Malayziya, Tailand, Filippin, Indoneziya va Bruney kirgan.

1996-yilda ARES a'zolari 2010-2020-yillarda erkin savdo zonasini tashkil etish to'g'risida kelishib oldilar. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati rasman maslahat maqomiga ega, biroq uning ishchi organlari doirasida savdo, investitsiya va moliya faoliyatini yuritishning mintaqaviy qoidalari belgilanadi, u yoki bu sohalarda hamkorlik masalalari bo'yicha tarmoq vazirlari va ekspertlarning

uchrashuvlari o‘tkaziladi. 1993-yilda Tinch Osiyo okeani iqtisodiy hamjamiyati mamlakatlari hukumatlari rahbarlarining birinchi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi (Sietl, AQSH).

11.2-jadval.

ASEAN tashkilotiga azo davlatlarning real YAIM ni o‘shish ko‘rsatkichi

| ASEAN ga a‘zo davlatlarning real YAIM ni o‘shishi % da | 2019 | 2020 f | 2021f |
|---|-------------|---------------|--------------|
| Jahondagi ulushi | 2.8 | -4.4 | 5.2 |
| Rivojlangan mamlakatlardagi ulushi | 1.7 | -5.8 | 3.9 |
| Rivojlanayotgan mamlakatlardagi ulushi | 4.6 | -3.8 | 6 |

Uchrashuv davomida mintaqada rivojlanayotgan integratsiya jarayonlaridan kutilayotgan foyda olishning taqsimlanishi yuzasidan jiddiy tafovutlar borligi aniqlandi.

Ekspertlarning fikricha, Tinch -Osiyo okeani iqtisodiy hamjamiyatida savdoni erkinlashtirish a‘zo mamlakatlarning real daromadlarining 2% ga o‘shishiga olib kelishi kerak. Birok kutilayotgan foydani birinchi navbatda yuqori raqobatbardosh mamlakatlar oladilar. Ko‘pchilik mutaxassislar Tinch -Osiyo okeani mintaqasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlariga baho berar ekanlar, uning rivojlanishining o‘ziga xos shart-sharoitiga egaligi va o‘ziga xosligini ko‘rsatdilar. Tinch-Osiyo okeani mintaqasi integratsiya jarayonining muhim xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin. Birinchidan, Tinch-Osiyo okeani iqtisodiy hamkorligi tashkilotidagi integratsiya jarayoni davlatlararo hamkorlik uchun negiz yaratuvchi transmilliy korporatsiyalarning yetakchilik roli sharoitida yuz bermoqda.

Ikkinchidan, integratsiya jarayoni iqtisodiy rivojlanish darajasi jiddiy ravishda farqlanuvchi madaniy va ijtimoiy-siyosiy tizimlari turlicha bo‘lgan mamlakatlarni qamrab oladi. Tinch-Osiyo okeani iqtisodiy hamkorligining noyobligi shundaki, unda XX asrning ikki

buyuk iqtisodiy davlati - AQSH, Yaponiya va XXI asrning iqtisodiy giganti - Xitoy iqtisodiyoti birlashadi.

Uchinchidan, Tinch-Osiyo okeani mintaqasi ko‘lamidagi integratsiya submintaqaviy ittifoqlarni (ASEAN, NAFTA Janubiy Tinch okeani forumi va boshqalar) o‘z ichiga oladi;

To‘rtinchidan, ATES va Tinch- Osiyo okeani mintaqasida Tinch okeani “ochiq” regionalizmi mafkurasi mintaqaviy integratsiyani iqtisodiy globalizm elementi sifatida qaraydi. Bunda jahon iqtisodiyoti evolyutsiyasi mintaqaviy iqtisodiy ittifoklarning asta-sekin birlashishi va o‘zaro bir-biriga qo‘shilish jarayoni sifatida qaraladi. “Ochiq regionalizm” konsepsiyasi, shuningdek, Tinch okeani mintaqasi ichida tovarlar, investitsiyalar, ish kuchi harakati, cheklanishi olib tashlanishini ham nazarda tutadi, proteksionizmdan voz kechish buyicha majburiyatlar qabul qilinadi, ichki mintaqaviy iqtisodiy aloqalar rag‘batlantiriladi. Umuman olganda, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida integratsiya munosabatlari rivojlanishining yetukligi hali yuqori darajada emas. Jumladan, ASEAN tizimidagi savdo zonasi iqtisodiy integratsiya rivojlanishining birinchi bosqichiga, ya’ni savdo tariflari va boshqa notarif cheklashlar olib tashlanadigan erkin savdo zonasiga kiritish mumkin. Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatiga nisbati hozircha erkin savdo zonasi sifatida emas, balki “ochiq iqtisodiy uyushma” sifatida munosabatda bo‘lishi mumkin. Ushbu tashkilot doirasida Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatini va integratsiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari yaqin yillarda uch variantda ko‘rib chiqiladi.

Birinchi variant — Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatini rivojlantirish Bagordagi (1994-yil Indoneziya) kengashda qabul qilingan ssenariy bo‘yicha amalga oshiriladi. Unga muvofik, erkin savdo zonasi tashkil etiladi va 2020-yilda (sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun 2010-yilgacha) investitsiyalar harakati sohasi erkinlashtiriladi. Bojxona tariflarini pasaytirish GATT/JST doirasida erishilgan bitimlarga muvofiq yuz beradi.

Ikkinchi variant — mutaxassislarning fikricha, eng extimoli yuqori variant Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati uchun mintaqada savdo muammolarini muhokama qilish forumi rolini mustahkamlaydi. Bu holda mavjud kelishuvlarni bajarishning ijrosi munosabati bilan nizolar kelib chiqishi shubhasizdir. Ushbu holatlar tashkilotning

kuchsizlanishiga olib keladi. Bunday sharoitlarda boshqa integratsiyalashgan mintaqaviy guruhlarining roli oshadi, chunki submintaqalarda va Tinch okeani mintaqasi guruhlaridagi ayrim mamlakatlarning integratsiyalashuv darajasi nisbatan yuqori bo‘lib, mintaqada integratsiya jarayonlari jadal rivojlanishining o‘ziga xos yacheykalari bo‘lishi mumkin. Jumladan, “o‘shish uchburchagi” - Janubiy Xitoy iqtisodiy zonasi (Xitoy, Gonkong, Tayvan), “o‘shish oltin uchburchagi” (Indoneziya, Malayziya, Singapur), Yapon dengizi havzasi mamlakatlari iqtisodiy zonasi, Hindi-Xitoy iqtisodiy zonasi mavjud.

Uchinchi variant - AQSH va YEIda proteksionistik kayfiyatlar ustunlik qilishini istisno etmaydi, bu jahon savdosining jadal sur‘atlarda erkinlashishiga to‘sqinlik qilishi va Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatida integratsiya jarayonlari miqyosini Osiyo mamlakatlari bilan cheklashi mumkin.

| | | |
|--|--|---|
| | <p>11.3 1. Shimoliy Amerika mintaqasida qaysi iqtisodiy integratsion birlashma amalda?</p> <p>2. Lotin Amerikasi mintaqasida kaysi integratsion birlashmalar mavjud?</p> <p>3. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatini va integratsiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari nimalardan iborat?</p> | ? |
|--|--|---|


11.4. O‘zbekiston va xalqaro integratsion guruhlar iqtisodiy munosabatlarini faollashtirish masalalari

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, siyosiy va iqtisodiy sohada ulkan yutuqlarga erishdi. Respublikamizning Jahon hamjamiyatida faol ishtirok etishi va O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko‘p tomonlama iqtisodiy siyosat yuritishi davlatimizning Jahon xo‘jaligida tutgan o‘rnini mustahkamlashning muhim shartidir. O‘zbekistonning jahon mamlakatlari bilan

iqtisodiy integratsiyalashuvi milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishning, millatlar va elatlarning yaqinlashuviga, aholining turmush darajasini oshirishga yordam beradi. XXI asr boshlarida jahon xo‘jaligidagi har qanday mamlakat iqtisodiy integratsiyasiz barqaror sur‘atlarda rivojlana olmaydi. Iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi siyosati milliy iqtisodiyotning yuksak darajada va jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kirishiga qaratilgan. Iqtisodiy integratsiya iqtisodiyotga bevosita quyidagi natijalarga erishish imkoniyatini beradi:

- tovarlar, kapitallar, xizmatlar erkin harakat qiladi;
- raqobat kuchayadi;
- ishlab chiqarish kuchlari rivojlanadi;
- ishlab chiqarish samaradorligi ortadi;
- sifatli va arzon tavarlar ishlab chiqariladi;
- iste’molchilarning talabi ortib boradi;
- taklif qilinadigan tovarlar nomenklaturasi ko‘payadi;
- bozorlarning rivojlangan shakllari paydo bo‘ladi va umumiy bozorlar tashkil qilinadi;
- ishsizlik darajasi pasayadi;
- milliy iqtisodiyotning shakllanish darajasidagi farqlar yo‘qolib boradi;
- yangi kuchli umumiy iqtisodiyot shakllanadi;
- milliy iqtisodiyot rivojlanib boradi;
- eng muhimi aholining turmush darajasi o‘sadi va sifati yaxshilanadi.

Yuqoridagi maqsad va vazifalarga erishish uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo, MDH davlatlari, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishi kerak. O‘zbekiston jahon xo‘jaligi tizimiga integratsiyalashib borar ekan, uning xalqaro iqtisodiy aloqalari uzok va yaqin xorijiy mamlakatlar bilan taraqqiy etib bormoqda. O‘zbekistonning MDH va Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti kabi integratsiya uyushmalarida ishtirok etishi mamlakatimizning dunyo miqyosidagi obro‘- e’tiborini yanada oshiradi.



11.7-rasm. O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi.

Yuqorida keltirilgan rasm orqali O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlarining ulushi qanchalik ahamiyatli darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston sobiq Ittifoq respublikalari bilan aloqalarga katta, ustuvor ahamiyat berib, MDH tuzish g‘oyasini qo‘llab-quvvatladi. Bunday hamkorlikka hamdo‘stlik mamlakatlarining xududiy yaqinligi va iqtisodiy jixatdan bog‘likligi, nafaqat bog‘likligi, balki chuqur tarixiy, madaniy va ma‘naviy aloqalar, katta tarixiy davr mobaynida xalqlarimizning taqdiri mush-tarakligi ham asos bo‘lmoqda. Hamdo‘stlik birlashmasi maqsadlari kuyidagilardan iborat;


➤ Demokratik xuquqiy davlatlar tuzish, ular o‘rtasidagi munosabatlar davlat mustaqilligini hamda suveren tenglikni o‘razo tan olish va xurmatlash, o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi, teng huquqlilik va ichki ishlarga aralashmaslik, har qanday tazyiqlardan voz kechish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, inson huquqlari va erkinliklarini, shu jumladan kichik millatlar huquqlarini hurmat qilish, majburiyatlarini va boshqa umum tan olingan xalqaro huquq tamoyillari va normalarini halol bajarish;

➤ Bir-birlarining hududiy butunligi va mavjud chegaralarning buzilmasligini tan olish va hurmat qilish;

➤ Chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan xalqlarning tub manfaatlarini hamda qo'shichilik va o'zaro manfaatlarini hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash;

➤ Fuqarolararo va millatlararo totuvlikni saqlash.

O'zbekiston jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashib borar ekan, uning xalqaro iqtisodiy aloqalari uzoq va yaqin xorijiy mamlakatlar bilan taraqqiy etib bormoqda. Quyida keltirilgan rasm orqali O'zbekistonning MDH va boshqa xorijiy davlatlarga tovar eksporti hajmlari ko'rsatilib o'tilgan.



11.8-rasm. MDH va boshqa xorijiy davlatlarga tovar eksporti hajmlari dinamikasi.

Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining MDHga a'zoligi unga bir qator muhim vazifalarni millat, iqtisodiyot manfaatlariga muvofiq xalq etish imkonini beradi:


➤ Ishlab chiqarishni, aholini zarur mahsulotlar bilan ta'minlashni qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutuvchi kooperativ ho'jalik aloqalarini rivojlantirish va takomillashtirish ;

➤ MDHning bir qator tovarlarini milliy bozorda, jumladam, an'anaviy mahsulotlarni sotish sohasida yetakchi mavqeini saqlash;

➤ Sobiq ittifoqchi respublikalar ega bo'lgan homashyo resurslaridan foydalanish;

➤ O‘zbekistonning uchinchi mamlakatlarga eksport-import tovar oqimiga xizmat ko‘rsatuvchi transport kommunikatsiyalaridan kafolatli va harakatsiz foydalanish.

O‘zbekistonning MDH mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi mexanizmini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari iqtisodiy erkinlashtirish, uni bozor tamoyillariga izchillik bilan o‘tkazish, xo‘jalik tuzilmasini qayta qurishdan iborat umumiy yo‘l bilan belgilanadi. MDH mamlakatlari O‘zbekistonning asosiy savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. Ularning xissasiga respublika tashqi savdo umumiy xajmining 30% dan ortig‘i to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston jahon xo‘jaligi tizimiga integratsiyalashib borar ekan, uning xalqaro iqtisodiy aloqalari uzok va yaqin xorijiy mamlakatlar bilan taraqqiy etib bormoqda. O‘zbekistonning MDH va Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti kabi integratsiya uyushmalarida ishtirok etishi mamlakatimizning dunyo miqyosidagi obro‘- e‘tiborini yanada oshiradi. Quyida keltirilgan rasm orqali O‘zbekistonning MDH va boshqa xorijiy davlatlarga tovar importi hajmlari ko‘rsatilib o‘tilgan.



11.9-rasm. MDH va boshqa xorijiy davlatlarga tovar importi hajmlari dinamikasi.

O‘zbekiston va MDH mamlakatlari tovar ayirboshlash dinamikasi tenglik va o‘zaro foydali tamoyillarga asoslangan, savdo-iqtisodiy munosabatlarning izchil rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Rossiya,

Qozog‘iston va Ukraina 2000 - 2010-yillarda O‘zbekiston bilan yirik savdo aloqalarini olib borgan mamlakatlar hisoblanadilar. O‘zbekiston MDH ning aksariyat mamlakatlari bilan savdo-to‘lov balansida ijobiy saldogaga ega. Rossiya O‘zbekistonning eng muhim savdo hamkori hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasidan Rossiyaga asosan paxta tolasi, oziq-ovqat, mashina va uskunalar, yonilgi maxsulotlari, kimyo maxsulotlari eksport qilinadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik qilish mintaqaning rivojlanishi va davlatlar iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

11.3-jadval.

| Integratsion birlashma | Tashkil etilgan. | O‘zbekiston a‘zo bo‘lgan vaqti. | Tarkibi | Maqsadi va vazifalari |
|---|------------------|---------------------------------|---|--|
| MDH | 1991 | 1991 | Ozərbayjon, Armaniston, Belarus, Gruzıya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Ukraina | Hamdo‘stlik doirasida erkin savdo hududini yaratish, savdo-iqtisodiy hamkorlik samaradorligini oshirish, tovarlarning erkin harakatlanishini ta‘minlash. |
| Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) | 1964 | 1992 | Afg‘oniston, Eron, Pokiston, Turkiya, O‘zbekiston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Qozog‘iston | O‘zaro savdoni kengaytirish; barqaror iqtisodiy o‘shirish va aholi turmush darajasini oshirish uchun sharoit yaratish; savdo to‘sqinliklarini bekor qilishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyat; xalqaro forumlarda umumiy birlashuv orqali jahon savdosi hajmini oshirish. |
| Shanhay hamkorlik tashkiloti (SHHT) | 1996 | 2001 | Rosiya, Xitoy, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, O‘zbekiston | Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash. Yagona iqtisodiy bozorni yaratish. |

O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsion birlashmalardagi ishtiroki. Faqat o‘zining tor milliy qobig‘ida qolib ketmagan birgina xorijiy investitsiyalarning katta oqimini jalb qilib, mintaqa mamlakatlarining barqaror rivojlanishi va farovonligini ta‘minlay oladi”. O‘zbekistonning mavqeyi mintaqada ahamiyatli bo‘lishiga qaramay, ayrim geografik-siyosiy omillar mamlakatning strategik imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi. Mamlakat qolgan Markaziy Osiyo davlatlarining barchasi singari dengizga chiqish yo‘liga ega emas jahon transport kommunikatsiyalariga erkin kira olmaydigan davlatlar bilan qurshab olingan. Ammo shular bilan bir qatorda suv resurslarining cheklanganligi, Farg‘ona vodiysida aholining zichligi, qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan aholi salmog‘i katta ekanligi respublikamizda integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga ma‘lum darajada ta‘sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi 1992-yilda Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (IHT)ga a‘zo bo‘ldi. IHT Afg‘oniston, Ozarbayjon, Eron, Qozog‘iston, Pokiston, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston, O‘zbekiston kabi davlatlarni birlashtiradi. 1992-yilda Texronda oliy darajadagi IHT uchrashuvi jarayonida e‘lon qilingan axborotda IHT a‘zolarining iqtisodiy rivojlanishi yo‘lida ko‘p tomonlama mintaqaviy hamkorlikni ko‘zda tutuvchi maqsadlar va vazifalar e‘lon qilindi. Mintaqada gaz va neft o‘tkazish tarmoklarini rivojlantirish rejalari ishlab chiqildi va ma‘kullandi. Bunda Turkmanistondan O‘zbekiston va Qozog‘iston orqali Xitoyga o‘tadigan gaz quvurlarining ishga tushirilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. IHT a‘zosi bo‘lgan Markaziy Osiyodagi boshqa mamlakatlar ham bu gaz quvurlaridan foydalanishlari mumkin. IHT a‘zosi bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasidagi savdoni yanada rivojlantirish maqsadida boshqa mintaqalardagi va jahon savdo amaliyotidagi tajribalarni hisobga olgan holda erkin savdo mintaqasi (EKOFTA) tuzishga asta-sekin o‘tish ko‘zda tutilmoqda. IXT mintakasida joylashgan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda va ularning harakatlarini muvofiqlashtirishda tobora ko‘proq ro‘l o‘ynamoqda. 2002-yil 10-iyunda Qozog‘iston, Xitoy Xalq Respublikasi, Qirg‘iziston, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston va O‘zbekiston davlat boshliqlari tomonidan Shanxay hamkorlik Tashkilotining partiyasiga qo‘l qo‘yildi. O‘zbekiston bu tashkilotga 2001-yilda a‘zo bo‘lgan edi. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo bo‘lish O‘zbekiston va tashkilot a‘zolari

uchun ikki tomonlama manfaatli hisoblanib ishtirokchi mamlakatlar uchun O‘zbekiston muhim strategik sherik bo‘lib hisoblanadi. Chunki tarixiy “Buyuk ipak yo‘li”ning qayta tiklanishida O‘zbekistonning ishtiroki muhim ahamiyatga egadir. O‘zbekiston uchun esa bu Yevropa va Tinch - Osiyo okeani mintaqasiga chiqish uchun ishonchli yo‘l hisoblanadi va ishtirokchi mamlakatlar bilan turli yo‘nalishdagi aloqalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

O‘zbekistonning turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarining rivojlantirilishi uning jahon xo‘jaligi integratsiyasida samarali ishtirok etishini ta’minlaydi. Bunday xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik bozor iqtisodiyotiga o‘tish muammolarini xal etishni, jumladan, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor xo‘jaligini shakllantirishni yengillashtiradi. Ushbu holat xalqaro kreditlar olishda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda, milliy mahsulotlarni Jahon bozorlariga chiqarishda katta yordam beradi.

| | | |
|------|---|---|
| | | |
| 11.4 | <p>1. Osiyo mintaqasi integratsiyasiga hos xususiyatlar nimalardan iborat?</p> <p>2. O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiyasi birlashmalaridagi faoliyatiga baho bering.</p> <p>3. O‘zbekiston va xalqaro integratsion guruhlar o‘rtasidagi tashqi savdo ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.</p> | ? |
| | | |

ASOSIY TUSHUNCHALAR.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya — milliy iqtisodiyotlarning yagona ishlab chiqarish jarayoniga qo‘shilish jarayoni.

Erkin savdo zonasi - tarif va boshqa cheklovlarni bekor qilgan holda erkin savdo olib borish . Bojxona ittifoqi - o‘zaro savdoda to‘siqlar bekor qilingan va a’zo bo‘lmagan mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona tariflari asosida umumiy tashqi savdo siyosati olib borayotgan mamlakatlar guruhi. **Umumiy bozor** — a’zo mamlaktalar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi va kapitalning erkin harakatini ta’minlash ga erish ishga harakat qilayotgan mamlakatlar guruh. Iqtisodiy va valyuta ittifoqi - ishlab chiqarish omillarining erkin

harakati ta'minlangan, ijtimoiy-iqtisodiy, jumladan, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, energetika, valyuta-moliya sohalarida yagona siyosat amalga oshirilayotgan, umumiy valyutani muomalaga kiritilgan mamlakatlar guruh. To'liq iqtisodiy integratsiya - yagona iqtisodiy siyosat yuritish, umumiy valyuta va milliy boshqaruvdan yuqori tashkilotlarni joriy etish. **BENILYUKS** - 1960-yilda **Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg** o'rtasida imzolangan iqtisodiy ittifoq. **Markaziy Yevropa** erkin savdo uyushmasi (MEESA) - 1993-yilda Vengriya, Polsha, Slovakiya, Chexiya, Sloveniya tomonidan imzolangan erkin savdo uyushmasi.

NAFTA - 1992-yilda **AQSH, Kanada va Meksika** o'rtasida tuzilgan Shimoliy Amerika Erkin savdo assotsiatsiyasi.

MERKOSUR - **Janubiy Amerika** umumiy bozori yoki Janubiy konus mamlakatlari umumiy bozori.

ASEAN - 1967-yilda **Bruney, Vyetnam, Indoneziya, Kam-bodja, Laos. Malayziya, Myanma, Singapur, Tailand va Filippin** tomonidan tashkil etilgan Janubi-Sharkiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi.

ARES - 1989-yilda Avstraliyaning taklifi bilan Tinch okeani xavzasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR.

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya zaruriyati nimada va u qanday shart-sharoitlarga ega bo'lishi kerak?

2. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy rivojlanish omillari nimalardan iborat?

3. Xalqaro iqtisodiy integratsion birlashmalarning tuzilishidagi asosiy jixatlar nimalardan iborat?

4. Xalqaro iqtisodiy integratsiya nechta rivojlanish bosqichlariga ega?

5. Jahonda faoliyat olib borayotgan qaysi xalqaro iqtisodiy integratsiya birlashmalarini bilasiz?

6. YEI qachon tashkil etilgan va rivojlanish jihatdan integratsiyaning qaysi bosqichida turibdi?

7. Shimoliy Amerika mintaqasida qaysi iqtisodiy integratsion birlashma amalda?

8. Lotin Amerikasi mintaqasida kaysi integratsion birlashmalar mavjud?

9. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyatini va integratsiya jarayonlarini rivojlantirish istiqbollari nimalardan iborat?

10. Osiyo mintaqasi integratsiyasiga xos xususiyatlar nimalardan iborat?

JAHON HOMASHYO VA TAYYOR MAXSULOTLAR BOZORI

Ushbu bobda quyidagi bilimlar bayon etilgan:

- Jahon bozori konyukturasi.
- Jahon bozori konyukturasi ta'sir etuvchi omillar.
- Jahon qayta ishlash sanoati maxsulotlari bozorlarining rivojlanish tendensiyalari.
- Jahon homashyo bozorlarining rivojlanish xususiyatlari.
- Xomashyo mahsulotining guruhlanishi.
- O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati va qishloq xo'jaligining rivojlanish tendensiyasi.

Kirish

Dunyo miqyosidagi ana shunday tendensiyalarga qaramay, mamlakatimizda oziq-ovqat ishlab chiqarish sanoati jadal rivojlantirilmoqda. Aholini yil davomida meva-sabzavotlar bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida zamonaviy issiqxonalar tashkil etilyapti, bog'lar, tokzorlar maydoni kengaytirilib, yetishtirilgan hosilni kuz-qish davrida sifatli saqlash imkonini beradigan omborxonalar barpo etilyapti.

Natijada 2017 – 2019-yillar davomida yiliga 10 million tonnadan ortiq sabzavot, 17 million tonnadan ortiq boshqa dehqonchilik mahsulotlari va 2,5 tonna go'sht yetishtirildi. 2019-yil qishloq xo'jaligi

mahsulotlari eksporti 2017-yilga nisbatan 2 baravarga ko‘paydi. Bugun yurtimizda 80 dan ortiq turdagi qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirilib, ular dunyoning 70 ga yaqin mamlakatiga eksport qilinmoqda.

Shu bilan birga, tahlillarda yiliga o‘rtacha yetishtirilgan 21 million tonna meva va sabzavotning 10 foizidan ortig‘i eksport qilinmay qolayotgani, mahsulotlarni saralash, qadoqlash, qayta ishlash va eksport qilish uchun 30 dan ortiq agrologistik markaz tashkil etilgan bo‘lsa-da, aylanma mablag‘larning yetishmasligi tufayli ular mavjud ishlab chiqarish quvvatining atigi 15 foizidan foydalanayotgani ko‘rsatilmoqda. Shuningdek, ishlab chiqarish orqali mamlakat ehtiyojini to‘liq qoplash va eksport qilish imkoniyati mavjud bo‘lgani holda sut mahsulotlari, tomat pastasi, makkajo‘xori va yashil no‘xat konservalari import qilinayotgani bu borada hali yechimini kutayotgan muammolar borligini ko‘rsatyapti. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 9-sentabrdagi «Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziqovqat mahsulotlari bilan to‘laqonli ta‘minlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi Qarori aynan ana shunday muammolarni hal etishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Mazkur qarorga ko‘ra, meva-sabzavot, go‘sht, sut va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi korxonalar bilan bunday mahsulotlarni qayta ishlovchi, tayyorlovchi va realizatsiya qiluvchi korxonalar o‘rtasida o‘zaro manfaatli munosabatlarni kuchaytirish, tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish, bunday mahsulotlarning eksport salohiyatini kengaytirish va import hajmini kamaytirish choralarini ko‘rish vazifalari belgilab qo‘yildi.

Bundan tashqari, Qishloq xo‘jaligi vazirligida alohida boshqarma tashkil etilishi hamda Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat ta‘minoti jamg‘armasiga 20 mlrd so‘m miqdorida mablag‘ o‘tkazilishi, mazkur sohaga xalqaro moliya institutlari mablag‘larini keng jalb qilish va ularning manzilli yetib borishini nazorat qilish, kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni to‘ldirish yuzasidan ham qator vazifalar belgilab qo‘yildi. Bu yuqorida ta‘kidlangan vazifalarning o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta‘minlash imkonini beradi.

Ma‘lumki, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan islohotlarning yangi bosqichida O‘zbekiston iqtisodiyotining eng muhim sohalaridan biri hisoblangan qishloq xo‘jaligi tubdan isloh qilinyapti. Ayniqsa,

hozirgi pandemiya paytida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ichki bozorni zarur iste'mol tovarlari bilan to'ldirish, narx-navo barqarorligini ushlab — bularning bariga agrar jabhani rivojlantirmasdan erishib bo'lmaydi, albatta. Sir emas, yaqin-yaqingacha paxtachilik va g'allachilikdan tashqari, boshqa tarmoqlar ikkinchi va undan past darajaga tushib qolgan edi. Vaholanki, yurtimizning bog'dorchilik, sabzavot-polizchilik salohiyati ham yuqori bo'lib, mazkur tarmoqlardan katta daromad olish mumkinligi faqat oxirgi yillardagina tan olina boshlandi. Paxta maydonlari qisqartirilib, bo'shagan yerlarga eksportbop ekin turlari joylashtirildi. Natijada g'oz hali gulga o'tirmasdan turib, gilos, o'rik, shaftoli, tarvuz, qovun kabi bog' va dala ne'matlari eksport qilinmoqda. Buning hisobiga katta valyuta tushumiga erishilyapti. Koronavirus savdo-iqtisodiy aloqalarni cheklab qo'ygan bu yilgidek og'ir sharoitda ham.

Ma'lumotlarga qaraganda, 2025-yilgacha mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini 100 milliard dollar, yillik eksportni 30 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. Bu ko'rsatkichlarga erishish uchun esa qishloq xo'jaligi sohasidagi mavjud bo'lgan zaxiradagi imkoniyatlar ishga solinmoqda. Prezidentimiz alohida ta'kidlab aytganidek, "Bu yil qishloq xo'jaligida katta islohotlarni boshlayapmiz. Hokimlar bu masalani chuqur tushunib, ichiga kirishlari shart. Endi orqaga yo'l yo'q. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini erkinlashtirmasak, manfaatdorlikni oshirmasak, iqtisodiy o'sish va samaradorlikka erishib bo'lmaydi". Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida so'zlagan nutqida ham oziq-ovqat xavfsizligi va aholining turmush darajasini yaxshilash masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Binobarin, global pandemiya barcha sohalar kabi oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tarmog'iga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Hatto rivojlangan davlatlarda aholining muhtoj qatlamini oziq-ovqat bilan ta'minlashda ko'plab muammolar paydo bo'ldi. Ayrim turdagi muhim oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligi, eksport va importda cheklovlar kuzatildi. Xalqaro ekspertlarning xulosasiga ayrim davlatlarda kuzatilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligidan, ayniqsa, yosh bolalar va go'daklar ko'proq aziyat chekishmoqda. Vaziyatni yumshatish, har bir kishining to'yib ovqatlanishiga erishish uchun qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatida yuqori natijalarga erishayotgan mamlakatlar yutuqlarini o'rganish, hayotiy dasturlarni qabul qilish o'ta zarur. Samarqand davlat universitetida bugun boshlanadigan ushbu xalqaro konferensiya o'zaro tajriba va fikr almashish, yaqin va uzoq

istiqbolga mo'ljallangan hujjatlar ishlab chiqish uchun qulay fursatni yaratishi bilan g'oyatda ahamiyatlidir.

TUSHUNCHA VA IBORALAR

Ichki bozor — barcha ishlab chiqarilgan va sotishga mo'ljallangan mahsulotlarni ichki bozorda sotishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar sohasi.

Milliy bozor — muayyan mamlakat bozori bo'lib, uning bir qismi xalqaro ayriboshlash (mahsulot va xizmatlar eksporti va importi) bilan bog'liq.

Xalqaro bozor — xorijiy bozorlar bilan bog'liq va xorijiy xaridor hamda sotuvchiga yo'naltirilgan milliy bozorlar segmentining yaxlitligi.

Jahon bozori — jahonning barcha mamlakatlar bozorlarini umumlashtiruvchi sintetik tushuncha.

Kartel – monopolistik birlashmaning bir ko'rinishi. Yirik korxonalarining bozorda xukmronlik qilish, ko'p foyda olish maqsadida tuzgan uyushmasi. Uyushmaga kiruvchilar mahsulot hajmi, narxi, ishchilar yollash sharti, patentlar ayriboshlash, bozorlarni bo'lish, umumiy mahsulot ishlab chiqarishdagi xar bir qatnashchining kvotasi va shu kabilarni kelishib olishlari.

Bozor baholari – talab va taklif asosida yuzaga keladigan narxlar.

Bozor islohotlari – bozor iqtisodiyoti va bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

Bozor narxi – bozorda aniq tovarlar buyicha talab va taklifning to'la mutanosib bo'lishi hamda raqobat ta'siri natijasida shakllanadigan narx.

Bozor qiymati – xarajatlari belgilangan tarzda ishlab chiqarilgan tovar qiymati. Bu qiymat tovarlarning bozordagi bahosini tartibga solib turadi.

Bozor ulushi – korxonaning bir xil yoki o'xshash tovarlar sotishdagi hissasi.

Bozor yangiligi – biror bozorda birinchi marta taklif etiladigan tovar, uning yangi turi, varianti, o'rami va hokazolar.

Bozor yetakchisi narxi – aniq tovar sotishda hissasi katta bo'lgan korxonalar tovariga belgilangan narx bo'lib, boshqalarning narxlaridan pastroq yoki yuqoriroq bo'lishi mumkin.

Bozorga chuqurroq singish strategiyasi – mavjud tovarni mavjud bozorda sotishga qaratilgan marketing strategiyasi.

Savdo qilinadigan mahsulotlar — xorijiy bozorlarda ayirboshlanadigan mahsulotlar.

Savdo qilinmaydigan mahsulotlar — ishlab chiqarilgan mamlakat bozorida sotilib, xalqaro ayirboshlashda ishtirok etmaydigan mahsulotlar.

Jahon bozori konyukturasi — muayyan davriy va geografik miqyosda qator omillar ta'sirida vujudga keladigan bozorning aniq holati.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Jahon bozoriga qanday omillar ta'sir etadi va ular qanday guruhlarga ajratiladi?

2. Jahon bozori konyunkturasi nima va unga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

3. Tayyor mahsulotlar bozorida narxlarning shakillanishiga ta'sir qiluvchi omillar tizimi nimalardan iborat?

4. Xalqaro savdoda qo'llaniladigan narxlarning qanday turlari mavjud?

5. Jahon qayta ishlash sanoati mahsulotlari bozori holatini baholang va rivojlanish tendensiyalarini aniqlang.

6. Jahon xo'jaligining rivojlanishida tabiiy xomashyo resurslari qanday ahamiyatga ega?

7. Jahon iqtisodiyotida xomashyo mahsulotlari iste'molining o'zgarishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

8. Jahon xomashyo bozorlari uchun qanday xususiyatlar xos?

9. Jahon oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish manbalari va omillari nimalardan iborat?

10. Jahondagi oziq-ovqat mahsulotlari eksport va import qiluvchi mamlakatlarga qanday mamlakatlar kiradi?

11. Dunyo mamlakatlari aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash darajasiga ko'ra qanday guruhlarga ajratiladi?

12. Jahon oziq-ovqat mahsulotlari bozorining tarkibiga baho bering.

13. Jahon oziq-ovqat inqirozining sabablari nimalardan iborat?

XALQARO XIZMATLAR VA TEXNOLOGIYALAR SAVDOSI

Ushbu bobda quyidagi bilimlar bayon etilgan:

- Xalqaro xizmatlar va texnologiyalarning mohiyati.
- Xalqaro xizmatlar va texnologiyalarning turlari va guruhlanishi.
- Xalqaro xizmatlar bozori.
- Xalqaro xizmatlar bozorining tarkibi, omillari va rivojlanish tamoyillari.
- Jahon xizmatlar savdosining o'zgarishi.
- Xalqaro transport va turizm xizmatlari.
- Texnik taraqqiyotning xalqaro savdoga ta'siri va texnologiyalarni xalqaro uzatish shakllari

Kirish

Xizmatlar kundalik hayotda muhim ahamiyatga ega. Xizmat etkazib beruvchilar ta'lim va sog'liqni saqlashni qo'llab-quvvatlaydi, tovarlarni ishlab chiqaruvchilardan ularni iste'mol qiladigan shaxslarga va korxonalariga yetkazib beradi, odamlar va tovarlarni tashiydi, moliya tizimining ishlashini ta'minlaydi, energiya talablarini qondirishda va atrof-muhit siyosatiga erishishda yordam beradi, axborot va ko'ngil ochishni ta'minlaydi, sayyohlar uchun xizmatlarni taklif etadi va mamlakatlarning raqamli infratuzilmasini shakllantirish. Xizmatlar ichki iqtisodiyotda ham, xalqaro iqtisodiy aloqalarda ham o'sib boruvchi va markaziy o'rinni egallaydi. Endi ular to'g'ridan-to'g'ri global to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va jahon savdosining asosiy qismini tashkil etadi. Xizmat ko'rsatish sohalari, shuningdek, mamlakatlarning xalqaro savdo tizimiga ulanishida ko'p qirrali va muhim ro'l o'ynaydi, iqtisodiy rivojlanish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda katta ahamiyatga ega. Xizmatlar quyidagilarga ulanishga ta'sir qiladi:

- Tovarlar savdosining qo'llab-quvvatlash uchun asosiy infratuzilmani ta'minlash;
- ta'minot zanjirlarini egallashtirish va tovarlarga qo'shimga qiymat sifatida savdoga chiqarish;

➤ elektron tijorat va online ta'minotni ta'minlaydigan magistral taminlash;

➤ Transchegaraviy electron ta'minot orqali eksport diversifikatsiyasini kuchaytirish.

Xizmatlar savdosi sohasidagi siyosatning o'rni, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya siyosati va xalqaro majburiyatlar raqamli va boshqa aloqalarni rivojlantirishda, savdoga yordam berish nuqtai nazaridan muhokama qilinadi. Xizmatlar savdosining hozirgi darajalarini o'rganadi, xalqaro majburiyatlarning ro'lini muhokama qiladi va siyosatning sektorlar faoliyati, iqtisodiy farovonligi va rivojlanishiga ta'sirini ko'rib chiqadi. Qulay siyosat muhiti, aksincha, ulanishni kuchaytiradi va iqtisodiy o'sish va natijalarga yordam beradi. Masalan, xizmat ko'rsatish sohaslarida investitsiya siyosatini takomillashtirish, AKT infratuzilmasini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda yordam berishi mumkin, bu raqamli bo'linishni bartaraf etish va barqaror rivojlanish maqsadlarini qondirishga yordam beradi. Savdoga yordam, sifatli xizmat ko'rsatish siyosatini sohaga xos va tarmoqlararo darajada qo'llab-quvvatlash orqali muhim hissa qo'shishi mumkin. Xizmat ko'rsatish sohalari va xizmatlar savdosi ham milliy iqtisodiyotda, ham xalqaro savdoda muhim va o'sib borayotgan joyni egallaydi. Xizmatlar global yalpi ichki mahsulotning uchdan ikki qismidan ko'prog'ini ishlab chiqaradi, aksariyat mamlakatlarda ishchilarning eng yuqori qismini ishlaydi va yangi ish o'rinlarining ko'pini yaratadi.

Xizmatlarning milliy iqtisodiyotga qo'shgan hissasi rivojlanishining barcha darajalarida bo'lgan mamlakatlar uchun vaqt o'tishi bilan ortib bormoqda. Hatto eng past daromadli mamlakatlar uchun ham xizmat ko'rsatish sohalari markaziy hisoblanadi va vaqt o'tishi bilan doimiy ravishda ahamiyat kasb etib kelmoqda. Yalpi ichki mahsulotdagi xizmatlarning ulushi o'rtacha 70 foizdan oshadigan yuqori daromadli mamlakatlarda yanada katta. Xulosa qilib aytganda, rivojlanishning barcha darajalaridagi mamlakatlar uchun xizmatlar endi o'tmishdagidan ham muhimroq.

13.1. Xalqaro xizmatlar va texnologiyalarning mohiyati, turlari va guruhlanishi

Jahon xo‘jaligidagi milliy iqtisodiyotlarning XXI asr bo‘lag‘asidagi xususiyati shundaki, uning tarkibida xizmatlar sohasining ulushi barqaror sur‘atlarda o‘shib bormoqda. Xizmatlar sohasining pirovard natijasi tovarlar ko‘inishida emas, balki buyumlashgan noyob iste‘mol qiymatlari - xizmatlar hisoblanadi.

XX asrning 80-yillaridayoq jahon yalpi ichki maxsulotining 64% i xizmatlardan iborat bo‘lishiga qaramasdan uzoq davr mobaynida xizmatlar xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanida chuqur o‘rganilmagan. Shu munosabat bilan xizmatlar tushunchasi ta‘rifida iqtisodiy adabiyotda yakdillik bilan umumqabul qilingan ilmiy yondashuvlar yo‘q. Xalqaro xizmatlar savdosi sohasini o‘rganishdagi birinchi vazifa xizmatlarga ta‘rif berish va uning iqtisodiy faoliyatning boshqa turlaridan farqini aniqlab olish zarur.

Xizmatlar - ishlab chiqaruvchi va iste‘molchi o‘rtasidagi kelishuv munosabatlari asosida boshqa shaxslarning ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan (mehnat konuniy munosabatlari asosidagi faoliyatdan tashqari) faoliyat.

Xizmatlar o‘ziga xos mehnat mahsuli bo‘lib, moddiy shaklga ega emas, lekin ba‘zi xizmatlar moddiy ne‘mat shakliga ega bo‘lishi mumkin: masalan, kompyuter dasturlari uchun magnit tashuvchilar, qog‘ozda bosib chiqarilgan turli xil hujjatlashtirish shaklida va boshqalar. Ammo rivojlanishi va keng tarkalishi xizmatlar uchun moddiy kobikdan foydalanish zaruriyatini kamaytirmokda; uning iste‘mol qiymati jonli mehnatning foydali ta‘xifida ifodalanadi.

Xizmatlar sohasi rivojlanishining fundamental asosi hisoblanuvchi moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishi va xizmatlar sohasida xalqaro mehnat taqsimoti xizmatlar turlari ko‘payishiga olib keldi. Xizmatlar qator xususiyatlariga ko‘ra, jumladan, xizmatlarni yetkazib beruvchi va iste‘molchi o‘rtasidagi bevosita munosabatlar o‘rnatilishiga ko‘ra tovarlardan farq qiladi.

Transport kompaniyalari, qurilish firmalari, aloqa korxonalari, axborot agentliklari va hokazo xizmatlar shular jumlasidandir.

Ularning mehnati nomoddiy shakldagi aniq mahsulotni ishlab chiqarib, bu mahsulot oldi-sotdi obyekt, iste'mol predmeti va h.k. ko'rinishda bo'lishi mumkin. Shu tarzda xizmat mehnatning o'ziga xos mahsuli sifatida moddiy tovar shaklida emas, balki ma'lum bir funksiyalarni bajaruvchi mehnatning o'zi sifatida namoyon bo'ladi.

Xizmatlar tovarlardan farqli o'laroq, asosan bir vaqtda ishlab chiqariladi, iste'mol qilinadi va saqlashga moyil emas. Shu tufayli xorijda xizmatlarning bevosita ishlab chiqaruvchilarining mavjud bo'lishi yoki xizmatlar ishlab chiqarshgayotgan mamlakatda xorijiy iste'molchilarning mavjud bo'lishi talab qilinadi. Xizmatlar kapital talab va ilmtalab bo'lish, sanoat xususiyatiga ega bo'lishi yoki shaxsiy ehtiyojlarni qondirishi, maxsus malaka talab qilmaydigan yoki ijro-chining yuqori malakasini talab qilishi mumkin. Lekin xizmatlarning xamma turi tovarlarga qaraganda xalqaro ayirboshlashda ishtirok etishga yaroqli emas, (masalan, kommunal xizmatlar). Xizmatlar sohasi qoidaga ko'ra moddiy ishlab chiqarish sohasiga qaraganda davlat tomonidan xorijiy raqobatdan yuqori darajada ximoya qilinadi. Tovarlar va xizmatlarning bir-biridan farqli jihatlari 13.1-jadvalda aks ettirilgan.

Tovar va xizmatlar farqi.

| Tovarlar | Xizmatlar |
|--|---|
| Sezilarli | Sezilmaydiganlar |
| Ko'rinuvchi | Ko'rinmas |
| Saqlashga moyil | Saqlashga moyil emas |
| Tovarlar savdosi xar doim ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmaydi | Xizmatlar savdosi odatda ishlab chiqarish bilan bog'liq |
| Tovarlar eksporti xorijga qayta olib kirish majburiyatisiz tovarlarni bojxona xududidan olib chiqishni anglatadi | Xizmatlar eksporti norezidentga, agar u mamlakatning bojxona xududida bo'lsa xam ko'rsatishni anglatadi |

Ko'pgina xizmatlarning sezilmas va ko'rinmasligi tufayli ularning savdosini ba'zida ko'rinmas (invisible) eksport va import deb atashadi. Tovarlardan farqi ravishda xizmatlarni ishlab chiqarish ularning eksporti bilan bir shartnoma doirasida birlashtirilgan bo'ladi, sotuvchi va sotib oluvchining bevosita uchrashuvini talab qiladi. Ammo bu holda ko'pgina istasnolar mavjud. Masalan, ba'zi xizmatlar

seziluvchan (maslahatchining bosib chiqarilgan doklarda yoki disketadagi kompyuter dasturi), ko‘rish imkoniga ega (teatr tomoshasi yoki soch turmagi), saqlashga moyil (telefon avtootvetchik xizmati) va doimo sotuvchi va xaridorning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqasini talab qilmaydi (banqda debitorlik kartochkasi bo‘yicha avtomat ravishda pul berish). Xalqaro tovarlar savdosi va xizmatlar savdosi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Tovarlarini xorijga yetkazib berishda bozorlarni tahlil qilishdan boshlab tovarlar transportirovkasigacha bo‘lgan ko‘pgina xizmatlar ko‘rsatiladi. Xalqaro aylanmaga kelib tushuvchi ko‘pgina xizmatlar turlari tovarlar eksporti va importi tarkibiga kiritiladi. Shu bilan birga xizmatlar savdosi an’anaviy tovarlar savdosiga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Xalqaro xizmatlar savdosi tovarlar savdosi bilan solishtirganda quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- chegarada emas balki mamlakat ichida ichki qonunchilikka mos ravishda tartibga solinadi. Xizmatning chegara bilan kesishgan haqidagi faktning mavjud yoki mavjud emasligi xizmat eksporti mezonini bo‘la olmaydi;

- xizmatlar saklashga moyil emas, ular bir vaqtda ishlab chiqariladi va iste‘mol qilinadi. Shu tufayli ko‘pgina xizmatlar turlari ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilar o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalarga asoslanadi;

- xizmatlarni ishlab chiqarish va realizatsiyasi moddiy ishlab chiqarish hamda savdoga qaraganda katta davlat himoyasiga ega. Ko‘pgina mamlakatlarda transport, aloqa, moliyaviy va sug‘urta xizmatlari, ilm-fan, ta‘lim, sog‘liqni saqlash butunlay yoki qisman davlat mulki tarkibida va uning qat’iy nazorati ostida bo‘ladi;

- xalqaro xizmatlar savdosi tovarlar savdosi bilan chambarchas aloqada va unga kuchli ta‘sir qiladi. Masalan, xizmatlar sohasining katta hajmda texnik xizmatni, axborot va maslahat xizmatlarini talab qiluvchi ilmtalab tovarlar savdosiga ta‘siri katta;

- xizmatlarning hamma turi tovarlarga qaraganda savdo predmeti bo‘la olmaydi. Asosan, ichki iste‘molga kelib tushuvchi xizmatlar xalqaro xo‘jalik aylanmasi tarkibiga kiritilmaydi.

Xalqaro xizmatlarning guruhlanishi. Hozirgi kunda xizmatlarning iqtisodiyotda va xalqaro savdodagi o‘rni birinchi navbatda ilmiy texnika inqilobi, xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi, ko‘pgina

jahon mamlakatlarida aholi daromadlarining va xarid qobiliyatining oshishi natijasida jadal o'sib bormoqda. Jahon bozorida savdo qilinuvchi xizmatlar tarkibi turlicha bo'lib, ularning soni 600 dan ortiq. Shu bois ularni tasniflash, ma'lum bir guruhlariga ajratish xalqaro miqyosda muzokaralar olib borish, xizmat turlari va xizmatlar savdosi to'siqlari haqida ma'lumotlar bazasini yaratish, xalqaro xizmatlar savdosi bo'yicha statistika xisoboti olib borish kabi masalalarni hal qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Xizmatlar xalqaro ayirboshlash nuqtai nazaridan ikki guruhga ajratiladi:

- savdo qilinmaydigan xizmatlar - ular ishlab chiqarilgan mamlakatda iste'mol qilinadi, ya'ni ishlab chiqaruvchi va iste'molta bir mamlakat rezidenti hisoblanadi, Bunday xizmatlarga kommunal va maishiy xizmatlar kiradi.

- savdo qilinadigan xizmatlar - ular bir mamlakat rezidenti tomonidan ishlab chiqariladi va boshqa mamlakat rezidenti tomonidan iste'mol qilinadi. Bu xizmatlarga turizm, transport, bank xizmatlari va boshqalar kiradi.

Jahon banki guruhi xizmatlarni ishlab chiqarish omillari nuqtai nazaridan quyidagi guruhlariga ajratadi:

- omilli xizmatlar (factor services) - ishlab chiqarish omillari, asosan kapital va ishchi kuchining xalqaro harakati natijasida paydo bo'luvchi xizmatlardir.

- omil bo'lmagan xizmatlar (non-factor services) - ularga transport, turizm va boshqa nomoliyaviy xizmatlar kiradi. Xizmat ko'rsatish ko'p hollarda tovarlar savdosi bilan bir vaktida yoxud u yoki bu mamlakatga investitsiyani amalga oshirish orqali sodir bo'ladi. Shuning uchun istemolchilarga xizmatlarni yetkazib berish uslublariga ko'ra xizmatlar quyidagilarga bo'linadi:

- investitsiya bilan bog'liq xizmatlar - bank, mehmonxona va mutaxassis xizmatlari;

- bir vaqtning o'zida investitsiya va savdo bilan bog'liq xizmatlar —aloqa, qurilish, kompyuter va axborot xizmatlari, shaxsiy, madaniy va rekreatsiya xizmatlari.

| | | |
|------|--|--|
| | | |
| 13.1 | XX asrning 90-yillarida Urugvay raundi doirasida JST tarkibiga kiruvchi Xizmatlar savdosi bo'yicha Bosh bitim qabul qilindi. 1991-yilda JST sekretariata a'zo mamlakatlar yig'ilishidan keyin GATS doirasida "Bo'limlar bo'yicha xizmatlar tasniflanishi ro'yxati (GNS/W/120)" ni ishlab chikdi. Bu ro'yxatda xizmatlar sohasini tartibga soladigan normativ hujjatlarga muvofiq keluvchi bo'limlar va bo'lim ostilar keltirilgan bo'lib, uning yordamida mamlakatlar normativ xujjatlarni hisobga olgan holda majburiyatlarini muhokama qilishlari va o'z zimmlariga olishlari mumkin. Shu tufayli GNS/W/120 ro'yxati statistik tasniflagich sifatida emas, balki muzokaralar olib borish uchun ishchi hujjat sifatida qaralishi kerak. | |
| | | |

JST tomonidan ishlab chiqilgan GNS/W/120 ro'yxati 12 ta asosiy guruhga taqsimlangan 160 dan ortiq xizmat turlarini o'z ichiga oladi:

1. Ish xizmatlari (46).
2. Aloqa xizmatlari (25).
3. Kurilish va injenerlik xizmatlari (5).
4. Distribyutorlik xizmatlari (5).
5. Ta'lim sohasidagi xizmatlar (5).
6. Atrof-muhitni saqlash xizmatlari (4).
7. Moliyaviy xizmatlar (17).
8. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot xizmatlari (4).
9. Turizm va sayohat xizmatlari (4).
10. Dam olish, madaniyat va sport sohasi xizmatlari (5).
11. Transport xizmatlari (33).
12. Boshqa xizmatlar .

XVF tomonidan To'lov balansi bo'yicha qo'llanmaning 5-nashri ishlab chiqilgan bo'lib, unda rezident va norezident o'rtasidagi xizmatlar savdosini hisobga olish va tasniflash bo'yicha tavsiyalar berilgan. XVF tasnifiga ko'ra xizmatlar 11 ta tarkibiy qismlarga ajratiladi:

1. Transport xizmatlari.
2. Sayohatlar.
3. Aloqa xizmatlari.
4. Qurilish xizmatlari.

5. Sugʻurta xizmatlari.
6. Moliya xizmatlari.
7. Kompyuter va axborot xizmatlari.
8. Royalti va litsenziya toʻlovlari.
9. Boshqa ish xizmatlari.
10. Shaxsiy, madaniy va rekreatsiya xizmatlari.
11. Hukumat xizmatlari.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) hamda Yevrostat

tomonidan taklif qilingan koʻshma tasnif XVF tasnifi bilan chambarchas bogʻliq. U toʻlov balansida aks etadigan xizmatlar savdosi boʻyicha operatsiyalar uchun XVF tasnifining kengaytirilgan shakli sifatida tariflanishi mumkin. U rezident va norezident oʻrtasidagi xizmatlar bilan bogʻliq barcha operatsiyalarni qamrab oladi.

Bu tasnifning asosiy kategoriyalari qurilish xizmatlarini xisobga olishdan tashqari XVF tasnifining 11 ta asosiy kategoriyalari bilan mos keladi. Qoʻshma tasnif xorijda va mamlakat ichida qurilish boʻyicha maʼlumotlarni olishni koʻzda tutadi. Bu maʼlumotlar qurilish xizmatlarini koʻrsatish doirasida olingan tovar va xizmatlarni oʻz ichiga oladi, XVF tasnifi esa tovar va xizmatlarni xarid qilish xarajatlarini boshqa ish xizmatlari yoki boshqa xizmatlar moddalari boʻyicha xisobga olishni maslahat beradi. Bu istisnoni xisobga olmaganda qoʻshma tasnif asosida taqdim qilingan maʼlumotlar XVF talablariga javob beradi.

Qoʻshma tasnif GNS/W/120 moddalarini, ayniqsa, moliyaviy va telekommunikatsiya xizmatlarini xisobga olishda birinchi urinish hisoblanadi hamda Yevropa Hamjamiyati doirasida yagona xizmatlar bozorini tashkil qilishning statistika natijalarini, xususan, moliyaviy xizmatlar, telekommunikatsiya va transport xizmatlari, turizm xizmatlari va audiovizual xizmatlar bilan bogʻliq koʻrsatmalarni aks ettiradi. BMTning “Xalqaro xizmatlar statistikasi boʻyicha qoʻllanmasi”da Toʻlov balansida aks etuvchi xizmatlarning kengaytirilgan tasnifi (TBXKK) tavsiya qilingan boʻlib, u Qoʻshma tasnifning kengaytirilgan varianti hisoblanadi. TBXKK ga koʻra xizmatlar II ta katta guruhda ajratiladi, bu guruhlar XVF tasnifi bilan mos keladi. Yuqorida sanab oʻtilgan tasniflar bir qarashda bir-biriga oʻxshash koʻrinsa ham ular oʻrtasida farqlar mavjud. Birinchidan, GNS/W/120

tasnifi tarkibiga davlat xizmatlari kiritilmagan. Ikkinchidan, GNS/W/120 da xizmatlar sifatida ko‘riladigan operatsiyalar XVF tasnifida tovarlar sifatida hisobga olinadi, bu xorijga ta‘mirlash uchun yuborilgan ko‘pgina tovarlarning kelgusida qayta ishlash bilan bog‘liq xizmatlariga ta‘lluqlidir. Uchinchidan, XVF tasnifining ba‘zi tarkibiy qismlari, ayniqsa, sayohatlar tovarlar bilan operatsiyalarni o‘z ichiga oladi. To‘rtinchidan, XVF tasnifiga royalti va litsenziya to‘lovlari kiritilgan. GNS/W/120 ga esa franchayzing to‘lovlaridan tashqari bu tarkibiy qism kiritilmagan. GNS/W/120 tarkibiga ulgurji va chakana savdo shaklidagi distribyutorlik xizmatlari kiritilgan. XVF tasnifi va TBXKK da bu xizmatlar aniqlanmagan. MSTda ulgurji va chakana savdo korxonalari tovarlarni sotib olib, qayta ishlash yoki eng kam miqdorda qayta ishlab qayta sotuvchi subyektlar sifatida ta‘riflanadi. Ular tovar ishlab chiqaruvchilarga va iste‘molchilarga saqlash, namoyishni tashkil qilish va qulay joyga tovarlar assortimentini yetkazib berish xizmatlarini ko‘rsatadilar. Bunday xizmatlar, xorijda tovarlarni qayta sotish xizmatidan tashkari, XVF tasnifida sanab o‘tilgan xizmatlar bilan bog‘liq xalqaro operatsiyalar tarkibiga kirmaydi. Transport xizmatlariga bir mamlakat rezidenti tomonidan boshqa mamlakat rezidenti uchun amalga oshiriladigan barcha transport xizmat ko‘rsatish shakllari kiradi, ular tarkibiga yo‘lovchilarni tashish. Tovarlarini tashish (fraxt), ijara (charterli tashish), u bilan bog‘liq yordamchi xizmatlar kiradi. Transport xizmatlari tarkibiga ba‘zi o‘zaro bog‘langan faoliyatlar kiritilmaydi: tashqi savdo yuklarini sug‘urta qilish (sug‘urta xizmatlari tarkibiga kiradi); yuk tashuvchi norezidenglar tomonidan xarid qilinuvchi tovarlar va transport uskunasi ta‘mirlash (xizmat sifatida emas, tovar sifatida hisobga olinadi); temir yo‘llarni, dengiz portlaridagi va aeroportlardagi qurilmalarni ta‘mirlash (qurilish xizmatlari tarkibiga kiritiladi).

TBXKK va XVF tasnifida transport turi va xizmat shakli bo‘yicha tasnifni amalga oshirish tavsiya qilinadi. Agar XVF tasnifi transportning uchta shaklini ajratishni tavsiya qilsa, TBXKKda transportning quyidagi sakkizta shakli ajratiladi: dengiz, havo transporti, temir yo‘l, avtomobil yo‘llari, ichki suv transporti, quvur orqali transportirovka qilish va boshqa yordamchi transport xizmatlari. TBXKKda XVF tasnifidagi kabi xizmatlar shakllari tasnifi tavsiya qilinadi - yo‘lovchilarni tashish, yuk tashish va boshqa yordamchi

xizmatlar. TBXKKda sayohatlarni hisobga olishda sayohatlarning o'zini emas, balki sayohatga chiqqan yo'lovchilarni xarid qilgan tovar va xizmatlariga qarab hisobga olishni tavsiya qiladi. XVF tasnifida sayohatlarni ish bilan bog'liq va shaxsiy sayohatlarga bo'lish tavsiya qilinsa, TBXKK bu tarkibiy qismlarni yana tarkibiy qismlarga ajratishni tavsiya qiladi.

TBXKKda XVF tasnifining aloqa xizmatlari tarkibiy qismini ikkita qismga bo'lishni tavsiya qiladi:

- pochta va kuryerlik xizmatlari;
- telekommunikatsiya xizmatlari.

TBXKKda XVF tasnifidan farqli ravishda kompyuter va axborot xizmatlari uch qismga ajratiladi: kompyuter xizmatlari, axborot agentliklari xizmatlari va axborot berish bo'yicha boshqa xizmatlar. Royalti va litsenziya to'lovlari. TBXKKda XVF tasnifidagi ushbu tarkibiy qismni franshiza va o'xshash huquqlar; boshqa royalti va litsenziya to'lovlariga ajratiladi. Franshiza va o'xshash huquqlar tarkibiga ro'yxatga olingan tovar belgilaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan franchayzing yig'implari hamda royalti ko'rinishida kelib tushuvchi xalqaro to'lovlar va tushumlar kiradi. Boshqa royalti va litsenziya to'lovlariga qonun asosida nomoddiy, ishlab chiqarilmagan, nomoliyaviy aktivlardan hamda egalik huquqlaridan foydalanganlik uchun xalqaro to'lovlar va tushumlari kiradi (masalan, qo'lyozmalar, kompyuter dasturlari, kinematografiya mahsulotlariva ovoz yozuvlari). Bunga aktiv va huquqlarni to'g'ridan-to'g'ri sotishdan tushgan to'lovlar va tushumlar kirmaydi (XVF tasnifiga ko'ra bu operatsiyalar xizmatlar sifatida emas, balki kapital bilan operatsiyalar xisobiga xisobga olinadi). Shuningdek, chegaralangan muddat davomida amal qiluvchi audiovizual mahsulotlarni ijaraga berish huquqi xisobga olinmaydi, u audiovizual va u bilan bog'liq xizmatlar tarkibiga kiritiladi.

13.2. Jahon xizmatlar savdosining tarkibi, tartibga solish usullari va zamonaviy tendensiyalari

Xalqaro xizmatlar savdosinining muhim tomoni shundaki, aksariyat hollarda xizmatlar bozorida xaridor bilan sotuvchi o‘zaro aloqaga kirishishi zarur bo‘ladi. Faqat shu holatdagina xizmatning xalqaro oldi-sotdisi amalga oshadi. Xalqaro xizmatlar savdosini amalga oshirishning qator usullari mavjud:

1. Transchegara savdo (cross-border-trade) - sotuvchi va xaridori chegarani kesib o‘tmaydi, balki faqat xizmat chegarani kesib o‘tadigan vaziyat. Xizmatlar savdosining bu usuli xalqaro savdoda tovarlar savdosiga yaqinlashtirilgan. Masalan, xorijdan telefon yoki faks orqali yuridik maslahat ko‘rsatish yoki xorijiy o‘quv tashkilotining korrespondentlik o‘quv dasturida ishtirok etish.

2. Xorijda iste‘mol qilish (consumption abroad) — bir mamlakat iste‘molchisi boshqa mamlakat hududida xizmat sotib oladi va iste‘mol qiladi. Bu qolatda tovarlar savdosi bilan solishtirgandagi farq shundaki, xizmatlar va xizmatlar sotuvchisi chegaradan o‘tmaydi, uni xizmatlar iste‘molchisi kesib o‘tadi. Masalan, o‘qishga yoki davolanishga xorijga ketish.

3. Xizmat ko‘rsatuvchi mamlakatda sotuvchining hozir bo‘lishi (commercial presence, yoki right of establishment) - xizmat ko‘rsatuvchi firma chegarani kesib o‘tadi va boshqa mamlakat xududida xizmat ko‘rsatishni amalga oshirish uchun vakillik yoki qiz firma ochadi. Xizmatning o‘zi va uning iste‘molchisi bu xolatda chegaradan kesib o‘tmaydi.

4. Xizmat ko‘rsatuvchi jismoniy shaxsning hozir bo‘lishi (presence of natural persons providing services) - xizmat iste‘molchisi joylashgan mamlakatga chegaradan kesib o‘tuvchi odamlarning bevosita faoliyati bilan bog‘liq. Masalan, bir mamlakatda o‘z vakilligini ochish uchun xorijiy bank personalisi yoki chet ellik arxitektorning xorijdan kelishi. Xalqaro xizmatlar savdosi xalqaro tovarlar savdosidan mutloq, ko‘rsatkichlar bo‘yicha ortda qolmoqda. Ushbu holatning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- xizmatlarning aksariyat qismi mamlakatlar ichki bozorida sotilmoqda;

- xalqaro xizmatlar savdosining o‘sib borishi texnik ta‘minotning rivojlanishni talab qilmoqda;

- xalqaro savdoning erkinlashuvi asosan xalqaro tovarlar savdosi sohasida amalga oshmoqda. GATT/JST faoliyatidagi erkinliklar birinchi o‘rinda xalqaro tovarlar savdosiga tegishlidir. Ba‘zi iqtisodchilarning fikriga ko‘ra, to‘lov balansining «xizmatlar» moddasi quyidagi sabablarga muvofiq jahon xizmatlar savdosining hajmini to‘liq aks ettira olmaydi:

- ko‘pchilik hollarda xizmatlar tovarlar savdosi bilan birga amalga oshirilganligi bois ularning qiymati tovarlar narxiga qo‘shilib ketadi;

- ba‘zi hollarda xizmatlar qiymatini aniqlash mumkin emas (masalan, kasalni dorilar yordamida davolash);

- xorijiy ishchilarning o‘z vatanlariga jo‘natayotgan ish haqlarini pul o‘tkazmasi shaklida hisoblashning qiyinligi;

- agar bank va sug‘urta operatsiyalari bo‘yicha daromadlar shu mamlakatda qayta reinvestitsiya qilinsa ular statistik xisobga kiritilmaydi;

- TMKning firma ichidagi savdo operatsiyalari jarayonida ham xizmatlar qiymatini aniqlash mumkin emas.

| | | |
|------|--|--|
| | | |
| 13.2 | XX asr ikkinchi yarmi –XXI asr boshlarida xizmatlar sohasining jadal su‘ratlarda o‘shishi qator omillar bilan belginalandi. Birinchi, bu davrda jahon iqtisodiyoti barqaror su‘ratlarda rivojlandi va aholining turmush darajasi o‘sdi. Ikkinchidan, rivojlangan mamlakatlar tajribasining ko‘rsatishicha, ishlab chiqarishning tarkibi murakkablashib, bozorlar tovarlar bilan to‘yinib borgani sari xizmatlarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Uchinchidan ma‘lum tovarlar guruhiga yangi iste‘mol xususiyatlari qo‘shildi (masalan, internet bilan ta‘minlangan mobil telefonlar) va bu holat xizmatlar sohasining rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi. | |
| | | |

Jahon xizmatlar bozorining rivojlanish tendensiyalari:

- fraxt (kira haqi) va boshqa transport xizmatlari ulushining pasayishi (xalqaro savdoda xomashyo ulushining qisqarishi bilan bogʻliq);

- xizmatlar eksportida safarlar ulushining ortishi (transport vositalarining takomillashuvi, turizm infrastrukturasi rivojlanishi bilan bogʻliq);

- «alohida xususiy xizmatlar» ulushining ortib borishi (moliya, sugʻurta, auditor, maslahat va boshqa xizmatlar kiradi).

Xizmatlar sohasining rivojlanishi asosida quyidagi omillar yotadi:

- asosan anʼanaviy xizmatlarga ehtiyojlar va talablarning ortishi;

- xizmatlar savdosini erkinlashtirish;

- iqtisodiyetning boshqa tarmoqlaridan xizmatlarni mustaqil sohaga aylantirish;

- davlat xizmatlarini xususiylashtirish;

- xizmatlar savdosining tovarlar savdosiga bogʻliqligi .

Xizmatlarga ehtiyojlar va talabning oshishi faqatgina daromadlarning koʻpayishi va urf-odatlarining oʻzgarishi bilan bogʻliq emas. Aholi tarkibidagi oʻzgarishlar muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki xizmatlar ehtiyojining katta qismini yoshlar va qariyalar tashkil qiladi. Aholi turmush darajasi sifatini oshirishi maqsadi joriy daromad darajasini saqlaganda xizmatlar isteʼmolining oshishiga va noanʼanaviy xizmatlarga isteʼmolchilar eʼtiborining qaratilishiga sabab boʻladi.


Bundan tashqari, noanʼanaviy xizmatlar rivojlanishiga texnologik innovatsiyalar yordam beradi. Oʻz navbatida, isteʼmolchilar tomonidan xizmatlar sifatiga nisbatan talabchanligining oshishi kompaniyalarda anʼanaviy va noanʼanaviy xizmatlar sifatini yaxshilash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Xizmatlar rivojlanishida savdoni erkinlashtirish muhim oʻrin tutadi. 1993-yilda xalqaro savdo kelishuvlarining Urugvay raundi doirasida xizmatlar savdosi boʻyicha bosh bitim (GATS –GENERAL Agreement on Trade in Servises) imzolandi. U 1995-yilda JSTga aylangan 1947-yildagi Tarif va savdo boʻyicha bosh bitimdan (GATT – General Agreement on Tariffs and Trade) keyin ikkinchi yirik savdo kelishuvi hisoblanadi. GATS tovarlar savdosida toʻsiqlarni kamaytirishni koʻzda tutadi. Bu esa xizmatlar eksportyorlari va

importyorlari imkoniyatlarini kengaytiradi va shu soha rivojlanishini ragʻbatlantiradi. GATSda moliyaviy xizmatlar savdosiga, xususan, sugʻurta, bank faoliyati, brokerlar va moliyaviy bozordagi boshqa vositachilar xizmatlariga valyuta va qimmatli qogʻozlar savdosiga katta urgʻu beradi.

Xizmatlar savdosini erkinlashtirish taʼminotchilar tomonidan raqobatning oʻsishiga olib kelib, koʻp tomonlama taʼsirga ega boʻladi. Xizmat yoki tovar sotuvchisi tomonidan raqobat kurashida koʻshimcha xizmatlarni sotib olgani hisobiga bu savdo holatini mustahkamlash zaruriyati paydo boʻladi. Bunday qoʻshimcha xizmatlarga reklama, marketing, sugʻurta, buxgalteriya va konsalting xizmatlari biznes rejalarini ishlab chiqish, investitsiyalash, kreditlash, axborot xizmatlari va boshqalar kiradi. Tarmoqdan alohida xizmat turlarining ajralishi (outsourcing) ixtisoslashishning rivojlanishi bilan bogʻliq tarzda amalga oshadi. Qimmatli qogʻozlar bozori rivojlanishi natijasida investitsiya brokerlik kompaniyalari paydo boʻlishi, ssuda kapitaliga talabning oshishi oqibatda kredit byurularining shakllanishi, pensiya fondlarining paydo boʻlishi — bularning barchasi bank institutlaridan nobank tashkil otlarning ajralib chiqishi toʻgʻrisida xabar beradi. Xizmatlar sohasi rivojlanishiga, shuningdek, anʼanaviy davlat tarmoqlarini xususiylashtirish yordam beradi. Xususiylashtirish taʼsiri erkinlashtirish taʼsiri bilan oʻxshash. Nafakat taʼlim, sogʻliqni saqlash, telekommunikatsiya, aloqa, transport, balki qisman qamoqxonalar va koloniyalarni taʼminlash kabi sohalar xususiylashtirishga aylanadi. Tovarlar savdosining xizmatlar bilan chambarchas bogʻliqligi tovarlar savdosining oshishi xizmatlar sohasi rivojlanishini ragʻbatlantirishga olib keladi. Masalan, tovarlar eksport ishlab chiqarishni kreditlash, eksport tavakkalchiligini sugʻurtalash bilan bogʻliq. Baʼzi tovarlar sotuvdan keyingi xizmat koʻrsatishni talab qiladi, masalan, avtomobillar savdosi ixtisoslashgan servis markazlarda xizmat koʻrsatish bilan amalga oshadi. Tovarlarning xizmatlarga texnologik qaramligi maxsus uskunani oʻrnatish boʻyicha yoki dastur taʼminotchisi bilan birgalikda kompyuter xarid qilish boʻyicha xizmat sotib olish zaruriyatini belgilaydi. Bu aloqalar natijasida ishlab chiqarish va tovarlar savdosining oʻsishi xizmatlar sohasining rivojlanishiga olib keladi. Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, noyabr oyida xizmatlar savdosi hali ham 2019 darajasidan 16 foizga pastroq. COVID-19


infeksiyasining ikkinchi to‘lqini ko‘plab mamlakatlarda blokirovka-ning yangi va qat’iy choralarini talab qilganligi sababli, tiklanish istiqbollari yomonligicha qolmoqda, sayohat va tegishli xizmatlarga nisbatan cheklangan cheklovlar 2021-yilning birinchi choragiga qadar davom etmoqda.



13.2-rasm. Tovarlar va xizmatlar savdosi (foizda)


So‘nggi statistik ma’lumotlar, xizmatlar savdosi pandemiya bilan tovar savdosiga qaraganda ancha og‘irroq bo‘ladi degan taxminlarni tasdiqladi, bu uchinchi chorakda yiliga 5 foizga kamaydi. Sotish mumkin bo‘lgan xizmatlarga bo‘lgan harajatlar boshqa joyga yo‘naltirilishi mumkin, iste’molchilar esa uning o‘rniga tovarlarga o‘tishlari mumkin. Tovarlardan farqli o‘laroq, xizmatlarni zaxiralash mumkin emas, demak, talab yuqori bo‘lishiga qaramay, bekor qilingan reyslar, xorijdagi ta’tillar, restoran taomlari va madaniy/ko‘ngilochar tadbirlardan tushadigan daromadlarning ko‘p qismi doimiy bo‘lib qolishi mumkin. Sayohat eng katta ta’sir ko‘rsatadigan xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘lib qolmoqda, bu 2019-yilning shu davriga nisbatan dunyo miqyosida 68 foizga kamaydi. 2020-yilning uchinchi choragida xalqaro sayohatchilarning xarajatlari Lotin Amerikasi va Karib dengizida 88 foizga, Osiyo va Afrikada 80 foizga kamaydi, Shimoliy Amerikada 78%, Yevropada 55%. Yoz oylarida Evropada

sayohat cheklovlarining yumshatilishi uchinchi chorakda xizmatlar savdosida faqat biroz tiklandi. Qurilish, rekreatsion, yuridik va moliyaviy xizmatlar kabi "boshqa xizmatlar" savdosi bir xil bo'lmagan ko'rsatkichlarni takrorladi: aksariyat kichik tarmoqlar shartnoma tuzdi, kompyuter xizmatlari esa istisno bo'lib qoldi. Pandemiya sababli ko'plab mamlakatlarda qurilish loyihalari kechiktirildi, global qurilish eksporti o'tgan yilga nisbatan 16% ga kamaydi, chunki bir qator Osiyo eksportchilari keskin pasayishni ko'rdilar. Audio-vizual, badiiy va ko'ngilochar xizmatlar, shuningdek, ikki raqamli pasayishni (-14%), AQSH eksporti esa 24% ga kamaygan va Buyuk Britaniyaning deyarli yarmiga (-45%) qisqartirgan. Yuridik, menejment, buxgalteriya va reklama xizmatlari yiliga 1% yuqori darajadagi tiklanishga erishdi.



13.3-rasm. Xizmatlar sohasi dinamikasi.


Moliyaviy xizmatlar global miqyosda 2 foizga o'sdi, turli mintaqalardagi eksportchilar ijobiy o'sishni qayd etdi. Bunga Yevropa Ittifoqi kiradi, uning moliyaviy xizmatlari eksporti o'tgan yilga nisbatan 4 foizga oshgan. Kompyuter xizmatlari, platformalar va virtual ish joylariga bo'lgan global talabning ortishi hisobiga uchinchi chorakda 9 foizga o'sib borgan eng dinamik sektor bo'lib qoldi.



13.4-rasm. Boshqa xizmatlar savdosi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, jahon xizmatlari savdosining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘iga ega bo‘lgan 39 ta iqtisodiyot ma‘lumotlariga asoslanib, global xizmatlar savdosi o‘tgan yilga nisbatan 16 foizga pasayib, depressiyani saqlab qoldi. Bu o‘tgan yilga nisbatan xizmatlar savdosi 18 foizga pasaygan oktyabr oyidan boshlab biroz yaxshilanishni anglatadi.

Noyabr oyida xizmatlar eksporti Qo‘shma Shtatlarda 24 foizga, Buyuk Britaniyada 15 foizga (ikkalasi ham mavsumiy tuzatish asosida), Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida esa 20 foizdan kamaydi. Iqtisodiyoti turizmga juda bog‘liq bo‘lgan Uganda, xizmatlar eksportidan tushadigan daromad pandemiya darajasiga nisbatan 57 foizga kamaydi. Xitoyning xizmatlar eksporti ham sustlashdi (-1%), bu oktyabr oyidagi ko‘rsatkichlarini aks ettirdi. Moliyaviy xizmatlar va kompyuter xizmatlari mos ravishda Lyuksemburg va Pokiston eksportining o‘rishini ta‘minladi.



13.5-rasm. Xizmatlarning eksporti va importi.

Rivojlangan mamlakatlarning xalqaro bozorlarda yetkazib beruvchilar sifatida nisbiy ahamiyati pasaymoqda. Shunga qaramay, ular tovarlarni eksport qilish qiymatining yarmidan ko'pini va xizmatlar eksportining taxminan uchdan ikki qismini tashkil etadi. 2019-yilda rivojlangan mamlakatlarning tovarlari eksporti deyarli 10,5 trillion AQSH dollarini tashkil etdi, xizmatlar eksporti esa taxminan 4,1 trillion AQSH dollarini tashkil etdi. 2019-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarning eksporti tovarlarga nisbatan qariyb 8,5 trillion AQSH dollarini va xizmatlarga nisbatan taxminan 2 trillion AQSH dollarini tashkil etdi. Ulardan BRISS taxminan uchdan bir qismini, 3,5 trillion AQSH dollarlik tovarlarni va 600 milliard AQSH dollariga yaqin xizmatlarni eksport qildi. So'nggi o'n yil ichida ushbu mamlakatlarning eksporti va importining o'sishi kuzatilgan bo'lsa-da, eng kam rivojlangan mamlakatlarning jahon savdosiga qo'shgan hissasi kichik bo'lib qolmoqda.

13.3. Jahon xizmatlar savdosining o'zgarishi. Xalqaro transport va turizm xizmatlari

Turli xizmat shakllari xalqaro savdoga turli darajada jalb qilinganligi bilan tavsiflanadi. Xizmatlarga moliyaviy kredit faoliyati xdm tegishli bo'lib, u kapitallar mujassamlashuvi qo'shilib ketishi va yirik bank markazlari shakllanishida o'z aksini topadi. Ba'zi iqqisodchilar fikricha, iqtisodiyotning globallashuv jarayoni ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishiga ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyasiga transchegara moliyaviy operatsiyalarning kengayishi asoslanadi. Ushbu operatsiyalar ta'siri ostida ichki va jahon moliyaviy bozorlari o'rtasida to'siqlar sekin-asta olib tashlanadi.

| | |
|------|--|
| 13.3 | Xalqaro xizmatlar savdosining geografik tarkibi keskin o'zgarib bormoqda. Xalqaro xizmatlar savdosi, birinchi navbatda, rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida amalga oshmoqda. Ammo yangi industrial va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro xizmatlar savdosidagi ulushining pasayishiga olib kelmoqda. |
|------|--|

Xalqaro transport xizmatlari deyilganda bir mamlakat rezidentining ikkinchi mamlakat rezidentiga barcha turdagi transport vositalari bo'yicha ko'rsatadigan xizmatlari tushuniladi. Tahliliy maqsadlar yo'lida transportning dengiz (asosan, tashqi savdo yuklarini tashishda), xavo (asosan yuklar va odamlarni mamlakatlararo tashishda) va boshqa turlari ajratiladi.

Transport xarajatlarining xalqaro savdoga ta'siri quyidagicha:

- Transport xarajatlari mamlakatning savdo sharoitining yomonlashuvi, ixtisoslashuv darajasi va tashqi savdo hajmining qisqarishga olib keladi.

- Transport xarajatlari Xeksher-Olin-Samuelson teoremasiga muvofiq ishlab chiqarish omillari bahosining mamlakatlararo barqarorlashuviga to'sqinlik qiladi.

Iqtisodiyot guruhlari bo'yicha xizmatlar savdosi.⁴

| Iqtisodiyot guruhlari | | | | | | | | |
|--|-------------|--------------|-----------------------|-----------------------|--------------|----------------------|--------------|-----------------------|
| | qiymati | | Dunyo bo'yicha ulushi | Yillik o'sishqiy mati | qiymati | Dunyo bo'yicha ulush | | Yillik o'sish qiymati |
| | (mlrd.\$) | | (foiz) | (foiz) | (mlrd.\$) | (foiz) | | (foiz) |
| | 2014 | 2019 | 2019 | 2019 | 2014 | 2019 | 2019 | 2019 |
| Dunyo | 5245 | 6 144 | 100.0 | 1.9 | 5 141 | 5826 | 100.0 | 2.1 |
| Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar | 1512 | 1 833 | 29.8 | 2.5 | 1 949 | 2108 | 36.2 | -1.8 |
| Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar: Afrika | 106 | 122 | 2.0 | 2.3 | 187 | 182 | 3.1 | 2.7 |
| Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar: Amerika | 179 | 198 | 3.2 | 1.0 | 241 | 220 | 3.8 | -4.0 |
| Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar: Osiyo va Okeaniya | 1227 | 1 513 | 24.6 | 2.7 | 1 521 | 1706 | 29.3 | -2.0 |
| O'sish iqtisodiyoti | 127 | 137 | 2.2 | 1.5 | 187 | 172 | 3.0 | 5.3 |
| Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar | 3606 | 4 174 | 67.9 | 1.7 | 3 005 | 3546 | 60.9 | 4.4 |
| Xitoyni xisobga olmaganda rivojlanayotgan iqtisodiyotlar | 1293 | 1 550 | 25.2 | 2.1 | 1 516 | 1607 | 27.6 | -0.9 |
| Kam rivojlangan mamlakatlarni xisobga olmaganda rivojlanayotgan iqtisodiyotlar | 1473 | 1 784 | 29.0 | 2.3 | 1 863 | 2038 | 35.0 | -1.6 |
| Kam rivojlangan mamlakatlar | 39 | 49 | 0.8 | 8.7 | 86 | 70 | 1.2 | -7.1 |
| Rivojlanayotgan davlatlar | 40 | 45 | 0.7 | 1.6 | 70 | 71 | 1.2 | -0.7 |
| SIDS (UNCTAD) | 21 | 26 | 0.4 | 3.8 | 15 | 15 | 0.3 | -2.3 |
| HIPCs (IMF) | 31 | 41 | 0.7 | 4.8 | 58 | 60 | 1.0 | -3.0 |
| BRICS | 499 | 609 | 9.9 | 2.8 | 787 | 863 | 14.8 | -2.3 |
| G20 | 4123 | 4 804 | 78.2 | 2.2 | 3 923 | 4526 | 77.7 | 2.6 |

- Transport xarajatlari xududiy mehnat taqsimotiga – korxonalar va tarmokdarni xududiy joylashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- Transport xarajatlarining o'zaro savdoga kirishayotgan mamlakatlar o'rtasida taqsimlanishi talab va taklif elastikligiga bog'liq; importyor mamlakatda talab elastikligi qanchalik kam bo'lsa, transport xarajatlari shuncha yuqori bo'ladi; eksportyor mamlakatda taklif elastikligi qanchalik kam bo'lsa, transport xarajatlari shuncha yuqori bo'ladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos shakllaridan biri xalqaro safarlar hisoblanadi va ular milliy schetlar tizimida turizm deb ataladi. Ularning o'ziga xosligi shundaki, iste'molchi xorijga, xizmat ko'rsatuvchiga qarab harakatlanadi va norezident sifatida tovarlar (xizmatlar) sotib oladi.

Xalqaro safarlar — sayoxatchilar tomonidan xorijda sotib olinadigan tovarlar va xizmatlar yig'indisi (sayohatchi xorijda bir yildan kam muddatda bo'lsa va norezident hisoblansa).

Sayohatchi - o'zi rezident hisoblanmaydigan mamlakatda bir yildan kam muddatda bo'lgan, boshqa mamlakatning davlat tashkiloti xizmatchisi yoki oila a'zosi bo'lmagan va rezident uchun yollanib ishlamayotganlar kiradi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda sayohatchi borgan mamlakatida 24 soatdan ortiq vaqt bo'lsa turist hisoblanadi.

13.3- jadval

Xalqaro safarlarning guruhlanishi.

| | O'z ichiga oladi | O'z ichiga olmaydi |
|------------------|---|---|
| Xizmat safarlari | Xizmat bo'yicha xorijda bo'lgan sayohatchi tomonidan amalga oshiriladigan shaxsiy xarajatlar: kema va samolyot ekipajlari, hukumat organlari, xalqaro tashkilotlar, xususiy firmalarning xizmatchilari, mavsumiy ishchilar | Sayohatchi tomonidan jo'natayotgan tashkilot nomidan va hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar |
| Shaxsiy safarlar | Shaxsiy ishlar buyicha (turizm) xorijda bo'lgan sayohatchi tomonidan amalga oshiriladigan barcha xarajatlar: dam olish, sport bilan shug'ullanish, qarindoshlarinikiga borish, o'qish, davolanish, diniy ehtiyojlarini qondirish. | Sayohatchnlarni xorijga va orkaga tashish (mazkur xizmatlar xalqaro yo'lovchi transporti xizmatlariga kiradi) |

COVID-19 pandemiyasi keltirib chiqargan iqtisodiy inqirozga bogʻliq; mehnat muhojirlari uchun pandemiya ish haqi va ish bilan bandlikning pasayishini anglatadi. Jahon banki 2020-yilda barcha mintaqalar boʻyicha pul oʻtkazmalari oqimining pasayishini loyihalashtiradi: Yevropa va Markaziy Osiyo (-16%); Afrika Sub-Sahara mamlakatlari (-8,8%), Janubiy Osiyo (-4%), Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika (-8%), Lotin Amerikasi va Karib havzasi (-0,2%) va Sharqiy Osiyo va Tinch okeani (-10,5) %). Ushbu pasayish LMISc-larga pul oʻtkazmalari 2019-yilda rekord darajada 554 milliard AQSH dollarini tashkil etganidan soʻng, toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni ortda qoldirdi. 2019-yilda, hozirgi AQSH dollarida, pul oʻtkazmalari oluvchi mamlakatlarning beshtasi Hindiston (83,1 milliard), Xitoy (68,4 milliard), Meksika (38,5 milliard), Filippin (35,2 milliard) va Misr Arab Respublikasi (26,8 milliard). Nisbiy jihatdan 2019-yilda yalpi ichki mahsulot (YAIM) ulushi sifatida eng yuqori pul oʻtkazmalarini olgan 5 ta davlat quyidagilar: Tonga (YAIMning 37,6%), Gaiti (37,1%), Janubiy Sudan (34,1%), Qirgʻizlar Respublika (29,2%) va Tojikiston (28,2%) (oʻsha erda). 2020-yilning uchinchi choragida LMSS-larga 200 AQSH dollarini joʻnatish uchun oʻrtacha xarajatlar yuqori boʻlib, 6,8 %ni tashkil etdi va Barqaror rivojlanish maqsadining 3% idan yuqori boʻldi. Afrikaning Sub-Sahara mamlakatlarida pul oʻtkazmalarining oʻrtacha harajatlari eng yuqori boʻlib, taxminan 8,5 %ni tashkil etdi; Pul oʻtkazmalarining oʻrtacha eng past narxi Janubiy Osiyoda 5 %ni tashkil etdi. Qolgan mintaqalar uchun pul oʻtkazmalarining oʻrtacha xarajatlari quyidagilar: Yevropa va Markaziy Osiyo (6,5%); Sharqiy Osiyo va Tinch okeani (7,1%); Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika (7,5%); Lotin Amerikasi va Karib havzasi (5,8%). Ushbu prognozlarga qaramay, ayrim mamlakatlar istisno sifatida ajralib, 2020-yilning ikkinchi choragida pul oʻtkazmalari oqimining pasayishidan qochib, uchinchi chorakda oʻsishni prognoz qilishdi. Masalan, Meksikada pul oʻtkazmalari mart oyida - pandemiya rasman eʼlon qilingan oyda - oʻtgan oyga nisbatan 1,5 baravar koʻp boʻlgan va iyul oyida ular rekord darajadagi uchinchi darajaga yana koʻtarilishdi, deyarli 7 %ga. Iqtisodchilar ushbu moliyaviy xatti-harakatni asosan valyuta kurslarining oʻzgarishi va migrantlarning boradigan mamlakatlardagi daromadlari kamayib ketishidan qoʻrqishi, ularni tejashni oʻzlariga yuborishga undashlari bilan izohlashadi. COVID-19

epidemiyasidan zarar koʻrgan mamlakatlardagi oilalar. Shuningdek, Lotin Amerikasida xuddi shunday tendensiya Dominikan Respublikasiga pul oʻtkazmalari bilan kuzatilgan boʻlib, ular 2020-yilning birinchi 6 oyida 2019-yilning shu davriga nisbatan 0,5 %ga koʻproq pul oʻtkazmalari olgan. Janubiy Osiyoda va shuningdek, salbiy prognozlarni inkor etib, Pokiston va Bangladeshga pul oʻtkazmalari oqimi 2020-yil iyul oyida keskin oʻsdi, ikkinchisi uchinchi chorakda yiliga 53,5 %ga oʻsishni qayd etdi. Iqtisodchilarning taʼkidlashicha, pul oʻtkazmalarining koʻpayishi qisman "Haj effekti" bilan bogʻliq boʻlishi mumkin, bu Pokiston va Bangladesh muhojirlarining Makkaga haj uchun sarflagan pullarini uylariga yuborishlarini anglatadi, chunki agar vizalar pandemiyaga keskin kamaytirilmas edi. Shunga qaramay, shuni taʼkidlash kerakki, COVID-19 epidemiyasi kabi inqirozlar keltirib chiqaradigan pul oʻtkazmalari oqimidagi oʻzgarishlarni tahlil qilishda daromadlar va valyuta oʻzgarishini kamaytirishdan tashqari oʻzgaruvchilarni hisobga olish kerak, yaʼni sogʻliq uchun zaiflik, iqtisodiy tanazzul, qabul qiluvchi joʻnatuvchi va joʻnatuvchi mamlakatlardagi rivojlanish va oʻsish tendensiyalari, muhojirlarning isteʼmolga munosabati, madaniy xususiyatlari va migratsiya tajribalari va shu kabilarni hisobga olish darkor. Migratsiyaning mamlakatlarga boʻlgan taʼsiri.

Gender tengligi: tafovut yuzaga kelgan bu kabi tengsizlikni yumshatishi mumkin hamda mamlakatda demokratiyani ham yuksak darajaga koʻtarishi ham mumkin. **Munosib ish va iqtisodiy oʻsish:** Majburiy mehnatni yoʻq qilish, zamonaviy qullik va odam savdosiga barham berish va bolalar mehnatining eng yomon turlarini taqiqlash natijasida migrantlarga boʻlgan talab oshadi va bu kabi majburiy mehnatga barham beradi. **Munosib ish haqi va iqtisodiy oʻsish:** mehnat huquqlarini himoya qilish va barcha ishchilar, shu jumladan mehnat muhojirlari, xususan ayol migrantlar va xavfli ish bilan band boʻlganlar uchun xavfsiz ish sharoitlarini taʼminlash shu jumladan mamlakatning migrant ishchi kuchlari nafaqat mamlakatdagi ishchilarga boʻlgan fikrning oʻzgarishiga olib kelishi mumkin.

Tengsizlikning oldini olishi: migratsiyaning amalga oshish, tartibli, xavfsiz, muntazam va masʼuliyatli migratsiya va odamlarning harakatchanligini taʼminlash, yaxshi boshqariladigan migratsiya siyosatini amalga oshirish uchun omildir.

To'lov balansi: migrantlar pul o'tkazmalarining tranzaksiya xarajatlarini 3 %dan kamiga qisqartirish bu mamlakatga o'tkaziladigan pul mablag'larini ko'paytiradi. Tinchlik, adolat va kuchli institutlar: mamlakatga kirib kelgan migrantlarning huquq va majburiyatlarini oqilona belgilanishi bu mamlakatning huquqiy salohiyatini, shuningdek uni monitoring qiluvchi institutlar faoliyatini kuchaytirishi mumkin. **Maqsadlar uchun sheriklik:** har bir mamlakat eksport-importni amalga oshirgani kabi ishchi kuchi ham ana shu qoidaga amal qilgan holda amalga oshiriladi. Bu borada esa, bir mamlakat boshqa mamlakat bilan hamkorlik o'rnatishi orqali yuzaga keladi. Mamlakatga kirib kelgan ishchi kuchi ham unga bo'lgan talabni ham ishchi kuchi taqchilligini oldini oladi. Kambag'allikning qisqarishi: ayrim mamlakatlarda odamlar migratsiya orqali o'z hayot faoliyatini yaxshilashi mumkin. Misol qilib, Osiyo mamlakatlarining ayrim hududlari hamda Afrika qit'asining aksariyat qismini olishimiz mumkin. Sifatli ta'lim: rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda ishchi kuchiga bo'lgan talabni migratsiya orqali bartaraf qilinadi. Ammo bu jarayonni izga sola oladigan asosiy omil bu sifatli ta'lim hisoblanadi. Shuning uchun ta'lim olish maqsadida migratsiyani amalga oshirish bu mamlakatdagi ta'limning sifatini yaxshilashiga olib keladi.

| | | |
|------|--|--|
| | | |
| 15.3 | 1. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi xalqaro darajada qaysi tashkilotlar tomonidan tartibga solinadi? 2. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi davlat tomonidan tartibga solishning qanday usullari mavjud? 3. Immigratsiya siyosiy va yoki amalga oshirish dastaklarini nimalardan iborat? 4. Emigratsiya siyosati va qanday xususiyatlarga ega? | |
| | | |

15.4. Ishchi kuchi migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solish usullari

Uchta eslatma berish mumkin. Birinchidan, odamlarning umumiy oqimida iqtisodiy migratsiya ahamiyati tobora ortib borayotganiga qaramay, migratsiyani xalqaro tartibga solish mavjud emas, agar bu bilan biz bitta tashkilot yoki bir hil qoidalar to'plamini nazarda tutsak. 2000-yildan buyon BMTning xalqaro migratsiya bo'yicha yuqori darajadagi muloqoti, global migratsiya guruhini tashkil etish va Jahon bankining migrantlar pul o'tkazmalariga bo'lgan qiziqishini qayta tiklash kabi bir qancha global tashabbuslarning yaratilishi, shu bilan birga olib kelish istagini ko'rsatmoqda.

Ikkinchidan, xalqaro mehnat migratsiyasini tartibga solish turli shakllarda amalga oshiriladi, maqsadlar va vositalar har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi. Ikki tomonlama shartnomalar mehnat bozorlarida talab va taklifni tartibga solish maqsadida vaqtinchalik ishchilarning harakati va mehnat shartnomalarini tartibga soladi. Migratsiya va mobillik bo'yicha hamkorlik ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlik doirasida muntazam va tartibsiz migrantlar oqimini tartibga solishga intiladi. Bundan tashqari, ishchilarning harakatchanligini tartibga soluvchi korporativ qarorlar sifatida tartibga soluvchi kompaniya ichidagi transfertlar kabi ko'proq xususiy qoidalar mavjud; chet ellik ishchilarni tez-tez jalb qiladigan xususiy ish bilan ta'minlash agentliklari; va chet ellik talabalarni ish vizalari bilan qabul qilish orqali yollash amaliyotiga jalb qilingan universitetlar.

Uchinchidan, iqtisodiy migrantlar turli xil ish faoliyati va maqomiga ega. Iqtisodiy migratsiya haqida, mehnat migratsiyasidan farqli o'laroq, belgilangan mehnat bozorlarida ish haqi oladigan ishchilardan tashqari, boshqa odamlar ham mavjud emasligini ko'rsatmoqda. O'z-o'zini ish bilan ta'minlash, stajirovka va norasmiy sektorda ishlash kabi tashkil etilgan ishlar, xususan deindustrializatsiya, ishsizlik darajasi va iqtisodiy inqiroz sharoitida. Ushbu holat mehnat migratsiyasi, xususan malakasiz ishchilar uchun yanada xavfli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Ko'p odamlar vaqtinchalik maqomga ega bo'lishadi, garchi ular bajaradigan ish doimiy bo'lsa va ko'plab amaliyotlar mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinmas. Xalqaro mehnat

migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solish Xalqaro mehnat migratsiyasi jarayoni va aholi turli mamlakatlarning milliy qonunchiligi va xalqaro-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Qonunchilik ikkita tendensiyani aks ettiradi: biri - ochiq iqtisodiyot va shunga muvofiq, ishchi kuchi va aholining erkin harakati; ikkinchisi - proteksionizm va xalqaro migratsiya sohasidagi cheklovlarga. Har bir mamlakatda qonunchilik asosida aholining migratsiya oqimlarini davlat va davlatlararo tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi sifatida tushuniladigan milliy migratsiya siyosati ishlab chiqilgan. Xalqaro migratsiya siyosatining vazifalari quyidagilardan iborat: migratsiya darajasi, uni tartibga solish mexanizmi, salbiy ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarning zaiflashishi va migratsiya jarayonida ishtirok etadigan mamlakatlar uchun ijobiy migratsiya ta'sirini kuchaytirish. Mehnat migratsiyasini tartibga solish migratsiya siyosatida alohida o'rin tutadi. Ishchi kuchining eksporti va importi milliy qonunchilik, shuningdek ikki tomonlama va ko'p tomonlama davlatlararo shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Migratsiya siyosatini olib borishda cheklov choralari qo'llaniladi: kasbiy, yosh, ijtimoiy-iqtisodiy. Ko'chib yuruvchi oqimlarning o'z-o'zidan harakatlanishini engish uchun ishchilarning turli toifalariga differensial yondashuv amalga oshiriladi. Har bir davlat o'zlarini qiziqtirgan qabulga ma'lum kasblar bo'yicha immigrantlar ro'yxatini belgilaydi. Mezbon davlat sog'lig'i yaxshi bo'lgan va jinoiy javobgarlikka tortilmagan muayyan yoshdagi muhojirlarga qiziqishi mumkin. Avvalo, yuqori malakali ishchilar va yoshlarning immigratsiyasi rag'batlantiriladi. Inson qanchalik yosh bo'lsa, uning bilim darajasi qanchalik baland bo'lsa, inson kapitaliga har qanday sarmoyadan olinadigan foyda shuncha yuqori bo'ladi. Amaliy qiziqish - bu mahalliy aholi uchun qiziq bo'lmagan og'ir, bir xil ishlarni bajaradigan shartnoma (vaqtinchalik) ishchilarni jalb qilish. Miqdor kvotalari amalga oshiriladi, bu immigrantlarning milliy iqtisodiyot va alohida tarmoqlardagi ulushini belgilaydi. Har yili import qiluvchi mamlakat immigratsiya kvotasi ko'rsatkichini hisoblab chiqadi va tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mehnat resurslari bilan bandlik holati, uy-joy bozori va import qiluvchi mamlakatda ijtimoiy-siyosiy vaziyat hisobga olinadi. Miqdoriy cheklovlar, ma'lum bir mamlakatlardan kelayotgan muhojirlarni qabul qilishda ham qo'llanilishi mumkin, ularning oqimini kamaytirish maqsadga muvofiqdir. Immigrantlarning

qabul qiluvchi mamlakatda bo‘lish davri bilan bog‘liq vaqt cheklavlari joriy etildi.

Ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlarning migratsiya siyosatining asosiy vazifalari uning chiqib ketishini tartibga solish va xorijdagi migrant fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishdir. Emigratsiya ko‘lami o‘rnatilib, emigrantlarning sifat tarkibi aniqlanadi. Ishchi kuchini eksport qilishdan olinadigan daromadlar tartibga solinadi. Ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatga valyuta mablag‘larini jalb qilish uchun emigrantlar uchun yuqori foiz stavkasida valyuta hisobvaraqlari ochiladi. Ba’zi mamlakatlarda mehnat muhojirlari ish haqining nisbati aniqlanadi, ular o‘z mamlakatlariga o‘tkazishlari kerak. Chet elda ishlash uchun fuqarolarni ish bilan ta‘minlashni majburiy davlat litsenziyalashi amalga oshiriladi. Chet elda ishchi kuchini jalb qilishning o‘ziga xos shakllari belgilanadi. Ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlar uchun muhim muammo bu uyga qaytib kelgan sobiq chet elliklarning ish bilan ta‘minlanishi. Ular oldingisiga qaraganda yuqori ish haqi va lavozimlarni talab qilmoqdalar, chunki ular yuqori kasbiy fazilatlariga ega bo‘lishdi, o‘z tajribalarini boyitishdi. Davlat ular uchun yanada qulay ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sharoitlarni yaratish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi. Majburiy migrantlar uchun migratsiya siyosati migratsiya nazorati, ularga favqulodda yordam ko‘rsatish choralarini ishlab chiqish va ularning kelajagi uchun uzoq muddatli echimlarni aniqlashdan iborat. Majburiy migrantlarni doimiy yashash va integratsiya qilish uchun joylashtirish yoki ularni keyingi ko‘chirish, shuningdek ixtiyoriy ravishda vatanga qaytarish mumkin.

TUSHUNCHA VA IBORALAR

Ichki migratsiya - ishchi kuchining bir mamlakat/ xudud [/rayon](#) miqyosida harakatlanishi.

Tashqi migratsiya - ishchi kuchining bir mamlakat/hudud/rayon hududidan ikkinchi bir mamlakat/hudud/rayonga ko‘chishi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi - mehnatga layoqatli aholining bir mamlakatdan boshqa mamlakatga iqtisodiy va boshqa sabablarga ko‘ra bir yildan ortiq muddatga ko‘chib o‘tishi.

Immigratsiya - mehnatga layoqatli aholining mamlakat hududiga boshqa mamlakatlardan ko‘chib kelishi.

Emigratsiya - mehnatga layoqatli aholining mamlakat xududidan ko'chib ketishi.

Migratsion qoldiq - immigratsiya va emigratsiya o'rgasidagi farq «**Aqlning oqib o'tish**» - yuqori malakali mutaxassislarining mamlakatlararo migratsiyasi.

Reemigratsiya - emigrantlarning vatanlariga doimiy yashash uchun qaytib kelishlari. Migrantlarning pul utkazmalari - migrantlar tomonidan o'z mamlakatlari rezidentlariga yuborayotgan tovarlar va moliyaviy mablaglar.

Ishchilarning pul utkazmalari - qabul qiluvchi mamlakat rezidenti (o'zining immigratsiya maqomidan qat'iy nazar, ushbu mamlakatda bir yil yoki undan ortiq vaqt yashayotgan bo'lsa) hisoblangan migrantning o'z vataniga yuborayotgan xususiy transfertlari (natura yoki pul shaklida). Yollanib ishlovchilarning ish haqi - qabul qiluvchi mamlakatda bir yildan kam muddat yashayotgan migrantning barcha daromadlari.

Transfertlar — migrantlar tomonidan amalga oshiriladigan pullik transfertlarning sof qiymati (moliyaviy va nomoliyaviy aktivlar). Davlatning migratsiya siyosati - ishchi kuchi eksporti/importini tartibga solishga qaratilgan davlat siyosati.

Nazorat savollari.

1. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi nima va u qaysi sabablarga ko'ra yuz beradi?

2. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

3. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining qanday turlari mavjud?

4. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining zamonaviy tarkibi va dinamikasini aniqlang.

5. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi va pul utkazmalari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiling.

6. Xalqaro pul o'tkazmalarining geografik tarkibi qanday o'zgarishlarga uchramoqda?

7. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi xalqaro darajada qaysi tashkilotlar tomonidan tartibga solinadi?

8. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solishning qanday usullari mavjud?

XALQARO VALYUTA MUNOSABATLARI

Ushbu bobda quyidagi bilimlar bayon etilgan:

- Valyuta munosabatlari tushunchasi va jahon valyuta tizimi.
- Valyuta operatsiyalari
- Valyuta operatsiyalarining asosiy turlari.
- Erkin konvertatsiyalanadigan valyutalar tavsifi.
- O‘zbekistonda valyuta munosabatlari.
- O‘zbekistonda valyuta munosabatlarini muvofiqlashtirishning asosiy yo‘nalishlari.

KIRISH

Xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashtirish jarayonlarining chuqurlashishi natijasida tadbirkorlik kapitali (to‘g‘ri va portfelli xorijiy investitsiyalar) va ssuda kapitalining (xalqaro kreditlar) xalqaro miqyosdagi oqimi kuchaydi. Bu esa, xalqaro valyuta munosabatlarini rivojlantirishga kuchli turtki berdi. Xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro iqtisodiy munosabatlardan tashqari, davlatlararo siyosiy, madaniy va boshqa aloqalarda ham yuzaga keladi. Masalan, xorijiy davlatlarda diplomatik vakolatxonalar ochish va saqlash, o‘zga davlatlar hududida harbiy qismlar saqlash, madaniy tadbirlarni amalga oshirishda valyuta munosabatlari paydo bo‘ladi.

16.1. Valyuta munosabatlari tushunchasi va jahon valyuta tizimi

Valyuta-bu jahon bozorida, davlatlar o‘rtasida pul vazifalarini bajaruvchi davlatlarning milliy pul birliklari. Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlari «dollari», Buyuk Britaniya «funt sterlingi», Kanada «dollari», Yapon «iyyenasi» va boshqa shu kabilar. Muayyan bir davlatning milliy puli — uning milliy valyutasi bo‘ladi. Shu davlat uchun boshqa davlatlarning milliy pul birliklari esa — xorijiy valyutalardir. Masalan, AQSH «dollari», Buyuk Britaniya «funt sterlingi», Kanada «dollari», Yaponiya «iyenasi», Turkiya «lira» si va shu kabi erkin muomalada yuradigan valyutalar O‘zbekiston Respublikasida xorijiy valyuta bo‘ladi, o‘z navbatida, O‘zbekiston

«soʻm»i ushbu davlatlar uchun xorijiy valyuta boʻlib hisoblanadi. Xorijiy valyuta deviz tushunchasi bilan bogʻliqdir. Deviz — bu xorijiy valyutadagi har qanday vosita. Valyutalar jahon bozorida oʻzlarining muomalada boʻlish xususiyatlariga koʻra erkin muomalada yuradigan, muomalasi qisman yoki butunlay cheklangan, yopiq valyutalarga boʻlinadi. Baʼzi bir davlatlarning milliy pul birliklarini mazkur davlatlarda valyuta munosabatlari borasida mavjud va harakatda boʻlgan qonun-qoidalariga, asosan, xorijga chiqishi hamda u yerda muomalada boʻlishi chegaralanadi. Xalqaro valyuta munosabatlari moddiy ishlab chiqarish jarayoni, yaʼni birlamchi ishlab chiqarish, taqsimot, almashuv va isteʼmol jarayonlariga aloqador boʻlgan xalqaro iqtisodiy munosabatlarni oʻz ichiga oladi. Xalqaro valyuta munosabatlari — valyutalarning jahon xoʻjaligidagi harakati natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuasi. Xalqaro valyuta munosabatlari takror ishlab chiqarishga nisbatan ikkilamchi hisoblanadi, chunki ishlab chiqarilgan tovarlarni eksport-import qilish natijasida xalqaro valyuta munosabatlari yuzaga keladi.

Xalqaro valyuta munosabatlarini yuzaga keltiruvchi asoslar quyidagilardir:

- Tovarlar eksporti va importuning mavjudligi;
- Xizmatlar eksporti va importuning mavjudligi;
- Xalqaro kreditlarning jahon aylanmasidagi harakati;
- Kapitallarning jahon aylanmasidagi harakati;
- Notijorat toʻlovlarning mavjudligi (xorijiy davlatlarda savdo va diplomatik vakolatxonalarini ochish va saqlash, xorijiy davlatlarning hududida harbiy qismlar saqlash, turizm, sport, madaniy tadbirlar bilan bogʻliq boʻlgan xorijiy valyutadagi toʻlovlar).



16.1-rasm.

Xalqaro valyuta munosabatlarining asosiy ishtirokchilari Rezident shaxs — muayyan davlat hududida yashayotgan va shu davlat fuqarosi boʻlgan hamda mazkur davlat hududida faoliyat koʻrsatayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Norezident shaxs — muayyan davlat hududida yashab faoliyat koʻrsatayotgan, biroq shu davlat fuqarosi boʻlmagan yuridik yoki jismoniy shaxs. Masalan, elchixonalar, vakolatxonalar, chet el firma va korxonalarining boʻlinmalari shular jumlasidandir. Xalqaro valyuta munosabatlarining yuzaga kelishi dastlab xalqaro savdoning yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Xalqaro mehnat taqsimotining yuzaga kelishi davlatlar oʻrtasida tashqi savdo munosabatlarining yuzaga kelishiga sabab boʻldi. Oʻz navbatida, tashqi savdoni amalga oshirish turli mamlakatlarning valyutalarini bir-biriga ayirboshlash zaruriyatini yuzaga keltirdi. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashtirish jarayonlarining chuqurlashishi natijasida tadbirkorlik kapitali (toʻgʻri va portfelli xorijiy investitsiyalar) va ssuda kapitalining (xalqaro kreditlar) xalqaro miqyosdagi oqimi kuchaydi. Bu esa, xalqaro valyuta munosabatlarini rivojlantirishga kuchli turtki berdi. Xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro iqtisodiy munosabatlardan tashqari, davlatlararo siyosiy, madaniy va boshqa aloqalarda ham yuzaga keladi. Masalan, xorijiy davlatlarda diplomatik vakolatxonalar ochish va saqlash, oʻzga davlatlar hududida harbiy qismlar saqlash, madaniy tadbirlarni amalga oshirishda valyuta munosabatlari paydo boʻladi. Banklarning paydo boʻlishi va ular faoliyatining rivojlanishi xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Banklar, ayniqsa, tijorat banklari xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish markazlariga aylanishdi. Transmilliy banklarning paydo boʻlishi bilan xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanishi yangi bosqichga chiqdi. Transmilliy banklarning dunyo boʻylab filiallar tarmogʻining kengligi xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tezligi va hajmini oshirish imkonini berdi. Albatta, mazkur jarayonda xalqaro elektron toʻlov tizimlari muhim oʻrin tutadi. Hozirgi davrda, davlatlararo xalqaro hisob-kitoblarning asosiy qismi SWIFT (Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunications) tizimi orqali oʻtadi.

SWIFT tizimi 1973-yilda 15 ta gʻarb davlatining 240 ta banki tomonidan tashkil qilingan edi. U faoliyatini 1977-yildan boshladi. Hozirgi kunda SWIFT faoliyati dunyoning 90 mamlakatidagi 4000 dan

ortiq bankni qamrab olgan. Xalqaro valyuta munosabatlari ishlab chiqarish munosabatlariga nisbatan hosiyatli bo'lsa-da, ularning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, xalqaro kreditlar va xorijiy investitsiyalar kompaniyalar ishlab chiqarish faoliyatini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollantirish imkonini beradi. O'z navbatida, xalqaro kreditlar va investitsiyalarning harakati xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanish darajasiga bog'liq. Garchi oltinni demonetizatsiya qilish 1978-yilda tugallangan bo'lsa-da, hamon oltinning xalqaro valyuta munosabatlariga ta'siri sezilib turibdi. Mazkur ta'sir quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- oltin xalqaro kreditlar uchun garov ta'minoti vazifasini o'tamoqda;

- xorijiy valyutalarda etarlicha zaxiraga ega bo'lmagan davlatlar oltinni sotish yo'li bilan o'zlarining tashqi majburiyatlari yuzasidan to'lovlarni amalga oshirmoqdalar;

- oltin hamon noyob metall sifatida insonlarni o'ziga jalb yetmoqda. Bu yesa, oltinni oldi-sotdi qilish bilan bog'liq bo'lgan katta miqdordagi valyuta operatsiyalarini yuzaga keltirmoqda.

Jahon iqtisodiy inqirozlari xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dunyo miqyosida birinchi marta iqtisodiy inqirozning xalqaro valyuta munosabatlariga ta'siri 1929-1933-yillarda yuz bergan jahon iqtisodiy inqirozi - "Buyuk depressiya" paytida yuz berdi. Mazkur iqtisodiy inqiroz natijasida banklarning ommaviy ravishda bankrot bo'lishi yuz berdi, AQSH va Yevropa mamlakatlarida inflyatsiya kuchaydi, oltinni markaziy banklarning zaxirasiga olib qo'yish boshlandi. Buning natijasida xalqaro valyuta munosabatlari izdan chiqdi. Chunki, davlatlarning xorijiy valyutalardagi majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati keskin cheklanib qolgan edi. Buyuk depressiya va uning oqibatlari dunyo miqyosida xalqaro valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro tashkilotni yaratish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Shu tariqa, 1944-yilda AQSHning Bretton-Vuds shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyaning qarori bilan Xalqaro valyuta fondi tashkil yetildi. Xulosa qilib aytganda, xalqaro valyuta munosabatlarini xalqaro miqyosda hisob-kitoblarni xalqaro to'lov vositalari orqali amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy munosabatlarning yig'indisi sifatida e'tirof yetish mumkin.

Jahon valyuta tizimi va uning asosiy elementlari:

Valyuta tizimi - deb, xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilishning davlat-huquqiy shakliga aytiladi. Valyuta munosabatlarini tashkil qilishning davlat shakli deyilishiga sabab shuki, milliy valyuta tizimi har bir mamlakatda davlat tomonidan tashkil yetiladi va tartibga solinadi. Jahon valyuta tizimi yesa, davlatlararo kelishuvlarga, asosan, tashkil topadi. Valyuta munosabatlarini tashkil qilishning huquqiy shakli deyilishining boisi shundaki, valyuta tizimi bo'yicha qabul qilingan qonunlar, xalqaro qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlarning talablarini bajarish xalqaro munosabatlarning barcha subyektlari uchun majburiydir. Masalan, Yamaykada qabul qilingan to'rtinchi jahon valyuta tizimining talabiga asosan, oltindan davlatlar o'rtasida to'lov vositasi sifatida foydalanish taqiqlandi.

Valyuta tizimining uch asosiy turi mavjud:

1. Milliy valyuta tizimi
2. Mintaqaviy valyuta tizimi
3. Jahon valyuta tizimi

Milliy valyuta tizimi — bu alohida olingan bir mamlakatda valyuta munosabatlarini tashkil qilishning davlat-huquqiy shaklidir. Davlat shakli deyilishining sababi shundaki, valyuta munosabatlari davlat tomonidan tashkil yetiladi. Huquqiy shakli deyilishining sababi shundaki, valyuta munosabatlarini tashkil qilish va tartibga solish maqsadida o'rnatilgan qoidalarga rioya qilish va ularni bajarish valyuta munosabatlarining barcha ishtirokchilari uchun majburiydir. Milliy valyuta tizimi mintaqaviy va jahon valyuta tizimlarining yuzaga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Milliy valyuta tizimi quyidagi elementlardan tashkil topadi:

1. Milliy valyuta.

Har qanday mamlakat milliy valyuta tizimining dastlabki elementi bo'lib, uning milliy valyutasi hisoblanadi (O'zbekistonda so'm, AQSHda –dollar, Rossiyada – rubl va hokazo).

2. Milliy valyutaning almashinish sharti.

Har qanday milliy valyuta almashinish shartiga ko'ra, quyidagi uch turdan biriga kiradi:

- to'liq almashinadigan valyuta;
- qisman almashinadigan valyuta;
- umuman almashinmaydigan valyuta.

3. Milliy valyuta kursining rejimi.

Valyuta kursining uch asosiy rejimi bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- erkin suzish rejimi;
- qat'iy belgilangan kurs rejimi;
- boshqariladigan suzish rejimi.

Erkin suzish rejimida milliy valyutaning almashuv kursi valyuta bozorida, talab va taklifga qarab erkin shakllanadi. Mamlakatning Markaziy banki kursning ma'lum holati uchun javob bermaydi. Ushbu valyutalarning kursi katta oraliqlarda tebranishi mumkin. Qat'iy belgilangan kurs rejimida milliy valyutaning kursi xorijiy valyutaga yoki valyuta savatiga nisbatan belgilab qo'yiladi. Mamlakatning Markaziy banki milliy valyutaning kursini belgilangan holatini ta'minlash yuzasidan javobgar hisoblanadi. Boshqariladigan suzish rejimi valyuta qonunchiligida rasman belgilab qo'yilmaydi. Mazkur rejim XX asrning 70-yillarida paydo bo'ldi. Ya'ni, XVF ekspertlari ayrim mamlakatlarning valyuta qonunchiligida erkin suzish rejimi belgilangan bo'lsa-da, ularning Markaziy banklari valyuta kursini shakllanish jarayoniga faol aralasha boshlaganligini payqab qolishdi. Natijada yekspertlar yangi kurs rejimi paydo bo'lganligini e'tirof yetishdi va uni "boshqariladigan suzish rejimi" deb atashdi.

4. Milliy valyutaning pariteti.

Milliy valyutaning pariteti deganda milliy valyuta qiymatining xorijiy valyuta qiymatiga nisbatiga aytiladi. Hozirgi davrda milliy valyutaning pariteti uning xarid qobiliyatini xorijiy valyutaning xarid qobiliyati bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Milliy valyutaning kursi valyuta bozorida talab va taklifga qarab aniqlanadi. Ammo paritetni hisoblash nima uchun kerak? Valyuta paritetini hisoblash milliy valyutaning kursi bilan uning xarid qobiliyati o'rtasidagi farqning mavjud yoki mavjud yemasligini aniqlash uchun kerak. Agar valyuta pariteti bilan valyuta kursi o'rtasida farq yuzaga kelib, ushbu holat milliy valyutaning kursini sun'iy ravishda yuqori bo'lishiga olib kelgan bo'lsa, ushbu holat mamlakatda xorijiy valyutaga bo'lgan qiziqishni kuchayishiga olib kelishi mumkin. Bu iqtisodiy fanda "fetishizm" deb ataladi. Fetishizm oqibatida bahosi yuqori bo'lgan va uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni (uy-joy, avtomashina va boshq.) xorijiy valyutaga oldi-sotdi qilish yuzaga keladi. Mazkur farqni yo'q qilish

uchun, odatda, Markaziy bank milliy valyutani devalvatsiya qilishga majbur bo‘ladi.

5. Mamlakatning xalqaro miqyosda valyutaviy to‘lovga qobilligi.

Mamlakatning xalqaro miqyosda valyutaviy to‘lovga qobilligi deganda uning xorijiy valyutadagi majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajara olish imkoniyatiga aytiladi. XVF ekspertlari tomonidan mamlakatning xalqaro miqyosda valyutaviy to‘lovga qobilligini aniqlash bo‘yicha bir nechta uslublar taklif etilgan. Ulardan ikkitasi xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladi. Birinchi uslubga ko‘ra, mamlakatning xalqaro valyutaviy to‘lovga qobilligi quyidagicha aniqlanadi:

$$XVTQ = (OVZ/YTI) \times 100\%$$

Bunda: XVTQ – xalqaro valyutaviy to‘lovga qobillik; OVZ- oltin-valyuta zaxiralari; YTI – bir yillik tovar importi.

Agar ushbu ko‘rsatkich 50 foizni tashkil qilsa va undan yuqori bo‘lsa mazkur mamlakat xalqaro miqyosda valyutaviy to‘lovga qobil hisoblanadi.

Ikkinchi uslubga ko‘ra, agar mamlakat 3 oylik tovarlar importini qoplashga yetadigan oltin-valyuta zaxirasiga yega bo‘lsa, xalqaro miqyosda valyutaviy to‘lovga qobil hisoblanadi.

6. Mamlakatda valyutaviy cheklashlarning mavjudligi yoki yo‘qligi.

Bunda to‘lov balansining joriy operatsiyalar bo‘limi bo‘yicha va kapitallarning harakati bilan bog‘liq bo‘lgan valyuta operatsiyalari bo‘yicha valyutaviy cheklovlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi ko‘zda tutiladi.

7. Milliy valyuta bozori va oltin bozorining rejimi. O‘zbekiston Respublikasida oltin savdosiga nisbatan davlat monopoliyasi mavjud. Shu sababli, milliy oltin bozori mavjud emas.

8. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini belgilash.

Odatda, Markaziy bank tomonidan xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi, hisob-kitob shakllaridan foydalanish mexanizmi belgilab beriladi. O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunining 18-moddasiga muvofiq,

O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha hisob-kitoblar va to‘lovlar milliy valyutada amalga oshiriladi.

9. Mamlakatda xalqaro valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi davlat organlari.

O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘ri-sida”gi qonunining 10-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki O‘zbekiston Respublikasida valyutani tartibga soluvchi davlat organidir. Mazkur Qonunning 20-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat Bojxona qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasida valyutani nazorat qiluvchi organlardir.

Mintaqaviy valyuta tizimi - ma’lum bir mintaqada joylashgan davlatlarning hukumatlari o‘rtasida tuzilgan shartnomaga asosan shakllanadi. Lekin shuni alohida ta’kidlash joizki, mintaqaviy valyuta tizimi bilan jahon valyuta tizimi o‘rtasidagi chegarani aniqlash juda mushkul. Buning sababi shundaki, ayrim mintaqaviy valyuta tizimlari allaqachon jahon valyuta tizimi talablari darajasida faoliyat ko‘rsatmoqda. Mintaqaviy valyuta tizimini Yevropa misolida ko‘rishimiz mumkin: Yevropa valyuta tizimi (YEVT) 1979-yilda tashkil yetilgan. Ushbu tizim to‘rt tarkibiy qismdan iborat:

1. Yevropa valyuta birligi (YeCU).
2. Valyutalar va ma’lumotlarni almashish mexanizmi.
3. Kredit shart-sharoitlari.
4. Transfert mexanizmi.

Bundan tashqari, Yevropa valyutaviy hamkorlik fondi tashkil etildi va unda Yevropaning rezerv aktivlarining ma’lum qismi to‘plandi. Bu esa, Valyutalarning almashuv kurslari mexanizmini himoya qilish maqsadida qisqa muddatli valyuta intervensiyalarini amalga oshirish imkonini berdi. Jahon valyuta tizimi — Jahon valyuta tizimi davlatlararo valyuta munosabatlarini tashkil qilish shakli bo‘lib, xalqaro shartnomalar asosida yuzaga keladi. Hozirga qadar jahon valyuta tizimining shakllanishi va rivojlanishi to‘rt bosqichni bosib o‘tdi. Birinchi jahon valyuta tizimi bu “Parij” valyuta tizimi bo‘lib, u 1870-yilda Parijda bo‘lib o‘tgan davlatlararo kelishuv natijasida yuzaga keldi. Bunda oltin standarti joriy yetildi va oltin yagona xalqaro to‘lov vositasi sifatida e’tirof yetildi. Ammo 1914-yilda Birinchi jahon urushining boshlanishi oltin standartidan foydalanish amaliyotiga

jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1914-1915-yillarda dastlab Buyuk Britaniya, keyin yesa, qolgan Yevropa davlatlari oltinni eksport qilishni chekladilar. AQSH urushga kech qo'shilganligi uchun mazkur cheklov 1917-yilda joriy yetildi. Buyuk Britaniya funt sterlingdagi xalqaro to'lovlarni to'xtatdi. Import qilingan oltinlarning barchasi Angliya Markaziy bankining zaxirasiga olina boshladi. 1922-yilda Italiyaning Genuya shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada ikkinchi jahon valyuta tizimi "Genuya" yuzaga keldi. Uning muhim natijasi bo'lib, oltin-deviz standartining joriy yetilganligi hisoblanadi. Ya'ni, oltin bilan birga, 30 ta mamlakatning milliy valyutasiga xalqaro to'lov vositasi maqomi berildi. Ammo Ikkinchi jahon valyuta tizimi haqiqatda Buyuk Britaniyaning funt sterlingi standartiga aylandi. Ya'ni, funt sterling asosiy rezerv valyutaga aylandi. Bu esa, quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

1. Birinchi jahon urushi paytida funt sterling boshqa Yevropa valyutalariga nisbatan kam darajada qadrsizlandi (20%). Qolgan Yevropa valyutalari, xususan, Fransiya franki 80 foizgacha qadrsizlandi. Holbuki, Fransiya franki yetakchi valyutaga aylanishga da'vogarlik qilayotgan edi.

2. XX asrning 20-yillarida Angliya ochiq iqtisodiyotga ega edi. Boshqa davlatlar Angliya bilan savdo-sotiq qilib funt sterling ishlab olish imkoniyatiga ega edi. Bu vaqtda AQSH yopiq iqtisodiyotga ega edi.

3. Angliya banklari bu davrda keng tarqalgan xorijiy filiallarga ega edi. AQSH banklari esa, xorijiy filiallarga deyarli ega emas edi.

4. XX asrning 20-yillarida Angliya banklari tomonidan xalqaro savdoning 60 foizgacha qismi moliyalashtirilar edi.

1944-yilda AQSHning Bretton-Vuds shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiya natijasiga ko'ra uchinchi jahon valyuta tizimi "Bretton-Vuds" tashkil topdi.

Uning muhim natijalari quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro miqyosda qat'iyy belgilangan kurs rejimi joriy qilindi. Milliy valyutalarning kursi ularning paritetidan 1 foizgacha tebranishi mumkin edi. Buning natijasida davlatlar o'rtasidagi tashqi savdo munosabatlarida yuzaga keladigan valyuta riski muammosiga barham berildi.

2. AQSH dollari va Buyuk Britaniyaning funt sterlingiga xalqaro rezerv valyuta maqomi berildi.

3. Yangi rezerv aktiv – qarz olishning maxsus huquqi (SDR) yaratildi.

SDR sun'iy valyuta bo'lib, XVFGa a'zo mamlakatlar o'rtasida, ularning Fondagi kvotasiga qarab taqsimlanadi va xorijiy valyutalar sotib olishda, kreditlar berishda va davlatlar o'rtasidagi to'lovlarni amalga oshirishda qo'llaniladi. Ammo, haqiqatda uchinchi jahon valyuta tizimi AQSH dollari standartining gegemonligiga aylandi. Buning quyidagi sabablari mavjud edi:

1. AQSHning Ikkinchi jahon urushidan keyin jahon tovar bozorlarida raqobatchilari yo'q edi. Germaniya, Italiya, Yaponiya urushda mag'lubiyatga uchradi, Yevropaning qolgan davlatlari ham urush natijasida xonavayron bo'ldi. Bu esa, AQSHning tovarlar eksporti hajmini oshirish imkoniyatini keskin oshirdi. 2. AQSH Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrdan to XX asrning 50-yillariga qadar dollarga bo'lgan ishonchni mustahkamlash maqsadida uning devalvatsiya bo'lishiga yo'l qo'ymaslik siyosatini olib bordi.

3. AQSH dollarini cheklanmagan miqdorda oltinga qat'iy belgilangan baho bo'yicha almashtirish joriy qilingan edi. Bunda 1 unsiya oltinning bahosi 35 dollar qilib belgilangan edi. XX asrning 60-yillariga kelib, AQSHda pullar taklifining keskin oshishi natijasida inflyatsiyaning kuchayishi yuz berdi. O'z navbatida, pullar taklifining keskin oshishi ishsizlikni qisqartirishga qaratilgan siyosatning olib borilishi va davlat budjeti defitsitini AQSH FZT kreditlari hisobidan moliyalashtirilishi oqibati edi. Ayniqsa, Vetnamdagi urush AQSH davlat budjeti defitsitining keskin oshishiga olib keldi. 1976-1978-yillarda Yamaykada bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyaning natijalariga ko'ra, to'rtinchi jahon valyuta tizimi "Yamayka" tashkil topdi. Uning muhim natijalari quyidagilardan iborat:

1. Qat'iy belgilangan kurslar tizimi bekor qilindi va natijada barcha valyutalarni erkin suzish rejimiga o'tkazish tavsiya qilindi. AQSH dollarining oltinga almashtirib berish tartibining bekor qilinishi bilan qat'iy belgilangan kurslar tizimi barham topdi.

2. Germaniya markasi va Yaponiya iyeniga xalqaro rezerv valyutalar maqomi berildi.

3. Oltinni demonetizatsiya qilish jarayoni rasman tugallandi. Ya'ni, oltindan xalqaro munosabatlarda to'lov vositasi sifatida foydalanish ta'qiqlandi.

4. SDRning xalqaro to'lov vositasi sifatidagi rolini oshirishning zarurligi asoslandi.

16.1-jadval

SDR ning valyuta savati

| Davrlar | AQSH dollari | Evro | Iena | Funt sterlingr | Yuan |
|-----------|--------------|-------|-------|----------------|-------|
| 1999-2000 | 39,0% | – | 27,2% | 11,0% | – |
| 2001-2005 | 44,0% | 32,0% | 21,0% | 11,0% | – |
| 2006-2010 | 44,0% | 31,0% | 18,4% | 11,0% | – |
| 2011-2015 | 41,9% | 34,0% | 12,1% | 11,3% | – |
| 2016-2020 | 41,7% | 37,4% | 8,3% | 8,1% | 10,9% |

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, SDRning valyuta savati har 5-yilda ko'rib chiqiladi va unda AQSH dollarining salmog'i sezilarli darajada yuqoridir. Bu esa, AQSH dollarining xalqaro hisob-kitoblardagi salmog'ining yuqori yekanligi bilan izohlanadi.

2020-yil 30-aprel holatiga ko'ra:

1 SDR= 1.36640 AQSH dollariga teng

Ye'tirof etish joizki, XVF 2016-yil noyabr oyida Xitoy yuaniga xalqaro rezerv valyuta maqomini berdi.

To'rtinchi jahon valyuta tizimining hozirgi, zamonaviy bosqichida AQSH dollari va evro yetakchi rezerv valyutalar bo'lib turibdi. Ammo har ikkala rezerv valyutaning almashuv kurslarining nobarqarorligi xalqaro valyuta munosabatlarni amalga oshirishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Biroq, xalqaro rezerv valyutalar atalmish Buyuk Britaniya funt sterlingi va Shveysariya frankining nominal almashuv

kursining barqarorligi kuzatilmoqda. Buning ustiga, Kanada dollari va Avstraliya dollari ham rezerv valyuta bo‘lishga da’vogar bo‘lib turibdi.

| | | |
|------|---|---|
| | | |
| 16.1 | 1. Jahon valyuta tizimi shakllanishining asosiy shart-sharoitlarini ayting. 2. Oltin standartga asoslangan milliy valyuta tizimi xususiyatlari nimadan iborat? 3. Bretton-Vuds valyuta tizimining xususiyatlari nimadan iborat? | ? |
| | | |

16.2. Valyuta operatsiyalari va ularning asosiy turlari

Valyuta operatsiyasi deganda xorijiy valyutalar va valyutaviy qimmatliklarni sotib olish va sotish operatsiyalariga aytiladi. Xalqaro valyuta operatsiyalarining 90 foizga yaqin qismi xalqaro rezerv valyutalar maqomiga ega bo‘lgan 5 ta valyutada (AQSH dollari, yevro, Yaponiya iyeni, Buyuk Britaniya funt sterlingi, Shveysariya franki) amalga oshiriladi. Jahon valyuta bozorlaridagi bir kunlik konversion operatsiyalarning hajmi 4 trln. AQSH dollaridan oshadi.

Xalqaro valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda keng qo‘llanilayotgan ushbu valyutalarga nisbatan koeffitsiyentlar qo‘llaniladi. Yetakchi xorijiy valyutalardan faqat Yaponiya iyeniga nisbatan 10 koeffitsiyenti qo‘llaniladi, AQSH dollari, yevro, Buyuk Britaniya funt sterlingi, Shveysariya franki, Kanada dollari, Avstraliya dollariga nisbatan 1 koeffitsiyenti qo‘llaniladi. O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasiga muvofiq, chet el valyutasi, chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar, chet el valyutasidagi to‘lov hujjatlari va sof quyma oltin valyuta boyliklari hisoblanadi. Xalqaro valyuta operatsiyalarini tashkil qilishning iqtisodiy asoslariga quyidagilar kiradi:

1. Xalqaro valyuta munosabatlari subyektlarining xorijiy valyutalardagi mablag‘larining mavjud bo‘lishi.
2. Xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlarining mavjudligi.

3. Eksport-import operatsiyalarining mavjudligi.
4. Ssuda va tadbirkorlik kapitallari harakatining mavjudligi.
5. Nodir metallar savdosining mavjudligi.

Xalqaro valyuta operatsiyalarini tashkil qilishning muhim iqtisodiy asoslaridan biri xalqaro valyuta munosabatlarida ishtirok yetuvchi subyektlarning milliy va xorijiy valyutalarda joriy hisob raqamlarining mavjudligi hisoblanadi. Ushbu joriy hisobraqamlardagi mablag'lar hisobidan xorijiy valyutadagi majburiyatlar bo'yicha to'lovlar amalga oshiriladi, boshqa xorijiy valyutalar sotib olinadi. Xalqaro valyuta operatsiyalarini tashkil qilishning me'yoriy-huquqiy asoslari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

1. Milliy valyuta qonunchiligi.
2. Xalqaro qoidalar va konvensiyalar.

3. Xalqaro Valyuta Fondi Kelishuvlar moddalari bo'yicha qabul qilingan majburiyatlar. Xalqaro valyuta qonunchiligining muhim tarkibiy qismi bo'lib, Xalqaro umumlashtirilgan qoidalar va konvensiyalar hisoblanadi. Xalqaro umumlashtirilgan qoidalar:

*Hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo'yicha xalqaro umumlashtirilgan qoidalar (USP 500; USP 600)

* Inkasso bo'yicha umumlashtirilgan qoidalar

* Shartnomaviy kafolatlar bo'yicha umumlashtirilgan qoidalar

Xalqaro konvensiyalar:

* Xalqaro oddiy va o'tkazma veksellar muomalasi bo'yicha xalqaro konvensiya.

* BMTning yuklarni dengiz orqali tashish konvensiyasi.

*Arbitraj sudlari qarorlarini ijrosini ta'minlash bo'yicha xalqaro konvensiya.

Banklararo vakillik munosabatlarining mavjudligi xalqaro valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Banklarning "Nostro" va "Vostro" vakillik munosabatlari orqali xorijiy valyutalardagi to'lovlar amalga oshiriladi va tushumlar qabul qilinadi.

Banklararo vakillik munosabatlarining ikki turi mavjud:

1. Bir tomonlama vakillik munosabatlari.
2. Ikki tomonlama vakillik munosabatlari.

Bir tomonlama vakillik munosabatlarida har ikkala bankdan faqat bittasi "Nostro" yoki "Vostro" vakillik hisobraqamiga ega bo'ladi.

Ikki tomonlama vakillik munosabatlarida har ikkala bank “Nostro” yoki “Vostro” vakillik hisobraqamiga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining tijorat banklari xorijiy banklar bilan bir tomonlama vakillik munosabatlariga ega. Ya’ni, respublikamiz tijorat banklari xorijiy banklarda o‘zlarining “Nostro” vakillik hisobvaraqlariga ega. Ammo xorijiy banklar O‘zbekiston banklarida o‘zlarining “Vostro” vakillik hisobraqamlariga ega emas.

Xorijiy bank bilan vakillik munosabati o‘rnatish uchun unga dastlab xat jo‘natiladi. Xatda vakillik munosabati o‘rnatishning zarurligi asoslab berilgan bo‘lishi lozim. Odatda, xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlarining zarurligi mijozlarning eksport-import operatsiyalari bilan yoki bankning o‘zini xorijiy bankning moliyaviy xizmatlaridan foydalanish zaruriyati bilan belgilanadi. Odatda “Nostro” vakillik hisobraqamlari shu valyuta qaysi mamlakatning milliy valyutasi bo‘lsa, o‘sha mamlakatning tijorat bankida ochiladi. AQSH dollaridagi “Nostro” vakillik hisobraqamlari AQSH banklarida, yevrodagi “Nostro” vakillik hisobraqamlari “yevrohudud”dagi banklarda ochiladi.

Shunisi xarakterliki, AQSH dollaridagi “Nostro” vakillik hisobraqamini Londondagi banklarda ham ochish mumkin. London AQSHdan tashqaridagi dollar zaxiralari to‘plangan eng katta yevrodollar bozori hisoblanadi. Ammo bunda “Nostro” vakillik hisobraqamini ochgan tijorat bankiga ikki marta komissiya to‘lashga to‘g‘ri keladi. Bir marta Londondagi bankka “Nostro” vakillik hisobraqamini yuritganligi uchun, ikkinchi marta Londondagi bankning dollardagi qoldiqni AQSH banklari orqali joylashtirganligi uchun to‘lagan komissiyasi uchun to‘laydi. Chunki, Londondagi banklar dollardagi qoldiqlarini AQSH banklari orqali joylashtiradilar. Ko‘pchilik mamlakatlarning bank amaliyotida “Nostro” vakillik hisobraqamlarining qoldig‘iga foiz to‘lanmaydi. Ayrim mamlakatlarda esa, juda past stavkada foiz to‘lanadi. Shuning uchun banklar xorijiy banklardagi “Nostro” vakillik hisobraqamlaridagi ortiqcha mablag‘larni (ishchi qoldiqdan ortiq mablag‘ni) yevrobozorlarga yoki “overnayt” shaklida joylashtiradilar. Tijorat banklari xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlari o‘rnatishda xorijiy bankning overdraft kreditidan foydalanishga ruxsat olishga harakat qilishadi. Buning sababi shundaki, overdraft krediti “Nostro” vakillik hisobraqamida

yuzaga keladigan vaqtinchalik valyuta yetishmasligi muammosini hal yetishning eng ishonchli usuli hisoblanadi. Xorijiy bank, valyuta mablag‘lari yetishmasligi yuzaga kelganda, vakil bankni belgilangan limit doirasida zudlik bilan kreditlaydi. Muammo shundaki, qator davlatlarda overdraft krediti berish qonun yo‘li bilan ta‘qiqlangan. Xorijiy banklar bilan vakillik munosabatlari o‘rnatishda xorijiy banklarning xizmat ko‘rsatish xususiyatlariga e‘tibor qaratish muhim o‘rin tutadi. Xorijiy valyutadagi to‘lovlarni o‘z vaqtida o‘tishi xorijiy vakil bankning yetarli darajada likvidli bo‘lishiga bog‘liq. Shuning uchun ham, Bazel qo‘mitasi tijorat banklarining xorijiy banklardagi “Nostro” vakillik hisobraqamining qoldig‘iga 20% risk darajasini bergan. Bu esa, aynan, xorijiy bankda likvidlilik muammosining yuzaga kelishi natijasida to‘lovlarning kechiqishi bilan bog‘liqdir. Xorijiy banklar bilan bir tomonlama vakillik munosabatiga ega bo‘lgan banklarda doimo “Nostro” vakillik hisobraqami qoldig‘ining tebranishi muammosi mavjud bo‘ladi. Chunki, ushbu bankda xorijiy bankning “Vostro” vakillik hisobraqami mavjud emas. Shu sababli, ular har qanday xorijiy valyutadagi to‘lovni amalga oshirishda o‘zlarining “Nostro” vakillik hisobraqamini kreditlashga majbur bo‘lishadi. Natijada, “Nostro” vakillik hisobraqamining qoldig‘ini keskin tebratish xavfi yuzaga keladi. Bu esa, mazkur banklarning likvidliligiga nisbatan salbiy ta‘sirni yuzaga keltiradi. Agar tijorat banki xorijiy banklar bilan ikki tomonlama vakillik munosabatlariga ega bo‘lsa, u holda, xorijiy bank va uning mijozlari foydasiga amalga oshirilayotgan to‘lov summasi ushbu bankning “Vostro” vakillik hisobraqamiga kirim qilinadi. Natijada, bankning “Nostro” vakillik hisobraqamida hech qanday o‘zgarish sodir bo‘lmaydi.

Spot operatsiyalari

Spot operatsiyalari spot bitimi tuzilgandan keyin ikki ish kuni mobaynida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalaridir. Spot yuqori riskli valyuta operatsiyasi hisoblanadi va uning yuqori riskliligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

1. Spot operatsiyasini amalga oshirish vaqti juda qisqa bo‘lganligi sababli unda sug‘urta elementlarini qo‘llab bo‘lmaydi.

2. Spot operatsiyalarining 90 foizga yaqin qismi quyidagi 5 ta xalqaro zaxira valyutalarda amalga oshiriladi va ularning barchasi erkin suzish rejimiga ega. Erkin suzish rejimiga yega bo'lgan valyutalarning nominal almashuv kursi katta diapazonlarda tebranishi mumkin.

3. Valyuta kursiga ta'sir yetuvchi ayrim omillarni prognoz qilish imkonining yo'qligi. Spot operatsiyalari spot kurslar asosida amalga oshiriladi. Spot kurs deganda spot bitimi tuzilayotgan paytda belgilab qo'yiladigan valyuta kursi tushuniladi va bu kurs ikki ish kuni mobaynida o'zgarmasdan qoladi. Spot kursni aniqlashning birja usuli va birjadan tashqari usuli mavjud. Taraqqiy etgan davlatlarda va qator o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida, birja usulida spot kurs valyuta birjalarining savdo zallarida dilerlar, maklerlarning ochiq savdo qilishlari natijasida aniqlanadi. Shunisi xarakterliki, AQSH dollari, Evro, Angliya funt sterlingi va Shveysariya frankining kursi verguldan keyin to'rttagacha birlikda aniqlanadi. Masalan: 1 dollar = 1,2310 - 1,2330 shv. franki yoki 1 funt sterling = 1,6770-1,6790 dollar. Valyuta birjalarining savdo zallarida valyuta savdosi faqat oxirgi ikkita raqam bilan amalga oshiriladi. Hech qaysi diler ikkita raqamdan oldinda turgan raqamlarni hech qachon aytmaydi. Chap tomonimizda turgan birinchi kurs sotib olish kursi hisoblanadi va u BID deb ataladi, o'ng tomonimizda turgan kurs, ya'ni ikkinchi kurs sotish kursi hisoblanadi va u OFFER deb ataladi. Valyutaning sotish kursi bilan sotib olish kursi o'rtasidagi farq tijorat bankining daromadi hisoblanadi va u SPREAD deb ataladi. Har bir spot bitimi bo'yicha alohida spot kurs aniqlanadi. Tijorat bankining har bir dileriga valyutalarni sotib olish va sotish bo'yicha limit belgilanadi. Valyuta birjasidagi kompyuter dasturi spot operatsiyalaridagi talab va taklifga qarab milliy valyutaning oldi-sotdi qilinayotgan yetakchi xorijiy valyutalarga nisbatan nominal almashuv kursini aniqlaydi. Masalan, London vaqti bilan soat 11.00da Buyuk Britaniya funt sterlingining, Frankfurt-na Mayne shahrida soat 13.00 da yevroning yetarli xorijiy valyutalarga nisbatan nominal almashuv kursi aniqlanadi va butun dunyoga e'lon qilinadi. Operatsion kunning aniq bir vaqtida milliy valyuta kursining aniqlanishi fiksing deb ataladi. Qayd yetish jiozki, respublikamizda so'mining nominal birja kursi valyutalarning buyurtmali savdosi asosida amalga oshiriladigan oldi - sotdi mexanizmi orqali shakllanadi. Mazkur

mexanizmning mohiyati shundaki, O‘RVB-ga a‘zo bo‘lgan tijorat banklari ikki xildagi buyurtmalarni birjaga beradilar:

a) AQSH dollarini sotib olish maqsadida so‘mda berilgan buyurtmalar;

b) AQSH dollarini sotish maqsadida berilgan buyurtmalar (dollarda berilgan buyurtmalar). O‘z navbatida, so‘mning nominal almashuv kursi tijorat spot kursi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking nominal birja kursi tijorat banklarining xorijiy valyutalardagi aktiv va passivlarini qayta baholash, boj hisobi hamda moliyaviy va statistik hisobotlarni yuritish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar valyuta tushumlarining ma‘lum qismini majburiy tartibda sotishda qo‘llaniladi. Muddatli valyuta operatsiyalari Muddatli valyuta operatsiyalarining 3 shakli mavjud:

1. Forvard valyuta operatsiyalari.

2. Valyuta opsionlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar.

3. Valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Forvard valyuta operatsiyasi deganda, ma‘lum bir valyutani belgilangan kurs bo‘yicha kelgusida sotib olish yoki sotish operatsiyasiga aytiladi. Forvard valyuta operatsiyalari valyuta zaxiralarini valyuta riskidan himoya qilish maqsadida qo‘llaniladi. Shu bilan birga, tijorat banklari forvard operatsiyalaridan daromad olish maqsadida foydalanadi. Forvard shartnomalari quyidagi standart muddatlarga tuziladi: 1 hafta, 1, 2, 3, 6, 9, 12 oy. Forvard operatsiyalari forvard kurslar asosida amalga oshiriladi. Forvard kursi forvard shartnomasi imzolanayotgan paytda belgilab qo‘yiladigan kurs bo‘lib, shartnoma ijrosiga qadar o‘zgarmasdan qoladi. Forvard kurslari hech qachon spot kurslari kabi aniqlanmaydi. Tijorat banklarining dilerlari doimo forvard marjasi bilan ishlaydi, xolos. Forvard marjasi deganda ustama va diskont tushuniladi. Ustama va diskont bitta formula orqali aniqlanadi. Bu formula quyidagi ko‘rinishga ega:

| | | |
|-------|---|--|
| U / D | = | SK x FSO‘F x FSHM (kunlarda) |
| | | (360 x 100) + (BVFS x FSHM (kunlarda)) |

Bu yerda: U / D –ustama yoki diskont. SK – spot kurs. FSO‘F – foiz stavkalari o‘rtasidagi farq. Foiz stavkalari o‘rtasidagi farq

aniqlanayotganda bitim valyutasi bo'yicha kreditlarning foiz stavkasi olinadi, baholovchi valyuta bo'yicha esa, depozitlarning foiz stavkasi olinadi. FSHM – forvard shartnomasining muddati. BVFS – bitim valyutasi bo'yicha foiz stavkasi. Agar bitim valyutasi bo'yicha kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan kichik bo'lsa, u holda formula orqali aniqlangan natija ustama hisoblanadi. Agar bitim valyutasi bo'yicha kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan katta bo'lsa, u holda formula orqali aniqlangan natija diskont hisoblanadi. Forvard marjasi quyidagi sabablarga ko'ra kotirovka qilinadi:

Birinchidan, forvard marjalari ko'pchilik holatlarda o'zgarmasdan qoladi, spot kurslari esa tez-tez o'zgaradi, shu sababli, ustama va diskontlarning kotirovkasiga kam tuzatish kiritiladi.

Ikkinchidan, valyuta bitimlarining sezilarli qismida forvard kurslarini emas, balki ustama va diskontni bilish talab qilinadi. Ustama va diskontning o'lchov birligi pips deb ataladi. Forvard kursi spot kursidan ustama yoki diskont summasiga farq qiladi. Agar bitim valyutasi bo'yicha kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan kichik bo'lsa, olingan natija ustama hisoblanadi va bunda forvard kursi spot kursidan yuqori bo'ladi. Aksincha, bitim valyutasidagi kreditlarning foiz stavkasi baholovchi valyutadagi depozitlarning foiz stavkasidan katta bo'lsa olingan natija diskont hisoblanadi, bunda forvard kursi spot kursidan past bo'ladi. Ko'p opsionlar ma'lum miqdordagi valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish huquqini beradi. Put opsionlar esa, ma'lum miqdordagi valyutani belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotish huquqini beradi. Valyuta opsionlari valyuta forvard operatsiyalaridan farqli ravishda o'z egasiga majburiyat yuklamaydi, balki faqat huquq beradi. Shuning uchun ham valyuta opsionlari valyuta riskidan 100% himoyalaniş imkonini beradigan yagona moliyaviy instrument hisoblanadi. Valyuta opsionlarining ikki standarti mavjud bo'lib, ularni bank auditi jarayonida hisobga olish shart hisoblanadi. Chunki bu standartlar risk darajasiga ko'ra bir-biridan keskin farqlanadi. Valyuta opsionlarining birinchi standarti Yevropa standarti deb ataladi va bu opsionlar o'z yegasiga faqat shartnoma muddati tugagandan so'ng opsiondan foydalanish huquqini beradi. Valyuta opsionlarining ikkinchi standarti esa, amerika standarti deyiladi va

mazkur opsionlar o‘z egasiga opsion shartnomasi muddatining istalgan vaqtida opsiondan foydalanish huquqini beradi. Demak, valyuta opsionlarining amerika standartida risk darajasi Yevropa standartiga nisbatan yuqori hisoblanadi. Muddatli valyuta operatsiyalarining uchinchi shakli valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari hisoblanadi. Forvard, fyuchers va opsion bitimlari hamda valyutaviy svop muddatli valyuta bozorining instrumentlari hisoblanadi.

Svop operatsiyasi:

Iqtisodiy adabiyotlarda svop operatsiyalarining mazmuni xususida munozarali fikr va mulohazalar mavjud emas. Svop operatsiyalari deganda, odatda, ma’lum bir valyutani spot sharti bo‘yicha sotish va uni forvard sharti bo‘yicha sotib olish tushuniladi yoki valyutani forvard sharti bo‘yicha sotish va spot sharti bo‘yicha sotib olish tushuniladi. Svop operatsiyalari quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- valyuta zaxiralarini valyuta riskidan himoya qilish;
- likvidlikni boshqarish;
- ochiq valyuta pozitsiyasini qisqartirish.

Shunisi xarakterliki, svop operatsiyalari valyuta zahiralarini valyuta riskidan ishonchli tarzda himoya qiladi, ammo yuqori daromad keltirmaydi. Chunki bu operatsiyalarda doimo ikkita bir-biriga qarama-qarshi operatsiya mavjud bo‘ladi. Svop operatsiyalari 6 oydan 15 yilgacha muddatga amalga oshiriladi. Ammo 1-yildan 4 yilgacha muddatga amalga oshiriladigan svop operatsiyalari keng qo‘llaniladi. Agar svop operatsiyasi bitta bank bilan amalga oshirilsa, bu sof svop (pure swap) deb ataladi. Svop bozori 1981-yilda paydo bo‘lgan. Unga qadar svop bozori mavjud emas edi. Svop bozori birjadan tashqari bozor bo‘lib, davlat tomonidan tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining valyutaviy svop operatsiyalari “O‘zbekiston Respublikasi banklari tomonidan valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan amalga oshiriladi.

| | | |
|------|---|---|
| | | |
| 16.2 | 1. Xozirgi zamonda jahon valyuta tizimining xususiyatlari qanday? 2. Jahon valyuta tizimining qaysi belgilarini ajratish mumkin? 3. Qasi valyutalar zahira valyuta sifatida qo‘llaniladi? 4. Valyutalarning konvertatsiyalanishini nima va u qanday ko‘rinishlarda mavjud bo‘ladi? | ? |
| | | |

16.3. Erkin konvertatsiyalanadigan valyutalar tavsifi

Shunisi xarakterliki, iqtisodiy adabiyotlarda hozirga qadar «valyutaning erkin konvertirlanishi» tushunchasining mohiyati xususida yagona, tugal ta’rif mavjud emas. Biz dastlab valyutalarning konvertirlanishi masalasining Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) ning Nizomida va boshqa me’yoriy-uslubiy hujjatlarida o‘z ifodasini topgan talqinlarini tahlil qilamiz va baholaymiz. Buning sababi shundaki, XVF davlatlararo valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro moliya-kredit tashkiloti hisoblanadi. XVF Kelishuv Moddalarining VIII-moddasi bo‘yicha majburiyatlarni qabul qilgan davlatlarning milliy valyutalari to‘lov balansining joriy operatsiyalari bo‘yicha erkin konvertirlanadigan (ishlatiladigan) valyutalar deb ataladi va bu mamlakat Fondning ruxsatisiz joriy valyuta bitimlari bo‘yicha to‘lovlarga cheklovlar joriy qilishga haqli emas. XVF ekspertlarining talqini bo‘yicha, valyuta tashqi konvertirlikka yega bo‘lishi uchun quyidagi ikki xususiyatga ega bo‘lishi shart:

– norezidentlarga tegishli bo‘lgan mazkur valyutadagi mablag‘lar istalgan xorijiy valyutaga erkin almashinadi;

– rezidentlarning hukumatning ruxsati bilan norezidentlar foydasiga amalga oshiriladigan barcha to‘lovlari rezidentlar valyuta bozorlaridan sotib olish imkoniga ega bo‘lgan istalgan tashqi konvertirlikka ega bo‘lgan valyutada amalga oshirilishi mumkin. XVF ekspertlari valyutalarni, konvertirlanish ko‘lami va darajasiga ko‘ra, ikkiga aj-

ratadi: joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha erkin konvertirlanadigan valyutalar va tashqi konvertirlikka ega bo'lgan valyutalar. Lekin XVF yekspertlarining valyutalarning tashqi konvertirlanishi xususidagi talqinlarida o'zaro nomuvofiqlik yuzaga kelmoqda. Ushbu nomuvofiqlikning mohiyati shundaki, XVF ayrim valyutalarga nisbatan «zaxira valyutalar» tushunchasini qo'llaydi va ushbu valyutalarni xalqaro miqyosda to'lov vositasi vazifasini bajaradigan, boshqa mamlakatlar uchun valyuta pariteti va valyuta kursini aniqlashda baza vazifasini o'taydigan valyutalar sifatida e'tirof etadi. XVF rasman zaxira valyutalar sifatida AQSH dollari, Yaponiya iyeni, Buyuk Britaniya funt sterlingi va yevroni tan oladi. XVF tomonidan "zaxira valyutalar" tushunchasi dastlab 1944-yilda, Bretton-Vuds jahon valyuta tizimini yuzaga keltirish jarayonida, qo'llanilgan. O'shanda faqat ikkita valyutaga – AQSH dollari va Buyuk Britaniya funt sterlingiga zaxira valyuta maqomi berilgan edi. Ayni vaqtda, zaxira valyutalari bilan boshqa tashqi konvertirlikka ega bo'lgan valyutalarning tashqi konvertirlanish darajasi o'rtasida qanday farqning mavjudligi XVFning me'yoriy-uslubiy hujjatlarida o'z ifodasini topmagan. Ta'kidlash joizki, milliy valyutani konvertirlash ichki va tashqi konvertirlashga bo'linadi. O'z navbatida, ichki konvertirlashning o'zi qisman ichki konvertirlash va to'liq ichki konvertirlashga bo'linadi. Milliy valyutaning tashqi konvertirlanishi ham qisman tashqi konvertirlanish va to'liq ichki konvertirlashga bo'linadi.

I Milliy valyutani konvertirlanish darajalari quyidagi mezonlarga asoslanishi lozim: Milliy valyutaning qisman ichki konvertirlanishini belgilovchi mezonlar:

1.1. Mamlakat hukumati XVF Kelishuv moddalarining VIII-moddasi bo'yicha yetti bo'limdan iborat majburiyatlarni to'liq qabul qila olmaydi. Buning natijasida mamlakatda joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha valyutaviy cheklashlarning ayrim turlari saqlanib qoladi.

1.2. Mamlakatda to'lov balansining joriy operatsiyalari bo'yicha cheklavlar norezidentlarga nisbatan saqlanib qoladi.

1.3. Markaziy bank milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atini pasaytirish maqsadida konvertatsiya uchun berilgan ayrim buyurtmalarining ijrosini kechiktiradi.

II. Milliy valyutaning to'liq ichki konvertirlanishini belgilovchi mezonlar:

2.1. Mamlakat hukumati XVF Kelishuv moddalarining VIII-modasi bo'yicha yetti bo'limdan iborat majburiyatlarni to'liq qabul qiladi.

2.2. Mamlakatda konversion operatsiyalarni amalga oshirishning uzluksizligi ta'minlanadi. Ya'ni, konversion operatsiyalar haftaning besh ish kuni mobaynida har kuni amalga oshiriladi.

2.3. Mamlakatning rezidentlari joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha milliy valyutadagi mablag'larini milliy valyuta bozori orqali sotib olish mumkin bo'lgan xorijiy valyutalarga talab va taklif asosida erkin shakllangan kurs bo'yicha erkin sotish imkoniyatiga ega bo'lishadi, norezidentlar esa, joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha shu mamlakatning milliy valyutasida olingan mablag'larni milliy valyutaning erkin shakllangan kursi bo'yicha erkin sotish huquqiga va imkoniyatiga ega bo'lishadi. Milliy valyutaning qisman tashqi konvertirlanishini belgilovchi mezonlar:

3.1. Milliy valyutadan joriy operatsiyalar bo'yicha hisoblashishlar yuzasidan xalqaro to'lov vositasi sifatida foydalanish huquqi faqat norezidentlarga beriladi, rezidentlar esa, bunday huquqqa yega bo'lmaydi.

3.2. Mamlakatda tadbirkorlik kapitali (to'g'ri va portfelli investitsiyalar) va ssuda kapitalining (xalqaro kreditlar) xalqaro miqyosdagi harakatlari bo'yicha cheklovlar saqlanib qoladi.

3.3. Milliy valyuta mintaqaviy valyuta bozorlarida kotirovka qilinadi.

I. Milliy valyutaning to'liq tashqi konvertirlanishini belgilovchi mezonlar:

4.1. Milliy valyuta zaxira valyutasi maqomiga ega bo'ladi. Ya'ni, milliy valyutadan quyidagi maqsadlarda foydalanish imkoni yuzaga keladi:

– milliy valyuta xalqaro to'lov vositasi sifatida xalqaro valyuta bozorlarida kotirovka qilinadi;

– milliy valyutadan boshqa mamlakatlarda valyuta intervensiyasini amalga oshirish vositasi sifatida foydalaniladi;

– milliy valyuta boshqa mamlakatlarning valyuta pariteti va valyuta kursini aniqlashda bazaviy valyuta vazifasini bajaradi.

Fikrimizcha, hozirgi davrda ana shunday xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan to'rtta valyuta mavjud. Ular: AQSH dollari, yevro, Yaponiya iyeni va Buyuk Britaniya funt sterlingi.

4.2. Mamlakatda to'lov balansining joriy operatsiyalar bo'limi, kapitallar va kreditlarning harakati bo'limlari bo'yicha barcha valyutaviy cheklashlar olib tashlanadi.

4.3. Milliy valyutadan joriy operatsiyalar, kapitallar va kreditlarning xalqaro miqyosdagi harakatlari bo'yicha hisoblashishlar yuzasidan xalqaro to'lov vositasi sifatida foydalanish huquqi rezidentlarga ham, norezidentlarga ham beriladi.

Milliy valyutaning erkin almashinish sharti. Milliy valyuta erkin almashinish shartiga ega bo'lishi uchun, birinchi navbatda, u xorijiy valyutalarga cheklanmagan miqdorda ayirboshlanish xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Demak, mamlakat to'lov balansining joriy operatsiyalar bo'limida ham, kapitallar va kreditlarning harakati balans bo'limida ham valyutaviy cheklashlar bo'lmasligi lozim. Aks holda, milliy valyutani to'liq almashinish xususiyatiga ega deb bo'lmaydi. Milliy valyuta erkin almashinish shartiga yega bo'lishi uchun uning nominal almashuv kursi milliy valyuta bozoridagi talab va taklif asosida erkin shakillanishi lozim. Uning shakillanish jarayoniga mamlakat Markaziy banki va hukumati aralashmasligi zarur (milliy valyuta kursining favqulodda yuz beradigan keskin tebranishlariga barham berish maqsadida Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan valyuta intervensiyasi bundan mustasno). Mamlakat Markaziy banki milliy valyuta kursi tebranishini ma'lum diapazonlarda saqlab turish majburiyatiga ega bo'lmasligi zarur. Ayrim o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida konversion operatsiyalarni amalga oshirish buyurtmali valyuta savdosi tizimiga asoslangan. Masalan, O'zbekiston ana shu toifadagi davlatlardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, buyurtmali valyuta savdosi tizimida konversion operatsiyalar xorijiy valyutani sotib olish va sotish maqsadida beriladigan buyurtmalar asosida va odatda, haftaning ma'lum kunida amalga oshiriladi. Demak, rivojlangan moliya bozorlariga ega bo'lgan davlatlardagi kabi hafta mobaynida amalga oshiriladigan doimiy valyuta savdosi mavjud bo'lmasligi mumkin. Xo'sh, bunday davlatlarning milliy valyutasi erkin almashinish shartiga ega bo'lishi mumkinmi? Fikrimizcha, bunda milliy valyuta xorijiy valyutalarga erkin almashinmoqda, lekin doimiy valyuta savdosi mavjud emas. Buyurtmali valyuta savdosi tizimi asosida konversion operatsiyalarni amalga oshirayotgan mamlakatlar

milliy valyutalarining erkin almashinish sharti mezonlarini aniqlashda masalaning quyidagi ikki jihatiga e'tiborni qaratish lozim:

– ushbu valyutaning yemitenti bo'lgan mamlakat XVFning joriy valyuta operatsiyalari hamda kapitallar va kreditlarning harakati bo'yicha valyutaviy cheklashlarni olib tashlash to'g'risidagi majburiyatlarni to'liq qabul qilishi lozim, debhisoblaymiz;

– ushbu valyutaning emitenti bo'lgan mamlakat XVF kelishuv moddalari bo'yicha joriy valyuta operatsiyalari hamda kapitallar va kreditlarning harakati yuzasidan valyutaviy cheklashlarni to'liq olib tashlagan bo'lishi sharoitida buyurtmali valyuta savdosi tizimini saqlab qolgan bo'lishi mumkin. Milliy valyutaning qisman almashinish sharti. Valyutalarning qisman almashinish sharti, avvalo, mamlakatda valyutaviy cheklashlarning mavjudligi bilan asoslanishi lozim. Valyutalarning umuman almashinmaslik sharti. Xorijiy valyutalar savdosiga davlat monopoliyasining mavjudligi xalqaro amaliyotda quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

a) mamlakat aholisi va yuridik shaxslariga xorijiy valyutalarda hisobraqamlari ochishga ruxsat etilmaydi;

b) mamlakat aholisi va yuridik shaxslariga xorijiy valyutalarda hisobraqamlari ochishga ruxsat etiladi. Ammo mazkur hisobraqamlaridagi mablag'lar hisobidan amalga oshiriladigan to'lovlarga ruxsatni Moliya vazirligi yoki davlatning maxsus vakil yetilgan organi beradi;

v) mamlakatda naqd xorijiy valyutalar savdosi qonun yo'li bilan ta'qiqlanadi.

Umuman olganda, milliy valyutaning konvertirlanishi va almashinish shartlari bir qator aniq darajalarga va mezonlarga egadir.

| | | |
|------|--|---|
| | | ? |
| 16.3 | 1. Valyuta kursi va kotirovka deganda nimalar tushuniladi? 2.Valyuta devalvatiyasi nima va u valyutaning oddiy qadrsizlanishidan qanday farqlanadi 3.Valyuta bozori deganda nima tushuniladi va u qanday funksiyalarni bajaradi? | |
| | | |

16.4. O‘zbekistonda valyuta munosabatlarini muvofiqlashtirishning asosiy yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy valyuta tizimi 1994-yilning 1- iyulidan boshlab, ya’ni milliy valyuta-so‘mning muomalaga kiritilishi bilan shakllandi. 1991-yilda O‘zbekiston tarixiy g‘alabaga-siyosiy mustaqillikka yerishdi. Ammo iqtisodiy mustaqillikka yerishishning iloji bo‘lmadi. Chunki, har qanday mamlakat iqtisodiy mustaqilligining muhim belgisi bo‘lgan milliy valyutani muomalaga kiritishning iloji bo‘lmadi. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. 1991-yilda O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasini 60 foizdan ortiq qismi Rossiya Federatsiyasining hissasiga to‘g‘ri kelar edi. Bunday sharoitda “rubl zonasi”da qolish orqali Rossiyadan import qilinayotgan tovarlarni rublda to‘lash va shuning asosida xorijiy valyutadagi zaxiralarni tejab qolish mumkin edi. 1991-yilda O‘zbekiston siyosiy mustaqillikka erishdi, ammo iqtisodiy mustaqillikka erisha olmadi. Chunki, milliy valyutani muomalaga kirita olmadik. Mustaqil O‘zbekiston davlatining asoschisi, mamlakat Prezidenti I.A. Karimov qat’iyy turib, O‘zbekiston rubl hududida qoladi, degan fikrni aytdilar. Ushbu xulosaning naqadar asosli va to‘g‘ri yekanligini vaqt ko‘rsatdi. Ya’ni, O‘zbekiston rubl hudida qolish natijasida to‘lov balansining holatini keskin yomonlashishiga yo‘l qo‘ymadi.

2. O‘zbekiston Markaziy bankida milliy valyutani muomalaga chiqarish va pul muomalasini tartibga solish borasida hech qanday tajriba yo‘q edi. Sobiq Ittifoq davrida pul muomalasini tashkil qilish va tartibga solish masalalari bilan faqat Ittifoq Davlat banki shug‘ullangan. Ittifoqdosh Respublikalarda bu borada hech qanday vakolat bo‘lmagan.

1989-1991-yillarda respublikamizda yalpi ichki mahsulotning yillik o‘sishi amaldagi 5,2 foizdan 1,6 foizgacha pasaydi. Sanoat ishlab chiqarishining yillik o‘shish sur‘ati yesa, mazkur davrda 5,8 foizdan 2,8 foizga qadar pasaydi. Mustaqillik arafasida O‘zbekistonning eksport salohiyati juda past edi. O‘zbekistonning sobiq Ittifoq eksportidagi

ulushi atigi 3,3 foizni tashkil etar edi. Holbuki, iqtisodiy salohiyat jihatidan O‘zbekiston Ittifoqda mavjud 15 respublika ichida to‘rtinchi o‘rinda turar edi (Rossiya, Ukraina va Belorussiyadan keyin). Achinarli jihati shundaki, paxta tolasini eksport qilish natijasida olingan valyuta tushumlari to‘liq Moskvada, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankida qolar edi. Budjet siyosati sohasidagi vaziyatimiz ham ayanchli edi. 1991-yilda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining kamomadi uning umumiy xarajatlariga nisbatan 44 foizni tashkil qilar edi. Bu yesa, nihoyatda salbiy ko‘rsatkich bo‘lib, xalqaro amaliyotda bu ko‘rsatkichning me‘yoriy darajasi 8 foizni tashkil qiladi. 1993-1996-yillarda mamlakatda baholarning yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatildiki, buning natijasida mamlakat korxonalari faoliyatiga va aholining turmush darajasiga nisbatan salbiy ta‘sir yuzaga keldi. 1992-yilda chakana baholar 9,1-martaga, 1993-yilda 8,8-martaga oshdi. 1993-yilning ikkinchi yarmida ulgurji baholarning o‘rtacha oylik o‘shish sur‘ati 131,4 foizni tashkil etdi. 1994-yilda inflyatsiya darajasi o‘z cho‘qqisiga chiqdi va uning yillik darajasi 1282 foizni tashkil etdi. Bu haqiqiy giperinflyatsiya etdi. Bizga ma‘lumki, inflyatsiyaning yillik darajasi 1000 foizni tashkil qilsa va undan oshsa, bu giperinflyatsiya hisoblanadi. Giperinflyatsiya esa, inflyatsiyaning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Inflyatsiya darajasi juda yuqori bo‘lganligi sababli, tovar ishlab chiqaruvchilarning real daromadlari miqdorining kamayishi yuz berdi. Natijada soliqqa tortish bazasining qisqarishi yuz berdi. Buning oqibatida davlat qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasini yuqori darajada, ya‘ni 25 % darajasida saqlab turishga majbur bo‘ldi. Bu esa, tovarlar baholarini yanada oshishiga xizmat qildi. O‘zbekiston Respublikasi valyuta tizimi yaxlit tizim sifatida shakllangan va u quyidagi elementlardan tashkil topgan.

1. Milliy valyuta-so‘m.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-iyundagi PF-870-sonli “O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, so‘m 1994-yilning 1-iyulidan boshlab muomalaga kiritildi. Amaldagi valyuta-so‘m-kupon so‘mga 1000ga 1 nisbatda almashtirildi. Muomaladagi pul belgilarining barchasi banknotalar bo‘lib. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankingning aktivlari bilan ta‘minlangan. Respublikamizda

xazina biletlari mavjud emas. Chunki, Moliya vazirligi pul emissiya qilish huquqiga ega emas.

2. Milliy valyuta - so‘m, almashinish shartiga ko‘ra, to‘liq almashinadigan valyuta hisoblanadi. 2003-yilning 8-oktabrida boshlab, O‘zbekiston Respublikasi hukumati Xalqaro valyuta fondi Kelishuv moddalarining VIII-moddasi bo‘yicha majburiyatlarni qabul qilgan. Shunga muvofiq, 2003-yilning 15-oktabridan boshlab, joriy valyuta operatsiyalari bo‘yicha valyutaviy cheklashlar bekor qilingan.

3. Milliy valyuta - so‘m boshqariladigan suzish rejimiga yega edi. Ammo, O‘zbekistonni 2018-yildan boshlab inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tishi munosabati bilan milliy valyutaning erkin suzish rejimi joriy etildi. 2017-yilda valyuta siyosatini liberallashtirilishi munosabi bilan milliy valyutaning nominal almashuv kursi keskin pasaydi, ya’ni qariyb ikki barobarga milliy valyuta qadrsizlandi.

4. Milliy valyutaning pariteti. So‘mning pariteti uning xarid qobiliyatini AQSH dollarining xarid qobiliyati bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Chunki, so‘mning nominal almashuv kursi AQSH dollariga nisbatan aniqlanadi. Bunda so‘m to‘g‘ri kotirovkaga ega.

5. Mamlakatning xalqaro miqyosda valyutaviy to‘lovga qobilligi.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro miqyosda valyutaviy to‘lovga qobil hisoblanadi.

6. Mamlakatda valyutaviy cheklashlarning mavjudligi yoki yo‘qligi. O‘zbekiston Respublikasida to‘lov balansining joriy operatsiyalar bo‘limi bo‘yicha valyutaviy cheklovlar bekor qilingan, ammo kapitallar va kreditlarning harakat balansi bo‘yicha valyutaviy cheklovlar mavjud.

7. Milliy valyuta bozori va oltin bozorining rejimi.

O‘zbekiston Respublikasi valyuta bozori Respublika valyuta birjasi va birjadan tashqari valyuta bozoridan iborat. 1994-yilning 15-aprelidan boshlab, O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasida doimiy savdolarini o‘tkazish va uning natijasi bo‘yicha so‘m-kuponning, keyinchalik so‘mning chet el valyutalariga nisbatan qiymatini e‘lon qilish joriy qilindi. Valyuta birjasidagi savdolar haftasiga ikki marotaba, 1997-yil aprel oyidan boshlab esa, har kuni o‘tkazila

boshlandi. Respublikamizda oltin savdosiga nisbatan davlat monopoliyasi mavjud bo'lganligi sababli oltin bozori yo'q.

8. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini belgilash

O'zbekiston Respublikasida xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Respublika hududida esa, barcha hisob-kitoblar va to'lovlar milliy valyutada amalga oshiriladi.

9. Mamlakatda xalqaro valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi davlat organlari.

O'zbekiston Respublikasida Markaziy bank valyutani tartibga soluvchi organ hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Davlat Bojxona qo'mitasi esa, valyutani nazorat qiluvchi organlardir.

Tayanch iboralar:

Jahon valyuta tizimi — turli mamlakatlar o'rtasidagi valyuta-kredit munosabatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi tizim.

Oltin standart — pulning asosiy shakli oltin hisoblangan o'zaro aloqalar amaliyoti.

Erkin konvertatsiyalanadigan valyuta — har qanday xorijiy valyutaga erkin va cheklanmagan miqdorda ayirboshlanadigan valyuta. Qisman konvertatsiyalanadigan valyuta — xorijiy valyutalarning ma'lum bir qismigagina ayirboshlanadigan, xorijiy valyutani sotib olishda va sotishda cheklashlar mavjud bo'lgan valyuta.

Konvertatsiyalanmaydigan valyuta — xorijiy valyutalarga ayirboshlanmaydigan va ichki to'lov aylanmasiga xizmat qiladigan valyuta.

SDR — Xalqaro valyuta fondining shartli maxsus pul birligi. **Kotirovkalash** — valyuta kursini o'rnatish. **To'g'ri kotirovkalash** — xorijiy valyuta birligiga to'g'ri keladigan milliy valyuta miqdorini o'rnatish. **Teskari kotirovkalash** — milliy valyuta birligiga to'g'ri keladigan xorijiy valyuta miqdorini o'rnatish. **Devalvatsiya** — milliy valyuta kursining kamaytirilishiga qaratilgan tadbir. **Revalvatsiya** — milliy valyuta kursini oshirishga qaratilgan tadbir.

Nominal valyuta kursi — bir birlik milliy valyutaga to‘g‘ri keladigan xorijiy valyutaning qiymati.

Real valyuta kursi — milliy tovar birligiga hamda xizmatlarga to‘g‘ri keladigan xorijiy tovar va xizmatlar qiymati.

Valyuta operatsiyalari — xorijiy valyutaning oldi-sotdisi bo‘yicha operatsiyalar.

Qattiq valyuta— iqtisodiy va siyosiy jihatdan barqaror hisoblangan mamlakatlarning almashuv kursi barqaror bo‘lgan valyutalari.

Yumshoq valyuta— xalqaro miqyosda to‘lov vositasi vazifasini bajara olmaydigan, ya‘ni tashqi konvertirlikka ega bo‘lmagan valyutalar.

Xalqaro rezerv valyutalar— dunyoning barcha mamlakatlarida xalqaro to‘lov vositasi sifatida qabul qilinadigan yetakchi valyutalar.

Valyuta kursi— bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan bahosidir.

Valyuta birjasi - xorijiy valyutalar oldi-sotdi qilinadigan birja bozori.

Valyuta intervensiyasi - Markaziy bank tomonidan milliy valyutaning favqulodda yuzaga keladigan keskin tebranishlariga barham berish maqsadida xorijiy valyutani sotib olinishi yoki sotilishi. Odatda, bitta xorijiy valyuta intervensiya vositasi hisoblanadi. O‘zbekistonda AQSH dollari valyuta intervensiyasi vositasi hisoblanadi.

Valyuta zaxirasi - biror-bir mamlakatning xorijiy valyutalardagi mablag‘lari.

Valyuta siyosati - valyuta munosabatlarini tashkil qilish va tartibga solish tadbirlarining yig‘indisi.

Denominatsiya – yangi pul birligini ma‘lum nisbatda eski pul birligiga almashtirilishi. O‘zbekistonda milliy valyuta 1994-yilning 1-iyulidan boshlab muomalaga kiritilganda yangi valyuta so‘m eski valyuta-so‘m – kuponga 1ga 1000 nisbatda almashtirilgan edi.

Deflyatsiya— tovarlar va xizmatlar bahosining pasayishi.

Diskont siyosati— mamlakat to‘lov balansi va valyuta kursiga ta‘sir etish maqsadida Markaziy bankning diskont stavkasini o‘zgartirish siyosati.

Yevro dollarlar - AQSH dollarining AQSHdan tashqarida muomalada bo‘lgan qismi.

Nazorat savollari

1. Jahon valyuta tizimi shakillanishining asosiy shart-sharoitlarini ayting.
2. Oltin standartga asoslangan milliy valyuta tizimi xususiyatlari nimadan iborat?
3. Bretton-Vuds valyuta tizimining xususiyatlari nimadan iborat?
4. Hozirgi zamon jahon valyuta tizimining xususiyatlari qanday?
5. Jahon valyuta tizimining qaysi belgilarini ajratish mumkin?
6. Qaysi valyutalar zaxira valyuta sifatida qo'llaniladi?
7. Valyutaning konvertatsiyalanishi nima va u qanday ko'rinishlarda mavjud bo'ladi?
8. Valyuta kursi va kotirovka deganda nimalar tushuniladi?
9. Valyuta devalvatsiyasi nima va u valyutaning oddiy qardrsizlanishidan qanday farqlanadi?
10. Valyuta bozori deganda nima tushuniladi va u qanday funksiyalarni bajaradi?
11. Muddatli valyuta operatsiyalariga nimalar kiradi?
12. Spot operatsiyasi qay tartibda amalga oshiriladi?
13. Spot kurs qanday aniqlanadi?
14. Forvard operatsiyasi qay tartibda amalga oshiriladi?
15. Forvard kursi qanday aniqlanadi?
16. Svop operatsiyasining mazmuni nimadan iborat?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.- 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.48
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.
5. International Economics theory & policy eleventh edition global edition Paul R. Krugman Princeton University Maurice Obstfeld University of California, Berkeley Marc J. Melitz Harvard University.
6. International Economics: Theory and Policy, Pearson a Text, Global Edition. Paul R. Krugman, The Graduate Center, City University of New York, Princeton University, University of California, Berkeley. Maurice Obstfeld, University of California, Berkeley. Marc Melitz, Harvard University. ©2018
7. International Economics: Theory and Policy, 10th Edition Paul R. Krugman, The Graduate Center, City University of New York, Princeton University, University of California, Berkeley Maurice Obstfeld, University of California, Berkeley Marc Melitz, Harvard University ©2015
8. UNCTAD /DITE. International Investment Instruments: a Compendium. Vol.1- IX .UN , New York and Geneva, 2020
9. Bilateral Investment Treaties 2019-2020. UN, New York and Geneva, 2020.
10. International Financial Statistics Yearbook/IM F. Wash. 2018-2020.
11. Balance of Payments Statistics Yearbook. Parts 1&2. Washington, 2020.
12. Schumpeter J. Essay on Economic Topics N.Y. 2020.
13. IMF, World Economic Outlook, 2019.
14. R&D Magazin. 2019 Global R&D Funding Forecast

15. World Investment Report 2019. UNCTAD. New York and Geneva, 2019.
16. World Investment Report. 2019: Trend and Determinants. UNCTAD . New York and Geneva, 2019.
17. World Investment Report 2020: Transnational Corporations, Extractive Industries and Development. UNCTAD. New York and Geneva, 2020.
18. World Investment Report 2009: Transnational Corporations, Agricultural Production and Development. UNCTAD. New York and Geneva, 2020.
19. World Investment Report 2020: Investing in a Low-carbon Economy. UNCTAD,-New York and Geneva, 2020.
20. UNCTAD HANDBOOK OF STATISTICS 2020.
21. World Economic Outlook: Rebalancing Growth. April 2020.
22. External Statistics: Guide for Compilers and Users (The Guide). IMF. 2018.
23. Migration and Remittances Factbook 2020. Second edition. The World Bank Washington, 2019.
24. РосБизнесКонсалтинг. Economics & Markets. WEEKLY . 24 ноября 2018.
25. The Global Competitiveness Report 2019-2020 World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2019.
26. Global Employment Trends 2019: The challenge of a jobs recovery / International Labour Office. - Geneva: ILO , 2019
27. World Economic Outlook: September 2019. IMF
28. World Economic Outlook: Slowing Growth, Rising Risks. September 2019 IMF.
29. World Economic Outlook: October 2020. IMF, 2020.
30. World Development Report 2020 World Bank.
31. World Development Report 2020. World Bank.
32. World development report 2020. Conflict, Security, and Development. The World Bank. Washington.
33. Trade Profiles 2019. WTO. Geneva, 2019.
34. Economic Report of the President Washington. 2020.
35. ECB Convergence Report. May 2020.
36. United Nations. 2019. Report of the World Food Conference, Rome 5-16 November, 2018 New York.

37. Barroso, J. M . D. Counting the Cost of Counterfeits: Fakes Cost More: Speech at die Global Anti-Counterfeit Summit, Brussels, 10 M arch 2019.

38. FAO . 2020. The State of Food Insecurity in the World 2020. Rome.

39. Measurements: A Technical Review. New York and Rome: UNICEF and IFAD.

40. Migration and Remittances Factbook 2019. Second edition. The World Bank - Washington, 2020.

41. Migration and Development Brief 19 November 8,2020.

MUNDARIJIA

| | |
|---|-----------|
| Muqaddima | 3 |
| Kirish | 5 |
| I-bob. Zamonaviy jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiyot yagona tizim sifatida. | |
| 1.1. Xalqaro iqtisodiyot fanining predmeti, mazmuni va rivojlanish xususiyatlari..... | 5 |
| 1.2. Jahon bozori tuzilmasi va xalqaro iqtisodiyot shakllanishining asosiy tamoyillari. | 8 |
| 1.3. Jahon mamlakatlarining xalqaro iqtisodiyotdagi mavqeyi va ishtirokining asosiy ko‘rsatkichlari..... | 11 |
| 1.4. Xalqaro mehnat taqsimoti tushunchasi, rivojlanish ko‘rsatkichlari va XMTning zamonaviy G‘arb nazariyasi.... | 18 |
| II-bob. Xalqaro savdoning klassik nazariyalari. | |
| 2.1. Merkantilizm iqtisodiy ta’limoti va uning xalqaro savdo nazariyalarining shakllanishidagi ahamiyati..... | 29 |
| 2.2. Erkin savdo nazariyalari. Lessefer tushunchasi va raqobat erkinligi. | 30 |
| 2.3. Mutloq ustunlik modeli..... | 33 |
| 2.4. Nisbiy afzallik nazariyasi: muqobil xarajatlar va bir omillik iqtisodiyot modelining tahliliy jixatlari..... | 35 |
| III-bob. Xeksher-Olin modeli, mahsus ishlab chiqarish omillari nazariyasi va xalqaro savdoning daromadlar taqsimotiga ta’siri. | |
| 3.1. Xalqaro savdoning standart modeli, asosiy shartlari va o‘sib boruvchi muqobil xarajatlar tavsifi..... | 44 |
| 3.2. Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi: Xeksher-Olin teoremasi..... | 45 |
| 3.3. Maxsus ishlab chiqarish omillari nazariyasi..... | 56 |
| 3.4. Tashqi savdoning ishlab chiqarish xajmi va daromadlar taqsimotiga ta’siri. | 63 |
| IV-bob. Ishlab chiqarish hajmi hisobiga tejash, takomillashmagan raqobat, iqtisodiy o‘sish va xalqaro savdo. | |
| 4.1. Ishlab chiqarish xajmi hisobiga tejash va miqyos samarasi nazariyasi. | 70 |

| | |
|--|-----|
| 4.2. Kesishuvchan talab, uning mazmuni va xalqaro savdoning dinamik modeli nazariyasi..... | 71 |
| 4.3. Monopolistik raqobat, uning shakillanish xususiyatlari va xalqaro savdodagi ahamiyati..... | 75 |
| 4.4. Texnologik taraqqiyot va xalqaro savdoning o‘zaro bog‘liqligi hamda iqtisodiy o‘shish qonuniyatlari..... | 82 |
| V-bob. Xalqaro savdoning zamonaviy nazariyalari. | |
| 5.1. Xalqaro savdo nazariyalarining zamonaviy xususiyatlari. | 86 |
| 5.2. Firmaning tashqi savdodagi samarasi va Mark Melits modeli. | 88 |
| 5.3. Outsorsing va insorsing tushunchalari hamda to‘liq bo‘lmagan kontraktlar nazariyasi. | 89 |
| 5.4. Xalqaro savdoning gravitatsion modeli va uning tadbqiq qilish xususiyatlari. | 96 |
| VI-bob. Xalqaro savdoning tarkibi, rivojlanish bosqichlari va mamlakatlar iqtisodiyotiga tasiri. | |
| 6.1. Xalqaro savdoning rivojlanish bosqichlari va zamonaviy xususiyatlari. | 110 |
| 6.2. Jahon savdosining tarkibi va uning o‘zgarish tendensiyalari. | 114 |
| 6.3. Koronainqirozning xalqaro savdo va jahon bozori kon’yukturasi ta’siri. | 118 |
| 6.4. O‘zbekiston tashqi savdosining tarkibi va rivojlanish xususiyatlari. | 124 |
| VII-bob. Tashqi savdoni tartibga solishning tarif metodlari. | |
| 7.1. Tashqi savdoni tartibga solish zaruriyati va tashqi savdo siyosati. | 134 |
| 7.2. Bojxona tarifining turlari, guruhlanishi va xisoblash usullari. | 137 |
| 7.3. Tarif stavkalarining katta va kichik mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’siri hamda ularni qo‘llashning jahon tajribalari. | 141 |
| 7.4. Tarif siyosatining afzalliklari, kamchiliklari va zamonaviy tendensiyalari. | 149 |

VIII-bob. Tashqi savdo siyosatida miqdoriy cheklash usullari.

| | |
|---|-----|
| 8.1. Notarif metodlarining mazmuni va guruhlanishi..... | 155 |
| 8.2. Kvotalash, litsenziyalash va eksportni ixtiyoriy cheklash usullarining iqtisodiy mohiyati hamda qo‘llanilish tartiblari..... | 157 |
| 8.3. Eksport va import kvotalarining iqtisodiy oqibatlari..... | 161 |
| 8.4. Embargo, iqtisodiy sanksiyalar va ularning xalqaro savdoga ta’siri..... | 166 |

IX-bob. Tashqi savdo siyosatining moliyaviy usullari.

| | |
|---|-----|
| 9.1. Tashqi savdo subsidiyasining zaruriyati va kompensatsion bojlar bilan o‘zaro muvozanati..... | 171 |
| 9.2. Eksport subsidiyasining afzalliklari, kamchiliklari va mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’siri..... | 173 |
| 9.3. Eksport kreditlarining mohiyati, zaruriyati va tartibga solish mexanizmlari. | 177 |
| 9.4. Demping siyosatining kelib chiqish sabablari, turlari va bartaraf etish choralari. | 178 |

X-bob. Tashqi savdo siyosatining yashirin va noiqtisodiy usullari.

| | |
|---|-----|
| 10.1. Tashqi savdo siyosatining yashirin usullari va ularni qo‘llash mexanizmlari. | 184 |
| 10.2. Ichki soliqlar va yig‘imlar hamda davlat xaridi doirasidagi siyosat. | 187 |
| 10.3. Texnik to‘siqlar va maxalliy komponentlarni ushlab turish talabining qo‘llanilish zaruriyati hamda mamlakatlar tashqi savdosiga ta’siri. | 189 |
| 10.4. Tashqi savdo siyosatining noiqtisodiy usullari, ularning mazmuni va tashqi savdodagi ahamiyati..... | 192 |

XI-bob. Xalqaro iqtisodiy integratsiya.

| | |
|---|-----|
| 11.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning kelib chiqish sabablari, zaruriyati, mazmuni va rivojlanish xususiyatlari... | 197 |
| 11.2. G‘arbiy Yevropa va Amerika qit’asida integratsion jarayonlarining rivojlanish tendensiyalari..... | 205 |
| 11.3. Osiyo-Tinch Okeani va Afrika mintaqalarida integratsion jarayonlarning rivojlanish xususiyatlari..... | 214 |
| 11.4. O‘zbekiston va xalqaro integratsion guruhlar iqtisodiy | |

| | |
|--|-----|
| munosabatlarini faollashtirish masalalari..... | 218 |
| XII-bob. Jahon xomashyo va tayyor mahsulotlar bozori. | |
| 12.1. Jahon bozori konyukturasi va unga ta'sir etuvchi omillar..... | 229 |
| 12.2. Jahon xomashyo bozorlarining tarkibi, guruhlanishi va xalqaro savdodagi o'rni. | 233 |
| 12.3. Jahon tayyor mahsulotlar bozori va qayta ishlash sanoatining rivojlanish xususiyatlari..... | 239 |
| 12.4. O'zbekiston oziq-ovqat sanoati va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xalqaro savdosini jadallashtirish muammolari..... | 252 |
| XIII-bob. Xalqaro xizmatlar va texnologiyalar savdosi. | |
| 13.1. Xalqaro xizmatlarning mohiyati, turlari, guruhlanishi va rivojlanish tamoyillari. | 260 |
| 13.2. Jahon xizmatlar savdosining tarkibi, tartibga solish usullari va zamonaviy tendensiyalari..... | 268 |
| 13.3. Texnik taraqqiyotning xalqaro savdoga ta'siri va texnologiyalarni xalqaro uzatish shakllari..... | 281 |
| 13.4. Xalqaro texnologiyalar savdosini tartibga solish usullari va yo'llari..... | 285 |
| XIV-bob. Xalqaro kapital migratsiyasi. | |
| 14.1. Xalqaro kapital migratsiyasining sabablari, omillari va rivojlanish xususiyatlari..... | 293 |
| 14.2. Investitsion startap loyihalarining mazmuni, tasnifi va ahamiyati..... | 303 |
| 14.3. Xalqaro kapital ishtirokida startap loyihalarni amalga oshirish xususiyatlari, afzalliklari va bugungi holati tahlili... | 311 |
| 14.4. Pandemiya sharoitida investitsion startap loyihalarni moliyalashtirishning ahamiyati va uni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar samaradorligi..... | 314 |
| XV-bob. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi. | |
| 15.1. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining mohiyati, sabablari va turlari..... | 319 |
| 15.2. Immigratsiya, emigratsiya, migratsion qoldiq, reemigratsiya va aqlning oqib o'tishi..... | 323 |
| 15.3. Ishchi kuchi migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Migratsiyaning rivojlangan va rivojlanayotgan | |

| | |
|---|------------|
| mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri..... | 328 |
| 15.4. Ishchi kuchi migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solish usullari..... | 334 |
| XVI-bob. Xalqaro valyuta munosabatlari. | |
| 16.1. Valyuta munosabatlari tushunchasi va jahon valyuta tizimi..... | 338 |
| 16.2. Valyuta operatsiyalari va ularning asosiy turlari..... | 349 |
| 16.3. Erkin konvertatsiyalanadigan valyutalar tavsifi va valyuta kurslari rejimlari..... | 357 |
| 16.4. O'zbekiston valyuta munosabatlarini muvofiqlashtirishning asosiy yo'nalishlari..... | 362 |
| Foydalanilgan adabiyotlar | 368 |

Q.A.ISAYEV

XALQARO IQTISODIYOT

Darslik

Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021

| | |
|------------------------------|----------------|
| Muharrir: | S.Abdunabiyeva |
| Tex. muharrir: | M.Tursunov |
| Musavvir: | A.Shushunov |
| Musahhih: | L.Ibragimov |
| Kompyuterda sahifalovchi: | M.Zoyirova |

E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2021.

Bosishga ruxsat etildi 04.08.2021.

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasida.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 24,0. Nashriyot bosma tabog'i 23,5.

Tiraji: 50. Buyurtma № 254

«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»
bosmaxonasida chop etildi.

100174, Toshkent sh, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 7-uy.



ISBN 978-9943-7627-9-4



9 789943 762794